

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

B. X. XODJAYEV
Z. T. SALIYEVA
N. B. MATKARIMOVA



PEDAGOGIKANING PRAGMATIK ASPEKTLARI

70110101- Pedagogika nazariyasi va tarixi
ixtisosligi bo'yicha magistrantlar uchun

DARSLIK

323(571.1)(092)(093.3)
66.4r(5ʻ)
X 26

X26 B.X.Xodjayev, Z.T.Saliyeva, N.B.Matkarimova. Pedagogikaning pragmatik aspektlari [Matn]: maqolalar – Toshkent: «IJOD Nashr» nashriyoti. 2023 – 408 b.

ISBN 978-9943-9438-2-7

**O'QUV ADABIYOTINING
NASHR RUXSATNOMASI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil "27" Mart dagi "68"-sonli buyrug'iga asosan

B.X.XODJAYEV, Z.T.SALIYEVA, N.B.MATKARIMOVA
(mullajang familiyasi, ismi-sharifi)

Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha)
(ta'lim yo'nalishi (muhassisligi))

ning

talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Pedagogikaning pragmatik aspektlari
(o'quv asabiyotining nomi va turi: ilmiylik, o'quv qo'llanma)

ga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

Vazir  I. Abduraxmonov

№ 68 - 253

© Pedagogikaning pragmatik aspektlari, 2023
© «IJOD NASHR» 2023

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari doktori, professor M. E. Xaydarov

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent M. Q. Bozorova

Mazkur darslik 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan magistrantlar uchun mo'ljallangan bo'lib, fanning o'quv dasturi asosida yaratilgan. Darslikda magistrantlarni pedagogikaning pragmatik aspektlarini chuqur o'zlashtirishlariga erishish va ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash to'g'risida ma'lumotlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, darslikda ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida magistrantlarni pedagogikaning pragmatik aspektlariga doir dolzarb masalalarni aniqlash, tahlil etish va ulardan amaliyotda foydalanishga o'rgatishda asos bo'luvchi ilmiy ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.

Рецензенты:
Доктор педагогических наук, профессор
М. Э. Хайдаров
Кандидат педагогических наук, доцент
М. К. Бозорова

Этот учебник создан на основе научной программы, зарегистрированной под номером MD-5A1109001 (2.05.2020 г). Рекомендовано к опубликованию с протоколом 25-го заседания от 16 июня 2022 года Координационного совета по деятельности учебно-методических объединений по направлениям высшего и среднего специального, профессионального образования.

Учебник предназначен для магистрантов, обучающихся в педагогических вузах по специальности 70110101 - Педагогическая теория и история, и составлен на основе государственных стандартов высшего образования Республики Узбекистан. Включает темы, аналогичные разделам «Педагогические концептуальные основы», «Методика научного исследования», которые указаны в учебном плане предмета специальности «Педагогическая диагностика и педагогическая коррекция».

Reviewers:

Doctor of pedagogical sciences, professor M. E. Xaydarov

Candidate of pedagogical sciences, associate

professor M. Q. Bozorova

This textbook is based on a scientific program registered under the number MD-5A1109001. Recommended for publication with the minutes of the 25th meeting of June 16, 2022 of the Coordinating Council for the activities of educational and methodological associations in the areas of higher and secondary specialized, vocational education.

The textbook is intended for undergraduates studying in pedagogical universities in the specialty 70110101 - Pedagogical theory and history, and is compiled on the basis of state standards of higher education of the Republic of Uzbekistan. Includes topics similar to the sections "Pedagogical conceptual foundations", "Methods of scientific research", which are indicated in the curriculum of the subject of the specialty "Pedagogical diagnostics and pedagogical correction".

SO'Z — BOSHI

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda universitetlarning ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilinmoqda va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda.

2019-yilning oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga: intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan,

ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni esa mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqloq g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi.

Barchamizga ma'lumki, pedagogika – shaxsni shakllantirish orqali ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Bunda asosiy maqsad va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishining hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika nazariyasi va tarixi magistratura mutaxassisligini tamomlagan magistrantlar professional ta'lim, oliy ta'lim muassasalari, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida pedagogik fanlardan dars beradilar. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogikaning konseptual asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirishda mazkur fan alohida ahamiyatga ega.

Ushbu dastur zamonaviy pedagogikaning asosiy yetakchi tendensiyalari, pedagogik masalalar hamda ularning tadqiq etilishi, pedagogik konsepsiyalar hamda pedagogika fani rivojining ustuvor yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab olgan.

Pedagogikaning pragmatik aspektlari pedagogik fanlarning asosini tashkil etib, bo'lajak mutaxassislarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Pedagogikaning pragmatik aspektlariga doir bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish magistr'larga kelajakdagi ilmiy-pedagogik faoliyatlarini yo'lga qo'yishda muhim o'rin tutadi

Mazkur darslik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining pedagogikaning pragmatik aspektlarini chuqur o'zlashtirishlariga erishish va ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida ta'lim jarayoni ishtirokchilarini pedagogikaning pragmatik aspektlariga doir dolzarb masalalarni aniqlash, tahlil etish va ulardan amaliyotda foydalanishga o'rgatadi.

Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarni pedagogikaning pragmatik aspektlarini chuqur o'zlashtirishlariga erishish va ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash.

Fanning vazifasi – kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash jarayonida magistrantlarni pedagogikaning kontseptual aspektlariga doir dolzarb masalalarni aniqlash, tahlil etish va ulardan amaliyotda foydalanishga o'rgatishdan iborat.

“Pedagogikaning pragmatik aspektlari” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

– pedagogikaning qonun va qonuniyatlari; pedagogik faoliyat bilan bog'liq muammolar; o'quv materiallarini tanlab olish tamoyillari va mezonlari; interfaol ta'limning o'ziga xosliklari; pedagogik konsepsiyalar; shaxs ijtimoiylashuvining pedagogik omillari haqida bilimga ega bo'lishi;

► yaxlit pedagogik jarayon qonun va qonuniyatlarini qo'llash; pedagogik faoliyat bilan bog'liq muammolarning obyektiv va subyektiv omillarini aniqlash; o'quv materiallarini tizimlashtirish; interfaol ta'limni tashkil etish; ta'lim va tarbiyaga doir zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish; shaxsning madaniy-intellektual rivojlanti-

rishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

► pedagogik muammolarni aniqlash; pedagogik muammolarni tahlil etish; pedagogik muammolarni hal etish yo'llarini izlab topish; pedagogikaga doir yangiliklarni o'zlashtirish; pedagogikaga doir yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish malakalariga ega bo'lishi lozim.

Ushbu darslikdan o'qituvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishi mumkin.

1-§. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI MODERNIZATSIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI



Tayanch tushunchalar: ta'lim, bilim, ko'nikma, tarbiya, uzluksiz ta'lim, konsepsiya, modernizatsiya, tizim, tendensiya, metodika, pedagogik shart-sharoit.

Ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashning asosiy maqsad va vazifalari.

Ma'lumki dunyodagi mavjud barcha jamiyatning kelajagi, taraqqiyoti ta'lim tizimining qay darajada taraqqiy etgani bilan belgilanadi. Shu boisdan ham, hozirda mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan davlatimizning uzluksiz ta'limni isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ham sir emas. Ta'lim-tarbiya jarayoni murakkab jarayon hisoblanadi. Uning murakkabligi shundaki, modernizatsiya sharoitida ta'limning samaradorligiga erishishdir, samaradorlikka erishish esa ko'plab omillar, xususiyat va tendensiyalar bo'lishini talab etadi. Birinchi navbatda, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchida motiv shakllanganligi, ularning orasida o'zaro munosabat faollik nuqtayi nazaridan bog'langanligi, ta'lim oluvchi yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojini qondirishga harakatda bo'lishi, ta'lim beruvchi esa darsni tashkil etishda uning mukammalligiga, to'g'ri tashkil etilishiga, metodika esa talabga javob beradigan darajada tuzilganligi kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim.

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlari uzluksiz ta'lim tizimiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida, zamonaviy ta'lim muhitining muhim tavsifi hamda shaxs imkoniyatlari muvaf-

faqiyatli amalga oshirilishining sharti sifatida ta'lim paradigmalarni takomillashtirish, uning tarkibiy qismlari funksional va konseptual muammolari yechimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi ijtimoiy sohalarda hamda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash sharoitida muhim ijtimoiy institutlardan biri sifatida ta'limiy, tarbiyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy funksiyalarni bajararmoqda. Ularning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash uchun o'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash, kasbiy yetuklik va yuksak ma'naviyatni shakllantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'quvchi shaxsini uzviy rivojlantirish muammolari:

– uzluksiz ta'lim tizimida shakllantirilayotgan bilim va ko'nikmalar hamda jamiyatning ijtimoiy, fan va texnologiyalar taraqqiyoti darajasiga qo'yadigan talablari o'rtasidagi nomutanosiblik;

– ta'lim jarayonida o'quvchilar egallaydigan bilim va ko'nikmalar hamda mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatish uchun talab etiladigan kasbiy ko'nikma va malakalar tarkibi o'rtasidagi nomuvofiqlik;

– o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi ta'lim va tarbiya maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarini o'zida mujassamlashtiruvchi pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligi, uzviyligi ta'minlanmaganligi;

– o'quvchilarda o'sib borayotgan axborotlar hajmi bilan ishlash, mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish asosida ular faoliyatini intensivlashtirishning dasturiy va metodik ta'minoti ishlab chiqilmaganligi.

Uzluksiz ta'lim tizimida har tomonlama yetuk, ijodkor shaxsni tarbiyalash, o'quvchini uzluksiz rivojlantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik tizimning tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligini ta'minlash hamda ularni amalga oshirishning didaktik shart-sha-

roitlarini aniqlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF – 5313-son farmoni imzolandi. Mazkur farmonga ko'ra mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlari-ga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratish masalasi ilgari surildi.

Bunda iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib ehtiyoj yuqori bo'lgan va turdosh mutaxassisliklar bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilgan holda ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan va kamida ikkita xorijiy tilni biladigan malakali kadrlarni tayyorlash hamda kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni, ish beruvchi korxonalarining takliflarini hisobga olgan holda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun zarur mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha kasb-hunar kollejlari faoliyatini muvofiqlashtirish, yoshlarni har tomonlama barkamol qilib, vatanparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashga, shuningdek, o'quvchilarda boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni yangi pedagogik shakllar va usullar asosida tashkil etishga alohida ahamiyat qaratilishi muhim ekanligi belgilandi.

Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishda yetakchi mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalari bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun kasb-hunar ta'limi sohasiga yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish, kasb-hunar ta'limi milliy standartlari talablarini xalqaro ta'lim standartlari tasniflagichiga, xalqaro malaka talablariga muvofiqlashtirish, milliy

malaka talablarini bosqichma-bosqich xalqaro analoglarga moslashtirish va e'tirof etilishiga qaratilgan ishlarni tashkil etish ko'zda tutilgan. Bunda kasbga o'rgatish bilan bir qatorda tarkibiy jihatdan umumiy ta'lim olishni birgalikda olib boradigan, shuningdek, nodavlat ta'lim sektori-ni uzluksiz davlat ta'lim tizimi bilan samarali integratsiyalash, tabaqalashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha orttirilgan amaliy tajribani tizimlashtirish va kelgusida amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlandi.

Mazkur islohotlar davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 2020-yil 23-sentabrda yangi tahriri tasdiqlandi.

Bunda mazkur qonunga muvofiq ta'lim turlari sifatida quyidagilar begilandi:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini

oshirish;

- maktabdan tashqari ta'lim.

Shu bilan birga Qonun bilan qator o'zgatirishlar ham amalga oshirildi. Bunda o'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda 9 yillik tayanch o'rta ta'lim asosida 2 yil mobaynida amalga oshirilishi, professional ta'lim boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratilishi, boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida 9-sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta'lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshirilishi, o'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshirililishi hamda o'rta maxsus

professional ta'lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshirilishi belgilandi.

Ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlashning bosh g'oyasi – o'quvchi shaxsining ta'lim subyekti sifatida izchil rivojlanib borishi bilan bog'liq. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida shaxsning rivojlanishi uzluksiz jarayon sifatida qaralib, unda faqat o'quv jarayoni ni bilish emas, balki o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy talqin qilishni nazarda tutuvchi, rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari bilan uyg'unlashgan. Bu esa axborot berishga asoslangan o'qitishdan shaxsga yo'naltirilgan ta'limga, xotiraga asoslangan o'qitishdan faol o'zlashtirishga asoslangan o'qitishga o'tilishini belgilab berdi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini ishlab chiqishda milliy ta'lim modeli ilmiy yondashuvining o'ziga xos xususiyati shundaki, uzluksiz ta'lim tizimi yaxlitlik, uzviylik va uzluksizlikda, ya'ni bir butun tizim shaklida qaraladi. Uzviylik va uzluksizlik ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilanib, pedagogika nazariyasida uni ifodalovchi tizimlilik va izchillik ta'limning metodologik asosini tashkil qilishi bilan birga didaktik prinsip sifatida ham alohida qayd etilgan. Ta'limning uzviyligi – ta'lim mazmunining tizimlilik, izchilligi va mantiqan bog'liqligi ta'minlanishini, o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarning keyingi bosqichlarda ko'nikma va malakalarga o'tishiga asos yaratuvchi, ta'limning har bir bosqichida ma'lum darajada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlashni talab qiluvchi didaktik prinsipdir. Uzviylikning mohiyati har bir shaxsga o'ziga mos bilim olish sharoitlarini yaratib bera oladigan ta'limga bo'lgan shaxs va jamiyatning ehtiyojlarini qoniqtirish zarurati bilan belgilanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'quv, tarbiyaviy, boshqaruv hamda investitsion faoliyat Kadrlar tayyorlash milliy dasturining to'la ijrosini ta'minlashga qaratilgan. Bularning barchasi tuzilmaviy o'zga-

rishlarni davlat ta'lim muassasalari rivojlanish dinamikasi, uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlashni boshqarishning samarali tartibini joriy qilish, ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirishni talab etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash milliy dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ustuvor yo'nalishlarni belgiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz ta'lim tizimi har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Uzluksiz ta'lim deganda – o'quvchi shaxsini uzviy rivojlantirish maqsadida har bir ta'lim bosqichida pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro muvofiqligi, istiqbolga yo'naltirilganligi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha ekanligi, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy barkamol shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi, davlat ta'lim standartlariga muvofiq turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi ta'minlanishi ta'kidlanadi.

Pedagogikada ta'limning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari bilan bir qatorda ta'limning didaktik prinsiplariga ham alohida to'xtalib o'tiladi. Ularga ta'limda ilmiylik, tizimli-lik va izchillik, onglilik va faollik, bilimlarni puxta va mustahkam o'zlashtirish, o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish, ko'rgazmalilik, nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi, mustaqillik va erkin fikrlash hamda tafakkur qilish kabilar kiritiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida uzviylik va uzluksizlik fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro uzviyligi; ta'lim mazmuni uzviyligi; bilim, ko'nikma va malakalarni shakllan-

tirishdagi uzviyligi; o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi uzviylik; ta'lim metodlari hamda shakllarini qo'llashdagi uzviylik; o'quvchilar o'zlashtirishini baholashni tashkil qilishdagi uzviylikni ta'minlaydi.

Ushbu talablardan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayoni Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari hamda dasturlarni ishlab chiqishda o'zaro uzviylikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu maqsadda variativ o'quv dasturlari hamda darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim tizimi pedagoglarining hamkorligini takomillashtirish talab etiladi.

Inson bugungi kunda tayyor yechimlar bo'lmagan va berilmaydigan o'zgarib boruvchi muhitda, jamiyatda yashamoqdaki, unda har bir shaxs zarur yechimni o'zi mustaqil topishi va ushbu yechim oqibati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi talab etilmoqda. Shu sababli mustaqil fikrlovchi va qaror qabul qila oluvchi, o'zgalar fikrini tinglab, uni e'tiborga olgan holda xulosa chiqara oluvchi shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim yoshlarni tayyor o'quv materialini o'zlashtirishga emas, balki muammolar yechimini topishga o'rgatmog'i lozim.

Mamlakat iqtisodiyotining uzviy qismi bo'lgan ta'lim tizimini modernizatsiyalash, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Ta'limni standartlashtirish butun dunyoda ta'lim tizimini isloh qilishdagi eng yirik tendensiyalardan biridir. Jamiyatda sodir bo'layotgan bugungi yangiliklar hamda iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimining mazmunini mos ravishda loyihalash hamda standartlashtirishni talab qiladi. Shunga mos ravishda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga zaruriy talablarni, ularning madaniy-ma'naviy darajalarini aniqlab beruvchi Davlat ta'lim standartlarini yaratish va tatbiq etishni nazarda tutilgan.

Xalqaro talablarga javob beruvchi davlat standartlarining ishlab chiqilishi, birinchidan, respublikamiz-

da tayyorlanayotgan mutaxassislarning jahon miqyosidagi ekvivalentligini ta'minlash hamda o'z navbatida mamlakatimizning xalqaro mehnat bozorida to'siqlarsiz ishtirok etishini ta'minlashga;

Ikkinchidan, ta'lim xizmatlari sifatiga aniq talablarni belgilash natijasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda ta'lim muassasalari ishining samaradorligini nazorat qilish tizimini tartibga solishga qaratilgan. Davlatning ijtimoiy buyurtmasini o'zida aks ettiruvchi umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich joriy etildi.

Amaldagi DTS hamda o'quv dasturlari tahlili ta'lim turlari uzluksiz ravishda bir-biri bilan bog'langanligini, ushbu uzluksizlik, avvalambor, ta'lim turlarida o'qitiladigan fanlar o'quv dasturlarining bir-biri bilan o'zaro bog'lanishi talab darajasida amalga oshirilganligini ko'rsatdi. Biroq ta'lim turlari o'rtasida fanlararo uzviylikka, ya'ni mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiylikdan umumiylikka o'tishda o'quvchilarning yoshi va psixologik jihatdan o'zlashtirish imkoniyatlari yetarli darajada inobatga olinmaganligi, ta'lim dasturlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishda ta'lim turlari o'rtasida mazmun uzluksizligi va uzviyligi to'la ta'minlanmaganligi ayon bo'ldi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash omillari.

Uzluksiz ta'limning prinsipial xususiyatlari qo'llaniladigan vosita, usul va tashkiliy shakllarning turli-tumanligi va moslashuvchanligi, ta'limning fundamentallashuvi, insonparvarligi, demokratlashuvi hamda milliy yo'naltirilganligi, ta'lim jarayonlarining yo'nalish va mazmuniga ko'ra tabaqalashtirilganligi bilan belgilanadi.

Ta'lim jarayonlarini modernizatsiyalash omillari: DTS, o'quv dasturlari hamda qo'llanmalardagi yangi bilimlarni olish va yaratish uchun asos bo'lmaydigan ma'lumotlarni kamaytirish, o'quv fanlarining keyingilari uchun asos bo'lishi hamda amaliy faoliyatda o'z tatbiqiga ega bo'lishiga er-

ishish;

Ta'limning kasbiy yo'naltirilganligini ta'minlash, fundamental va tatbiqiy bilimlarning optimal munosabatlarini belgilash;

ta'lim jarayonini muayyan faktlarni emas, jarayon va hodisalar, ularning amalga oshish mexanizmlarini o'rganishga qaratish, beriladigan ma'lumotlarning o'quvchilar kundalik hayoti bilan uzviy bog'liqligiga erishish;

axborotlarni amaliy tahlil qilish ko'nikmalarini tahlil qilish, bilimlarni mustaqil egallashni ta'minlaydigan ta'lim metodlarini tanlashga e'tibor qaratish;

ta'lim mazmunining muntazam ravishda yangilalanib borish mexanizmlarini takomillashtirish va keng joriy etishdir.

Uzluksizlikning mohiyati vaqt bo'yicha individuallashtirilgan, har bir shaxsga o'ziga mos bilim olish sharoitlarini yaratib bera oladigan ta'limga bo'lgan shaxs va jamiyatning ehtiyojlarini taminlashi bilan belgilanadi. Shunday ekan, ta'lim jarayonlarini modernizatsiyalashda yuqorida qayd etilgan omillar to'la amalga oshirilsa, o'quvchilar kasbiy-texnologik bilimlarini kengaytirish hamda kasbiy ijodkorlik ko'nikmalarini tarkib toptirish asosida ularning yuqori kasbiy kompetentlik darajasiga erishiladi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir".

Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y berimoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevori yaratilmoqda. Jumladan, jamiyatda muallimning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida

ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari aniq belgilab berilmoqda.

Dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish muhim vazifalardan biridir. Xalq ta'limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o'quv dasturini ishlab chiqib, 2021/2022-o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo'yildi. Yangi metodikani samarali yo'lga qo'yish uchun barcha maktab o'qituvchilari videoaloqa orqali xorijiy mutaxassislar ishtirokida o'qitilishi belgilandi. Eng muhimi, bu jarayonlarga pedagogika yo'nalishidagi universitet va institutlar ham jalb qilinib, pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilanishiga alohida e'tibor berilmoqda.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali usullarni joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida O'zbeki-

ston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 5-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ – 4312-son qarori tasdiqlandi.

Mazkur qarorga muvofiq, Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi belgilandi. Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta‘minlovchi muhim manba bo‘lgan sifatli maktabgacha ta’limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Ta’lim sohasini isloh qilish – davr talabi. Mamlakatimizda ta’lim muassasalarini zamon talablari asosida tinimsiz takomillashtirib borish siyosati olib borilyapti. Binobarin, 2022-yil 3-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”-gi Farmoyishi imzolandi. Unga ko‘ra, xalq ta’limi tizimini yanada rivojlantirish, sohaga doir yangi tashabbuslarni ilgari surish va ularni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim va tarbiya sifatiga bevosita va bilvosita ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan masalalarni hal qilish, mas’ul vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirib borish, milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish hamda ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida optimallashtirish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish kabi istiqbolli vazifalar belgilab olindi.

Uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyalari.

Mustaqillik yillarida yetuk kadrlar tayyorlash, buning uchun ta’lim tizimini tubdan isloh qilish niyatida yaratilgan bu “mustahkam fundament” hozirning o‘zidayoq totli mevalarini bera boshladi. Kelajakda mamlakatimizning

hammaning havasini keltiradigan yuksak taraqqiyotiga muhim asos bo'lib xizmat qilishiga ishonchimiz komil.

Ta'limni modernizatsiyalash va samaradorligi haqida so'z yuritar ekanmiz, unda yana bir muhim omil – xalqaro tajribalar o'zlashtirishni nazarda tutish maqsadga muvofiq albatta. Xalqaro, chet el tajribasi ya'ni ta'limda o'z yo'nalishiga va uslubiga ega bo'lgan davlatlarning ilg'or tajribalarini olib kirish hozirda mamalakatimiz davlat siyosati oldida turgan maqsadlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, "O'zbekiston Respublikasi Xalq tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" sining tasdiqlanishi buning yaqqol isbotidir.

Ushbu konsepsiya O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida tasdiqlandi, shu bilan birga O'zbekiston respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishishiga erishish yana bir ustuvor maqsaddir, shuningdek

- uzluksiz ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonida individullashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- xalq ta'limi sohasidagi zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish kabi vazifalarni bajarish odinga maqsad qilib qo'yildi va bu borada ilk qadamlar tashlanmoqda.

Yana bir xalqaro tajribalarni joriy etish doirasida, Koreya davlatining tajribasi olib kirildi. Bu tajriba barchaga ma'lum bo'lgan kredit-modultizimidir. Ushbu kredit-modul tajribasi Koreya davlatida yaxshi samara berganligi sababdan ham, bu xalqaro va ilg'or tajriba ayrim oliy o'quv

yurtlarimizda tashkil etildi. O'quv yurtlarida ta'lim kredit-modul tizimini joriy etish, ta'limda sifatning yanada yaxshilanishiga hissa qo'shdi. Darhaqiqat bu kabi o'z sinovidan o'tgan va yaxshi samara beradigan xalqaro tajribalar bundan keyin ham o'zlashlashtirib boriladi va umid qilamizki, ta'lim tizimimizni modernizatsiya qilishda o'zining samaradorligi bilan namoyon bo'ladi.

O'tgan davr mobaynida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yagona va samarali tizimini yaratish, yosh avlodning iste'dodi va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun bunday yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ilg'or xorijiy tajribalarning talablari asosida darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni elektron shaklda nashr etish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimiz manfaatlarini professional va yuqori darajada munosib ifoda eta oladigan, talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga zarurat tug'ilmoqda. Iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash, yosh iste'dodlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash va nashr etishdagi muammolarni bartaraf qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, umumta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish va tashkil etishning maxsus tizimini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5188-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'lim muassasalari agentligi tashkil etildi. Qaror bilan Jamg'arma Vasiylik kengashi tarkibi tasdiqlanib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vasiylik kengashi raisi sifatida belgilandi. Prezident ta'lim muassasalari agentligi

huzurida “Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘arasi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Respublikamizdagi ta‘lim islohotlardagi barcha is-tiqbolli burilishlar Yangi O‘zbekistonning oltin za‘ira kadrlarini shakllantirishga zamin yaratdi desak mubola-g‘a bo‘lmaydi. Mazkur Agentlik ixtisoslashtirilgan mak-tablarda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarni liderlik, tizimli tahlil qilish, kreativ va tanqidiy fikrlash, notiqlik san‘ati, loyihalarni boshqarish ko‘nikmalariga o‘rgatish, Xalqaro (International Advanced Levels) dastur talablariga mu-vofiq o‘quvchi va pedagog kadrlarning STEAM fanlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni baholash hamda ularga xalqaro darajadagi AS va A-LEVEL sertifikatlarini berish amaliyotini yo‘lga qo‘yishda hamda Agentlik tizimidagi maktablarni A. Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaning elektron axborot-kutubxona fondiga va yetakchi xorijiy axborot-kutubxona resurslari fondlariga ulash, o‘quvchi-larga mazkur kutubxonalardan keng foydalanishga im-koniyat yaratishda, Prezident maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularga keyinchalik o‘qishini davom ettirish uchun oliy ta‘lim muassasalarini tanlash-da ko‘maklashishga qaratilgan “Maktab maslahatchisi” (School Counsellor) dasturini joriy etishda samarali nati-jalarga erishib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish cho-ra-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4199-sonli qaroriga mu-vofiq respublikamizda kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratilib, mutaxassislar sifatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbar-dosh, tanlagan ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha mustaqil ishlay oladigan, mamlakatning ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo‘shishga qodir, jadal ilgarilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoiti-ga moslasha oladigan, yuksak madaniy va ma‘naviy-axlo-qiy sifatlarga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash izchil amalga oshirilmoqda.

Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlan-

tirish, iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish xalq ta'limi sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh iste'dodlarni aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o'qitish tizimini tashkil qilish, o'sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beruvchi ko'p tarmoqli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ishlar sifatini oshirish zaruratini taqozo etmoqda. Iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yaratish, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish, shuningdek 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahrida ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasasi shaklidagi Prezident maktablari tashkil etildi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash omillari nimalardan iborat?
3. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyalari qanday?

2-§. TA'LIMYIY KONSEPSIYALARNING UMUMIY TAVSIFI, MAZMUNI VA MOHIYATI



Tayanch tushunchalar: pedagogika, didaktika, ekzistensializm, neopragmatizm, neotomizm, neopozitivizm, bixeviorizm, germenevtika, sinergetika, ta'lim, bilim, ko'nikma, tarbiya, uzluksiz ta'lim.

Pedagogika (yunoncha *paidagogike*, *paida* – “bola”, *gogos* – “yetaklayman” ya'ni “bolani yetaklayman” degan ma'noni berdi) ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (yunoncha *didaktikos* – “o'rgatuvchi”, *didasko* – “o'rganuvchi”) ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, (o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatlari) ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta'lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni berishga yo'naltiriladi. Umumiy ta'lim asosida o'zlashtirilgan ma'lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga imkon beruvchi maxsus ta'lim olishi uchun asos bo'ladi. Maxsus ta'lim – o'zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil

etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim, shuningdek, turli darajadagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishiga ko'ra maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda maktabdan-tashqari ta'lim kabi turlarga bo'linadi.

! Ta'limiy konsepsiyalar – keng ma'noda ta'lim va tarbiyaning vazifalari va qadriyatlarini, ta'lim mazmunini tanlash uchun asos bo'lgan falsafiy yondashuvlardir.

XX asr davomida o'tmish ta'limoti asosida turli **falsafiy konsepsiyalar** (lot. *conceptio* – ma'lum hodisa, jaryonlarga qarashlar tizimi, ma'lum bir hodisalarni tushunish, izohlash usuli) tushunchalar ishlab chiqilgan bo'lib ular pedagogikaning uslubiy asosi bo'lib xizmat qilgan.

Ekzistensializm (lot. *existentia* – *borliq*) ta'limni individuallashtirishning falsafiy asosidir. Borliq falsafasi sifatida insonning dunyoda borligi haqidagi ekstremal individualizmni targ'ib qilish asosida shaxs "men"iga e'tibor qaratadilar va shuning asosida obyektiv bilim va haqiqatni inkor etadilar. Tashqi olam har bir insonning ichki "men"i tomonidan qanday idrok qilinsa, shunday bo'ladi deya g'oyani ilgari suradilar. Ekzistensialistlar axloqiy me'yorlarni "o'z-o'zini aks ettirish mahsuli", mutlaq "iroda erkinligi" ifodasi sifatida, ijtimoiy faoliyatning har qanday talablaridan tashqarida ko'radi. Bu g'oyalar passivlikni, anarxistik unsurlarini keltirib chiqaradi. Tarbiyaviy ta'sir markazi ongsiz (sezgi, kayfiyat, his-tuyg'ular, impulsivlik) hisoblanadi. Ekzistensialistlarning fikricha, ong, aql, mantiq ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Shaxsning hayotiy faoliyatida asosiy narsa aql emas, balki his-tuyg'ular, ishonch, umiddir. Umumjahon axloq me'yorlariga qaramay, har bir inson o'ziga xos tarzda hayotga borish huquqini o'zida

saqlab qoladi. Ta'lim sohasida aniq dasturlar va darsliklar inkor etilib, individuallashtirish g'oyasi e'lon qilinadi.

Ushbu falsafiy oqimning asosiy vakillari N.A.Berdyayev, G.Xaydegger, K.Yaspers, Zhe.Sartr, A.Kamyu, E.Breysax, J.Kneller, G.Gould, V.Barrey, G.Marsel, A. F.Bolnov, T. Moritatin.

Neopragmatizm (yunoncha *peo* – “yangi”, prahma – “bajarish, harakat”) shaxsning o'zini o'zi tasdiqlash pedagogikasining falsafiy asosidir. Mazkur konsepsiya subyektiv idealizmga asoslangan. Bunda obyektiv haqiqatni inkor etish, subyektiv tajribani mutlaqlashtirish, shaxsning o'zini o'zi tasdiqlash g'oyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Neopragmatizmning asosiy tushunchalari – “tajriba”, “amaliy faoliyat”. Neopragmatistlar tomonidan obektiv ilmiy bilimlar mavjud emasligiga ishonch hosil qilinib, amaliy faoliyat jarayonida olingan bilimlarga samarali deya hisoblanadi. Bunda inson oldindan ishlab chiqilgan tamoyillar va qoidalarga amal qilmasligi kerak degan tushuncha ilgari suriladi. Shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan hamma narsa axloq bilan bog'liq deya ta'kidlanadi. Shunga ko'ra, bolaning individual tajribasi ta'lim jarayonining asosiga aylanadi va ta'limning maqsadi tug'ilishdan boshlab unga xos bo'lgan instinktlar va moyilliklarning “o'zini namoyon qilish” jarayoni deya qaraladi. Ta'limning shaxsiy yo'nalishiga tayanish ustunlik qiladi. Neopragmatizmga asoslangan ta'lim metodologiyasining mohiyati A.Maslouning so'zlari bilan yaxshi yoritilgan, unga ko'ra shaxsning o'sishi va insoniylik manbalari faqat shaxsning o'zida, ular hech qanday tarzda jamiyat tomonidan yaratilmagan. Ikkinchisi, faqat bog'bonning atirgul tupining o'sishiga yordam berishi yoki to'sqinlik qilishi kabi insonning shaxs o'sishiga yordam berishi yoki to'sqinlik qilishi mumkin, lekin u atirgul butasi o'rniga eman o'sishini taxmin qila olmaydi deydi.

Mazkur konsepsiya vakillari: C. Pirs, V. Jeym, J. Dyui, A. Maslou A. Kombs, E. Kelli, K. Rojers

Neotomizm (lot. *peo* – “yangi”, Thomas – Tomas) diniy ta'limning falsafiy asosidir. U o'z nomini yo'nalishga nomi-

ga aylantirdi - diniy arbob Tomas Akvinskiy nomidan oldi. Katolikning rasmiy falsafiy ta'limoti sifatida (1879-yilda Papa Leo XIII ensikkasi cherkovning rasmiy ta'limotini e'lon qilgan), neotomizm sxolastik nazariyaning asosiy qoidalarini takrorlaydi. Rim papasi Sya Xining "Yoshlarning nasroniy tarbiyasi" (1929) ensiklopediya neotomizm katolik maktablarining o'qituvchilik faoliyatining asosi sifatida e'tirof etilgan.

Neotomizm ta'limni "ma'naviy tamoyil" ustuvorligi asosida qurishni talab qiladi, ilmiy bilim va diniy e'tiqodning "barqaror uyg'unligi" g'oyasini asoslaydi. Ushbu konsepsiyaning asosiy postulatlar: dunyo ikki tomonlama - moddiy, va ma'naviy postulatlardan iborat deyiladi. Xuddi shunday, Inson "ikki tomonlama tabiatga ega": ular materiya va ruhning birligini tashkil qiladi. Inson individualdir: u moddiy, inson sifatida tabiat va jamiyat qonunlariga bo'ysunadi. Shaxs - o'lmas ruhga ega bo'lgan va faqat Xudoga bo'ysunadigan odam degan g'oyalar ilgari suriladi. Asosiy vakillari: J.Mariten, V.Kaninghem, V.Makkaken, G.Kazotti, G.Stefanini.

Neopozitivizm ratsionalizm pedagogikasining falsafiy asosidir. Falsafadagi bu yo'nalish vakillari ilmiy bilishning g'oyaviy tomonlarini e'tiborsiz qoldiradilar, nazariyaning rolini kamsitadilar, axloqning obyektiv qonuniyatlarini va ularning ijtimoiy munosabatlarga bog'liqligini inkor etadilar, axloq va biologik merosning abadiyligini targ'ib qiladilar. Ular o'zlarining axloq haqidagi formalistik ta'limotini me'yoriy etikaga qarama-qarshi qo'yib, metaetika (gr. meta - tashqarida, etiko- axloqqa tegishli) deb ataydilar. Neopozitivistlarning fikricha, axloq nazariyasi ilmiy bo'lishi uchun har qanday axloqiy muammolarni hal qilishdan voz kechishi kerak, chunki axloqiy hukmlarni faktik bilimlar yordamida asoslab bo'lmaydi degan firklarni ilgari suradilar. Asosiy vakillari: P.Hers, J.Vilson, R.S.Piter, L.Ktlberg, J.Konant.

Bixeviorizm (ing. *behavior* - xatti-harakat) - "industrial odam" tarbiyasining falsafiy asosi, 20-asr boshlarida amerikalik zoopsixolog J.Uotson tomonidan yaratilgan

psixologiya yo'nalishi. Bixeviorizm psixologiyaning predmetini ongni emas, balki odamlarning xulq-atvorini, tashqi ogohlantirishlarga javoban mexanik reaksiyalar deb hisoblaydi. Bixeviorizm psixikaning, ongning faol rolini tan olmaydi.

Bixeviorizmning falsafiy konsepsiyasi quyidagi postulatlar bilan tavsiflanadi: "stimul – reaksiya – kuchaytirish" formulasi asosida. Asosiy g'oya shundaki, inson xatti-harakati boshqariladigan jarayondir. U ogohlantiruvchilar tomonidan boshqariladi va ijobiy mustahkamlashni talab qiladi. Muayyan xatti-harakatni uyg'otish uchun siz samarali rag'batlarni qo'llashingiz kerak. Insonning istaklari, motivlari, xarakteri, qobiliyatlari rol o'ynamaydi. Muhim bo'lgan yagona narsa bu – harakatlar – rag'batlantirishga tegishli javoblar. Axloqiy fazilatlar ham sharoit, rag'batlantirish bilan belgilanadi. Asosiysi, iloji boricha atrof-muhitga moslashish.

Ta'lim muassasasida quyidagilar ustun bo'lishi kerak: qizg'in aqliy mehnat muhiti; texnologiyalardan keng foydalanish; individual faoliyatni rag'batlantirishning barcha turlari; natija uchun kurashda qattiq raqobat; samaradorlik, tashkilotchilik, intizom, korxonalar tarbiyasi. Asosiy va-killari: J.Uotson, B.F.Skinner, K.Xall, E.Tolman, S.Press.

So'nggi paytlarda pedagogika nazariyotchilari gumanistik nazariyalarga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar. **Gumanizm** pedagogikaning yangi (neoklassik) metodologiyasining falsafiy asosidir. Gumanizm – (lot. humanus – insonparvar, insonparvar) – inson haqidagi eng oliy qadriyat sifatidagi g'oyalar va qarashlar tizimi. Tarixiy nuqtayi nazardan, insonparvarlik G'arbiy Yevropa Uyg'onish madaniyatining ilg'or yo'nalishi bo'lib, u insonning qadr-qimmatini va aql-idrokini hurmat qilishni, uning yerdagi baxtga bo'lgan huquqini, tabiiy, insoniy his-tuyg'ular va qobiliyatlarning erkin namoyon bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Gumanizmning yorqin namoyandalari: Leonardo da Vinchi, T.Kampanella, J. Bruno, F. Petrarka, T. More, F. Rabele, J. A. Komenskiy, G. Koper-nik. Ukrainada I.Vishenskiy, G.Skovoroda, T.Shevchen-

kolarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan edi.

Umuminsoniy qadriyatlar: insonga muhabbat, erkinlik, adolat, inson qadr-qimmat, mehnatsevarlik, komillik, rahm-shafqat, mehr-oqibat, oliyjanoblikni e'tirof etishdir. Gumanistik g'oyalar barcha odamlarga va barcha ijtimoiy tizimlarga tegishli. Insonparvarlik va milliy qadriyatlarining o'zaro ta'siri e'tirof etiladi. Asosiy g'oya: shaxsni shakllantirishda zo'ravonlik qanday ezgu maqsadlarni oqlamasin, qo'llanilmaydi. Insonning yaxshiligi hamma narsadan ustundir. Insoniy munosabatlar normasi: tenglik, insonparvarlik, adolat tamoyili.

Insonparvarlik qadriyatlari asosiy hisoblanadi. Insonparvarlik, demokratik, insonparvarlik pedagogikasi, teng huquqlilik, sheriklik, predmet-subyektiv pedagogika tamoyillari asosida quriladi.

Ta'lim va tarbiya muammolarini ko'rib chiqish jarayonida falsafa fanining keyingi o'n yilliklarda faol rivojlanayotgan ikki yo'nalishi – germenevtika va sinergetikani ham hisobga olish kerak.

Germenevtika (gr. *hermeneutike* – tushuntiraman, talqin qilish san'ati). Klassik filologiyada qo'lda yozilgan va bosma matnlarni sharhlash haqidagi ta'limotni anglatadi. Zamonaviy falsafada u madaniy va tarixiy hodisa va jarayonlarni sharhlash usuli hisoblanadi. Germenevtika tarafdorlari buni tarixni idrok etishning adekvat usuli deb hisoblashadi, chunki germenevtika insonning "ichki tajribasi"ga asoslanadi, u go'yoki "tashqi tajriba"dan farqli ravishda "jamiyatning hayotiy yaxlitligini" bevosita idrok etish sohasi hisoblanadi. Pedagogikada germenevtika ilmiy tadqiqot vositasi sifatida qo'llaniladi, bu esa ta'lim va tarbiya jarayonlarining mohiyatini chuqurroq va mazmunli tushunishni, ta'limning ilmiy jihatdan mos texnologiyalarini modellashtirish maqsadida ushbu jarayonlarning ichki mexanizmlarining o'zaro ta'sirini talab qiladi. Butun asrlar davomida insoniyat hodisa va jarayonlarning haqiqatiga yaqinlashishga intildi. Binobarin, haqiqatni boyitishning asosiy usuli texnologiya (san'at) tushunchasini o'rgatish-

dir. Ushbu bayonot o'quv jarayonini tashkil etishda boshlang'ich nuqtaga aylanishi kerak.

Sinergetika mustaqil fan sifatida XX asrning 70-yillari o'rtalarida paydo bo'lgan. U murakkab tizimlarning tartibsiz holatdan tartiblangan holatga o'tish jarayonlarini o'rganadi va ushbu tizim elementlari o'rtasidagi shunday bog'lanishlarni ochib beradi, bunga ko'ra ularning tizimdagi umumiy ta'siri o'z ta'sirida tizimning harakat funksiyalarining oddiy yig'indisidan oshadi. Elementlar alohida olinadi. Hozirgi vaqtda sinergetika ijtimoiy fanlarga, xususan, pedagogikaga tobora ko'proq tarqalmoqda. Sinergetika dunyoga qarashning biroq boshqacha usulini taklif qiladi. Sinergetik tafakkurning qadriyati shundaki, u dunyoqarashning yaxlitligini, dunyoni har tomonlama idrok etishni ta'minlaydi.

Pedagogikada sinergetika metodologik tamoyillardan biridir, chunki yaxlit pedagogik jarayonda maqsadli o'zaro ta'sir doirasida sinergetikaning ta'siri kuzatiladi.

So'nggi o'n yilliklarda antipedagogika tushunchasi paydo bo'ldi, uning mafkuraviy manbayi postmodernizmdir. Bu barcha tarixiy pedagogik nazariya va amaliyotni butunlay inkor etishga, tarbiya va ta'limning klassik tizimlari, maqsad va ideallarini keskin tanqid qilishga qaratilgan radikal nutqdir. Ushbu tendentsiya tarafdorlari tarbiya va ta'limga bo'lgan ehtiyojni qat'iy rad etadilar, ular bola intuitiv ravishda o'zi uchun maqbul bo'lgan narsani aniqlay oladi deb hisoblashadi. Ushbu nazariya mualliflaridan biri E. Braunmyul ta'lim aktini o'lim – insonning ongi va ruhini yuvish sifatida tavsiflaydi.

Rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyalari:

L.V Zankov konsepsiyasi. 50-yillarning oxiridan boshlab L.V.Zankov boshchiligidagi tadqiqot guruhi ta'lim obyektiv qonuniyatlari va tamoyillarini o'rganish uchun eksperimental tadqiqotni boshladi. Bu L.S.Vygotskiyning ta'lim va maktab o'quvchilarining umumiy rivojlanishi o'rtasidagi munosabatlar haqidagi g'oyalari va qoidalarini ishlab chiqish maqsadida amalga oshirildi. L.V.Zan-

kov jamoasining sa'y-harakatlari kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini umumiy psixologik rivojlanishi uchun o'qitishning didaktik tizimini ishlab chiqishga qaratilgan edi. L.V.Zankov boshlang'ich ta'limning shunday tizimini yaratish, unda kichik maktab o'quvchilarining an'anaviy uslublari bo'yicha o'qitishga qaraganda ancha yuqori rivojlanishiga erishishi belgilangan edi. Ushbu ta'lim tizimining asosini quyidagi o'zaro bog'liq tamoyillar tashkil etdi:

- yuqori qiyinchilik darajasida o'qitish;
- dastur materialini tez sur'atlarda o'rganish;
- nazariy bilimlarning yetakchi roli;
- o'quvchilarning o'quv jarayonidan xabardorligi;
- barcha o'quvchilarni, shu jumladan eng zaif o'quvchilarni rivojlantirish bo'yicha maqsadli va tizimli ishlash.

L.V.Zankov tomonidan taklif qilingan didaktik tizim o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlari uchun samarali ekanligini isbotladi. Biroq maktab o'quvchisining aqliy funksiyalarini rivojlantirishda uning samaradorligiga qaramay, u hozirgi kunga qadar amalga oshirilmagan. 1960-1970-yillarda uni ommaviy maktab amaliyotiga joriy etishga urinishlar muvaffaqiyatsiz tugadi, chunki o'qituvchilar yangi dasturlarni tegishli pedagogik texnologiyalar bilan jihozlay olmadilar.

3. I.Kalmikova konsepsiyasi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, ta'limni tashkil etishda samarali yoki ijodiy fikrlashni shakllantirishga erishishdan iborat edi. Bunday fikrlashning asosiy ko'rsatkichlari:

- fikrning o'ziga xosligi,
- noodatiy assotsiativ aloqalarning paydo bo'lishining tezligi va silliqiligi;
- muammolarga g'ayrioddiy yechim berish layoqati;
- fikrning ravonligi - qaysidir talabga muvofiq vaqt birligida yuzaga keladigan assotsiatsiyalar, g'oyalari soni;
- obyekt yoki uning qismining yangi noodatiy funksiyalarini topish qobiliyati.

Z.I.Kalmikova rivojlantiruvchi ta'limni quyidagi didaktik tamoyillarga e'tibor qaratish orqali amalga oshirish mumkinligini ta'kidlaydi:

- muammoli ta'lim;
- ta'limni individuallashtirish va differensiallashtirish;
- tafakkurning turli komponentlarini (konkret va mavhum-nazariy) uyg'un rivojlantirish;
- aqliy faoliyat usullarini shakllantirish;
- mnemonik faoliyatni maxsus tashkil etish (esda saqlash).

Maktab amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, taklif qilingan Z.I. Kalmikova o'qitish tamoyillari ko'plab o'qituvchilar faoliyatida o'z o'rniga ega.

E.N.Kabanova-Meller konsepsiyasi. Bu konsepsiya fikrlash operatsiyalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, u tarbiyaviy ish usullari deb ataladi. Tarbiyaviy ish usullari bo'yicha E.N.Kabanova-Meller ta'lim muammolarini hal qilishga xizmat qiluvchi harakatlar tizimini tushunadi. Uning fikriga ko'ra, aynan ular o'quvchilarning aqliy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va maktab o'quvchilarining o'quv qobiliyatlarini shakllantirishda muhim asos sifatida xizmat qiladi. E.N.Kabanova-Meller tarbiyaviy ish usullarini taqqoslash, umumlashtirish, sabab-natija munosabatlarini ochish, kuzatish, o'rganilayotgan hodisalarning xususiyatlarini yig'ish, tushunchalarning muhim va muhim bo'lmagan belgilarini ajratish kabilarni taklif etadi. Ta'limni rivojlantirish muammosida E.N.Kabanova-Meller ikki qator masalalarni ajratib ko'rsatadi:

1) aqliy rivojlanish ko'rsatkichlari;

2) bu rivojlanishni yaratuvchi shart-sharoitlar, ya'ni ta'limni tashkil etish usullari. E.N. Kabanova-Mellerning so'zlariga ko'ra, aqliy rivojlanishning umumiy ko'rsatkichi tarbiyaviy ish uslubini o'zlashtirish bo'lib, u ikki ko'rsatkichga bo'linadi:

1) o'quvchining tarbiyaviy ish qanday harakatlardan iboratligini ayta olish qobiliyati;

2) qabulni yangi holatga o'tkazish qobiliyati, ya'ni, yangi muammolarni hal qilishda texnikadan foydalanish qobiliyati.

E.N.Kabanova-Meller konsepsiyasida rivojlanayotgan ta'lim uchun shartlar sifatida quyidagilarni inobatga oladi:

- ta'limning barcha darajalari (dasturlar, darsliklar,

metodika, maktab amaliyoti) maktab o'quvchilari uchun turli darajadagi umumlashtirish (fan ichidagi va fanlararo) uchun o'qitish usullari tizimini shakllantirish g'oyasi sifatida tan olinishi kerak;

– har bir o'quv predmetida tarbiyaviy ishning asosiy usullarini ajratib ko'rsatish va ularni o'quvchilarda shakllantirish muhim;

– bilimlarni shakllantirish fikrlash va o'quvchilarning aqliy faoliyatining hissiy tomonining o'zaro ta'sirini ta'minlashi kerak;

– o'quvchilar tomonidan ularning o'quv faoliyatini boshqarish usullarini shakllantirish.

Aqliy rivojlanishga yo'naltirilgan konsepsiyalar bilan bir qatorda, o'quvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishni ta'lim faoliyatini tashkil etishning ikkinchi (ekvivalent) yo'riqnomasi sifatida belgilovchi tushunchalar keng tarqaldi.

G.A. Zukerman konsepsiyasi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra o'qitishning eng muhim vazifalaridan biri ta'lim oluvchilarga ta'lim sohasidagi hamkorlik ko'nikmalarini o'rgatishdir. Muloqot qila olmaydigan va hamkorlik qilishga qodir bo'lmagan o'quvchilarni o'qitish qiyinroq bo'ladi, deb taxmin qilinadi. 6-7 yoshli bola uchun o'rganish qobiliyati, birinchi navbatda, ta'lim sohasidagi hamkorlikka qo'shilish qobiliyatidir.

Maktabning asosiy vazifalari sifatida G.A.Zukerman quyidagilarni ilgari suradi:

– maktab o'quvchilarining ruhiy salomatligi va hissiy farovonligini ta'minlash;

– bolaning intellektual qobiliyatlari, nutqi, tafakkuri, xotirasi, diqqati, tasavvurini rivojlantirish;

– muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ta'lim jarayoni, G.A.Zukerman fikricha o'qituvchilar va bolalar o'rtasidagi hamkorlik asosida quriladi. Shu bilan birga, maktab munosabatlarining barcha normalari umumiy xarakterga ega (ya'ni hamma uchun), ular nafaqat "bolalar-kattalar" munosabatlarini, balki "bola-bola" munosabatlarini ham tartibga soladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy boshlang'ich

ta'lim ko'pchilik yosh maktab o'quvchilarida ushbu neoplazmalarning to'liq rivojlanishini ta'minlamaydi. Bu shuni anglatadiki, u proksimal rivojlanishning zarur zonalarini yaratishga emas, balki maktabgacha yoshda ham paydo bo'lgan va rivojlana boshlagan aqliy funktsiyalarni (sezgi kuzatish, empirik fikrlash, utilitar xotira va boshqalar) o'rgatish va mustahkamlashga qaratilgan. Bundan kelib chiqadiki, vaqt o'tishi bilan kerakli neoplazmalarga aylanadigan proksimal rivojlanishning zarur zonalarini yaratishga qodir bo'lgan mashg'ulotlarni tashkil qilish kerak edi. Bunday mashg'ulotlar nafaqat faktlar bilan tanishishga, balki ular o'rtasidagi munosabatlarni, sabab-oqibat munosabatlarini bilishga, munosabatlarning o'zini o'rganish obyektiga aylantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Shunga asoslanib, V.V.Davidov va D.B.Elkonin o'zining shaxsiyatni rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasini, birinchi navbatda, o'quv fanlarining mazmuni va uni ta'lim jarayonida qo'llash mantig'i (usullari) bilan bog'laydi. Ularning nuqtayi nazaridan, boshlang'ich maktabda maktab o'quvchilarida empirik ong va tafakkur asoslarini shakllantirishga asosan mazmun va o'qitish usullarini yo'naltirish bolalarni rivojlantirishning muhim, ammo eng samarali usuli emas. O'quv predmetlarini qurish maktab o'quvchilarida nazariy ong va tafakkurni shakllantirishni loyihalashtirishi kerak, bu o'ziga xos, empirikdan farqli mazmunga ega. Bu nazariy fikrlash, V.V.Davidov obyekt-sensor amaliyoti inson uchun ochadigan kognitiv imkoniyatlarni to'liq amalga oshiradi.

V.V.Davidov fikricha nazariy ong va tafakkur asosida, mazmunli umumlashtirish yotadi. Inson rivojlanayotgan obyektlar tizimini tahlil qilib, uning genetik jihatdan o'ziga xos, muhim yoki universal asosini kashf qilishi mumkin. Ushbu poydevorni tanlash va belgilash ushbu tizimning mazmunli umumlashtirilishi hisoblanadi. Ushbu umumlashtirishga asoslanib, inson tizimning alohida va individual xususiyatlarining kelib chiqishini aqliy ravishda kuzatishga qodir.

Maktab o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'lim (V.V. Da-

vidov bo'yicha – B.D.Elkonin) nazariy bilimlarni tahlil qilish, rejalashtirish va mulohaza yuritish orqali o'zlashtirish jarayonida o'quv faoliyati va uning predmetini shakllantirish nazariyasiga asoslanadi

Shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim kontsepsiyasi V.V.Davidov va B.D.Elkonin, birinchi navbatda, ijodkorlikni rivojlantirishga qaratadi. Shuni ta'kidlash kerakki, V.V. Davidov va B.D. Elkonin kontsepsiyasining ko'plab qoidalari uzoq muddatli eksperimental ish jarayonida tasdiqlandi. Hozirda uni ishlab chiqish va tekshirish davom etmoqda.

S.A.Smirnov konsepsiyasi. Birgalikda ijod qilish metodologiyasini aks ettiruvchi ushbu konsepsiyada pedagogik jarayonning asosiy maqsadi ijtimoiy tajribani jadal to'plash va uning ichki psixologik xotirjamligini shakllantirish bilan birgalikda bolaning qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish uchun sharoit yaratishdir. Metodika maktabda o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishning quyidagi tamoyillariga asoslanadi:

- har qanday faoliyat subyekti sifatida bolaga munosabat. O'qituvchi bolaning o'z fikri va individual rivojlanish yo'nalishining mavjudlik huquqini to'liq tan olishi kerak.

- talabani tengdoshlari va o'qituvchilari bilan munosabatining shaxsiy (subyekt-subyekt) uslubini shakllantirish. Bunday munosabatlar uslubini shakllantirish o'quv vazifalarini bajarish uchun dialog usulini ishlab chiqish asosida mumkin. Muloqot va o'zaro ta'sir ijtimoiy tajribani uzatishning asosiy kanallari hisoblanadi. O'zaro munosabatlarning shaxsiy tabiati ushbu ikki kanalning imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishga imkon beradi.

- o'quvchilarning tengdoshlari bilan faol muloqotini tashkil etish va o'zaro boyitadigan vaziyatlarni yaratish. Shaxsiy rivojlanish uchun qiymat almashinuvi sohasidagi nisbiy muvozanat holati har bir talaba oluvchi rolda ham, beruvchi rolda ham bo'lish imkoniyatiga ega bo'lganda eng qulaydir.

- o'quv materiali asosida o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Ijodiy faoliyat bu – bolaning intellektual qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini jadal rivojlantirish vositasi.

– sinfda o'rganish uchun ijobiy muhitni, hissiy ko'tarilish muhitini va muvaffaqiyat hissini yaratish. Maktabda bola o'zini ishonchli va xavfsiz his qilishi kerak. Uning ongida sinf va maktabning yorqin, doimo qiziqarli, quvnoq va mehribon narsa sifatida tasvirini yaratish kerak. Bu o'quvchida doimiy muvaffaqiyat hissi paydo bo'lishi bilan bog'liq.

– O'yin shakllari asosida ta'limni qurish. O'yin bolaga hayot faoliyatining eng tabiiy shakli bo'lib tuyiladi, shuning uchun pedagogik jarayonni tashkil etishda o'yin shakllaridan foydalanish qiziqishni oshiradi va o'quv materialini o'zlashtirishni osonlashtiradi.

O'qituvchi faoliyatida, S.A.Smironovning fikricha, ishning uchta yo'nalishi mavjud:

– o'quvchilarning o'qituvchi va bir-biri bilan o'zaro munosabatlarini tashkil etish;

– darsda individual o'yinlar va o'quv faoliyatini tashkil etishning o'yin shakllaridan keng foydalanish;

– talabalarni ijodiy faoliyatga jalb qilish.

Ijodiy faoliyatning o'zi noaniq jarayondir. Ijodiy faoliyatning ikki darajasi mavjud: evristik va ijodiy. Birinchisi empirik xususiyatga ega, ikkinchisi esa nazariydir. Har ikkala daraja ham inson uchun muhim va maktab o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilishi kerak. Lekin hamma ham ularni bir xil darajada o'zlashtira olmaydi; odatda shaxs bir darajaga intiladi. Shunga qaramay, o'quv faoliyatini tashkil qilishda o'quvchilarni ikkala darajadagi ijodiy faoliyatga jalb qilish kerak.

Shunday qilib, rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyalarini ko'rib chiqish quyidagilarni umumlashtirishga imkon beradi:

O'rganish bu – bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy qobiliyatlarni va axloqiy qarashlarni rivojlantirishda o'quvchilarning faol o'quv va kognitiv faoliyatini tashkil etish va rag'batlantirishning maqsadli pedagogik jarayoni.

O'rganish bu – o'quv faoliyatining bir turi bo'lib, unda o'quvchining bilim va ko'nikmalari elementlarining miqdori va sifati tegishli darajaga (o'rtacha, me'yor, mum-

kin) keltiriladi, bu o'rganish maqsadi hisoblanadi. Ta'lim, bilimlarni to'liq o'zlashtirishni ta'minlab, ta'lim faoliyatini shakllantiradi va shu bilan aqliy rivojlanishga bevosita ta'sir qiladi va rivojlantiruvchi ta'limni tashkil qiladi. Rivojlanayotgan ta'lim nazariyasining tayanch nuqtalari: ta'limga tafakkurning yuqori shakllarini, shu jumladan nazariyani kiritish;

o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, shuningdek, ularning aqliy, estetik, axloqiy va jismoniy tarbiyasiga faol yondashuvni amalga oshirish.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Ta'limning falsafiy konsepsiyalari deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'limning psixologik konsepsiyalari mazmuni qanday?
3. Ta'limning sotsiologik konsepsiyalarini ahamiyatli tomoni nimalardan iborat?
4. Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy konsepsiyalariga nimalar kiradi?

3-§. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINING FAOLIYAT KO'RSATISH PRINSIPLARI VA ULARNI AMALIYOTGA JORIY ETISH YO'LLARI



Tayanch tushunchalar: bilim, ko'nikma, tarbiya, ta'lim, ta'lim berish, ta'lim tizimi, ishlab chiqarish, insoniylashtirish, insonparvarlik, insonparvar ta'lim.

Ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. Pedagogik faoliyatning g'oyaviy asosi sifatida uning insonparvar yo'nalganligini olish mumkin. Hozirgi zamon ta'limida **insonparvarlik tamoyili ta'limni insonparvarlashtirish** tendensiyasi ko'rinishida amalga oshirilyapti.

Insonparvarlik – inson deb nomlangan qadriyatni shaxs sifatida tan olish, uning qadr-qimmatini va or-nomusini qadrlashga asoslangan g'oya va qarashlarni bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida quyidagicha ta'kidlangan, "ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligini, ta'limning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir".

! **Ta'limning insonparvarlashuvi** – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvidir.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish tadbirlari bu – tizimni demokratik va insonparvarlik yo'nalishlarida qayta qurish bilan ham bog'liq. Chunki, insonparvarlik g'oyalari va tamoyillari milliy g'oya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning moddiy farovonligi

va ma'naviy barkamolligi, erkin, mustaqil, ijodiy faoliyatini, kishilarning o'zaro hamkorligi, do'stligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga g'amxo'rliги kabi eng yuksak, ilg'or insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etadi. Odillik, halollik, poklik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, odoblik, vijdonlilik, iymon-e'tiqodlilik, mehmondo'stlik, kamtarlik, or-nomusni, sharm-hayo va iffatni e'zozlash, tinchliksevarlik, olijanoblik, el-yurt manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish kabi yuksak insoniy fazilatlar ham insonparvarlikning namoyon bo'lishidir. Bu esa, o'z-o'zidan, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish ehtiyojini kun tartibiga qo'yadi. Ushbu ehtiyoj mazkur masala bo'yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalarni va tavsiyalarni ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etish, ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga kiritish yo'l-yo'riqlarini o'zida ifoda etadi. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish, umuman jamiyatni insonparvarlashtirishning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlanadi va bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlardan biri – mazkur tizimni insonparvarlashtirish yo'l-yo'riqlari va maqsadlari ochib ko'rsatiladi.

Bu muammoni hal qilishda uzluksiz ta'lim tizimi o'zi nima? Uni insonparvarlik yo'nalishi, insonparvarlashtirish nima? – degan, savol tug'ilishi tabiiy hol.

Ta'lim – O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuniga muvofiq inson, jamiyat, davlat manfaatlari yo'lidagi aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Ta'lim deganda o'quvni yuzaga keltiradigan tashkiliy va barqaror aloqa jarayoni tushuniladi. Xullas ta'lim avvalo o'quvchilarda bilimlar, uquvlar va malaka tizimlari shakllanishida ifodalanadigan ta'lim jarayonining nisbiy natijasidir, shuningdek, tarbiya, o'z-o'zini tarbiya, ta'sir jarayoni, ya'ni inson qiyofasini shakllantirish jarayoni: bunda bilimning hajmi emas, balki uni shaxsiy sifatlar, o'z bilimlarini mustaqil tasarruf etish uquvi bilan birlashtirish asos hisoblanadi.

Ta'lim berish – o'qitishning turi, o'quvchilarga bilimlar, o'quv va malakalar majmuyini berishga va ularni o'qi-

tish jarayonida tarbiyalashga yo'naltirilgan o'qituvchining maxsus faoliyati.

Ta'lim tizimi – ta'limning mazmuni, shakli va usullarini belgilovchi qoidalar (tamoyillar) asosiy ketma-ketlik, oddiydan murakkabga qarab borish tizimi.

Uzluksiz ta'lim – inson butun hayoti mobaynida olishi mumkin bo'lgan ta'lim. Uzluksiz ta'lim deganda, uning rivojlanishi tugamasligi, tadrijiy bog'liq bo'lgan bir necha bosqichlarga bo'linishi, har bir bosqich yangi, ancha yuqori darajadagi bosqichga o'tish uchun imkon yaratishi tushuniladi.

Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi: **fan** – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi; ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi; **ishlab chiqarish** – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi”.

Uzluksiz ta'lim tizimi – yagona ta'lim tizimi, ta'limni shaxs ijodiy imkoniyatlarining muntazam rivojlanishini ta'minlovchi bir umrlik jarayon sifatida talqin etiladi va uning ma'naviy dunyosini har tomonlama boyitadi. Tizim shaxsning rivojlanish jarayonini, “pillapoya” tarzida uning qaror topishining imkonini beradi, “pillapoya”ning har bir pog'anasi insonning o'z ta'lim jarayonida yanada yuqori darajada erishishga tomon tadrijiy harakatini anglatadi.

Inson – turmush rivojlanishining oliy bosqichi bilan singib ketgan mavjudot, ijtimoiy-tarixiy faoliyat subyekti. **Inson** tizim hisoblanadi, bunda jismoniy va ruhiy, jinsiy asoslanganlik va tan olingan shakllanganlik, tabiiylik, ijtimoiy va ma'naviylik yaxlit bir butunlikni hosil qiladi. **Inson** bir qator fanlarning o'rganish obyektidir: masalan, antropologiya, tafakkur falsafasi, odam anatomiyasi, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va boshqalar.

Insoniylik, gumannost (lotincha *humanus* – insoniy) – insonni sevish, insonning qadr-qimmatini, iztiroblarini hurmat qilish;

hamkorlik, birga ishtirok etish, yordamlashish jarayonidagi muloqot va bu faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Insoniylik bilan kelisha olmaydigan har qanday faoliyat g‘ayriaxloqiy hisoblanadi; hattoki, “insoniyatga qarshi jinoyat” tushunchasi ham paydo bo‘lgan.

Insoniylashtirish – jamiyatda insonparvarlik amallarini kuchaytirish, umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, muloyimlik va insoniylik bilan uyg‘unlashgan holdagi tugallangan estetik shaklga ega bo‘lgan insoniy qobiliyatlarni yuqori madaniy va axloqiy darajada rivojlantirish demakdir.

Insonparvarlik (“inson” arabcha; “parvar” fors-tojikcha; “-lik” o‘zbekcha ko‘plik qo‘shimchasi bo‘lib-kishiga g‘amxo‘rlik, gumanizm) odamzodning qadri, uning erkinlik qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo‘lishi uchun kurashish, insonning baxt saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta‘minlashga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma‘nosini anglatadi.

Buyuk adiblarimizning fikricha, insonparvarlik – insonning sharafi, vijdoni va iymonning mahsuli hisoblanadi.

Insonparvarlik g‘oyalari, baxt saodat va adolatga erishish orzu-havaslarini, xalq og‘zaki ijodiyotida, adabiyotda, diniy, falsafiy, pedagogik ta‘limotlarda uzoq o‘tmishdan beri o‘z aksini topib kelmoqda.

Insonparvar ta‘lim – umuminsoniy qadriyatlar, insonning hayoti va sog‘lig‘i, shaxsning erkin rivojlanishi ustuvorligi tamoyillariga asoslangan ta‘limdir.

O‘zbekistonda ta‘lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish, umuman jamiyatni insonparvarlashtirishning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu borada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlardan biri uzluksiz ta‘limni insonparvarlashtirishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqishdir. Bu esa, ta‘lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirishni qayta qurishning eng asosiy va markaziy muammolaridan

biridir.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish keng dunyoqarashli va ma'rifatli, aql-idroki mukammal, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol, ruhan tetik, o'z mamlakati va uning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va rolida o'zining fuqarolik mas'uliyatini to'g'ri va to'la anglab yetgan iymonli, komil inson shaxsini tarbiyalash maqsadlaridan kelib chiqadi.

Ta'limni insonparvarlashtirishning markaziy masalasi yoshlarda yuksak axloq va fuqarolik sifatlarini shakllantirish, insonning or-nomusi, sha'ni va mas'uliyati kabi tuyg'ularni, vatanparvarlikni, ma'naviy-ruhiy fazilatlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Ta'limni insonparvarlashtirish ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik vazifasini amalga oshirishning muhim omillaridan biridir. U tashkiliy, uslubiy, huquqiy-me'yoriy, pedagogik-psixologik tadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunday tadbirlar majmuasi insonparvarlik g'oyalarining va ta'lim-tarbiyadagi gumanitar vosita va uslublarning tabiiy-ilmiy va texnik bilimlar doirasiga kirib borishni ta'minlashga va shular orqali taffakurning texnokratik usulini yengib o'tish va bartaraf qilishga qaratiladi.

Ta'limni insonparvarlashtirishning bosh maqsadi – ilmiy-texnik bilimlarning gumanitar ta'lim bilan chambarchas birligini va o'zaro bog'liqligini ta'minlashdan iboratdir.

Uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni insonning ijtimoiy intizomi va uning ixtisoslik bo'yicha mehnat faoliyatining ajralmas va tabiiy belgilariga, xususiyatlariga aylantirishdan iborat bo'lib, bo'lajak mutaxassisning insonparvarlik sifat va fazilatlarining ustuvor bo'lishini ta'minlashga qaratiladi. Ta'limni insonparvarlashtirish rejaları gumanitar turkumdagi fanlarning, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning insonparvarlik xususiyatlaridan ham ta'lim-tarbiya jarayonlarida unumli va samarali foydalanishni keng yo'lga qo'yish bilan birga, bu turkumga kirmagan fanlar, ya'ni fizika, kimyo, biologiya, matematika, shuningdek,

texnika fanlari va umuman talim tizimida o'tiladigan barcha fanlarning ham tarbiyaviy tamoyillariga, insonning ma'naviy-axloqiy, ruhiy jihatdan takomillashtirish imkoniyatlariga alohida ahamiyat va e'tibor qaratishni, ularning insonparvarlik xususiyatlarini kengroq ochib, tahlil etib ko'rsatib berishni, talaba-yoshlarni o'qitish orqali ma'naviy-ruhiy jihatdan ham tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. O'quv dasturlarining, darslik va qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda, ta'limning texnik vositalaridan foydalanishda, ular uchun maxsus o'quv dasturlari tayyorlashda ta'limni gumanitarlashtirishning mana shu tomonlariga, ya'ni yosh mutaxassislarining ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida takomillashuvida har bir fanning ishtirokini eng yuqori darajada ta'minlashga katta e'tibor berilishi zarur.

Sho'rolar davridagi eski ta'lim tizimining asosiy qusurlaridan biri, uning jamiyat real hayotidagi, o'tmish ajdodlar tomonidan bunyod etilgan madaniy merosdan, asl qadriyatlardan, ijtimoiy ong taraqqiyoti darajasidan ajralib qolganligidir. Bu borada ijtimoiy safsatabozlik ham ta'lim-tarbiya ishlariga katta ma'naviy zarar yetkazadi: rasmiy doiralarda tantanali ravishda e'lon qilingan va iftixor deb ta'kidlangan narsalar bilan haqiqatan mavjud bo'lgan narsalar orasidagi katta ziddiyat borligi aniq-ravshan ko'zga tashlanar edi.

Ta'limni insonparvarlashtirish tadbirlari talaba-o'quvchilarning o'z ixtisosliklari bo'yicha bilimlari orqali ham, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar orqali va umuman madaniy, ma'naviy-axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shakllangan ko'nikma va malakalarida samimiylik, haqqo'ylik, odamgarchilik, iymon-e'tiqod kabi sof insoniy sifat va fazilatlarining ustun bo'lishini ta'minlashga, bo'lajak mutaxassisning o'z kasb-hunari bo'yicha faoliyatida el-yurtning sihat-salomatligi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivoji to'g'risida, mamlakatning tinchligi va osoyishtaligi, ekologik jihatdan tozaligi, obodonchiligi, Vatanning taqdiri va kelajagi haqida g'amxo'rlik qilishga o'rganishi va o'zining bular uchun ham mas'ul ekanligini chuqur his etishini

tarbiyalashga qaratilgandir.

Insonparvarlashtirish va ta'lim turlari.

Ta'limni insonparvarlashtirish yoki gumanitar ta'limning bosh tamoyili shaxsning intellektual, jismoniy va ma'naviy-axloqiy qobiliyatlarining shakllanishi, taraqqiy etishi va o'zini namoyon qilishi uchun muayyan sharoitini yuzaga keltirishni taqozo etadi, tabiiy-ilmiy fanlarga bo'lgan texnologik munosabat va to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradi; fan-texnika va ishlab chiqarishning qaysi tarmog'ida faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar har bir mutaxassisning madaniyatidan, badiiy-estetik, san'at va gumanitar sohalaridan, jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizlaridan, boshqa kishilarning va umuman jamiyatning manfaatlaridan ajralib qolmaslik va aksincha ulardan muntazam ma'naviy oziq olish, xabardor bo'lish mas'uliyatini ham oshiradi.

Ixtisoslik fanlari va ilmiy-texnik bilimlar bilan gumanitar ta'limning aloqalarini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya tizimlarida ulardan birgalikda samarali foydalanish vazifalarini, mustaqil O'zbekistonning hozirgi sharoitda hayotning o'zi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'ydi: respublikaga ko'plab yangi tipdagi kadrlar kerak. Ular faqat xalq xo'jaligi talablarini qondirish uchungina emas, balki O'zbekistonning jahon jamiyatiga qo'shilishi bilan bog'liq masalalarni bajarish, uning xalqaro madaniy va xo'jalik aloqalarini o'stirish va mutahkamlash uchun ham zarur. Ta'lim va tarbiyada millatning madaniy an'alariga umumbashariy qadriyatlarga murojaat etish ham, shakllangan me'yorlar va qarashlarni qayta anglashga bo'lgan xatti-harakati ham ana shundandir. Eskirgan mafkuraviy qoliplar va ko'rsatmalardan voz kechish, erkin, ijodkor va tashabbuskor shaxsni tarbiyalab yetishtirish, talaba-o'quvchilar ongini ijtimoiy safsatabozlik, milliy xurofotlardan xalos etish yosh avlod ta'limi va tarbiyasi oldida turgan asosiy vazifalardandir.

Hozirgi kunda fan, madaniyat va ta'lim sohalarida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilib, islohotlarning sur'atlari tobora jadallashmoqda. Biroq axborot asri talablariga muvofiq o'zgarayotgan hayotimiz ehtiyojlari jamiyat oldi-

ga yangidan yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiya tizimining barcha bosqichlarini Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida isloh qilish tadbirlari ko'rilmogda. Hozirda bu borada qilinadigan ishlarning birinchi, ikkinchi bosqichi yakunlanib, uchinchi bosqich bo'yicha ishlar amalga oshirila boshlandi.

Shaxsning, insonning ma'naviy, ruhiy kamoloti ta'minlanmasa, jamiyatning moddiy-texnik taraqqiyoti bir tomonlama bo'ladi va kutilgan natijani bermaydi. Ruhiy ibtido yoshlar qalbini yuksak madaniyat va axloqiy fazilatlar bilan boyitishga, ularning umuman millatning ruhiy-ma'naviy rostlanishiga yordam berishi kerak.

Madaniyat gumanitar ta'lim va tarbiyaning muhim qismlaridan biri sifatida talaba-yoshlar ruhiy olamining shakllanishida, hayotiy pozitsiyalarning mustahkamlanishida, ularning ijtimoiy faolligining o'sishi va ixtisoslik bilimlari hamda umumnazariy tayyorgarligining oshishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Insoniyat tomonidan to'plangan behisob madaniy boyliklardan bahramand bo'lish, ularni o'zlashtirish yoshlarda gumanistik dunyoqarashning vatanparvarlik, vijdon, e'tiqod, or-nomus, sha'n, mardlik, jasorat, oliyhimmatlik, fidoiylik, insonparvarlik kabi qadriyatlarining shakllanishiga yordam beradi. Yoshlarda bunday sifat va fazilatlarini tarbiyalash maorif va oliy ta'lim tizimida ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Zero, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, siyosatda, iqtisodda va ma'naviyat sohasidagi islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha talaba-o'quvchilarini Respublikamizning tarixiy shaharlariga, diqqatga sazovor joylariga muntazam ravishda sayohatlar uyushtirib turish, muzeylarga, ko'rgazmalarga, teatrlarga, konsertlarga maxsus jadval tuzib ommaviy ravishda olib borish, ta'lim muassasalarida ularning mehnat va urush faxriylari bilan, zamonamiz qahramonlari bilan, san'atkorlar, shoir-yozuvchilar, shifokorlar, huquq-tartibot idoralarining mas'ul xodimlari, mahalla oqsoqollari, ota-onalar bilan

davra suhbatlarini, uchrashuvlar tashkil etish – bularning hammasi yoshlarda milliy iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga, boyitishga umuminsoniy saviyasini oshirishga yordam beradi. O'quv yurtlarida talabalarning qiziqishlari bo'yicha tashkil etilgan turli xil to'garaklar, klublar, sport seksiyalari, kasb-hunar sexlari ham talaba-yoshlarning uyg'un rivoji uchun yaratilayotgan sharoitlardandir.

Respublikada amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar jamiyatning tubdan yangilanishi, qayta qurilishi uchun muhim zamin yaratadi, shu jumladan, madaniy sohalarda ham, ta'lim-tarbiya tizimida ham keng islohotlar o'tkazish imkoniyatlari vujudga keldi.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'limning insonparvarlik va tarbiyaviy vositalariga, jahon ta'lim tizimining ijobiy tajribalari va yutuqlariga diqqat-e'tibor kuchaydi.

Shunga ko'ra, ayrim olib borilgan tadqiqotlar: N.E.Jumayevaning¹ hamda O.N.Ibodullayevaning² nomzodlik dissertatsiyalarida insonparvarlik g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslarini va ta'limni insonparvarlashtirishda o'qitish tamoyillari va metodlarining o'zaro aloqadorligini ifodalab berishgan.

Ta'limni(gumanitarlashtirish) insonparvarlashtirish bo'yicha muhim tadbirlar belgilanmoqda. Biroq bu harakatlar muayyan obyektiv sabablarga ko'ra to'siqlarga uchrashi ham tabiiydir. Chunki, jamiyatda pul-tovar, mulkchilik munosabatlarining tubdan o'zgarishi ommaning ruhiy-psixologik holatida, uning ongi va dunyoqarashida jiddiy o'zgarish yasaydi, ayrim hollarda shaxsning ma'naviy axloqiy me'yorlarining buzilishiga va buning oqibatida insonparvarlik tamoyillariga to'g'ri kelmaydigan omillarning sodir bo'lishiga olib kelishi ham mumkin.

¹Жумаева Н.Э. Умумий ўрта таълимни инсонпарварлаштиришда ўқитиш тамойиллари ва методларининг ўзаро алоқадорлиги. 13.00.01.пед.ф.н.ил. дар.олиш учун ёз.дисс.1626, Қарши, 2005.

²Ибодуллаева О.Н. Кичик ёшдаги ўқувчиларда инсонпарварлик ғоясини шакллантиришнинг педагогик асослари. 13.00.01.пед.ф.н. ил.дар.олиш учун ёз.дисс.НавойДПИ, 2005.

Shuning uchun ham hozirgi vaqtda, ijtimoiy-iqtisodiy o'tish sharoitida, gumanitar turkumdagi fanlar kafedralari ishini ta'limning keng miqyosli, uyg'un, insonparvarlik vazifa va maqsadlarini bajarishga yo'naltirish zarurati tug'ilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalaridagi va tibiiy-ilmiy fakultetlardagi ijtimoiy-gumanitar kafedralarning ilmiy-pedagogik imkoniyatlarini yanada oshirish, ularni yetakchi va yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash borasidagi ishlarni jadallashtirish, o'quv yurtlarining zamon talablariga javob beradigan yangi tipdagi o'quv qo'llanmalari, darsliklar va axborot vositalariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish navbatdagi muhim vazifalardandir. Gumanitar sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish, bu soha professor-o'qituvchilarini qayta tayyorlash ishlarini izchil olib borish zarur. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ayrim oliy o'quv yurtlari qoshida gumanitar sohalar bo'yicha ilmiy-o'quv markazlarini tashkil etish. Shuningdek, o'quv-uslubiy, ilmiy, tarjima adabiyotlarini nashr qilishni yo'lga qo'yish, ta'lim-tarbiya muammolari bo'yicha seminarlar, anjumanlar, uchrashuv va davra suhbatlari, muloqotlar o'tkazib turish mumkin. Bu yo'nalishlarda hozirgi kunda ancha ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq bu hali hozirgi davrning tobora oshib borayotgan talab va ehtiyojlariga to'la javob bera olmaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri ta'lim va tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterda bo'lishi ko'rsatilgan. Ta'lim va tarbiyaning insonparvarlashuvi insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Ta'limni insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida uning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-istaklari va qiziqishlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashga yo'naltiriladi, uning

shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

Ta'lim va tarbiyani demokratlashtirishning mazmuni shundan iboratki, ta'lim-tarbiya mazmunining ochiqligi, o'quv materiallari, ta'lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, milliy va hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, hammaning va har kimning madaniy jihatdan yuksak natijalarga erishishini ta'minlashga imkon beradi. Mazkur tamoyilga amal qilish o'quvchilarning xohishlariga ko'ra o'quv jadvalidan qo'shimcha fanlarning o'rin olishi, yuqori sinflarda muayyan fanlarning chuqurlashtirilib o'rgatilishi, fakultativ mashg'ulotlar hajmini kengaytirish, turli yo'nalishlarda to'garaklarni tashkil etish, darslarning yakka va guruh asosida o'tkazilishiga e'tibor berilishini anglatadi.

Ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi tamoyili respublikada uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik asosida faoliyat yuritishlarini ifodalaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining, o'z navbatida ularning o'quv dasturlari oliy o'quv yurti o'quv dasturlari bilan mutanosiblikda yaratilib, biri o'zidan avvalgi bosqichda o'zlashtirilgan ma'lumotni boyitadi va rivojlantiradi.

Shuningdek, davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq faoliyat olib borayotgan uzluksiz ta'lim tizimi mazmuniga ko'ra bir tipdagi o'quv yurtlarining biridan ikkinchisiga o'tib o'qish imkoniyati mavjud. Chunonchi, ta'lim oluvchilar bir maktabdan ikkinchi maktabga, bir akademik litseydan ikkinchi akademik litseyga bir shaharda faoliyat yuritayotgan oliy o'quv yurtidan ikkinchi shaharda joylashgan oliy o'quv yurtiga o'tib ta'limni davom ettirish huquqiga egalar.

Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi tamoyili o'zida, birinchidan, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularning bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlari, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy bilimlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash va kasb tanlash ko'nikmalari

shakllantirish;

ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishni ta'minlash;

uchinchidan, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkoniyatini yaratishni ifodalaydi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining ixtiyoriyligi tamoyilining asosiy mohiyati o'quvchilarning yangi turdagi o'quv muassasalarida ta'lim olish yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega ekanliklarini anglatadi. Bu ikki turdagi uch yillik maxsus ta'lim yo'nalishlarini o'quvchilar o'z iqtidorlari va xohish-istaklariga tayangan holda tanlaydilar. Ana shu tarzda o'quvchilarning biron bir shaklda bilimlarini takomillashtirish, muayyan kasb-hunar egasi bo'lib yetishishlari uchun sharoit yaratiladi.

Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi mamlakatda ta'lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo'lib, u fan-texnika, madaniyatning yuksala borishi bilan chambarchas holda rivojlanib borishini nazarda tutadi.

Insoniyat mavjud ekan, har doim taraqqiyot sari intiladi va yangidan-yangi fan yutuqlarini qo'lga kiritib boradi. Ta'lim tizimi esa ana shu fan yangiliklarini kelajak avlodga yetkazib berishni ta'minlaydi. Shu bois ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning ushbu yutuqlardan oqilona foydalangan holda ulardan to'g'ri xulosalar chiqarib, kelajakda o'zlarining munosib o'rinlarini topishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"ni Qonunining 5-moddasida belgilab qo'yilganidek, fuqarolar millati, tili, jinsi, yoshi, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeyi, xizmat turi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasida hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar bilim olish huquqiga egalar. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqlik tamoyili aynan mana shu holatni yoritishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan moddada, yana shuningdek, chet ellik fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi hududida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga egaliklari ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar esa bilim olishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega ekanligi bu tamoyilning inson va uning manfaatlariga xizmat qilishini bildiradi.

Respublikamizda ta’lim, o‘zbek, rus, qozoq, qirg‘iz va tojik tillarida olib borilayotgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, bunday yo‘l bilan barcha millatlarning tenglik asosida bilim olishiga sharoit yaratilgan. Bundan tashqari mamlakatning barcha hududlarida “yakshanbalik maktablari” tashkil qilingan bo‘lib, har bir millat vakillari dam olish kuni ixtiyoriy ravishda o‘z ona tilida ta’lim olish imkoniyatiga egalar.

Ta’lim turlari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasida o‘z ifodasini topgan. Bunga ko‘ra ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Davlat ta’lim standartlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir. Buning ma’nosi shuki, har bir ta’lim turi uchun alohida davlat ta’lim standartlari ishlab chiqiladi, ularda ko‘zda tutilgan talablarga amal qilish esa mazkur bosqichdagi ta’lim muassasalaridan birday talab etiladi. Ammo davlat ta’lim standarti asosida ta’lim muassasalari o‘zlarining o‘quv dasturlari variantini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin. Bu ta’lim olish maqsadi yagona bo‘lgani holda, unga erishish yo‘llari turlicha ekanligini ko‘rsatadi.

Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish

ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sanalib, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ushbu tamoyilga to'la amal qilinadi. Ta'lim oluvchilarning iste'dod va qobiliyatlari davlat tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib boriladi. Bunday rag'batlantirishlar sirasiga iste'dodli o'quvchilarni faxriy yorliqlar, stipendiyalar hamda mukofotlar bilan taqdirlashni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 25-martdagi "O'zbekiston o'quvchi-yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi Qarorining qabul qilinishi ushbu tamoyilni huquqiy jihatdan kafolatlanishini ta'minladi. Mazkur qarorga muvofiq har yili o'quvchi va talabalar o'rtasida fan olimpiadalari o'tkazilib, g'oliblar turli imtiyozlarni qo'lga kiritmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1993-yil 5-fevralda qabul qilingan "O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida"gi Farmoniga binoan ilmiy salohiyat, iqtidorga ega talabalar (bakalavr va magistratura yo'nalishlari bo'yicha) hamda tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan aspirantlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari ta'sis etildi va har yili o'n bir ta'lim yo'nalishi (texnika va informatika, tibbiyot, fizika-matematika, iqtisodiyot, jurnalistika, gumanitar, huquq va xalqaro munosabatlar, pedagogika, madaniyat va san'at, chet tillar, qishloq xo'jaligi) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi uchun tanlovlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, iqtidorli talabalar uchun "Beruniy", "Ulug'bek" hamda "Navoiy" nomidagi stipendiyalar joriy etilgan bo'lib, ularning sovrindorlari bo'lgan talabalarning faoliyati moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bundan tashqari iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Umid", "Iste'dod", "Respublika bolalar fondi", "Sog'lom avlod uchun", "Ulug'bek" va boshqa jamg'armalar tashkil etilgan. Ayni vaqtda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan amaliy yordam tufayli 2000

nafardan ortiq talabalar xorijiy mamlakatlarda tahsil olib, o'z bilimlarini oshirishga muvaffaq bo'ldilar.

Yuqorida bildirilgan fikrlar respublikada bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish tamoyilining to'laqonli ravishda amaliyotga tatbiq etilayotganligining yorqin isbotidir.

Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili ta'limni tashkil etish va uning sifatini oshirishda davlat va jamiyatning ta'lim muassasalarini boshqarishda hamkorlikka erishishni nazarda tutadi. Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvi ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash milliy dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz ta'lim tizimi har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Uzluksiz ta'lim deganda – o'quvchi shaxsini uzviy rivojlantirish maqsadida har bir ta'lim bosqichida pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlari (ta'lim va tarbiya maqsadi, mazmuni, metodlar, vositalar, tashkiliy shakllar)ning o'zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida ta'lim ustuvorligining tan olinishi, ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi, ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi, ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati, ta'limning uzluksizligi va izchilligi, o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi, davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi, o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning

yagonaligi va tabaqalashtirilganligi, insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi, jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi, ta'lim tizimining Respublikamizda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari dunyoviy xususiyatga egaligi, bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi, ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffofligi belgilab berilgan. Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, ta'limning uzluksizligi va izchilligi, umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi, ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi, davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv, bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish kabilar belgilab berilgan.

Pedagogikada ta'limning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari bilan bir qatorda ta'limning didaktik prinsiplariga ham alohida to'xtalib o'tiladi. Ularga ta'limda ilmiylik, tizimlilik va izchillik, onglilik va faollik, bilimlarni puxta va mustahkam o'zlashtirish, o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish, ko'rsatmalilik, nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi, mustaqillik va erkin fikrlash hamda tafakkur qilish kabilar kiritiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tizimlilik va izchillik prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. U ta'limda ma'lum mantiqiy izchillik bo'lish zarurligini bildiradi, chunki bilimlar vorislik xarakteriga ega. Bilim olishdagi tizimlilik va izchillik nazariya va amaliyotning birligi, Davlat ta'lim standartlari, ularga mos ravishda o'quv dasturlarini yaratish va ta'lim-tarbiya jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish bilan ta'minlanadi.

Ta'lim uzviyligini ta'minlash muammosini shartli ravishda uning barcha yo'nalishlarini qamrab oluvchi

quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

– uzviylikni ta'minlashning umumpedagogik muammolari yechimini ishlab chiqish kasb-hunar tayyorgarligining umumpedagogik jihatdan optimal ketma-ketlikda loyihalashini ta'minlaydi;

– uzviylikni ta'minlashning didaktik muammolari ta'limning shakl, metod va usullarini qo'llashning ilmiy asoslangan ketligini qo'llash, kasbiy-texnik harakatlarni o'zlashtirish jarayoni dinamikasini tadqiq qilish, mantiqiy asoslangan tuzilishga ega didaktik materiallar va ularni qo'llash metodikasi, ta'lim vositalari tizimini qo'llashga oid savollarni o'z ichiga oladi;

– uzviylikni ta'minlashning tarbiyaga oid muammolari ta'lim oluvchilarni ilmiy asoslangan tarbiyasini amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilanadi: fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro uzviyligi;

ta'lim mazmuni uzviyligi; bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi uzviyligi; o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi uzviylik;

ta'lim metodlari hamda shakllarini qo'llashdagi uzviylik;

o'quvchilar o'zlashtirishini baholashni tashkil qilishdagi uzviylik.

Shulardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi o'rtasidagi ta'lim-tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlashda Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari hamda dasturlarni ishlab chiqishdagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari, variativ o'quv dasturlari hamda darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda oliy ta'lim tizimi va akademik litsey va kasb-hunar kollejlari pedagoglarining hamkorligini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda uzluksizlikni ta'minlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini akademik litsey va kasb-hunar ta'limi muassasalariga Davlat ta'lim standartlari talablari darajasida sifatli tayyorlash, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichlariga uzluksiz maqsadli tayyorlash ishlarini samarali tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini 1 kursdan boshlab qiziqishlariga muvofiq tanlagan oliy ta'lim muassasalari bakalavriat yo'nalishlariga aniq yo'llash, ularni fanlar bo'yicha kirish sinovlariga maqsadli tayyorlash, ta'lim muassasalarida "Abituriyent" shtabini o'rnatilgan tartibda tashkil etishda samarali faoliyat olib bormoqdalar.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini magistratura va aspiranturada o'qishlariga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish hamda buyurtmalar asosida ularning turar joyi bo'yicha ishga taqsimlash va joylashtirish ishlari ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ish beruvchilarga yordam berish maqsadida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarga elektron buyurtma berish dasturiy ta'minoti shakllantirilgan bo'lib, mavjud ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha tumanlar va fanlar kesimida bitiruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirib boriladi.

Yosh mutaxassislarga amaliy yordam ko'rsatish, ish beruvchilar bilan o'rnatilgan aloqalarni mustahkamlash, hamkorlik yo'nalishlarini ko'paytirish, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyati ham ta'lim-tarbiya ishining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar malakaviy amaliyotining mazmunini takomillashtirish, O'MKHT muassasalari pedagoglari ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish va o'zaro tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yilishi yechimini kutayotgan muammolarning hal etilishida muhim omil bo'ladi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi va izchilligi nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish nima maqsadda amalga oshiriladi?
4. Uzluksiz ta'limda bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirishda qanday pedagogik uslubiyatlardan foydalaniladi?
5. Uzluksiz ta'lim tizimida davlat va jamoatchilik boshqaruvini uyg'unlashtirishning ahamiyat qanday?

4-§. PEDAGOGIK TIZIMLARNI LOYIHALASHTIRISH



Tayanch tushunchalar: pedagogik tizim, tarbiyaning maqsadi, o'quv jarayoni, texnik vosita, nazariy konsepsiya, loyiha, pedagogik loyihalash, o'quv loyihasi, ta'lim texnologiyasi.

Uzluksiz ta'lim tizimida loyihalashtirishning o'rni va imkoniyatlari.

! **Pedagogik tizim** – pedagogik texnologiya-ning asosi. Pedagogik tizim bir butun, harakatlanuvchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, *u o'quvchi, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, o'quv jarayoni, o'qituvchi yoki texnik vositalar, ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllaridan tuziladi.*

Pedagogik tizim didaktik vazifa va ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni – didaktik vazifa; o'quv jarayoni, o'qituvchi yoki texnik vositalar, ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari – ta'lim texnologiyasi.

Ta'lim muassasasining pedagogik tizimi – bir maqsadga yo'naltirilgan, tashkiliy tizim bo'lib, o'sib kelayotgan avlodni jamiyat hayotiga jalb etish, ularni jamiyat madaniyatini o'zlashtiruvchi, ijodkor, faol shaxs qilib rivojlantirish uning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu maqsad ta'lim muassasasi pedagogik tizimini takomillashtirishning barcha bosqichlarida, uning didaktik, tarbiyaviy tizimlarida hamda pedagogik jarayon barcha qatnashchilarining kasbiy va erkin muloqoti(boshqarish)da amalga oshiriladi.

Nazariy konsepsiya uchta o'zaro bog'langan, o'zaro bir-biriga singib ketuvchi, bir-biriga bog'liq bo'lgan: didaktik, tarbiyaviy hamda muloqot(boshqaruv) tizimlarida amalga oshiriladi. Bu tizimlar takomillasha borib, o'z navbatida nazariy konsepsiyaga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi ham, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga mos keladigan ta'lim loyihasini yaratishdir. Bunday loyiha hozirgi zamon psixologiyasi, didaktikasi va pedagogik amaliyotining asosiy va ilg'or g'oyalari tayangan holdagina yaratiladi.

Loyiha (lotincha *projectus* – oldinga tashlangan) – tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks ettirilgan g'oya, ma'lumotning mohiyatini ochib beruvchi, ularni amalga oshirishning aniq yo'llarini belgilab beruvchi g'oyalar, fikrlar, obrazlardir.

! **Pedagogik loyihalash** (PL) – yaratilayotgan modelni dastlabki va yakuniy ko'rinishda ishlab chiqish va uni amaliy qo'llash darajasiga yetkazishdan iborat. Pedagogik faoliyatda loyihalash ob'ektlari sifatida pedagogik jarayon, pedagogik vaziyat, pedagogik tizim bo'lishi mumkin.

Pedagogik loyihalash quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Obyekt haqidagi ilmiy asoslangan tasavvurga maksimal yaqinlashtirish uchun uni nima qilish kerakligi haqida umumiy tasavvurlarni izlash. Loyihaviy model pedagogik faoliyatning yangilangan qismi qanday bo'lishi lozimligini, mazkur faoliyatni yaxshilashni ta'minlash omillari haqida bilimlarni o'zida mujassam etadi;

2. Eskirgan samarasiz modellar o'rniga taqdim etiladigan yangiliklarni model-lashtirish uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan pedagogik xulosalar namunalarini izlash;

3. Pedagogik tizimning yangilangan bir bo'lagining innovatsion modelini yasash;

4. Yangilikni amaliyotga joriy etish algoritmini qurish.

O'quv loyihasi – ahamiyatga molik nazariy yoki amaliy muammolarni ta'lim oluvchilar tomonidan amalga tadbiiq qilishning tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik ish turidir.

O'qitishni loyihalash esa ta'limning umumiy maqsadi, mazmuni o'quv maqsadlari o'qish, o'qitish, o'zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir.

Demak, o'qitish jarayonini loyihalash uchun ijtimoiy buyurtma sifatida ta'limning umumiy maqsadlari asosida, o'quv maqsadlarini, buning uchun o'qish va o'qitishni, o'zlashtirishni rejalashtirgan holda, o'qish natijalarini kafolatlash tizimini ishlab chiqish lozim. Shunday qilib, pedagogik texnologiyada o'quv mazmuni asosida o'zlashtirish natijalarini kafolatlash uchun, o'quv maqsadlari oydinlashtiriladi va o'quv mashg'ulotlari loyihalashtiriladi. Buni qayta takrorlanadigan, tiklanadigan tuzilma deb qaraydigan bo'lsak, unda o'quv jarayoni ma'lum modullar, birliklardan iborat bo'ladi, ular umumiy holda ushbu modullar, birliklarning qo'shilishi asosida yagona va yaxlit mazmunga keltiriladi. Bunga eng muhimi, takrorlanadigan, qaytariladigan va tuzatishlar kiritilgan, ilmiy asoslangan teskari aloqaning mavjudligidir.

Bugungi kunda pedagogik tizimni loyihalash va rejalashtirish masalasi oliy ta'lim tizimida yetakchi tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq loyihalash va rejalashtirishga doir faoliyatning mazmun-mohiyati hamma uchun birdek tushunarli bo'lmayapti. Shuning uchun fanlar bo'yicha yaratilayotgan ta'lim texnologiyalarida formallik, takroriylik, maqsad va vazifalarning nomuvofiqligi, qayta aloqalarning intensiv emasligi, loyihalash va rejalashtirishning ketma-ket amalga oshirilmasligi kabi kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda.

Ta'limga texnologik yondashuv o'qituvchidan o'quv mashg'ulotiga tayyorlanish jarayonida juda ko'p mehnat qilishni talab qiladi. Mazkur jarayonda professor-o'qituvchi har bir mavzu bo'yicha o'quv maqsadini oydinlashtirish, pedagogik vazifalarni to'g'ri qo'yish, o'quv faoliyati natijalarini aniqlashtirish, ta'limni tashkil etish shakl, metod va vositalarini to'g'ri tanlab olish, o'quv vaqtini oqilona taqsimlash orqali o'qituvchi va talabning faoliyatini aniq tartiblangan algoritmini hosil qilishi lozim. Ana shu tartibda o'quv jarayonini loyihalay olgan professor-o'qituvchigina talabalarning o'quv-bilish faoliyatini erkin boshqara oladi.

Ta'lim – boshqariladigan jarayon bo'lib, uning natijasi, ko'p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog'liq.

Didaktik loyiha esa ta'lim texnologiyasining mahsulidir. O'quvchi-talabalarining bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko'ra boshqarish ta'lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko'p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo'lgan masofada ta'limning samarali usullari, vositalari ko'p topiladi. Bu yerda ta'lim texnologiyasi eng samarali usul bo'lib, ta'limning samarali shaklini tanlashda o'qituvchiga yordamga keladi.

Demak, maqsaddan etalonga yetib kelguncha o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba ongi juda ko'p hodisalar bilan uchrashadi. Ta'limga texnologik yondashish bu – ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'ildi: ta'limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyihaga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish; ta'limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi (pedagog) hamda o'quvchi-talabaning diqqat markazida turadi. O'qituvchi (pedagog) ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, o'quvchi-talabalarni o'zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va o'quvchi-talabalar o'zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. O'quvchi-talabalar ta'limning zaruriylik-

ini, ular ta'lim jarayonining haqiqiy subyektiga aylangan paytida sezishadi.

Pedagogik loyihalash bu – ommaviy foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimining innovatsion modelini yaratish bo'yicha maqsadli faoliyat bo'lib, u ham ta'lim, ham tarbiya jarayonlarini tashkil etilishi bosqichlari, mazkur jarayondagi maqsad va vazifalarni alohida-alohida oydinlashtirish, kutiladigan natijalarni aniq belgilab olishni shart qilib qo'yadi.

Ma'lumki, pedagogikada o'qituvchining darsga tayyorlanishi bosqichlari haqida gap borganda tashxis etish (diagnostik), bashoratlash (prognostik) bosqichlari bilan birga eng asosiy e'tibor loyihalash ekanligiga qaratiladi. Demak, loyihalash ta'lim jarayoni va o'qituvchi faoliyatini bog'lab turuvchi samarali mexanizmdir.

Ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishning asosiy bosqichlari:

1. Ta'lim loyihasini tayyorlash. Loyiha o'qituvchi yoki ekspert a'zolari tuza olish faoliyatining mahsuli bo'lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. Loyiha asosida o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

Ta'lim loyihasi ma'lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahliliy ma'lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta'lim mazmuni o'rganiladi, u yoki bu mavzuni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning didaktik maqsadi, o'qituvchi (pedagog) va talabalar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo'yicha o'tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o'zlashtirish usuli oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasi ta'lim modelini yaratishga olib keladi.

2. Ta'lim loyihasini amalga oshirish. Ta'lim loyihasi bevosita ta'lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchi-talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajari-ladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, vaqtini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish;

- talabalarni faol, mustaqil faoliyatga rag'batlantirish, ular diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg'otish, o'qish-o'rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish, emotsiyalar, tafakkur hodisala-ri, bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgarish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish.

Ta'lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favqulodda va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi. O'rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida ham joriy nazorat natijalariga asoslanib, loyihaga yangi o'zgartirish, qo'shimcha va tuzatishlar kiritiladi;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish, oraliq nazorat natijalariga ko'ra mavzu yoki bo'lim bo'yicha axborot to'plash, to'plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida talabalar erishgan yutuqlar-ni tahlil qilish, talabalarining bilim, ko'nikma va malaka-si, ijodiy faoliyat tajribasidagi kamchiliklarini ko'rsatish, guruhdagi har bir o'quvchi-talabaga yakuniy nazoratga-cha bajariladigan qo'shimcha topshiriqlarni berish, ularni o'quv materialini yanada atroflicha o'zlashtirishga rag'batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy vazifasi talabalarining ma'lumot va ta'lim mazmuni elementlarini etalon dara-jasida o'zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past

o'zlashtirgan talabalarni ogohlantirish, qo'shimcha topshiriqlar berish kabilardan iborat.

Yuqorida berilgan ko'rsatkichlar loyihalangan o'quv jarayonining texnologik dara-jasini to'liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa pedagogni yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, talabaning nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi. Ta'lim texnologiyasi asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar an'anaviy pedagogik amaliyotdan qator xususiyatlariga ko'ra farq qiladi:

- mashg'ulotlar talabalarining o'quv maqsadlarini oydinlashtirishdan boshlanadi;

- ta'lim-tarbiya jarayoni oldindan qayd etilgan natijaga mo'ljallab tashkil etiladi;

- har bir talaba o'z faoliyati xususiyatlariga mos keladigan sur'atda ishlaydi;

- jamoa a'zolarining har biri o'zlari erishgan natijadan tez-tez ogohlantirib turiladi;

- erishilgan natija ta'limning har bir bosqichida etalon-ga birlashtirib turiladi;

- natija talabalarining asosiy o'quv maqsadlariga ko'ra aniqlanadi;

- o'quv materialini to'liq o'zlashtirgan o'quvchi-talaba keyingi mavzuni o'rganishga o'tadi;

- etalondan past o'zlashtirgan talabalar uchun ta'lim o'xshash sharoitlarda takrorlanadi;

- talaba uchun o'qish-o'rganish harakatiga teng maqsadlarni amalga oshirishdan boshlanadi;

- talaba harakatga teng maqsadlardan oraliq maqsadga – bilimlarga, undan umumiy o'quv maqsadiga qarab boradi;

- harakatga teng maqsaddan umumiy o'quv maqsadiga qarab borish o'qish-o'rganishning siklligini ta'minlaydi;

- yakuniy (nazorat) baho o'quv kursi to'liq o'rganilgach chiqariladi.

Olima L.V.Golish pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish uchun uning qoidalariga amal qilish kerak deydi va pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirishning quyidagi qoidalarini ko'rsatadi:

1. O'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish qoidasi.

O'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi quyidagilardan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi:

- 1) ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish qoidalari;
- 2) maqsadni belgilash; o'quv fanining tuzilishi va mazmuni; - fan bo'yicha o'quv axborotining hajmi va murakkabligi;
- 3) DTS tomonidan belgilangan, berilgan sharoitda, o'quv rejada belgilangan vaqtda ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlovchi o'qitish, kommunikatsiya, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashga konseptual yondashuv.

Ta'lim texnologiyasining tuzilishi:

a) kirish

- jamiyatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyoti tamoyillarining chuqurlashuvi sharoitida ta'limni texnologiyalashtirishning dolzarbligi asoslaniadi; o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasining tuzilishi bayon etiladi va ma'ruza amaliy, seminar mashg'ulotlarida tanlangan ta'lim modellariga tavsif beriladi.

b) ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari

- o'quv fanining maqsadi, vazifalari va dolzarbligi, o'quv fani bo'yicha o'quv dasturiga mos auditoriya soatlarning hajmi va faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi; o'quv fanining mazmuni: o'quv fanining o'quv dasturiga mos ravishda o'quv fanining mavzuiy mazmuni izchil bayoni yoritiladi; o'quv mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari: bunda o'qitish, kommunikatsiya, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlash ishini amalga oshirish asosida yotuvchi ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishga konseptual yondashuv belgilanadi

v) ma'ruza, seminar va amaliy (laboratoriya) mashg'ulotlarda ta'lim texnologiyasi.

2. O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalash-tirish qoidalari.

Ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda o'qituvchi harakatining ketma-ketligi

I	Ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish	Ta'lim texnologiyasi modeli
2	O'quv mashg'ulotida talabalar bilan hamkorlikdagi faoliyatini bosqichma-bosqich rejalashtirish	O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi
3	O'quv jarayonining tashkiliy-didaktik ta'minotini ishlab chiqish	O'quv mashg'uloti texnologik xaritasiga ilovalar: o'quv-uslubiy, tarqatma va ko'rgazmali materiallar

Ta'lim texnologiyasining modeli:

1. O'quv mashg'ulotining tuzilishini aniqlaydi.
2. O'quv mashg'ulotining maqsadini shakllantiradi, o'quv faoliyatining kutilajak natijalarini aniqlaydi va pedagogik vazifalarni belgilaydi.

O'quv faoliyatining kutilajak natijalari bu – o'qitish natijasida talaba egal-lashi va bajarishi lozim bo'lgan harakatlar.

Ular tomondan erishilgan natijalarni obyektiv baholash va belgilangan maqsadga mosligini aniqlash imkonini beradi, aniq, lo'nda va fe'l shaklida shakllantiriladi, tugalgan harakatni bildiradi (...gapirib beradi, ...sanab, beradi, ...tavsiflaydi, ...yechimini topadi va hokazo).

Pedagogik vazifalar – talabanning o'quv faoliyatini belgilangan natijasiga qarab harakatlanishini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan harakatlari.

3. Maqbul ta'lim modelini loyihalashtiradi (tanlaydi)

Ta'lim modeli bu – belgilangan vaqtda va mavjud sharoitda belgilangan maqsadni amalga oshirish va bashorat qilingan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan ta'limning eng maqbul shakllari, usullari va vositalari majmuidir.

4. Qaytar aloqa yo'l va vositalarini tanlaydi: tezkor so'rov, savol-javob, o'quv topshirig'i natijalarini taqdimotini baholash va boshqalar.

5. Loyihaviy faoliyat natijasini jadval – o'quv jarayoni ta'lim texnologiyasi modeli ko'rinishida rasmiylashtiradi.

6. O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasini rejalashtirishni texnologik xarita ko'rinishida amalga oshiradi.

O'quv mashg'uloti texnologik xaritasi – o'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi tuzilishining jarayonli (protsessual) bayoni aks etgan hujjat. O'quv mashg'ulotini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich faoliyat ketma-ketligining mazmunini yoritadi

O'quv loyihasi bu – o'rganilgan mavzu yoki bo'limni yanada, chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan, ta'lim jarayoniga tajriba, faoliyat asosida yondashuvga imkon beruvchi, tadqiqotchilik va izlanishga doir metodlardan foydalanishni talab etuvchi ta'limni tashkil etish shakli.

Loyiha (design) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. Loyiha (project) tushunchasi kengroq ma'noda ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihalashtirish – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

Ta'limiy tavsifdagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

“O'quv loyihasi” tushunchasi keng qamrovga ega bo'lib, quyidagi mazmunga ega: muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli; nazariy

bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari; rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

O'quv loyihasidan foydalanish o'zida quyidagi maqsadlarni aks ettiradi: loyihaviy ta'lim jarayoni ishtirokchilarida o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga erishish; tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish; qo'lga kiritiladigan natija uchun talabalarda jamoa bo'lib ishlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

O'quv loyihasini ishlab chiqish bosqichlari: tayyorgarlik (motivatsiya, muammoli vaziyatlarni aniqlash, mavzuni tanlash, loyihaning maqsadini belgilash); loyihalashga doir (umumiy rejani ishlab chiqish, faoliyatni amalga oshirishning aniq rejasini tuzish, tanlab olingan nuqtayi nazar bilan bog'liqlikda topshiriqlarni talabalar o'rtasida taqsimlash, mustaqil ish, guruhlarda ishlash, "aqliy hujum", praktikum va boshqalar); amaliy (muammoni tadqiq etish, ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, natija olish, natijalarni sinovdan o'tkazish, natijalarni grafik ko'rinishida taqdim etish, hujjatlarni rasmiylashtirish); analitik (rejalashtirilgan ishlar va olingan natijalarni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash); nazorat va baholashga doir (natijalarni va yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil etish, xatolarni to'g'rilash yo'llarini izlash, real holat bilan bog'liqlikda loyihaga o'zgartirishlar kiritish); yakuniy (ish mazmuni bilan tanishtirish, xulosalarni asoslash, loyiha himoyasi).

Hozirgi vaqtda ta'lim amaliyotida o'quv loyihasining xilma-xil turlaridan foydalaniladi: yetakchi faoliyat turiga ko'ra: tadqiqot, amaliy yo'naltirilgan va axborotli; fanga yo'naltirilganligiga ko'ra: monoloyiha va fanlararo loyiha; davomiyligiga ko'ra: o'zoq muddatli, o'rta muddatli, qisqa muddatli; loyiha ishtirokchilarining soniga ko'ra: individual va guruhli.

Shuningdek, ta'lim maqsadi bilan bog'liqlikda ham o'quv loyihasini turlarga ajratish mumkin: axboriy, tadqiqotchilikka doir, amaliy-yo'naltirilgan, ijodiy, o'yinli yoki rolli (1-jadvalga qarang).

Tajriba-sinov ishlari jarayonida qoʻllanilgan oʻquv loyihalari turlari va ularning oʻziga xosliklari

Loyiha turi	Loyiha maqsadi	Loyiha mahsuli	Talabalar-ning faoliyat turi	Shakllanti-rilishi koʻzda tutilgan kompetent-lik
Amaliy yoʻnatirilgan	Loyiha buyurtma-chining vazifasini amaliy hal etish	Metodik tavsiyalar, tadbir ssenariylar, stendlar	Amaliy	Faoliyatga doir
Tadqiqot-chilikka oid	Qandaydir farazni ilgari surish va toʻgʻriligini isbotlash	Belgilan-gan usulda rasmiy-lashtirilgan tadqiqot natijasi	Mantiqiy, fikriy va operatsion faoliyat	Fikrlashga doir
Axboriy tavsifga ega	Biror-bir obyekt yoki hodisa haqidagi maʼlumotlarni toʻplash	Statistik maʼlumotlar, ijtimoiy fikrga doir soʻrov natijalari, biror masala yuzasidan turli mu-alliflarning fikrlarini umumlash-tirish	Axborotlar bilan ishlashga doir faoliyat	Axboriy
Ijodiy	Loyiha muammo-siga badiiy qiziqishni oshirish	Badiiy asar(sheʼr, hikoya)lar, insho, esse	Ijodiy faoliyat	Kommuni-kativ
Oʻyinli va rolli	Loyiha muammo-sini izlab topish va uning hal etishga doir vaziyatni taqdim etish	Ishbop oʻyin, viktorina, biish-soʻrov, ekskursiya	Guruhiy faoliyat	Kommuni-kativ

Masalan, agar o'qituvchi talabada axborotlar bilan ishlash malakasini, matnni tahlil etish, turli manbalardagi ma'lumotlarni tasniflash va tekshirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa, u holda axboriy tavsifdagi o'quv loyihasidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Axboriy tavsifdagi loyihaning maqsadi aynan ma'lumotlarni to'plash, axborotlarni rasmiylashtirish va taqdim etishdan iborat. Albatta, o'quv loyihasining istalgan turida axborot to'plash bosqichi bor, biroq bu yerda u o'quv ishi vositasi bo'lib xizmat qiladi, axboriy tavsifdagi loyihada esa, asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Mazkur holatda talaba faoliyati aynan axborotlar bilan ishlashga yo'naltiriladi. Shu bilan birgalikda talabada axboriy kompetentlikni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanadi.

2-jadval

O'quv loyihasini amalga oshirish bosqichlari

Loyihani bajarish bosqichlari	Talaba faoliyati	O'qituvchi faoliyati	Ta'lim berish shakli va metodlari
Izlanishga doir	muammoni muhokama qiladi; maqsadni belgilaydi va reja ishlab chiqadi; tadqiqot o'tkazadi	talabalarga muammoni taklif etadi va muhokama qiladi; loyiha maqsadlarini tushuntiradi	muammoli suhbat; hikoya; maslahat; mustaqil ish; ekskursiya
Tashkiliy	ma'lumotlar bilan ishlaydi; analiz va sintez qiladi, g'oyalarni baholaydi	talabalarni faollashtiradi, g'oyalarni topish va qaror qabul qilishga yordam beradi	munozara; aqliy hujum; rolli o'yin; mustaqil ish;
Texnologik	zarur tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi; nazoratni amalga oshiradi; mahsulot sifatini nazorat qiladi	moddiy bazani ta'minlaydi; talabalar faoliyatini boshqaradi;	namoyish etish; mashq; mustaqil ish; amaliy ish.
Yakuniy	loyihani bajarish natijalarini tahlil qiladi; hujjatlarni himoyaga tayyorlaydi; loyihani himoya qiladi	loyihani muhokama va himoya qilish jarayonini tashkil etadi; anglaydi; loyihani tahlil etish va baholashda ishtirok etadi	Maslahatli-rolli ishbop o'yin; taqdimot (multi-media, videorolik).

Talabalarning analitik, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, idrok etishning mantiqiy usullarini o'zlash-tirish va katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash maqsad qilib qo'yilsa, tadqiqotchilikka doir o'quv loyihasidan foy-dalanish maqsadga muvofiq. Mazkur o'quv loyihasining maqsadi loyiha farazini asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tajriba-sinovishlari o'tkazish, olin-gan natijalarni tahlil etish, umumlashtirish, taqqoslash, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, bundan tashqari xu-losalar chiqarish, o'z nuqtayi nazarini asoslash zarur. Ana shu tarzda tadqiqotchilikka doir o'quv loyihasida asosiy e'tibor fikriy kompetentlikni rivojlantirishga qaratiladi.

Ma'lum bir fan yoki fanlarga doir amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish zaruriyati paydo bo'lganda amaliy yo'naltirilgan loyihalardan foydalanish yaxshi sa-mara beradi. Eng oddiy holatda, o'qituvchi talabalardan fanga doir tarqatma materiallar yoki o'yinlar ssenariysi, glossariy, tarixiy atlaslar yaratish topshirig'ini buyurishi mumkin. Amaliy yo'naltirilgan loyihalar bilan ishlash ja-rayonida talabalarda nafaqat fanga doir bilim, ko'nikma va malakalar rivojlanibgina qolmay, balki faoliyatga doir kompetentlik ham qaror topadi.

O'quv loyihasida eng katta e'tibor talabalarda ijodiy qo-biliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Aynan ijodiy loyiha talabalarga o'zini namoyon eta olish, istalgan janrdagi asar-ni yaratish imkonini beradi. Shuningdek, ijodiy loyihalar talabalarni guruhdagi maqomining oshishi, o'z-o'zini ba-holashga imkon berishi orqali ularning ijodiy qobiliyatla-rini rivojlantiradi. Har qanday ijodiy ish uni taqdim etish va sinf jamoasi bilan qayta aloqani taqozo etadi. Ana shu sababli ijodiy loyihalar talabalarda kommunikativ kompe-tentlikni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'quv loyihasini amalga oshirishda bir qator shakl va metodlarga tayaniladi. O'quv loyihasini tashkil etishning turli bosqichlarida bir biridan farq qiluvchi metodlarga murojaat etishga to'g'ri keladi. Bu jarayonda o'qituvchi va talabalarning faoliyatlari ham bir-biridan farqlanadi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Uzluksiz ta'lim tizimida loyihalashtirishning o'rni qanday ahamiyatga ega?
2. Pedagogik loyihalashning qanday shakllari mavjud?
3. Pedagogik loyihalashning qanday tamoyillari mavjud?
4. Pedagogik obyektlarni loyihalashtirishga doir harakatlar tartibi va tavsifi nimalardan iborat?

5-§. HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING KONSEPTUAL G'OYALARI



Tayanch tushunchalar: shaxslararo munosabatlar, o'quv faoliyati, hamkorlikdagi faoliyat usuli, interaktivlik, pedagogik amaliyot, hamkorlik pedagogikasi, pedagogik tizim, o'quv jarayoni.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson (1987), Koliforniya universiteti professori – Sh.Sharon (1988), tomonidan ishlab ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va muozaralar o'tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

! Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970-yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir.

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash,

har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahlil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam qilishgaga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

1. Jamoada o'qitish (R.Slavin) da o'quvchilar teng sonli ikki komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan qunvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

2. Kichik guruhlarda hamkorlikda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin, 1986).

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 nafar o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quv-

chilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.

O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

Psixolog A.V.Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonidagi o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularni muloqotga ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta'kidlagan edi.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va o'quvchilarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish ob'ektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta'minlaydi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir.

Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi xatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi;

O'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi;

- o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosbata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Pedagogika – psixologiya fanida hamkorlikning 8 ta shakli mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Faoliyatga kirish;

2. Mustaqil harakatlar o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradilar;

3. O'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi;

4. Taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi);

5. Madad harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi);

6. O'zini o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);

7. O'zini o'zi ko'rsatuvchi harakatlar;

8. O'zini o'zi uyushtiruvchi harakatlar.

Interaktivlik – o'qituvchi va o'quvchining o'zaro bir-biriga ta'siri. Hamkorlik faoliyatini takomil bosqichiga o'tish jarayonida o'zaro ta'sir o'tkazish harakatini baholashdan o'z-o'zini baholash darajasiga ko'tarilishi sodir bo'ladi. Ushbu jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muhim omillardan biri vazifasini o'taydi.

Hamkorlik pedagogikasi konsepsiyasining eng asosiy maqsadi – har bir bolaning hayotda o'z o'rnini topib, o'z baxti uchun zamin yaratishiga, el-yurt oldidagi mas'uliyatini seza oladigan, vatanparvar bo'lishiga qaratilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, eng avvalo, quyidagi bir qator muhim omillarga bog'liq:

– o'qituvchilarning zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, ilg'or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishi;

– o'quvchilarda zarur bilimlar va hayotiy ko'nikmalar-

ni shakllantirishga qaratilgan hamda bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvini samarali joriy etilishi;

– ta'lim-tarbiya jarayonini hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilishi;

– o'qituvchining pedagogik ehtiyojiga asoslangan metodik xizmatning samarali yo'lga qo'yilganligi;

– o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatish, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish va h.k.

Eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi, zamonaviy talablarga javob beradigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ko'p jihatdan barcha maktablari-mizda zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy etilishiga bog'liq.

Shu bilan birga, o'tgan davr mobaynida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladigan bir qator jiddiy muammolar yuzaga keldi.

Jumladan, hamkorlik pedagogikasining metod, vositalari va texnologiyalari ilmiy-metodik jihatdan asoslanmagan. Bu pedagogik amaliyotda ham o'z ta'sirini ko'rsatib, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida o'zining salbiy jihatini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlar ta'sirida ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishning muhim belgisi sifatida – uni boshqarishga texnologik yondashuv muammosi tadqiq etilmoqda. Shuningdek, ta'lim menejmenti nazariyasi va amaliyoti ta'lim muassasasini ilmiy-metodik asosda boshqarish zarurligini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning o'ziga xosligi shundan iboratki, jamiyatimiz tomoni-

dan har bir shaxsning rivojlanishi uchun yangidan-yangi talablar qo'yilmoqda. Shu bois pedagogik jamoatchilikning asosiy e'tibori pedagogik jarayonlarni unda ishtirok etadigan barcha ijtimoiy institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda hamkorlik pedagogikasi muammosining dolzarbligiga quyidagilar asos bo'lmoqda:

Birinchidan, jamiyatda ijtimoiy va pedagogik jarayonlar amalga oshirilayotganligi (munosabatlarning insonparvarlashuvi va demokratlashuvi, inson faktori rolining kuchayayotganligi, innovatsion jarayonlar asosida ta'lim-tarbiya sifatining oshayotganligi, butun xalqning ta'limga, maktabga uning muammolariga e'tiborining oshayotganligi va h.k.);

Ikkinchidan, umumiy, ommaviy pedagogik amaliyotning holati (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarga yetarli darajada pedagogik qo'llab-quvvatlashning berilmayotganligi, ularning o'quv-tarbiya jarayonidan qoniqmayotganliklari, ta'lim beruvchilar tomonidan ta'lim oluvchilarga munosabatlarni o'zgartirish zarurligini tushunmasliklari, bilmasliklari va ayrim hollarda xohlamasliklari va h.k.);

Uchinchidan, pedagog – amaliyotchilarning innovatsiyalarga intilishlari (bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya berishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish va h.k.).

Ko'pgina ilmiy-tadqiqot ishlarida "hamkorlik", "sherikchilik", "muvofiqlashish", "birgalikdagi harakat" tushunchalari sinonimlar sifatida ishlatib kelingan. Bizning fikrimizcha, "hamkorlik" tushunchasi keng qamrovli bo'lib, umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi harakat deb qabul qilinishi mumkin.

Hamkorlik pedagogikasining keng ma'nodagi mohiyati bu – ta'lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohaga qiziqishi bo'lgan tomonlarning talab va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblikni (balansni) izlash, amaliyotga tezkor joriy etish jarayonidir. Shuningdek, mazkur hamkorlik ta'lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohaga qiziqishi bo'lgan ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqilgan ma'lum ma'nodagi standartlar, modellar (sifatlar, fazilatlar, talablar, me'yorlar va

h.k.) asosida ta'minlanadi.

Hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish bu – ta'limni boshqarish muassasalari, mahalliy davlat boshqaruv organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, huquq-tartibot idoralari, jamoat tashkilotlari va oilalar manfaatlarini muvofiqlashtirib, ta'lim sifatini amaldagi qonunchilik, davlat ta'lim standartlari va xalqaro standartlar asosida ta'minlashdir.

Hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– joriy va strategik boshqaruv samaradorligini tahlil qilish mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish;

– ta'limni boshqarish muassasalari, mahalliy davlat boshqaruv organlari, o'zini o'zi boshqarish idoralari, huquq-tartibot organlari, jamoat tashkilotlari va oilalar manfaatlarini ustuvor bilish, ularning huquq va manfaatlari buzilgan hollarda himoya qilishning samarali usullaridan foydalanish;

– ta'lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohaga qiziqishi bo'lgan tomonlarning talab va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblikni (balansni) ta'minlash.

Ilmiy tadqiqotimiz muammosiga bag'ishlangan ilmiy pedagogik, o'quv-metodik nashrlarning tahlili hamkorlik pedagogikasining asosiy prinsiplari va konseptual g'oyalarini ta'lim muassasalari amaliyotida joriy etilganlik va ulardan foydalanish samaradorligi darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

O'rganib chiqilgan manbalar, adabiyotlar, zamonaviy konseptiyalar, texnologiyalar va tajribalarga asosan, umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirishning quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqdik, bular:

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari jamoalarini, xususan, pedagoglarni hamkorlik pedagogikasi prinsiplari va konseptual g'oyalarini bilishga hamda amaliyotga joriy

etishga yo'llash;

2. Barcha ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari va hamkorlar (o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla), jamoat tashkilotlari, huquq-tartibot idoralari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va h.k.) faoliyatini muvofiqlashtirgan holda yaxlit pedagogik jarayon tashkil etish;

3. Umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish modelini xalq ta'limi tizimi ta'lim muassasalari amaliyotiga joriy etish;

4. Jamoaviy ta'lim-tarbiya g'oyasini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonining variativ texnologiyalarini amaliyotga joriy etish;

5. Talabalarni, bo'lajak pedagoglarni, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari tinglovchilarini hamkorlik pedagogikasi prinsiplari va kontseptual g'oyalari, shuningdek, ularni amalga oshirish texnologiyalari bilan tanishtirish;

6. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari va hamkorlar faoliyati muvofiqlashtirilgan holdagi yaxlit pedagogik jarayon modelining natijasi o'laroq – barkamol avlod, ijtimoiy faol, ijodkor, informatsion-kommunikativ kompetentlikka ega bo'lgan ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi shaxsni shakllantirish.

Shunday qilib, hamkorlik pedagogikasi yo'nalishlarining va hozirgi kundagi amaliyot va tajribalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish modelini, hamkorlik pedagogikasi prinsiplari va konseptual g'oyalarini amaliyotga joriy etish yo'nalishlari va darajasini, uni amaliyotda samarali qo'llash jarayonini baholashning mezonlari va ko'rsatkichlari – umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratish imkonini berdi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Zamonaviy sharoitda natijaga olib kelmaydigan to'g'ridan to'g'ri majburlashdan metod sifatida voz kechish deganda nimalar nazarda tutiladi?
2. Ta'lim oluvchi shaxsiga individual yondashuv qay tartibda amalga oshiriladi?
3. Didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi kompleksga nimalar kiradi?
4. Fanlarni integratsiyalash deganda nima-ni tushunasiz?

6-§. PEDAGOGIK FAOLIYATDA YUZAGA KELADIGAN KASBIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH STRATEGIYALARI



Tayanch tushunchalar: pedagogik refleksiya, adaptatsiya ta'lim, innovatsion jarayon, bilim, ko'nikma, tarbiya, uzluksiz ta'lim, modernizatsiya, tizim, metodika.

Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarning o'rganishning zaruriyati va o'ziga xos jihatlari.

Ta'limdagi innovatsion jarayonlar qoidaga muvofiq uch asosiy – ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruvga doir jihat bilan bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Mazkur jihatlarining mazmunidan innovatsion jarayonlar yuzaga keladigan umumiy shart-sharoitlar hosil bo'ladi. Mavjud shart-sharoitlar innovatsion jarayonning amalga oshishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin. Innovatsion jarayonlar ham stixiyali, shuningdek, ongli boshqarilishi mumkin. Yangilik kiritish, eng avvalo, tabiiy va sun'iy o'zgarishlar jarayonini boshqarish funksiyasi. Shuning uchun ta'limdagi innovatsion jarayon bu – ta'limdagi o'zgarishlarni boshqarish jarayoni demakdir.³

Innovatsion jarayon innovatsion faoliyatdan tashqari o'z ichiga ko'plab uni amalga oshirish shart-sharoitlarini, shu jumladan, faoliyat subyektlarini qamrab oladi. Innovatsion jarayon subyekti deganda, ta'lim muassasalariga yangiliklar kiritish jarayoniga ishtirok etuvchi shaxslar (rektor, prorektor, kafedra mudirlari, professor-o'qituvchilar, talabalar, ota-onalar, homiylar, metodistlar, konsultantlar, ekspertlar) va ta'limni boshqarish organlari tushuniladi. Ular harakatining birligi ma'lum bir natijalarga erishishga olib keladi. Innovatsion jarayon subyekti sifatida o'qituvchi yangilikni o'zlashtiruvchi va amaliyotga tatbiq etishda katta rol o'ynaydi. Mazkur jihat innovatsion muhit

³Хуторский А.В. Педагогическая инноватика. – М.: Академия, 2008. – С.40.

sharoitida pedagog faoliyatini boshqarishda qator o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratishni talab etadi. *Odatda, oliy ta'lim muassasalarida rahbar-xodimlar innovatsiyalarni joriy etish jarayonida professor-o'qituvchilarning xulq-atvori turli xil ko'rinishlarda (ayrimlari yangilikni tatbiq etishga qarshilik ko'rsatishi, ba'zilar butunlay inkor etishi)da namoyon bo'lishi haqida ko'p gapirishadi. Aslida mazkur holat tabiiy jarayon bo'lib, innovatsiyalarni joriy etishda pedagog faoliyatini boshqarishda quyidagi bosqichlarni hisobga olishlari va ana shu asosda ularga ta'sir ko'rsatishlari lozim: yangilikni inkor etish, yangilikka qarshilik ko'rsatish, yangilikni tadqiq etishga kirishish, yangilikni tatbiq etish doirasini kengaytirish, yangilikni qo'llashni an'anaga aylantirish.*

Birinchi – inkor etish bosqichi jamoa a'zolarining yangi g'oyani qabul qilishga tayyor emasliklari, avvalgi yo'nalish bo'yicha ish tutishga istak bildirishlari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mazkur bosqichda rahbar yangi g'oya haqida ko'proq axborot berishi, uning imkoniyatlari va natijaviyligini ko'rsatib bera olishi muhim sanaladi.

Ikkinchi – yangilikka qarshilik ko'rsatish bosqichida rahbar jamoa a'zolarining ochiq qarshiligiga uchraydi. Ana shu sababli mazkur bosqichda rahbar u tomonidan ilgari surilayotgan g'oyaning qo'llab-quvvatlovchi a'zolarini to'plashi va ularga suyanishi zarur.

Uchinchi – yangilikni tadqiq etish bosqichda pedagoglar ma'lum tanaffusdan so'ng yangi g'oyalarni idrok etadilar, yangi faoliyat usullarini qo'llay boshlaydilar. Mazkur bosqichda rahbar tomonidan "aqliy hujum" uyushtirishi jamoaning innovatsion faoliyatini tashkil etishda yaxshi samara beradi.

To'rtinchi, ya'ni yangilikni tatbiq etish doirasini kengaytirish – ijodiy guruhlarni keng tarzda rivojlantirish bosqichidir. Innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirishni tezda yaxshilashning maqsadi aniqlanadi, yangi mazmuni izlanadi, yangi rituellar yaratiladi.

Beshinchi – yangilikni qo'llashni an'anaga aylantirish bosqichida yangilik ta'lim muassasasi ta'lim amaliyotiga mustahkam kirib boradi va joriy etiladi⁴.

⁴Зуфаров Ш.М. Педагогика коллежларида инновацион жараёнларни тизимли бошқариш: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2010. – Б. 70-71.

Soʻz boshida taʼkidlab oʻtqanimizdek, respublikamizda pedagog kadrlarning qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishiga keng eʼtibor qaratilgan. Biroq faqat maʼlum vaqt oraligʻidagi qisqa kurslar doirasida doimiy ravishda oʻzgarishlar, yangilanishlar bilan boyib boradigan pedagogik faoliyatning samaradorligi toʻliq taʼminlanmaydi. Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan yangiliklarni samarali oʻzlashtirishning va amaliyotga joriy etishning muhim vositalaridan biri pedagog-kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishdir.

Pedagogika va pedagogik menejmentda innovatsion salohiyat tushunchasi ikki xil tarzda talqin etiladi: keng maʼnoda – taʼlim muassasasining innovatsion salohiyati, tor maʼnoda – oʻqituvchining innovatsion salohiyati. Taʼlim muassasasining innovatsion salohiyati deganda, uning oʻz-oʻzini rivojlantirishga tayyorligi, shaxsning oʻz-oʻzini rivojlantirish uchun madaniy-taʼlimiy muhitning va shart-sharoitlarning xilma-xilligi hamda kommunikativ munosabatlarning yuqori darajasi tushuniladi. Alohida pedagog uchun esa, bu – uning shaxsidagi ijtimoiy-madaniy va ijodiy oʻziga xosliklar yigʻindisi, pedagogik faoliyatni takomillashtirishga tayyorligi hamda buning uchun zaruriy ichki vosita va metodlarning mavjudligidir .

Oliy taʼlim muassasalarida innovatsion salohiyat – innovatsion jarayonning muhim sharti sifatida qaralib, uch tarkibiy qismni oʻz ichiga qamrab oladi: oliy harbiy bilim yurti pedagogik jamoasining innovatsion salohiyati, ijodiy guruhlarining innovatsion salohiyati hamda alohida (konkret) harbiy pedagogning innovatsion salohiyati.⁵

Oliy taʼlim muassasalarida innovatsion salohiyatni rivojlantirish dinamik tavsifga ega boʻlib, ichki(subyektiv) va tashqi (obyektiv) omillar taʼsirida yuzaga chiqadi. Ana shu sababli pedagog-kadrlarning malakasini oshirish vositasi sifatida innovatsion salohiyatni rivojlantirishga taʼsir etuvchi ichki va tashqi omillarning ahamiyatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik innovatika

⁵Волчкова А.П. Управление инновационным процессом в современной школе: организационно-педагогический аспект: дисс. ... канд.пед.наук. Москва 1999. – С.101.

va innovatsion menejmentga doir tadqiqotlar va adabiyotlar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, bugungi kunda pedagog-kadrlarining innovatsion salohiyatni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi omillar mavjud:

1) novatsiya (yangiliklar)ning foydalanuvchilarga tushunarli bo'lmasligi;

2) agar taklif qilingan yangilikni joriy qilinishi ko'p kuchni talab qilsa-yu, o'qituvchilarning esa imkoniyatlari cheklangan bo'lsa, bu holat yangilikni o'zlashtirishni to'xtatish omili bo'lishi mumkin;

3) subyekt tomonidan yangilikni o'zlashtirish uchun yetarli darajada motivatsiyaning mavjud emasligi;

4) yangiliklarni qabul qilishga nisbatan qarshilik va uning ochiq namoyon bo'lmasligi kabilar.

Innovatsion salohiyatni tashkillashtirish jarayonining tuzilishi murakkab tavsifga ega bo'lib, salohiyatning rivojlanish darajasi esa innovatsion imkoniyatlarni, pedagog kadrlarlarining o'z mehnati samaradorligidan qoniqish hosil qilishlarini taqozo etadi. Mazkur ta'rifni asos qilib olgan holda, innovatsion salohiyatning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Texnologik tarkibiy qism pedagoglarning kasbiy ko'nikma va malakalarga egaligi darajasi, ishlab chiqarish texnologiyalari, tashkilotdagi yangilanishlarni boshqarish va amalga oshirish bilan tavsiflanadi.

Pedagog-kadrlarning innovatsion faoliyatga texnologik tayyorligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) o'z faoliyat natijalarini tanqidiy baholay olish qobiliyati;

2) o'z kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

3) yangi axborotni ijobiy idrok etish qobiliyatiga egalik;

4) tashkiliy madaniyat va psixologik muhitning innovatsion faoliyatga yo'nalganligi.

2. Kognitiv tarkibiy qism o'zida jamoa a'zolarining kelgusi yangilanishlardan xabardorligi, shu bilan birga innovatsiya subyektlarining professional bilim darajasini aks ettiradi.

3. Kreativ tarkibiy qism professional faoliyatni amalga oshirishda pedagoglarda ijodiy yondashuvning mavjudligi,

ularning muammoli vaziyatlarda nostandart fikrlay olish ko'nikmalariga egaliklarini aniqlab beradi.

4. Psixologik muhitda namoyon bo'luvchi muassasaning tashkiliy madaniyati, qadriyatga yo'nalganligi, ijtimoiy ustanovkalar, jamoa a'zolarining xatti-harakatlari innovatsion salohiyatning regulyativ tarkibiy qismi mazmun-mohiyatini ochib beradi.

5. Jamoa a'zolarining innovatsiyani o'zlashtirish jarayoni, ularning faoliyatiga ta'sir etishi, uni kuchaytirishi yo susaytirishi hissiy-emotsional tarkibiy qism bilan belgilanadi.

6. Motivatsion tarkibiy qism jamoa a'zolarining yangilikka munosabatini aniqlash: innovatsion faoliyatga da'vat etish, uning chegara va shakllarini belgilab berish, ta'lim muassasasi maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan, mo'ljallangan motivlardan tarkib topadi.

Motivatsion-ijodiy yo'nalganlik pedagog-kadrlarda quyidagi ehtiyoj va qobiliyatlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi:

1) pedagogik vazifalarni hal etishga doir standart bo'lmagan yondashuvlarni izlab topish;

2) izlanishli-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish;

3) yangiliklarni amaliyotda qo'llay olish uchun mavjud bilimlardan foydalana olish va ularni rivojlantirish;

4) pedagogik refleksiyaning amalga oshirish;

5) ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik shart-sharoitlarga doir o'zgarishlarga tez moslasha olish.

Pedagogika fanida jamoaning innovatsion salohiyatini baholashga doir yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida diagnostik yondashuv keng tarqalgan. Diagnostik yondashuvni amalga oshirish aniq belgilangan mezonlar asosida jamoaning rivojlanganlik darajasini tashxis etish va tahlil etish hamda innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillarni baholashni talab etadi.

Pedagog-kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatib o'tish mumkin:

1) harbiy pedagog-kadrlarning ijod qilishi uchun erkinlikning taqdim etilganligi;

2) novator pedagoglarni resurslar bilan ta'minlanishining rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;

3) jamoada munozara va fikrlar almashinuvining faol yo'lga qo'yilganligi;

4) kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga ishtiyoqning rag'batlantirilganligi;

5) pedagogning o'z-o'zini rivojlantirishi uchun imkoniyatlarning taqdim etilishi;

6) yuqori darajadagi axboriy ta'minotning yo'lga qo'yilganligi;

7) o'zgarishlar argumentatsiyasining asoslanganligi;

8) jamoada ishonch va o'zaro bir-biriga yordam berish jarayonining qo'llab-quvvatlanishi.

Innovatsion muhit sharoitida yuzaga kelayotgan pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bu o'qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar bo'lib, mazkur muammoning hal qilinmasligi quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi: 1) pedagogning o'z ishidan qoniqmasligi; 2) pedagogik mehnat samaradorligining pasayishi; 3) psixik zo'riqishning kuchayib borishi; 4) kasbiy deformatsiyalarning to'planib borishi va boshqalar.

O'qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar ko'p aspektli tavsifga ega bo'lib, ularni asosiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kasbiy. Ushbu jihat bilan bog'liq qiyinchiliklar samaradorlik, ishonch, faoliyat sifati orasidagi sabab-oqibat aloqadorliklari va faoliyat subyektining individual o'ziga xosliklarini o'rganish bilan tavsiflanadi.

2. Fiziologik. Mazkur jihat o'qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni uning oliy nerv faoliyati tizimi va sensomotor harakatlari orasidagi bog'liqlikda ko'rib chiqadi.

3. Ijtimoiy. Ushbu jihat bilan bog'liq qiyinchiliklar o'qituvchining ijtimoiy mavqeyi, obro'-e'tibori, uni ijtimoiy himoyalash bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishni taqozo etadi.

4. Tibbiy. Mazkur aspekt faoliyatdagi qiyinchiliklarni o'qituvchining ruhiy, jismoniy sog'lomligi, turli kasalliklarni orttirishi, ularni salomatlikka ta'sirini aniqlab beradi.

O'qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar-ni o'rganishning kasbiy jihati murakkab ko'rinishga ega bo'lib, keng qamrovli tahlilni talab etadi. Kasbiy faoliyat bilan bog'liqlikda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar quyida-gi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin: 1) faoliyatning obyektiv shart-sharoitlari. Ya'ni shaxsning o'z faolligini namoyon qilishga to'sqinlik qilinishi, boshqacha aytganda bar'erlarning mavjudligi; 2) shaxsning o'ziga xos psixologik xususiyatlari.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida yuzaga keluvchi qi-yinchiliklarning obyektiv shart-sharoitlariga quyidagilar-ni kiritish mumkin:

1) o'qituvchi mehnatini tashkil etishda metodik ta'mi-notning yetarli bo'lmasligi;

2) o'qituvchi faoliyatini baholashdagi formalizm (yu-zakilik);

3) o'qituvchining ikkinchi darajali vazifalarga jalb etilishi.

Pedagog shaxsining spesifik o'ziga xosliklari bilan bog'liqlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklar:

1) pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ichki kuch va imkoniyatlarning yetarli emasligi;

2) sohadagi islohotlar bilan bog'liqlikda faoliyatni o'zgartirish imkonini bermaydigan o'z-o'zini yo'naltirish mexanizmining buzilishi;

3) salbiy psixologik holatlar (ishonchsizlik, asabiylik, qo'rquv, o'z faoliyatidan qoniqmaslik va boshqalar).

O'qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklar-ni bartaraf etish quyidagi strategiyalarga asoslanishni ta-lab etadi: 1) kasbiy rivojlanish (konstruktiv strategiya); 2) psixologik muhofaza (himoya strategiyasi); 3) kasbiy de-formatsiya (destruktiv strategiya).

Oliy ta'limda faoliyat yuritadigan professor-o'qituv-chilarni kasbiy yetuklik darajasiga ko'ra shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin: adaptatsiya bosqichidagi, funksional barqarorlikka ega, kasbiy mahoratga ega va no-vator o'qituvchilar.

Adaptatsiya bosqichidagi o'qituvchilar uchun xos muammoli vaziyatlar kasbiy muhitga kirish, pedagogik jamoadagi me'yor, qadriyat va an'analarni qabul qilish bi-

lan bog'liqdir. Mazkur murakkabliklar obyektiv tavsifga ega bo'lib, mavhum aloqadorlik esa, yosh o'qituvchi ta'lim jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hamda pedagogik faoliyatga doir me'yor va qadriyatlarni real amaliyotga qo'llay yoki qo'llay olmasligida namoyon bo'ladi.

Funksional barqarorlikka ega o'qituvchilarda murakkab vaziyatlar pedagogik stereotiplarni murakkablashuvi bilan bog'liqlikda yuzaga keladi. Bu esa o'qituvchidan tashabbuskor qayta kasbiy o'z-o'zini namoyon etishni talab etadi.

Mahoratli pedagoglar uchun qiyinchiliklar innovatsion to'siqlarni yengib o'tish bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatdagi to'sqinliklar ko'pincha pedagog faoliyatini chegaralab qo'yish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mazkur tipologiya bilan bog'liqlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hal etishda bir yoki bir necha strategiyani qo'llash maqsadga muvofiq. Masalan, yosh o'qituvchilar faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklar eng avvalo, ularning kasbiy rivojlanishi bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishi, kasbiy faoliyat bilan bog'liq muammoni vaziyatlarni hal etishda ularni psixologik qo'llab-quvvatlash, o'z-o'ziga ishonch, mas'uliyatni qaror toptirish, shuningdek, o'zgaruvchan vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakatlana olish strategiyalarini talab etadi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarning o'rganishning zaruriyati va o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Pedagog faoliyatida yuzaga keladigan muammolarning kelib chiqish sabablari qanday?
3. Kasbiy yetuklik darajasi bilan bog'liqlikda pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal etish strategiyalariga nimalar kiradi?
4. Yosh pedagog kadrlarning kasbiy moslashuvini amalga oshirishda stajorlik faoliyatining o'rne qanday?

7-§. OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI



Tayanch tushunchalar: mustaqil ish, ma'ruza, seminar, metodik ta'minot, o'quv jarayoni, ta'lim, bilim, ko'nikma, tarbiya, uzluksiz ta'lim, tizim, tendensiya, metodika, pedagogik shart-sharoit.

Oliy ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tizimi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish, respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish, oliy ta'lim muassalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim

tizimiga bosqichma-bosqich o'tish kabi istiqbolli vazifalar belgilab o'tilgan.

Bugungi kunda respublikamizda 114 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so'nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta'lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiali tashkil etilgan. Shuningdek kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritilgan.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari sifatida mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish hamda sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash kabilar belgilangan.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari sifatida quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. "Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida"gi Namunaviy nizom.

2. "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom.

3. Oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Davlat ta'lim standartlarining bajarilishi hamda talabalar bilim sifati ko'rsatkichlarini

o'shinish to'g'risida"gi 2010-yil 26-martdagi 128-sonli buyrug'i.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi 2012-yil 12-oktabrdagi PQ-1875-sonli Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Ochiq leksiyalarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 2004 -yil 26-martdagi 79-sonli buyrug'i.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Fan dasturlarini tasdiqlash hamda o'quv adabiyotlarini nashr etishga ruxsat berish to'g'risida"gi 2011-yil 17-sentabrdagi 392-sonli buyrug'i.

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Magistratura nizomini tasdiqlash to'g'risida" 2012-yil 29-oktabrdagi 418-sonli buyrug'i.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2006-yil 10-fevraldagi 20-sonli Qarori.

10. "O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimi pedagog, professor-o'qituvchi va rahbar kadrlar attestatsiyasi haqida"gi Nizomlar loyihalarini aprotatsiyadan o'tkazish haqida"gi 2004-yil 14-maydagi 138-sonli buyrug'i.

Oliy ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning metodik ta'minotida quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Ma'ruza va uning o'ziga xosliklari

Ma'ruza – oliy ta'limda o'qitishning asosiy shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

1) yo'naltiruvchi: talabalarni o'quv materialining asosiy jihatlariga e'tibor qaratishga imkon berish;

2) axborot: o'qituvchi ma'ruza vaqtida muammoni, muammo bilan bog'liq asosiy dalil va xulosalar mohiyatini ochib beradi;

3) metodologik: ma'ruza jarayonida muammoning falsafiy-nazariy asoslari namoyon etiladi.

4) tarbiyalovchi: talabalarda tinglash, idrok etish, mu-nozarada ishtirok etish madaniyatini shakllantirish;

5) rivojlantiruvchi: talabalarda mantiqiy fikrlash, xulo-salar chiqara olish qobiliyatini rivojlantirish.

Ma'ruza turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari

Loyiha turi	O'ziga xos xususiyatlari
Kirish ma'ruzasi	Talabalarda o'quv fani to'g'risidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirish
Ma'lumotli ma'ruza	Talabalarda muammoga doir ma'lumotlarni axboriy-retseptli tarzda taqdim etish
Anjuman-ma'ruza	Talabalar tomonidan o'quv materialini izlanishli tarzda o'zlashtirilishiga erishish
Muammoli-ma'ruza	Talabalarga muammoli savol, muammoli vaziyat va muammoli topshiriqlarni taqdim etish orqali o'quv birliklarini bayon etish
Ma'ruza-munozara	Fikrlar almashinuvini tashkil etish asosida ma'ruza qismlarini o'zlashtirishga erishish
Vizual-ma'ruza	Vizual-materiallarni taqdim etish orqali talabalar tomonidan materialni o'zlashtirishga erishish
Konspektli-ma'ruza	Talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishga erishish maqsadida tushuntirish bilan birga eng asosiy qismlarini yozdirib borish
Maslahatli-ma'ruza	Savol va javoblar tarzida ma'ruza mashg'ulotini tashkil etish
Binar-ma'ruza	Muammo yuzasidan tadqiqot olib borgan mutaxassis-olim bilan birgalikda ma'ruzani tashkil etish

2. Seminar va uning o'ziga xosliklari

Seminar bu – o'qituvchini ta'lim oluvchilar bilan faol muloqotga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitni ta'minlovchi ta'limni tashkil etish shaklidir.

Seminar quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- 1) nazariy materialni tartibga solish;
- 2) bilimlarni mustahkamlash;
- 3) ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
- 3) bilimlarni nazorat qilish.

Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish

Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda quyidagi savollarga javob topiladi:

1. Nima uchun? – Seminarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad.

2. Qanday tarzda? – Seminarni olib borish texnologiyasini ishlab chiqish.

3. Nimani muhokama qilish? – Seminarni olib borish vaqtida muhokama qilinadigan materiallar mazmuni.

4. Qanday omillarni hisobga olish zarur? – Seminarni tashkil etish jarayonida ma'lum omillarni hisobga olish.

Seminar turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari

Seminar turlari	O'ziga xos xususiyatlari
Ma'ruza(doklad)li seminar	Seminar mashg'uloti talabalarning ma'ruzalarini tinglash va munozara shaklida o'tkaziladi.
Dialogli seminar	Seminar mashg'uloti ommaviy va individual savol-javoblar tariqasida tashkil etiladi
Refleksiv seminar	Seminar mashg'uloti mavzuga doir ma'lumotlarni muhokama qilish va aniq xulosa-larga kelish tarzida o'tkaziladi.

Seminar–fikrlar almashuvi	Seminar mashg‘ulotini tashkil etishda manbalardan foydalaniladi va turli fikrlarni shakllantirishga erishiladi
Seminar–illustriyasi	Seminar mashg‘uloti manbalar bilan ishlash tarzida tashkil etiladi va materiallar illustratsiya tarzida namoyish etiladi.
Evristik seminar	Seminar izlanishli–topshiriqli tarzda tashkil etiladi.

3. Amaliy mashg‘ulotlar

Amaliy mashg‘ulot o‘quv ishini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib, eksperimental tavsifdagi mustaqil topshiriqlarni talabalarining professor–o‘qituvchi bilan birgalikda bajarishini o‘zida aks ettiradi.

Amaliy mashg‘ulotining bosh maqsadi – biror-bir fan-ga doir nazariy qoidalarni amaliy jihatlarini ochib berish; talabalarining o‘rganilayotgan qonuniyatlarni o‘ziga xosliklari va namoyon bo‘lish shakllarini chuqur tushunishlarini ta‘minlash; bo‘lajak mutaxassislarda o‘rganilayotgan ob‘ekt bilan amaliy muloqotga kirishish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Laboratoriya (amaliy) mashg‘ulotlar talabalarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

4. Mustaqil ish va uning o‘ziga xosliklari

Mustaqil ish – ta‘limni tashkil etish shakllaridan biri bo‘lib, bunda talabalar o‘z oldilariga u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo‘yib, faoliyatni rejalashtiradi va uni amalga oshiradi hamda o‘z–o‘zini baholaydi.

Mustaqil ish – o‘qituvchining topshirig‘i va uning rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta‘limni tashkil etish shakli. Mustaqil ish bu qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda talabalarining aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabalarining mustaqil ishlari ularning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatlaridir.

Mustaqil ishlarning maqsad va vazifalari:

Professor-o'qituvchining roli talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi ko'nikma va malakalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil ishni tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Talabaning roli professor-o'qituvchi rahbarligida tashkil etish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning optimal yo'lini izlab topishga qobiliyatli ijodkor shaxs bo'lishda aks etadi.

Mustaqil ish quyidagi vazifalarni muvafaqqiyatli hal etishga imkon berishi lozim:

1) talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

2) ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

3) talabalarda umumiy va kasbiy layoqatlarni rivojlantirishga imkon berish;

4) ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Auditoriyada amalga oshiriladigan mustaqil ishlarni ikki turga ajratish mumkin:

1) ma'ruza mashg'ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlar;

2) amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan mustaqil ishlar.

Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlarga esa quyidagilar kiritish mumkin:

1) konspektlashtirish;

2) adabiyotlardan referat tuzish;

3) kitob va maqolalarga annotatsiya yozish;

4) doklad, referat va nazorat ishi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda yangi axborotlardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

1. Tarmoqdan axborot izlash – web-brauzer, ma'lumotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv, axborot-ma'lumotnoma tizimlari, avtomatlashgan kutubxona tizimlari,

elektron jurnallardan foydalanish.

Axborot izlash va unga ishlov berishga doir mustaqil ishlarga quyidagilar kiradi:

- referat-sharhlar yozish;
- mavzu bilan bog'liq saytlarga taqriz yozish;
- ma'lum mavzuga doir tarmoqdagi mavjud referatlar-ni tahlil etish, ularni baholash;
- ma'ruza rejasiga doir o'z variantini yoki uning ma'lum bir qismini yozish;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish;
- amaliy mashg'ulotlardan lavha tayyorlash;
- mavzuga doir doklad tayyorlash;
- mavzuga doir munozara o'tkazish;
- professor-o'qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki tarmoqdan topilgan web-kvestda ishlash.

2. Tarmoqda dialogni amalga oshirish – elektron pochta, sinxron telekonferensiyalardan foydalanish. Tarmoqda dialogni amalga oshirishni quyidagicha ko'rinishda tashkil etish mumkin: o'tkazilgan yoki o'tkazilishi ko'zda tutilgan ma'ruzalarni muhokama qilish; mutaxassis yoki talabalar bilan sinxron telekonferensiya(chat)da muloqotni amalga oshirish.

3. Tematik web-sahifa, web-kvest(topshiriq)lar yaratish – html-muharriri, web-brauzer, grafik muharrirlardan foydalanish. Tematik web-sahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: saytda talabalar tomonidan bajarilgan referatlar va retsenziyalar, ishlarni joylashtirish; mavzuga doir adabiyotlar ro'yxatini chop etish; indiviudal va kichik guruhlarda ishlashga doir mavzuli web-sahifalarni yaratish; mavzu bo'yicha ishlash uchun web-kvestlar yaratish va ularni kursga doir saytda joylashtirish.

5. Kurs ishini bajarish va himoya qilish tartiblari

Kurs ishini yozishdan maqsad talabalarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish, boyitish hamda ularda tahlil etish, izlanishga doir ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga erishishdir.

Kurs ishini yozishda quyidagi tartibga asoslaniladi:

1) kafedra mudirining taqsimoti asosida mavzuni va ilmiy rahbarni aniqlash;

2) ilmiy rahbar bilan uchrashish va mavzu yuzasidan maslahat olish;

3) ilmiy rahbar ko'rsatmasiga asosan adabiyotlarni o'rganib chiqish va tahlil etish;

4) o'rganilgan adabiyotlar asosida kurs ishi rejasini tuzish va ilmiy rahbar tasdig'idan o'tkazish;

5) rejaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, obykti, predmeti, maqsad va vazifalar, amaliy ahamiyati, ishning tuzilishi ko'rsatib beriladi;

6) reja masalalarini ketma-ketlikda bayon etiladi va har bir masaladan so'ng qisqa xulosa beriladi;

7) reja masalalarini bayon etayotganda adabiyotlardan foydalanishda belgilangan tartibda snoska keltiriladi;

8) rejadagi barcha masalalar bayon etib bo'lingach, umumiy xulosa qilinadi;

9) agar ilova qilinadigan ilustrasiyalar mavjud bo'lsa, xulosadan so'ng beriladi;

10) kurs ishining umumiy hajmi 30 betni tashkil etishi kerak (kompyuterda yozilgan holatda);

11) kurs ishining adabiyotlar ro'yxati belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi shart;

12) kurs ishi to'liq tugatilgandan so'ng, kurs ishi topshiruvchi va ilmiy rahbari titul varag'iga imzolarni qo'yib, kafedraga taqdim etishadi;

13) kurs ishi himoyasi belgilangan tartibda o'tkaziladi va himoya o'tkazilishidan bir hafta oldin e'lon qilinadi;

14) kurs ishi yozilayotgan o'quv fanidan YN olingunga qadar topshirilishi kerak.

6. Bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash va himoya qilish tartibi

Bitiruv malakaviy ish – ta'limning yakuniy bosqichida oliy ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tayinlangan ilmiy rahbarning topshirig'i va ko'rsatmasi asosida talaba tomonidan mustaqil bajariladigan ilmiy-nazariy va metodik loyihadir.

Bitiruv malakaviy ish himoyasi bakalavriat yo'nalishi talabasining yakuniy davlat attestasiyasi sinovi ko'rinishlaridan biridir. Shuningdek, bitiruv malakaviy ish talabani o'z ixtisosligi bo'yicha egallagan nazariy hamda amaliy bilim, ko'nikma va malakalari ko'lami va darajasini, bitiruvchining saviyasi va salohiyatini belgilovchi, mustaqil ilmiy, ijodiy tadqiqot ishidir (O'z.R. OO'MTVning 2010-yil 9-iyundagi 225-sonli buyrug'i).

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayoni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi:

- tanlangan mavzu bo'yicha bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun ruxsat olish (mavzuni tasdiqlash);

- malakaviy ishni bajarish bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqish.

- mavzu tanlash;

2. Bitiruv malakaviy ish mavzusi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- mavzuning talaba ta'lim yo'nalishi, ixtisosligiga mosligi;

- dolzarb pedagogik muammoga bag'ishlanganligi;

- fanning amaldagi holati va uni rivojlantirish istiqbol-lariga mosligi;

- iste'molchilarda qiziqish uyg'otishi va amaliy ahami-yatga ega bo'lishi.

3. Bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlashda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

- tadqiq etilayotgan muammoning adabiyotlarda yoritilishi va ishlanganlik darajasi;

- oliy ta'limda ta'lim olish davrida talabani kurs ish-lari hamda boshqa ilmiy ishlarni bajarish borasida egalla-gan ko'nikmalari;

- bitiruv ishini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumot-larni topish imkoniyati;

- iste'molchi tashkilotning bitiruv malakaviy ish mate-riallariga qiziqishi va ehtiyoji;

- talabani imkoniyatlari va nazariy-amaliy tayyor-garlik darajasi.

4. Bitiruv malakaviy ish tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Titul varag'i
- Mundarija
- Kirish
- a) tanlangan mavzuning dolzarbligi;
- b) ishning maqsad va vazifalari;
- v) ishning obyeksi va predmeti;
- g) metodologik asosi va tadqiqot metodlari;
- d) himoyaga olib chiqilayotgan holatlar;
- e) ishning amaliy ahamiyati;
- j) ishning tuzilishi.
- Asosiy qism.
- Xulosa.
- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.
- Ilovalar.

7. Magistrlik dissertatsiyasi va uni himoya qilish tartiblari

Ilmiy-tadqiqot ishi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bazasida o'tkazilishi mumkin bo'lib, ushbu muassalar mutaxassisliklar bo'yicha magistrnlarni tayyorlashda tadqiqotlarni o'tkazish maydonchasi sifatida qaraladi. Magistrant talabalarning ilmiy-tadqiqot ishi oliy ta'lim muassasasi, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, akademiya va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, korxonalar va tashkilotlarning tadqiqot bo'linmalarida umumta'lim va maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, maxsus maktab, maktab-internatlar, litsey, kollejlar bazasida o'tkazilishi mumkin. Ilmiy-tadqiqot ishi tegishli tartibda rasmiylashtirilgan holda xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari, korxonalar va tashkilotlarida o'tkazilishi mumkin.

Ilmiy-tadqiqot ishida magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan materiallarni to'plash va bibliografiyani tuzish uchun talabalarning kutubxonalarda ishlashi zaruriy shart sifatida ko'riladi.

Ilmiy-tadqiqot ishi:

- magistratura ixtisosligi bo'yicha namunaviy modellar, obyekt va jarayonlarni tadqiq qilish usullarini o'rganish;
- tajriba tadqiqotlarining ilmiy texnik ta'minotini o'rganish;

- tajriba tadqiqotlar o'tkazish;
- tajriba tadqiqotlari natijalarini qayta ishlash, ularni tahlil qilish, xulosa va tavsiyalar tuzishni ko'zda tutadi.

Oliy ta'lim ta'lim tomonidan tasdiqlangan "Magistratura haqida"gi Nizomda ko'rsatilgan ilmiy-tadqiqot ishi ikki bosqichda ya'ni:

- ilmiy-tadqiqot ishi;
- magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashdan iborat.

Ilmiy ish olib boruvchi magistrant o'z faoliyatini ilm-fanda shu masala bo'yicha qanday fikrlar olg'a surilganini, qanday yutuqlarga erishilganini o'rganish bilan boshlashi va bilimlarni o'zlashtirishi zarur. Magistrant o'zi tanlagan yo'nalish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy merosni chuqur o'rganishi, uning kamchilik tomonlarini ko'ra bilishi, yutuqlaridan bahramand bo'lishi, izlanishni davom ettirib, shu hodisani o'rganishga o'z hissasini qo'shishi kerak.

Magistrlik dissertatsiyasini bajarilishi uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- magistrlik dissertatsiyasi uchun mavzuni to'g'ri tanlay bilish;

- tanlangan mavzu bo'yicha magistrant talabaning shaxsiy kuzatishlari natijasida to'plangan barcha ilmiy va amaliy, daliliy ma'lumotlarni mustahkamlash va tartibga solish;

- u yoki bu holatlarning o'zi to'plagan doimiy ma'lumotlar asosida ilmiy va amaliy ahamiyati hamda qiymatini asoslab berish, xulosalar chiqarish.

Magistrlik dissertatsiyasining vazifalari:

- tanlangan muammo yuzasidan tadqiqot o'tkazish zarurligini asoslash;

- uning yozilish metodologiya va usullarini tanlash;

- mavzuga doir axborot, daliliy materiallar yig'ish va ularni bir tizimga tushurish hamda qayta ishlash;

- tadqiqotni mantiqan chuqur o'ylangan rejasiga mos o'tkazilgan tahliliy tadqiqot natijalarini asoslab bayon etish;

- kuzatilgan maqsad asosida ilmiy xulosalar chiqarishdan iborat.

Magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- magistrlik dissertatsiyasi rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- magistrlik dissertatsiyasi mavzusiga doir manbalarni tanlashga yordam berish;

- ilmiy-tadqiqot mavzusi bo'yicha doimiy ravishda suhbat va maslahatlar o'tkazib turish;

- berilgan topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishini qattiq nazorat qilish;

- ishning to'liq bajarilgan qismlarini muntazam baholab borish;

- magistrant talabani maqola tayyorlashida metodik yordam ko'rsatish;

- magistrantga kafedra ilmiy-metodik seminarlari, anjumanlarga ma'ruzalar tayyorlashida maslahat berish;

- ilmiy-tadqiqot ishining birinchi bosqichi tugaganda magistrant tomonidan tayyorlangan magistrlik dissertatsiyasining qoralama variantini baholash va ilmiy-tadqiqot ishining ikkinchi bosqichi – magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash uchun ruxsat berish to'g'risida kafedraga yozma xulosa taqdim etish;

- magistrant talaba tomonidan yakunlangan magistrlik dissertatsiyasining tayyorligi haqida yozma xulosa berish va himoyaga taqdim etishga rozilik berish;

- berilgan topshiriqlarni o'z muddatida muntazam bajarmayotgan magistrant talaba to'g'risida kafedra (dekanatni) o'z vaqtida xabardor qilish;

- kafedra majlislarida magistr talabalar bilan birga bajarilgan ishlar haqida hisobotlar berib borish.

Magistrant talaba tanlagan magistrlik dissertatsiyasi mavzusi va ilmiy rahbarini tasdiqlash bo'yicha buyruq loyihasi kafedra tavsiyasi asosida dekanat tomonidan tayyorlanadi. Rektor buyrug'i bilan tasdiqlangan magistrlik dissertatsiyasi mavzusi va ilmiy rahbar (imkoniyat boricha) o'zgartirilmaydi.

Dissertatsiyadagi ilmiy masalani yechish bo'yicha magistr talaba:

- tanlangan ilmiy mavzuning dolzarbligini asoslashi;
- tadqiqotning maqsadi va muayyan vazifalarini qo'yishi;
- tadqiqot obyekti va predmetini aniqlashi;
- tadqiqot usuli (yoki uslublari)ni tanlashi;
- tadqiqot natijalariga ishlov berishi va tahlil qilishi;
- olingan xulosalarni shakllantirishi, natijalarni baholashi va ularni tadbiq etish uchun aniq takliflarni kiritishi kerak.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishini o'z vaqtida mukammal ishlab chiqish magistrant talabaga ilmiy-tadqiqot ishining maqsad va vazifalarini to'g'ri ifodalash, tadqiqot obyektiga, predmeti hamda qo'yilgan masqdaga erishishi usullarini to'g'ri tanlash, shuningdek, dissertatsiyani tayyorlash bosqichlarini aniq ajratish imkonini beradi (O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2012-yil 29-oktabrdagi 418-son buyrug'i).

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash milliy modelini joriy etishning me'yoriy, shu bilan bir qatorda ilmiy-nazariy asosi bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinganligiga ham 17 yil bo'ldi. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi joriy etilgandan buyon har biri bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Uzluksiz ta'lim tizimi turlari o'rtasida ta'lim mazmunining uzviyligi va izchilligini amalga oshirish maqsadida fanlar bo'yicha uzviylashtirilgan va modernizatsiya-langan DTS va o'quv dasturlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Ta'limiy islohotlarni izchil davom ettirish, mehnat bozorida yuqori kasbiy malakaga ega kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni qondirishda oliy o'quv yurtlari alohida o'rin tutadi. 1991-yili mamlakatimizda 53ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lgan bo'lsa, bugunga kelib ular soni 76taga yetdi. Jahonning yetakchi oliy o'quv yurtlari bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra respublikamizda ularning filiallari tashkil etilganligi ham quvonarli hol, albatta. Ayni vaqtda Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan Xalqaro Vestminster universiteti, Turin politexnika universiteti,

Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, G.Plexanov nomidagi Rossiya davlat iqtisodiyot universiteti, Janubiy Koreyaning Inha instituti, I.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining filiallarida talabalar jahon ta'limi standartlari bo'yicha ta'lim olmoqdalar.

Respublikamizda zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashdagi asosiy tamoyillar sifatida ta'limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish; ularning asosi sifatida esa milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar aniq belgilab olingan. Shu bilan birga, bugungi kunda kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan yaxlit ta'lim jarayoni "ta'limning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda" amalga oshirilishi lozim.

Respublikamizda jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayoni kadrlarni tayyorlash ishiga yangidan-yangi talablarni qo'yimoqda. Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlar bilan birga, real ta'lim sharoitida ko'zga tashlanayotgan ayrim muamamolar hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishni alohida talab etmoqda. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) talabalarning zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ravishda yangi bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashi hamda ulardan amaliy foydalana olishi;

2) e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

3) mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitayotgan fan hamda kasbiy faoliyat sohasidagi yangi shakl, metod va vositalarni o'zlashtirish hamda o'z-o'zini rivojlantirish;

4) mashg'ulotlarni online tizimida video anjumanlar va seminar-treninglar asosida tashkil etish;

5) professor-o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikatsiyani jadallashtirish;

6) talabalarning o'quv fanini o'rganish va o'zlashtirishga qiziqishlarini oshirishga yo'naltirilgan xususiy-metodik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish;

7) professor-o'qituvchilarni tyutorlik, fasilitatorlik va ingilatorlik faoliyatiga faol jalb etish va boshqalar.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishga doir yuqorida sanab o'tilgan muammolar aynan hamkorlik pedagogikasi tamoyillari, shakl, metod va vositalarini amaliyotga keng joriy etishni taqozo etadi. Chunki hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qishni o'rganishdir. Hamkorlikda o'qitish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Shuningdek, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishiga, kursdoshlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Axborotlarning globallasuv sharoitida oliy ta'lim muassasalariga hamkorlikda o'qitishning muhim vositasi sifatida elektron o'quv modullari va Sillabus(Syllabus)ni amaliyotga keng tatbiq etish lozim. Chunki elektron o'quv moduli (EO'M) va Sillabus(Syllabus) talabaning mustaqilligini oshirish, mustaqil tarzda o'z faoliyatini tashkil etish va o'z-o'zini nazorat qilish orqali o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlaydi hamda bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirishga imkon beruvchi talabada mustaqil bilim olish faoliyatiga ongli munosabatni qaror toptiradi.

Elektron o'quv moduli didaktik vositasi sifatida uch komponent (informatsion, amaliy va nazorat qilish)dan tashkil topgan multimediali ta'lim resursini o'zida aks ettirib, zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanishga qo'yilayotgan talabarga mos keladi hamda innovatsion tavsifga ega bo'lib,

bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash va nazorat qilish imkonini beradi. Elektron o'quv modulining tuzilishi asosiy didaktik tamoyillar – ilmiylik, tushunarlilik, ko'rgazmalilik, tizimlilik, ketma-ketlik, onglilik, faollik, variativlik va mustaqillikka tayangan holda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etishni ta'minlaydi. Eng asosiysi, elektron o'quv moduli nafaqat auditoriyada, balki auditoriyadan tashqari faoliyat jarayonida talabalarining kasbga oid bilimlarni mustaqil o'zlashtirish va mustahkamlashlariga katta yordam beradi.

Elektron o'quv moduli qo'llanishiga ko'ra uchta turga bo'linadi:

1. **Informatsion turdagi elektron o'quv modulida** nazariy materiallar bayon etilib, alohida mavzulardan tortib, butun kursga doir masalalar qamrab olinishi mumkin. Informatsion turdagi elektron o'quv modullari bosma nashrlar (darslik, o'quv qo'llanmalar)dan farqli ravishda animatsiya, gipertekst, interfaol kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyatini o'zida aks ettiradi. Bu esa o'z navbatida materialni ko'rgazmali, rang-barang va tushunarli bayon etish imkonini beradi.

2. **Amaliy turdagi elektron o'quv modulida** o'rganilgan materialni topshiriqlar vositasida mustahkamlash asosiy vazifa sifatida belgilanadi. Bunday turdagi o'quv modullarida topshiriqlarning murakkablik darajasiga ko'ra turli qiyinchilikka ega bo'lishi va talabalarining interfaollik tizimida ishlashi hisobga olinadi. Topshiriqlarni bajarish jarayonida qisman izlanish (evristik) metodidan foydalanish mumkin. Ya'ni talabalar topshiriqlarni bajarish jarayonida bir-birlaridan va o'qituvchidan yordam so'rashlari mumkin. Zaruriyat tug'ilganda modulga yoki uning ma'lum bir qismiga murojaat qilish mumkin. Amaliy turdagi elektron o'quv modullarining muhim xususiyati bir nechta variantdagi topshiriqlarni berishga imkon beruvchi tuzilmani o'zida aks ettirishidir.

3. **Nazorat turidagi elektron o'quv modulida** turli qiyinchilik darajasiga ega topshiriqlarni o'zida aks ettiruvchi o'zlashtirilgan bilimlarni aniqlash, o'lchash va baholash

tartibi belgilab beriladi. Nazorat turidagi elektron o'quv modulining amaliy elektron o'quv modulidan asosiy farqli jihati foydalanuvchiga bir-birlariga yordam berishga ruxsat berilmaydi va javobni faqat bir marotaba kiritishga ruxsat beriladi.

Sillabus(Syllabus) – o'quv fanining qisqacha tavsifi va asosiy jihatlarini o'zida aks ettiruvchi o'quv kursi bo'yicha talaba uchun dastur. Sillabus professor-o'qituvchi va talabalar o'rtasida kommunikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi.

Sillabus talaba kursni o'zlashtirishning birinchi kuni-dan bilishi zarur bo'lgan o'quv fanining qisqacha annotatsiyasi, uni o'rganishning maqsadi, o'tiladigan mavzular jadvali, muvaffaqiyatli o'zlashtirish shart-sharoitlaridan tashkil topadi.

Sillabusning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

1. **Professor-o'qituvchi haqida ma'lumot.** Sillabusning mazkur qismini yozishda professor-o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri haqida yetarlicha tasavvur hosil qiladigan asosiy ma'lumotlar yozilishi kerak.

2. **Prerekvizitlar (Prerequisite)** – o'rganilayotgan fanni o'zlashtirish uchun egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zida aks ettiruvchi fanlar. Sillabusda nafaqat talaba o'zlashtirishi zarur bo'lgan fanlar, imkon boricha aniq mavzular, bilim va ko'nikmalar ro'yxati keltirilishi kerak.

3. **Postrekvizitlar (Postrequisite)** – kursni o'zlashtirish tugallanishiga qadar o'zlashtirish zarur bo'lgan fanlar.

4. **Fanning qisqacha tavsifi.** O'quv fani tavsifi o'zida o'quv fanining zaruriyatini aniqlash, fanning maqsad va vazifalarini, qisqacha mazmuni va o'quv fanini amalga oshirish rejasini o'zida aks ettiradi.

5. **Adabiyotlar ro'yxati.** Adabiyotlar ro'yxatida adabiyotlar asosiy va qo'shimcha tarzda taklif etiladi. Asosiy adabiyotlar ro'yxatida o'quv fanining mazmunini to'liq aks ettiradigan 3-5 nomdagi darslik va o'quv qo'llanmalar beriladi. Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatida asosiy adabiyotlar mazmunini to'ldiruvchi xarakterga ega 3-5 nomdagi

zaruriy manbalar taklif etiladi.

6. Talabaning o'quv ishlari natijalarini nazorat qilish va baholash tizimi. Sillabusda fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish turlari, shakllari va metodlari aniq ko'rsatib beriladi. Shuningdek, talabalarning seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida kundalik to'playdigan ballari ham taqdim etiladi.

Hamkorlikda o'qitishning muhim vositasi sifatida elektron o'quv modullari va Sillabus(Syllabus)ni amaliyotga keng tatbiq etish uchun oliy ta'lim muassasalarida quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

1) malaka oshirish tarmoq markazlarining "Pedagogik fanlarning didaktik ta'minoti" kursi dasturida elektron o'quv moduli va Sillabusni ishlab chiqish metodikasi kiritilishi hamda tinglovchilarni nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish;

2) bosqichma-bosqich bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha elektron o'quv moduli va Sillabuslar yaratilishi;

3) "Birinchi kurs maktabi" doirasida har o'quv yilida oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingan talabalariga elektron o'quv moduli va Sillabusdan foydalanishga doir trening mashg'ulotlarini o'tkazish;

4) bakalavriat yo'nalishlarining xususiy metodika, magistratura mutaxassisliklarining maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanlari dasturiga elektron o'quv moduli va Sillabuslarni ishlab chiqish metodikasiga doir masalalar aks ettirilishi maqsadga muvofiq.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Oliy ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tizimi qay tartibda amalga oshiriladi?
2. Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslariga nimalar kiradi?
3. Oliy ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning metodik ta'minoti nimalardan iborat?

8-§. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TARKIB TOPTIRISH MODELLARI



Tayanch tushunchalar: bilim, malaka, tahlil, tizimlashtirish, ijtimoiy faollik, model, ijtimoiy aspekt, tamoyil, yondashuv, reflektor tahlil, konseptual g'oya, mohiyat, texnologik jarayon, dilaetik, ratsional.

Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash taktikasi.

Pedagogika va psixologiyada bo'lajak o'qituvchi faoliyatini yaxlit tizim sifatida o'rganish muhim ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Uni hal etishda, modellashtirish muhim o'rin tutadi. "Modellashtirish tadqiqotchilik faoliyatining yaxlit turkumini aks ettirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchi turkum mohiyatini sinchiklab o'rganib chiqadi. Zero, u yakuniy model sifatida nazariyani xulosa va g'oyalar bilan boyitadi. Demak, modellashtirish tanlangan obyekt turkum ko'rinishida tasavvur etishga imkon beradi".

Model – rasm, jadval, chizma kabilar ko'rinishida tadqiq qilinayotgan obyektga o'xshash bo'lgan, uning tuzilishi, xususiyatlari, elementlari orasidagi o'zaro aloqa va munosabatlarni sodda, kichraytirilgan ko'rinishda aks ettiruvchi va namoyon etuvchi ramziy hosil qilingan obyekt.




Maqsad – bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ijtimoiylashuvi jarayonida pedagoglik kasbiga nisbatan qadriyatli munosabatlarini shakllantirish




Asos – pedagoglik kasbiga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirish


Tajriba–sinov ishlari jarayonida qo‘llanilgan o‘quv loyihalari turlari va ularning o‘ziga xosliklari




Bo‘lajak o‘qituvchilarining ijtimoiy–pedagogik moslashuvi modeli (N.Ye.Shepilova bo‘yicha).⁶



⁶Шепилова Н.Е. Моделирование процесса социально-педагогической адаптации студентов вуза// Дошкольное воспитание. – М., 2006. – №6. – С.120




Ijtimoiy aspektlarni ajratib olish va ularning shaxs sohalariga qo'shilib borishi modeli
(N.Ye.Shurkova bo'yicha)⁷.




⁷Шуркова.Н.Е. Воспитание: новый взгляд с позиций культуры. – М., 1997.

Faoliyatli–munosabatli yondashuv modeli (L.D.Stolyarenko bo'yicha)⁸.




Amaliy–yo'naltirilgan model (D.S.Yermakov bo'yicha)⁹.




⁸Столяренко, Л.Д. Педагогика. – Ростов-на-Дону, Феникс, 2003. – С.92-93.

⁹Ермаков Д.С. Образование для устойчивого развития// Педагогика. – М., 2006.- №9.с.26-27.

Asosiy g'oya – pedagogik ta'sirning samaradorligi bo'lajak o'qituvchilarning kasb va boshqa turdagi faoliyatlarida faollik uyg'otadigan bo'lajak o'qituvchining ichki ijobiy reaksiyasi (rag'batl)ga asoslanadi.



KASBIY SHAKLLANGAN MUTAXASSIS



xorijiy tajribani o'rganish ma'lum qiziqish uyg'otadi. Xususan, Qo'shma Shtatlarda professional ko'nikmalarni rivojlantirish muammosiga tizimli yondashuv diqqatga sazovordir, negaki so'nggi o'n yilliklarda o'qitish samaradorligini oshirish yo'llarini izlash yo'lida innovatsion jarayonlarning izchil chuqurlashishi kuzatilmoqda. Bu yerda mutaxassisning haqiqiy samaradorligi yangi tafakkur madaniyati bilan bog'liq bo'lib, u butun umr davomida pedagogik ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratishga ta'sir qiladi, bu refleksivlikni shakllantirishga faol ravishda yo'naltirilgan. Qo'shma Shtatlar ta'lim sohasidagi islohotlar sohasidagi yetakchi mutaxassislardan biri R.Marzano o'qituvchi reflektor tahlil orqali shakllangan intellektual baza tufayli o'z kasbiy mahoratiga ishonishini ta'kidladi. D. Boud, R. Keogh, D. Valker larga ko'ra ma'lum tashkilotchilik, intellektual va hissiy faoliyatda kasbiy bilimlarning turli tagtuzilmalariga murojaat qilish bilim va baholashning yangi bosqichiga olib keladi.

Kasbiy rivojlanishning aks ettiruvchi modeli katta imkoniyatlarga ega. An'anaviy modeldan farqli o'laroq, u atrofda voqelik, tadqiqot manbalari va hayotiy tajribaning ko'plab manbalaridan ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Uning usullari xilma-xildir: darslarga o'zaro tashrif va ularni tahlil qilish, tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha ishlarni pedagogik tadqiq qilish, o'quvchilarning ijodiy ishlarini o'rganish, muayyan vaziyatni tahlil qilish, o'tmish tajribasini tavsiflash, refleksiv suhbat, o'z ustida ishlash rejasini tuzish, guruhda ishlash, o'z-o'zini kuzatish jurnali, modellashtirish, ustoz bilan ishlash va boshqalar. O'qituvchilarning malakasini oshirishda refleksiv yondashuvning afzalliklari jadvalda ko'rsatilgan.

O'z-o'zini kuzatishning ichki mexanizmini rivojlantirish

O'qituvchi malakasini oshirishda ikki xil yondashuv

	An'anaviy	Refleksiv
Maqsad	Bilim olish	O'z faoliyatiga munosabatni o'zgartirish
Konseptual g'oya	Me'yoriy bilim orqali ratsional darajada o'zgarish	Ratsional, hissiy, ijtimoiy, madaniy darajada o'zligini anglash orqali o'zgarish
Mohiyat	Bilim: – orttirilgan – mohiyat-mavhumiy – nazariyani bilish	Bilim: – orttirilgan va chiqarib olingan – mohiyat va jarayonga oid – nazariya va amaliyotni bilish
Texnologik jarayon	instruktiv standart instruktiv usullar	dialektik; tajriba-eksperimental
O'qituvchi-instruktorning roli	bilimdon-ekspert	yordamchi
Mutaxassis-amaliyotchining roli	Axborotning passiv iste'molchisi	Faol tadqiqotchi

modellarini ishlab chiqishda professionalizmni rivojlantirish jarayonini texnologiyalashtirishga qaratilgan muayyan dinamikani kuzatish mumkin.

“The Reflective Practitioner” (Fikrlovchi amaliyotchi) [4] taniqli model muallifi D. Schon o'z vaqtida bajaradigan vazifalari-ga qarab, professional refleksiyaning asosiy shakllarini aniqladi.

O'qituvchi malakasini oshirishda ikki xil yondashuv

Vaziyatga oid refleksiya (reflection-in-action)	Retrospektiv refleksiya (reflection-on-action)
Mashg'ulotni tayyorlash bosqichi	Jarayon va faoliyat natijasini tahlil qilish bosqichi
faoliyatning borishi haqida tushuncha; o'qitishning eng samarali usullarini tanlash; rejalashtirish	1. o'z harakatlari-ning o'zgaruvchan shartlari bilan muvofiqlik 2. o'z vaqtida ta'sir ko'rsatish 3. faoliyat element-larini nazorat qilish
	1. hamkasb va o'quvchilar bilan muhokama qilish 2. amalga oshirilgan tadbirlarni tahlil qilish va baholash, 3. olingan tajribani anglash, tushu-nish va tuzilmasini shakllantirish, 4. o'zini kuzatish jurnaliga yozuv kiritish.

D. Schon modeli o'qituvchi refleksiv amaliyotining asosiy tarkibiy qismlarini belgilab beradi. D. Schonga ko'ra, refleksiv amaliyotning asosiy maqsadi yuzaga kelgan qiyinchiliklarni tushunish uchun to'xtatib turishdir. Bu kasbiy faoliyatda yangi yechimlarni ishlab chiqish va kelajakda odatiy, ammo eskirgan yoki adekvat bo'lmagan ish tartibini o'zgartirish shaklida ideal natijaga erishish uchun zarurdir.

Keyinchalik turli aniqliklar amalga oshiriladi, ular pedagogik refleksiya jarayonini o'z ichiga olishi kerak;

- o'z faoliyatini baholashni qo'llab-quvvatlash, soddalashtirish uchun variantlar ishlab chiqiladi. Asosan retrospektiv aks ettirish bosqichi batafsil bayon qilinadi, bu natijani baholash bilan bog'liq. Masalan,

E.F.Sparapani o'quv mashg'ulotining rivojlanish imkoniyatlarini quyidagi o'z-o'zini baholash xaritasidan foydalanishni taklif qiladi.

1. Darsingizning kamida uchta kuchli tomonlarini ko'rsating.

2. Darsingizning kamida uchta kamchiliklarini ko'rsating.

3. Talabalarda fikrlash, xatti-harakatlar, qadriyat semantik yo'nalishlardagi qanday o'zgarishlarni kuzatdingiz?

4. Darsni ishlab chiqish va o'tkazish jarayonida o'zingizning fikrlash, xatti-harakatlaringiz, qadriyat-semantik yo'nalishlaringizdagi qanday o'zgarishlarni kuzatishingiz mumkin.

5. Quyidagi jihatlarining har biriga sizning darsingizda qanday o'rin ajratilganligi haqida qisqa (2-3 jumlada) izoh bering: ma'lumotlarni qayta ishlash; tanqidiy fikrlash; qaror qabul qilish; ijodiy fikrlash.

6. Qayta aloqa qanday amalga oshirildi? Qanchalik samarador?

AQSh o'qituvchilarining malakasini oshirish sohasidagi eng so'nggi ishlanmalardan biri R.Marzano boshchiligidagi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tomonidan ishlab chiqilgan Marzano o'qituvchilarini baholash modeli professional darajadagi yuksaklikka erishishga astoydil qiziqqanlarga qaratilgan. Model bir qator muhim afzalliklari bilan ajralib turadi, ulardan biri shundan dalolat

beradiki, aslida transformatsion aks ettirish qobiliyatini shakllantirish texnologiyasi taklif qilingan.

O'z-o'zini tashxislashning strategik to'plamini ishlab chiqishda Marzano ta'lim muassasasini uchlik sifatida tizimli qabul qilishdan kelib chiqadi – ta'lim berish, o'qitish, boshqarish va o'qituvchi uchun manba imkoniyatlarini topish jarayonidagi o'quv muassasasi rahbariyatining ishtirokini talab qiladi. O'z-o'zini anglash darajasidagi o'zgarishlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish va takomillashtirishni davom ettirish uchun rahbarlar tegishli kayfiyat va quyidagi maqsadlarga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

- o'quv dasturlari, uslubiy vositalar, nazorat-o'lchov materiallarining mavjudligi;

- ish rejasi va o'qituvchilar ishini optimallashtirish vositalarini ishlab chiqish;

- pedagogik faoliyatning intellektuallashtirilishini kengaytirish va chuqurlashtirish;

- har tomonlama nazorat-baholash faoliyatini amalga oshirish;

- o'qituvchilarda o'zini o'zgartirish hissini shakllantirish.

O'quv jarayonini samarali tashkil qilishning tarkibiy qismlari – o'qitish, boshqarish, loyihalash birlamchi qoidalaridir. Pedagogik faoliyatning ushbu sohalarini refleksli tahlil qilish qachonki o'zi ustida ishlash jarayonida o'qituvchi asta-sekin o'z kuchlari va imkoniyatlariga ishonch hosil qilsa, muvaffaqiyat ustuvorligini belgilaydi. Modelga ko'ra, o'qituvchining aks ettirish faoliyati quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi.

I. Rejalashtirish va tayyorgarlik:

- Muayyan mavzu bo'yicha o'qitish faoliyatiga;

- O'quv materiallari va ta'limning texnik vositalarini qo'llashga;

- Talaba uchun qadriyatga ega bo'lgan axborot materiallariga.

II. Refleksiv tahlil quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) quyidagi ko'rinishlarda o'z faoliyati natijalarini baholash

- O'qitishda yutuq va kamchiliklarning muayyan uchastkalarini aniqlash;

- Alohida darslar va o'quv dasturi bo'limlarining samaradorligini baholash;

- Turli toifadagi talabalar uchun muayyan ta'lim uslublarining samaradorligini baholash.

b) kasbiy o'sish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish samaradorligini ishlab chiqish va monitoring qilish.

III. Psixologik jihatdan qulay ish rejimi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladigan kasbiy faoliyatdagi jamoaviylik; pedagogik g'oyalar va usullar almashish; o'quv tashabbuslarini rivojlantirish.

IV. O'quv jarayonini tashkil qilish.

Ta'limning an'anaviy vazifalaridan biri bo'lgan o'quv samaradorligini oshirish muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan ushbu bo'limni batafsil ko'rib chiqaylik. Yo'l-yo'lakay strategik aks ettirishning oltmish elementidan qirq bittasi namunali o'quv darsining u yoki bu qismida qo'llanilishini ko'rib chiqamiz (mazmuni, intellektual va amaliy ko'nikmalar, odatiy tartib-qoidalar, operatsion harakatlar). Anglashga qaratilgan savollar "ruhiy oyna" rolini bajaradi, bu kundalik ish tartibi, fanlarga o'qitish, qulay psixologik muhitni yaratish bilan bog'liq asosiy jihatlarni aks ettiradi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash taktikasi qanday amalga oshiriladi?
2. Pedagog shaxsini tarkib toptirish modellari qanday?
3. Kasbiy-fikriy o'z-o'zini rivojlantirish modeli deganda nimani tushunasiz?

9-§. KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH



Tayanch tushunchalar: kompetentlik, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, qobiliyat, tayanch kompetensiya, bazaviy kompetensiya, maxsus kompetensiya, tajriba, bilim, ko‘nikma, malaka.

Kompetensiya” va “kompetensiyaviy yondashuv” tushunchalari. Inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma‘nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi

“Kompetentlik” tushunchasi ta‘lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik “noan‘anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlantirish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetentlikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta‘limining asosiy sharti bo‘lib hisoblanadi. Bu talab o‘qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo *ta‘limini yangilashning asosiy yo‘nalishi ta‘lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko‘ra olish, unda tizimli faoliyat ko‘rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.*

“Qobiliyat” bu o‘rinda “moyillik”, “ko‘nikma” ma‘nosida tushuniladi va yaxlit olganda qobiliyat muayyan faoliyat sohasini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va bajarishda asqotadigan shaxsiy sifat bo‘lib hisoblanadi.

“Tayyorlik” atamasi bu o‘rinda, avvalo, mustaqil faoliyatga va zarur bo‘lganda, ijodiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlik ma’nosida qo‘llanilgan.

! “Kompetensiya” deganda esa (lotincha compete – erishaman, muvofiqman, mos kelaman) kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuyi tushuniladi. Kompetensiya, shuningdek, muayyan vazifani bajarish uchun biror shaxs yoki tashkilotga berilgan vakolat va huquq ma’nosida ham qo‘llaniladi.

Kompetentlilik va kompetensiya so‘zlari bir-biri bilan bog‘liq va biri ikkinchisini taqozo etadigan tushunchalar sanaladi. Shunga ko‘ra kasbiy kompetensiya o‘zida bir qator kompetentlik va kompetensiyalarni mujassamlashtiradi. Zero, yetarli darajada kasbiy kompetensiyasi rivojlanmagan va keng doiradagi kompetensiyaga ega bo‘lmagan mutaxassis o‘z lavozim vazifalarini muvaffaqiyatli bajara olmaydi. Kompetentli deb muayyan bir sohaga oid ma’lumotga ega bo‘lgan va shu sohaga xos kompetensiyalarni egallagan kishiga aytiladi.

“Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarining farqi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

kompetensiya – davlat ixtiyorida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, u o‘quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta’limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi;

kompetentlilik bu – o‘quvchi (ishchi) tomonidan egallangan xos kompetensiya bo‘lib, kishining muayyan sohada egallagan shaxsiy sifatlari, muayyan sohada orttirilgan tajriba.

Ta’limiy kompetensiyalar shunisi bilan farqlanadiki, ular o‘quvchi faoliyatini kelajakda to‘laqonli hayot kechirishi (faoliyat ko‘rsatishi) uchun modellashtiradi. Ma’lum yoshgacha, davrgacha inson biror bir kompetensiyani namoyon eta olmaydi, ammo bu kompetensiyani shakllantirmaslik kerak degani emas. Bunday holatda ta’limiy kompetensi-

yalar haqida, ya'ni o'zaro bog'liq mazmun yo'nalishlari, bilim, ko'nikma, malakalar, borliqda mavjud voqeliklarga munosabat nuqtayi nazaridan faoliyat tajribasida ifodilangan, ham shaxsiy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ta'limiy tayyorgarlik to'g'risida gap boradi.¹¹

Kompetentlilik har doim faoliyatda namoyon bo'ladi. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi professional topshiriqlarni bajarish davomida namoyon bo'ladi. Bunda kasbiy kompetentlik namoyon bo'ladigan kontekstni ko'rish muhim hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra kompetentlilik tabiati shundayki, u insoniy qadriyatlar bilan, ya'ni muayyan turdagi faoliyatga nisbatan chuqur shaxsiy qiziquvchanlik sharoitida namoyon bo'ladi. Amaliyotda shaxsiy qadriyat darajasida ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat mazmuni aniq natija (mahsulot) yoki xulq-atvor shakli ko'rinishida bo'lishi mumkin. XXI asrda mutaxassis kompetentligini anglash insonning integrativ va analitik qobiliyatlari rivojlanganligiga asoslanishi lozim. Ijtimoiy taraqqiyot dinamikasi kasbiy faoliyat insonning kasb karyerasi davrida to'la aniqlanmaganligini nazarda tutadi hamda uzluksiz tayyorgarlikni, o'z kasbiy kompetentligini doimiy oshirib borishni talab etadi.

Kompetentlilikning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

1. Kompetentlilik faoliyatl bilan bog'liq tushuncha bo'lib, ma'lum bir sohaga oid bilim, ko'nikma, malakalar bilan uyg'unlashgan umumiy ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

2. Kompetentlilik muayyan vaziyatda o'zini xolis baholagan holda yo'l tanlay olish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi.

Kasbiy tayyorgarlikka kasbiy rivojlanish deb qaraydigan bo'lsak, bo'lajak kasbiy faoliyat tajribasini egallash deganda kompetentli mutaxassisning *istiqbol sari intiluvchan, o'zgarishlarni oldindan ko'rib biladigan, doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirishga yo'nalganligi nazarda tutiladi*. Tayanch,

¹¹Краевский В.В., Хуторский А.В. основы обучения. Дидактика иметодика. – М., 2007. –С. 135.

bazaviy va maxsus kompetensiyalar majmuyi kasbiy kompetentlik mazmunini tashkil etadi.

Tayanch kompetensiyalar istalgan kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lib, hozirgi davrda shaxsning erishgan muvaffaqiyatlari bilan bog'liq. Tayanch kompetensiyalar bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ular, eng avvalo, axborotlarga ishlov berish asosida professional topshiriqlarni bajara olish qobiliyati;

- kommunikatsiya, shuningdek, chet tilida muloqot qila olish;

- fuqarolik jamiyatida shaxsning ijtimoiy-huquqiy xulq-atvori asoslarida namoyon bo'ladi.

Bazaviy kompetensiyalar muayyan kasbiy faoliyatning (pedagogik, boshqaruv v.b) o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

Maxsus kompetensiyalar kasbiy faoliyatning aniq predmetli yoki tor sohasini ifodalaydi. Maxsus kompetensiyalarga muayyan kasbiy faoliyat sohasida *tayanch* va *bazaviy* kompetensiyalarning amalda qo'llanilishi sifatida qarash mumkin. Kompetentlikning uchala turi ham o'zaro bog'liq va birgalikda rivojlanadi. Shuningdek, faoliyatni individual uslubini shakllantiradi, mutaxassisni yaxlit obrazini yaratadi va pirovard natijada kasbiy kompetentlikning yaxlit ko'rinishini hosil qiladi.

Tayanch, bazaviy va maxsus kompetensiyalar o'zaro uyg'un ravishda hayotiy muhim turli darajadagi va murakablikdagi topshiriqlar hal etishda namoyon bo'ladi.

Yaxlit olganda bazaviy kompetensiyalar zamonaviy kasbiy faoliyat asosiy topshiriqlarni tushunish, tayanch kompetensiyalar esa shu topshiriqlarni yechish algoritimiga o'tishni nazarda tutadi. Maxsus kompetensiyalar esa alohida bir mutaxassisning kasbiy faoliyati misolida bazaviy va tayanch kompetensiyalarning qo'llanilishini ko'rsatadi.

10-§. TA'LIM PARADIGMALARI



Tayanch tushunchalar: paradigma, transtsendental, sotsiotsentrik, antropotsentrik, An'anaviy-konservativ, Fenomenologik, Texnokratik, Ezoterik, ta'lim jarayoni, individuallik, bilim, ijod, insonparvarlik, qadriyat, nazariya.

Ta'lim paradigmalari: ularning paydo bo'lishi va rivojlanish tendensiyasi.

Barchamizga ma'lumki, shaxs tarbiyasi xilma-xil qadriyatlarga tayanib, amalga oshiriladi:

- transsendental (tarbiyalanuvchini mutlaq qadriyatlardan – haqiqat, Yaratguvchiga yaqinlashtirish);
- sotsiotsentrik (erkinlik, tenglik, mehnat, tinchlik, ijod, insonparvarlik va boshqalar);

- antropotsentrik (individuallik, foydalilik, o'z-o'zini namoyon etish va boshqalar). Shaxsning har tomonlama kamol toptirishdagi tayanch qadriyatlarni belgilab olish o'z navbatida ta'limiy paradigmalarni tanlab olishga ham imkon beradi.

! Paradigma (grekcha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashning biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya, deb izohlanadi.

Pedagogikada paradigma atamasining ikki xil ma'nosini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, bu faylasuf T.Kunning klassik ta'limotiga yaqin bo'lib, umummilliy tushuncha hisoblangan paradigmalar ilmiy faoliyat modeli, tadqiqot me'yorlari, mezonlari, standartlari yig'indisi, paradigma – ilmiy jamiyatdagi aniq fanlar yoki qator fanlarda umumiy tarzda qabul qilingan dunyoni tushuntirishga yetakchi yondashuv, bir butun g'oyalar, qadriyatlar yig'indisi.

E.V.Berejkova, V.V.Krayevskiy, N.A.Korshunova kabi olimlar ham xuddi shunday nuqtayi nazarga asoslanadilar. Xususan, E.V.Berejkova va V.V.Krayevskiyilar tomonidan paradigma tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "Paradigma – fanning obyekti emas, uning o'zi nazariy standartlar, metodologik me'yorlar, qadriyatli mezonlar sifatidagi ilmiy faoliyat. Paradigma – aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni qo'yish va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya (yoki muammolarni qo'yish modeli). Paradigmani ikkinchi tarzda tushunish uni ta'lim tizimini loyihalashning asosi, g'oya, yondashuv, tayanch modeli yoki ta'lim strategiyasi sifatida izohlanadi. Bunday talqin etishda qoidaga muvofiq ta'limiy paradigmalar tushunchasidan foydalaniladi va u ta'limning asosiy yo'nalganligini aks ettiruvchi atamalar, qo'yilgan pedagogik g'oyalarning manbai va usulini o'ziga qo'shib oladi. Demak, shakllantiruvchi, insonparvar va ezoterik (I.A.Kolesnikov) avtoritar, manipulyativ va qo'llab-quvvatlovchi (G.B.Kor-netov), an'anaviy shakllantiruvchi, an'anaviy rivojlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan (S.V.Kulnevich) an'anaviy, ratsional va insonparvar (V.Y.Pilipovskiy) ma'naviy va dunyoviy (I.A.Solovsova), pedagogik, androgogik, akmeologik, kognitiv va kommunikativ (Yu.G.Fokin) va boshqa paradigmalar ajratib ko'rsatiladi. A.Kostinning tasnifiga muvofiq fundamental zamonaviy paradigmalar quyidagilar kiradi. – asosida faoliyatli yondashuv turadigan, markazida bilim turadigan, obyektiv-axboriy yondashuvli ta'lim mazmunini tashkil etishning fanga doir modeli; – asosida faoliyatli yondashuv turadigan texnologik o'qitish yoki o'quvchilarning faoliyatiga bog'liq holdagi tuzilishga muvofiq ta'lim mazmunini tashkil etishning texnologik yo'naltirilgan modeli; – asosida o'z mavqeyini belgilab olish usullari, ta'limning individual yo'nalganligi turadigan, asosiysisemantikindividualrivojlanishbilanta'limmazmunining qo'shilish usullari bo'lgan ta'lim mazmunini tashkil etishning shaxsga yo'naltirilgan, ya'ni antroponimik

(P.G Izedrovich bo'yicha) modeli; – asosida so'nggi ijtimoiy madaniy mexanizmlarni translyasiya qilish va ta'limiy qadriyatlarni qaytadan tiklash turadigan uyushma, xalq, etnik guruhlarning turli-tuman ijtimoiy-madaniy o'ziga xosliklari asosida tashkil etiladigan ta'lim mazmunini tanlab olishning ijtimoiy modeli; – ta'limning maqsadli yo'nalganligi yaxlit tarzda shaxsning rivojlanishini va o'z-o'zini rivojlanishiga yordam berish hamda zaruriy shart-sharoitlarni yaratishga asoslangan axborotlashtirishga almashtiriladi. Shu nuqtayi nazardan dunyoning ehtimoliy modeli, uni o'zlashtirish darajasini nafaqat uning bilishi, qanchalik darajada tushunishini, ya'ni mazmunini egallaganligini aniqlab beradi; – ta'lim jarayonining ta'lim oluvchilarning ehtiyoj, qiziqish va imkoniyatlari bilan bog'liqlikda tashkil etilishi, shaxsiy fikriy faoliyatni ta'minlash, mazkur ehtiyoj, qiziqish, imkoniyatlarni namoyon etish uchun zarur sharoitni yaratish asosida ta'lim oluvchiga nisbatan nuqtayi nazar o'zgaradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqishni talab etadigan yangi paradigmalarning paydo bo'lishi amaliyotchi pedagoglarda ular asosida o'z faoliyatini qayta qurish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Biroq "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim", "shaxsga yo'naltirilgan o'qitish" tushunchalari mazmuni kundalik, shuningdek ilmiy darajada ham bir xil ma'noni ifoda etmaydi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning mavjud konsepsiyasi uning an'anaviy, fanga yo'naltirilgan o'qitishdan o'ziga xosligi va farqi, eng avvalo shundaki, o'zlashtirilgan bilim va faoliyat usullari faqat birgina maqsadni aks ettirmay, balki insonning "shaxs bo'lish" ehtiyojini amalga oshirish (A.V.Petrovskiy), "uning subyektivligini shakllantirish", shaxsning subyektiv tajribasini boyitish (I.S.Yakimanskaya), "shaxsiy vazifalar"ni amalga oshirish (V.V.Serikov), madaniyat kishisi sifatidagi individning shakllanishi (E.V.Bondarevskaya) sharti, vositasidir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va o'qitish jarayonlarini oydinlashtirishga intilish shaxsga o'qitishning madaniy uyg'unligi, insoniy muvofiqligi va hayotiy moslashuvchanlik tavsifi, eng avvalo, didaktik emas, tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga yo'nalganligi bilan

bog'liqdir. Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining asosiy tavsifi uning boshqa maqsadga yo'nalganligi va ishtirokchilarga boshqacha yondashuvni ifoda etishidadir: talabalarni o'z hayotiy faoliyat usullari, o'z individualligini talabga javob beradigan tarzda amalga oshiruvchi o'quv jarayonining haqiqiy subyektiga, o'qituvchini esa, talaba faoliyati tashkilotchisi, boshqaruvchisi, talabalar va madaniyat orasidagi bog'lovchi bo'g'in, talabani madaniyatga olib kirish va undagi o'z o'rnini belgilab olishni ta'minlovchisiga aylantirishdir. Ta'limning yangi paradigmasining paydo bo'lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi (E.Fromm, J.P.Sartr, V.Frankl, N.Berdyayev, A.Maslou, K.Rodgers va boshqalar) asosiy o'rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtayi nazari – har bir alohida inson hayotining o'ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e'tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o'z-o'zini realizatsiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e'tirof etib, insonning o'z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o'zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo'yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko'radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o'rnatish jarayonida sodir bo'ladi. Asosida ta'limga yangicha yondashuv yotadigan g'oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo'shishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta'limot (L.S.Vigotskiy), shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning refleksiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar (A.Leontev, L.Ansiferova, A. Petrovskiy, P.Galperin, V.Davidov va boshqalar). O'z-o'zi-

ni tashkillash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z o'rnini belgilab olish, o'z-o'zini realizatsiyalash, o'z-o'zini aktuallashtirish g'oyalarini sinergetika, insonparvar falsafa va psixologiya tomonidan tantanali suratda e'lon qilinishi mohiyatida quyidagilar aks etadigan ta'limga shaxsga yo'naltirilgan paradigmasining namoyon bo'lishini belgilab berish zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda, ayniqsa, talab etilishini ko'rsatdi: inson murakkab, o'z-o'zini rivojlantiruvchi tizim sifatida qaraladi, har bir shaxsning noyoblighi va takrorlanmasligi hamda uning rivojlanish trayektoriyasi, o'z qadr-qimmatini e'tirof etiladi. Zamonaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta'limiy, tarbiyaviy), ta'limning bosh maqsadi – madaniyatga yondashuvga, o'quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va talabalar orasidagi o'zaro ta'sir etish tavsifiga ko'ra paradigmalari farqlanadi. Biz esa, quyida ko'proq va keng tarqalgan besh paradigma alohida to'xtalib o'tamiz:

1. An'anaviy-konservativ (bilimga yo'naltirilgan paradigma).

2. Fenomenologik (insonparvarlik paradigmasi).

3. Ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorli).

4. Texnokratik.

5. Ezoterik.

1. An'anaviy bilimga yo'naltirilgan paradigma.

Bilimga yo'naltirilgan paradigmadagi ta'limning bosh maqsadi: "Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir". Shuning uchun ta'lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko'proq mavjud unsurlari – ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko'nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish va saqlashda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o'tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiylikini ta'minlashga asoslanadi.

Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigma an'anaviy paradigмага qarama-qar-

shi o'laroq, o'zining diqqat markazida mazmuni emas, o'quvchilarning turli turdagi bilimlarni o'zlashtirishining samarali usullarini qo'yadi. Ratsionalistik ta'lim paradigmasi asosida B.Skinnerning ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi turadi. Ta'lim muassasasining maqsadi – ta'lim oluvchilarda ijtimoiy me'yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli “xulq-atvor majmuyi” ni shakllantiradi. Shuning uchun “xulq-atvor” atamasi “barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar – uning fikrlashi, his-tuyg'usi va harakati”ni bildiradi (R.Tayler).

Mazkur paradigma ta'lim muassasasiga ta'lim oluvchilarning maqbul xulq-atvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o'zlashtirish yo'li sifatida qaraydi, ya'ni har qanday ta'lim muassasasi bu – yashash muhitiga moslashtirishning ta'limiy mexanizmi. Bunday o'qitishning asosiy metodlariga o'rgatish, trening, test nazorati, individual o'qitish, korreksiyalash kiradi.

Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasi ning diqqat markazida o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lgan, hayot subyekti, shaxs erkinligi va ma'naviyati sifatidagi ta'lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o'sishi uchun yordamga yo'naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta'limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ya'ni ta'lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e'tirof etish yagona yo'nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta'lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlik paradigmasi ham o'qituvchi, ham o'quvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

- ta'limning ijtimoiylashuvi - o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o'zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta'minlash, o'qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

- milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish;

- ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqloq g'oyalari asoslanish;

- shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

- o'qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o'qituvchi hamda talabalarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

- ta'lim (xususan, kasbiy ta'limi) jarayonida o'quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

- pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, talabalar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish;



- mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtiyojlarga to'laqonli javob bera oladigan ta'limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

- ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

- ta'limning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me'yorlarga muvofiq darajasi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur “aniq” ilmiy bilimlarni uzatish va o‘zlashtirishdan kelib chiqadi. “Bilim – kuch”, shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o‘zini o‘zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o‘rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o‘quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi “ha – yo‘q”, “biladi – bilmaydi”, “tarbiyali – tarbiyasiz”, “egallagan – egallamagan” tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma’lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo‘ladi.

Ta’lim paradigmalarni tanlash ham pedagogik jarayon, shuningdek, uning ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari uslubini aniqlab berishini L.D.Stolyarenko quyidagicha ko‘rsatib bergan:



Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur “aniq” ilmiy bilimlarni uzatish va o’zlashtirishdan kelib chiqadi. Inson o’zini o’zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o’rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o’quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi “ha – yo’q”, “biladi – bilmaydi”, “tarbiyali – tarbiyasiz”, “egallagan – egal-lamagan” tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma’lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo’ladi.

Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta’limiy paradigmalardan biri. Mazkur so’zning yunonchadan so’zma-so’z tarjimai “sirli”, “yashirin” ma’nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o’zgar-mas Haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdorlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi o’quvchining ta-biiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo’lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlan-tirishda namoyon bo’ladi. Shuning uchun o’qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta’lim oluvchilarning axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarni rivojlantirishdir.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Ta’lim paradigmalari deganda nimani tushunasiz?
2. Ta’lim paradigmalarning paydo bo’lishi va rivojlanish tendensiyasi qay tarzda amalga oshgan?
3. An’anaviy ta’lim paradigmasi nima?
4. Ratsionalistik ta’lim paradigmasi ahamiyati qanday?
5. Fenomenologik ta’lim paradigmasining samaradorligi nimalarda namoyon bo’ladi?

11-§. TA'LIM MAZMUNINI BELGILASHGA DOIR KONSEPSIYALAR



Tayanch tushunchalar: ta'lim mazmuni, didaktika, didaktik ensiklopedizm, didaktik formalizm, didaktik pragmatizm, funksional materializm, bilim, ko'nikma, tarbiya, uzluksiz ta'lim, konsepsiya, modernizatsiya, tizim, tendensiya, metodika, pedagogik shart-sharoit.

Ilmiy-texnik taraqqiyot va ta'lim mazmuni.

Ta'lim mazmuni takomillashib borish tavsifiga ega bo'lib, uni aniqlovchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) jamiyatda fan, texnika va madaniyatning rivojlanganlik darajasi;
- 2) jamiyat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma;
- 3) ta'limning maqsad va vazifalari;
- 4) innovatsion rivojlanish darajasi;
- 5) axborotlarning hajmi va ko'lami;
- 6) o'quvchilarning yosh xususiyatlari.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini modernizatsiyalashni davrning o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda. Hozirgi vaqtgacha ta'lim mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining maqsadini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzidan o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan

bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar o'quvchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda o'quvchilarda juda ko'p axborotlarning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning samarasi past bo'lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, o'quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgari to'plangan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyiladi. Ta'limning maqsadini bunday tarzda belgilash o'quvchining faolligini cheklab qo'yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li umumiy o'rta ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, umumiy o'rta ta'lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi. Garchi umumiy o'rta ta'lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo'lsada, u pedagogika fanida chuqur anglab yetilganligi va o'z o'rniga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda ta'limga doir muammolarni tahlil etishda "kompetensiya", "kompetentlik", "tayanch kompetensiyalar" kabi atamalardan keng foydaniimoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

– Ushbu nazariyaning muallifi F.V.Doyerffeld bo‘lib, u 1879-yilda “Didaktik materializm” (Der didaktische Materialismus) kitobini nashr etgan.

– Ushbu nazariya tarafdorlari maktabning asosiy maqsadi ilm-fanning turli sohalarida o‘quvchilarga iloji boricha ko‘proq bilimlarni yetkazish deb hisoblashadi.

– XVII asrga kelib, bu yondashuvni Y.A.Komenskiy qo‘llab-quvvatlagan. U umrining ko‘p yillarini o‘quvchilar uchun zarur bo‘lgan barcha bilimlarni berishni xohlagan darslik ustida ishlashga bag‘ishladi.

– 1644-yilda ingliz shoiri va tarixchisi Komenskiy zamonidoshi Jon Milton “Tarbiya haqida traktat” yaratadi. Unda 9 yil davomida (12 yoshdan 21 yoshgacha) o‘quvchilarga ona tili, beshta chet tillarini o‘rganish, bibliya tarixi, cherkov tarixi, huquq, astronomiya, tabiiy tarix, agronomiya, geografiya, umumiy tarix, navigatsiya, arxitektura, tibbiyot, etika, siyosat, ritorika va mantiq kabi fanlar bo‘yicha ko‘plab bilim va ko‘nikmalarni egallashni tavsiya qildi.

“Ensiklopedistlar” fikriga ko‘ra, voqelikning ma‘lum bir bo‘lagini talabalar tomonidan tushunish chuqurligi o‘rganilgan material miqdoriga to‘g‘ri proporsionaldir. O‘z fanini muhim sanab, boshqa hamksblarining ham aynan shu pozitsiyada ekanligini hisobga olmasdan, o‘z fan dasturiga iloji boricha ko‘proq material kiritishga harakat qiladi.

Didaktik formalizm nazariyasining tamal toshini Geraklid va Siseron kabi buyuk shaxslar qo‘ygan.

Bu nom XVIII asr oxirida paydo bo‘lgan. Uni 1791-yilda “Emperik psixologiya” kitobi muallifi E. Shmid ishlatgan. “Formal ta‘lim” atamasi 1796-yilda A.A. Nemeyer (1754-1828) ning “Ta‘lim va o‘qitish asoslari” (Grundsätze der Erziehung und des Unterrichts) kitobida o‘z ifodasini topgan.

Keyinchalik ushbu nazariya tarafdorlari qatoriga A. Disterverg, J.J.Russo, I.G.Pestalotsi, A.A.Nemeyer, E.Schmidt va boshqalar qo‘shildi.

Transfer deganda faoliyatning bir sohasi bo‘yicha olgan bilimimizni boshqasiga o‘tkazish tushuniladi. Aksariyat hollarda bu bilvosita natijalarga, ya‘ni faoliyatning

bir turida orttirilgan ko'nikmalarni boshqa faoliyat turiga o'tkazilishini anglatadi, masalan, ikkinchi qo'l bilan bu harakatlarni bajarishda mashg'ulotlar ta'siri ostida bir qo'l bilan muayyan harakatlar qilish qobiliyatini yaxshilash.

Bu nazariya AQShda 19-20-asr boshlarida paydo bo'lib, u yerda, xususan, J.Dyui ta'lim mazmunini tanlash va tizimlashtirish sohasida utilitar konsepsiyani ilgari surdi. Yevropada shunga o'xshash fikrlarni Dyuninging kuchli ta'sirida bo'lgan nemis o'qituvchisi G. Kershenshtayner ham bildirgan. Dyuning fikricha, ta'limni "tajribani qayta yaratish"ning uzluksiz jarayoni sifatida tushunish kerak. Uning fikricha, ta'lim jarayoni va maqsad aynan bir xil mazmundir. Alohida fanlarning ta'limiy mazmuni manbasini o'quvchining individual va jamoaviy faoliyatida ko'rinish kerak. Shuning uchun ta'lim mazmunini belgilashda konstruktiv xarakterdagi mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratish, bolalarni ovqat tayyorlash, tikish-bichish, qo'l mehnati va hokazolarga o'rgatish kerak.

Konsepsiya qoidalariga muvofiq, o'quvchilarga maksimal erkinlik berish, xususan, fanlar majburiy va fakultativlarga ajratilgan bo'lib, ularni tanlashda o'quvchilarning ixtiyoriyligi, o'quv-tarbiya jarayoni o'quvchilarning subyektiv ehtiyojlariga moslashtirilganligi, o'quv jarayoniga iloji boricha "tabiiy" lik baxsh etilishi, maktab jamoa hayotining makoniga, o'quv dasturi esa o'quvchilar ehtiyojlari-ning aksiga aylantirilishi nazarda tutilgan

Didaktik utilitarizmning asosiy tamoyillarini amaliyotga tatbiq etilishi ko'plab mashhur amerikalik olimlar, jumladan I.L. Kandela, S. Bagleya, Ya. S. Brubaxer, U.X.Kilpatrik va boshqalar tomonidan 1938-yilda keskin tanqidga uchradi. "Essensializm" vakillari bo'lgan bu olimlar Dyui va uning tarafdorlarini, ularning faoliyati AQShda ta'lim darajasi sezilarli darajada pasayishiga olib kelganlikda aybladi. Tanqid to'lqinida siyosiy munozaralar muhim rol o'ynadi: o'sha paytning ko'plab nufuzli odamlari progressivizm tamoyillariga asoslangan Amerika ta'lim tizimi AQShni kosmik kashfiyotlarda sobiq Sovet Ittifoq ortda qolishiga javobgar deb hisoblar edilar.

Funksional materializm.

Ta'lim mazmunini tanlashning ushbu nazariyasi V. Okon (кн. "Протсесс обучения", 1954; рус. пер. 1962), ("Введение в общю дидактику" (1987; рус. пер. 1990) tomonidan ishlab chiqilgan.

Nazariyaning asosiy mazmuni: muallif o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki olgan bilimlaridan o'z faoliyati davomida foydalanish qobiliyatini ham ta'minlaydigan nazariyani ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Bu nazariyaning asosini bilish jaryoni va faoliyat o'rtasidagi integral aloqa tashkil etadi.

Shu munosabat bilan, dasturlarning tarkibini tanlash va tuzishda qo'llanilishi kerak bo'lgan asosiy mezon dunyoqarashli yondoshuvi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Alohida fanlarning tarkibida ularning "yetakchi g'oyalari" aks ettirilishi kerak, masalan, biologiyada evolyutsiyasi g'oyasi, tarixdagi sinfiy kurash g'oyasi, matematikada funksional bog'liqlik g'oyasi va boshqalar.

Ijoiy tarafi: yuqoridagi talablarni keng ko'lamli eksperimentlar davomida aniqlashtirish ham jamiyat tomonidan ta'lim jarayoniga qo'yiladigan talablarga ham o'quvchilarning individual ehtiyojlariga javob beradigan dasturlarni yaratishga yordam beradi deb tahmin qilish mumkin.

Kamchiligi: ammo ushbu talabning bajarilishi o'quvchilarning qobiliyatlari, kognitiv qiziqishlari, ayniqsa, ularning fikrlash va faollik mustaqilligini shakllantirishga hissa qo'shishi kerak bo'lgan mazmun va usullarga bog'liq bo'lib, ularni mustaqil ta'lim olishga undaydi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Didaktik ensiklopedizm konsepsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Didaktik formalizm konsepsiyasi ahamiyati nimada?
3. Didaktik pragmatizm konsepsiyasi samaradorligini ifodalang
4. Funksional materializm konsepsiyasi deganda nimani tushunasiz?

12-§. TA'LIM MAZMUNINI BELGILASH TAMOYILLARI VA MEZONLARI



Tayanch tushunchalar: tamoyil, ta'lim mazmuni, fundamentallashtirish, insonparvarlashtirish, strukturalash, tizimlilik, pedagogik jarayon, ko'nikma, texnologiya.

Ta'lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmuniga an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko'zda tutadi. Bu umumiy o'rta ta'lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o'zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog'liq xatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Ta'lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o'quv fani, o'quv materiali, pedagogik faoliyat, o'quvchi shaxsi kabi komponentlarining o'zaro mosligini ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o'quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o'zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liqdir. Buning uchun insonparvar g'oyalar umumiy ta'lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari tamoyilining o'zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga yo'nalganlik tashkil etishi zarur.

Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta'limni insonparvarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi. U ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o'rnatish va fanlararo aloqalarni o'quvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini o'sib boruvchi yo'nalishda rejalashtirishdan iborat bo'lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili. Ushbu tamoyil o'rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetensiyalarni yagona tizimdagi o'rni, umumiy o'rta ta'lim, barcha o'quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda ko'rib chiqishni ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishni ko'zda tutadi. Ma'lum bir yosh davriga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar tizimi ta'lim mazmunida aks ettiriladi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Ta'lim mazmunining barcha elementlarini uzluksiz ta'lim bosqichlarida jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanish talablariga mos bo'lish tamoyili haqida nimalarni bilasiz?
2. Ta'lim mazmuni va tashkiliy jihatlarining yaxlitlik tamoyilining mexanizmlari qanday?
3. Ta'lim mazmunini strukturalashning yaxlitlik tamoyilining ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili deganda nimani tushunasiz?

13-§. O'QUV MATERIALLARNI TIZIMLASHTIRISHNING DIDAKTIK PARAMETRLARI



Tayanch tushunchalar: ta'lim, bilim, ko'nikma, tarbiya, o'quv materiallari, modellashtirish, informatsion ko'rsatkich, konsentrizm, ta'lim modeli, didaktika, pedagogik jarayon.

O'quv materiallari, uning belgilari va tuzilishi.

O'quv materiallari, uning belgilari va tuzilishi. O'quv materiallarining mantiqiy tuzilishi. O'quv materiallarini tizimlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. O'quv materiallarini modellashtirish. O'quv materiallarining informatsion ko'rsatkichlari. Konsentrizm tamoyili asosida o'quv materiallarini tizimlashtirishning afzalliklari. Konsentrizm tamoyiliga asoslangan ta'lim modeli va uning tuzilishi.

O'quv materiallarini tanlash va strukturalashtirish hozirgi zamon didaktikasining muhim masalalaridan biridir. Shuning uchun ham bu muammo keng ko'lamli tadqiqotlarni amalga oshirishni talab qilmoqda. O'quv materiallarini tanlash va strukturalash muammolari bo'yicha D.Shodiyev, R.Safarova, M.X.Mahmudov, B.Adizov, N.V.Borisova, S.Djumadurdyev, V.K.Dyachenko, L.V.Zankov, L.Ya.Zorina, L.Klinberg, A.N.Krutskiy, I.Y.Lerner, I.P.Podlasny, Ye.S.Polat, M.N.Skatkin, E.Stouns, A.I.Uman, A.V.Usova, L.M.Fridman, V.F.Shatalov, P.M.Erdniyev, I.S.Yakimanskaya, P.Carpenter, A.Bullock, J.Potter, K.Cummings, T.French, P.J.Cooney, M.Fairchild, B.Smith, D.Jakobs kabilar shug'ullanganlar.

Tanlangan va strukturashtirilgan har qanday o'quv materiali o'quvchilarda eng avvalo DTSda nazarda tutilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilishi kerak. O'quv materiallari muayyan mezonlar va prinsiplarga tayanilgan holda tanlanishi va strukturalashtirilishi lozim. Xuddi mana shu prinsip va mezonlarga tayanilgan holda o'quv kurslari mazmuni ham tanlanadi. Biroq kuza-

tishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat hollarda o'quv materiallarini tanlash va strukturalashtirishda muayyan mezonlarga amal qilinmayapti.

Aksariyat hollarda o'quvchilarga taqdim etiladigan o'quv materiallari xususiydan umumiyga, qismdan butun- ga qarab borish printsi-piga tayangan holda tanlanganli- gining guvohi bo'lamiz. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quv materiallarini muayyan konsentrlar asosida tanlash va strukturalashtirish aniq dalillar hamda didaktik qo- nuniyatlarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Xususiy- dan umumiyga qarab borish prinsipi asosida tanlangan o'quv materiallari bilimlarni umumlashtirish, ularni izchil tizimga solish, mazkur bilim va tushunchalarning tarki- bini anglash kabi holatlarga imkon bermaydi. Bunday sha- roitda o'quvchilar nima asosiy, qaysi tushuncha ikkinchi darajali, muayyan holatning sababi va oqibati nimadan iborat, qaysi qonuniyat muhim, qaysisi esa uning tarkibiy qismiga kiradi, muayyan sharoitda ishonchli harakat qilish uchun qanday bilimlar va holatlarni o'rganish kerak, xato- lar, noaniqliklar, axborotlarning ketma-ketligi va uzviyligi qayerda ko'rinadi, degan savollarga aniq javob topa olmay- dilar. Bunday sharoitda o'quvchilar egallaydigan bilimlar dinamik xarakter kasb etmaydi. Agar o'quvchi taqdim etil- gan bilimlar ierarxiyasi va uzviyligini aniq his etsa, ular- ning o'zaro aloqadorligi va bir-biriga ta'sirini anglasa, bu bilimlar muayyan ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga aylanadi.

O'quvchilarning tarqoq va uzuq-yuluq bilimlarini jam- lash va tizimga solish uchun shunday ish usulini tanlab olish kerakki, natijada o'quvchining fikrlash tarzini yaxlit rivojlantirish imkoniyati ta'minlanishi lozim.

O'quv axborotlarini muayyan izchilikda jamlash, ix- chamlash, ularni o'zlashtirish uchun qulay holatga keltirish zamonaviy didaktikada juda dolzarb masala hisoblanadi. Axborotlarning haddan ziyod ko'pligi muammo darajasiga ko'tarilgan bugungi kunda bilimlarni taqdim etish va ular- dan foydalanishda samaradorlikka erishish muhim ahami- yat kasb etadi. O'quv materiallari va axborotlarni struk-

turalashtirgan holda o'quvchilarga taqdim etish sohasida keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda bilimlardan amaliy foydalanish, ularni o'zlashtirish, taqdim etish sohasida ham izlanishlar olib borilmoqda. Bu bilimlarni faollashtirish imkoniyati sifatida e'tirof etilmoqda. Bilimlarni taqdim etishning ixcham, kompakt modellari yaratish sohasida izlanishlar olib borilmoqda. Bilimlarni konsentrlar yordamida taqdim etish, ularni mantiqiy modellar, semantik tarmoqlar yordamida o'quvchilarga yetkazish kabilar shular jumlasidandir. Lekin darsliklarga bunday texnologiyalarni singdirish bir qadar murakkab.

O'quv axborotlarini jamlashning samarali usullari pedagogik-psixologik yondashuvlarda, xususan, o'quv materiallarini umumlashtirish D.Shodiev, R.Safarova, P.Musayev, U.Musayev, V.V.Davidov, D.B.Elkonin, didaktik birliklarni yiriklashtirish P.M.Erdniyev va umuman, bilimlarni muayyan tizimga solish D.Shodiyev, R.Safarova, L.Ya.Zorina, A.V.Usova, P.Carpenter, A.Bullok, J.Potter kabilarning ishlarida o'z ifodasini topgan.

O'quv materiallarini strukturalashtirish uchun quyidagi usullardan foydalanish e'tirof etilgan: predmetli, modelli va belgili shakllar, mavzularning strukturali blok-chizmasi, tayanch konspektlar va boshqalar. Bunday hollarda predmetli modellashtirish, grafik modellashtirish, belgili modellashtirish, strukturali blok-chizma kabilardan foydalanilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, dastur mavzularini ixchamlashtirish va muayyan bloklarga joylashtirish orqali mustahkam o'zlashtirish o'quv materialining bir vaqtning o'zida to'rt shaklda: grafik, sonli, ramziy va og'zaki usullar asosida taqdim etilishiga imkon yaratadi.

O'qitiladigan har bir o'quv predmeti bo'yicha tushunchalar lug'atining zarurligini ham ta'kidlash lozim. U darslik va o'quv qo'llanmalarni asoslash, ularni yaratishning yangi imkoniyatlarini aniqlash, ta'lim natijalarini nazorat etish imkonini beradi. Shuningdek, u ta'lim mazmunini integratsiyalashning yanada yuqori darajalarini ta'minlash va texnologik jihatdan rivojlantirishga sharoit yaratadi. O'quv axborotlarini tizimlashtirish va strukturalashtirish

muammosini quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etish dolzarblashmoqda:

1. Alohida o'quv fanlari, umuman ta'lim mazmunida axborotlarni tizimlashtirish va muayyan kontsentrlarga jamlashning o'zaro uyg'un tizimini yaratish;

2. Taqdim etilgan o'quv axborotlari blokining nisbiyligi, bu avvalo, yangi bilimlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, ularni o'zlashtirishga bo'lgan talablar asosida o'quv axborotlari mazmunining qayta tanlanishi;

- o'quv materiallarini bunday strukturalash, o'qituvchining bilimlarni bayon etishning yangi shakllariga o'tishga qarshi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muayyan ijtimoiy sustlikni bartaraf etishni talab qiladi.

Shuning uchun bilimlarni strukturalashtirish va yaxlit tizimga solishda o'quv materiallarini tizimlashtirish va tahlil qilishning asosiy prinsiplariga muvofiq strukturalashtirish zarur. Ushbu prinsipni o'quv topshiriqlarini tanlash va o'quvchilar tomonidan o'quv materialining o'zlashtirishida hisobga olish lozim. Chunki nazariy materiallarning mantiqiy asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchilar uning shakllanish maromini kuzatish va chuqur o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

O'quv kursini mantiqiy strukturalash haqiqatan aniq va yaxshi tanlangan o'quv topshiriqlarini izchil o'zlashtirish imkonini beradi. Ularni o'zaro tarkibiy qismlarga ajratish natijasida esa ichki aloqadorliklarning chuqurligi va har tomonlama asoslanganligi, o'zaro uyg'unligini ko'rish mumkin. Shu sababli gnoseologik prinsiplar asosida o'quv materiallarini ilmiy asoslangan holda strukturalashtirish didaktikaning o'ta dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'quv materiallarini tanlash va strukturalashtirishda ikki xil yondashuvga tayanish mumkin:

1. Empirik yondashuv bu – umumlashtirish va variativlikka doir shaxsiy tajribani o'z ichiga oladi;

2. Nazariy yondashuv – bunda har bir o'quvchi uchun bunday o'quv materiallarini o'zlashtirish mutloqo yangilik hisoblanadi.

O'quv materiallarini tanlash va strukturalashtirish masalasi uzoq vaqtlardan buyon keng miqyosda tadqiq etilmoqda. Shunga ko'ra tadqiqotimizda ushbu masalaning quyidagi jihatlariga to'xtalib o'tamiz. Bunda fanlar bo'yicha bilimlar sifatining yaxshilanishi va o'quv materiallarini yanada unumli o'zlashtirilishini ta'minlashga qaratilgan bilimlar strukturasining kontsentrnga asoslangan modeli qanday bo'lishi kerak? – degan savolga javob izlanadi.

Bugungi kunda o'quv materiallari mantiqiy tuzilmasining ko'pgina modellari mavjud. Mazkur modellar tanlangan yondashuv va metodlarni asoslashdagi turli-tumanlikka qaramay, amaliy pedagogik jarayonlarda sinab ko'rilgan hamda o'zining ijobiy natijalarini bergan.

O'quv materiallarining turli variantlari orasida mantiqiy aloqalar (munosabatlar) o'quv materiallari mantiqiy strukturasini "yaxlit o'quv material tuzilmasidagi tizimlilik, ketma-ketlilik, o'zaro aloqadorlik"dan iborat hodisadir. O'quv material tuzilmasi haqidagi tasavvurlarning mavjud variantlari bevosita o'quv material elementi tushunchasining qanday anglanishi va ajratib olingan qismlar o'rtasidagi aloqadorlikning qay tarzda ta'minlanishiga bog'liq. Bu xil strukturalashning ko'rgazmali namunasi sifatida mantiqiy jadvallarni ko'rsatish mumkin. Bu jadvallarda tushuncha, mulohaza, qonunlar hamda muhim tajribalar bilim qismlari tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur qismlar darslikda o'quv material bayonining izchilligi va ketma-ketligiga muvofiq ko'rsatkichlar asosida birlashib, to'g'riburchakni hosil qiladi. Ushbu strukturali-mantiqiy jadvallar aslida yo'naltirilgan chizmalardan iborat. Chizmaning uchki qismiga o'rganilayotgan materialning tarkibiy qismlari joylashtirilib, qirralar vositasida o'quv elementlarining bir-biri bilan o'zaro munosabatlari aks ettiriladi. Shu tariqa, chizmalar vositasida o'quv materiallari strukturasini namoyish etish mumkin.

Teskari topshiriqlardan foydalanish metodi didaktik birliklarni yiriklashtirish nazariyasining negizini belgilaydi. Didaktik birliklarni yiriklashtirish bo'yicha 1-sinf dan boshlab ona tilidan mashqlar tuzish, o'qishdan matnlar tanlash

muhim ahamiyatga ega. Didaktik birliklarni yiriklashtirish nazariyasi asosida tuzilgan darsliklar vositasida o'qitish o'zaro teskari va yagona negizdagi ta'limiy harakatlarning birgalikda, bir darsda, bir vaqtning o'zida va darslikning bir sahifasiga joylab o'rgatish pragmatik mazmunga ega. Didaktik birliklarni yiriklashtirish nazariyasi asosida tuzilgan darsliklarda aqliy aloqalar ta'minlanadi.

Didaktik birliklarni yiriklashtirish nazariyasida o'zaro aloqador bilimlardan foydalaniladi. Didaktik birliklarni yiriklashtirish nazariyasi bo'yicha yaratilgan darsliklarda o'quv materiallari blok shaklidagi kontsentrlar sifatida taqdim etiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bilim va tushunchalar yagona kontsentrga birlashtirilib, ularning har biridan didaktik birliklarni yiriklashtirish maqsadida foydalaniladi.

Didaktik birliklarni yiriklashtirish nazariyasi bo'yicha yaratiladigan darsliklarda o'quv materialini joylashtirishda muayyan qoidalarga asoslaniladi: juft mulohazalar yagona sahifada parallel chop etiladi, o'xshash fikrlar ikki pog'onali konstruktsiyaga joylashtiriladi. Darslikning har bir sahifasida, xuddi har bir darsdagi kabi o'quvchi ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan vositalar: so'z, narsa-buyum, rasm, ramz, sondan bir vaqtda foydalaniladi.

Didaktikada mavjud bo'lgan o'quv materiali mantiqiy strukturasi belgilashga oid tajribalar ilmiy hodisalar, jarayon va obyekt holati haqidagi bilimlarning didaktik modelida o'z ifodasini topadi. Mazkur model integrallashgan xarakterga ega bo'lishiga qaramasdan universal emas. Mavjud tadqiqotlarda o'quv materialini kontsentrizm printsipligiga tayangan holda tanlashning nazariy-amaliy jihatlari ochib berilmagan. Bu esa, yuqori samaradorlikka ega bo'lgan didaktik birliklar, o'quv bloklaridan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Shunga ko'ra, biz, o'z izlanishlarimizda konsentrizm prinsipiga tayangan holda, o'quv materiallarini tanlash va strukturalashtirishning didaktik asoslarini aniqlashga harakat qildik.

Tadqiqot natijalari asosida tizimlilik o'quv materialining strukturasi takomillashtirish, uni keng va xilma-xil

aloqadorlikka asoslangan holda anglanish jarayoni;

- struktura bu – o'zida narsa-hodisalarning tashqi tuzilishini aks ettirib, yaxlitlikni qismlarga ajratish, ularning o'zaro aloqadorlikda joylashuvini bayon etish usuli;

- struktur tahlil tizimlarni tartiblashtirish, barqaror, invariant strukturalar, uning o'zaro bog'liq va aloqador elementlarini aniqlashni talab etishi haqidagi xulosaga kelindi.

O'quv materialini strukturalashtirish – o'quv fanlari mazmunini oqilona tanlashni talab etuvchi murakkab intellektual jarayon. Tadqiqot natijalari o'quv materiallarini strukturalashtirish o'zida murakkab mantiqiy faoliyat va avval o'rganilgan materiallarni qayta tartiblashtirishni talab etishini ko'rsatdi. O'quv materiallarini strukturalashtirish: birinchidan, tushuncha, nazariy asoslarni shakllantirish; ikkinchidan, alohida mavzu, bo'limlar, o'quv fani bo'yicha umumlashgan takrorlashni loyihalashni taqozo etadi. Birinchi holatda strukturalashtirish o'quv materialini va nazariy bilish (tushuncha, konseptsiya, qonun va h.k.), ikkinchi holatda o'quv materialini qayta strukturalashtirishni talab etuvchi o'quv modellari tizimini modellashtirish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Demak, o'quv materiallarini strukturalashtirish o'zida bilimlar va algoritmik modellarni shakllantirish jarayonini aks ettiradi.

O'quv materialini deganda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi talab etiladigan maxsus tarzda strukturalashtirilgan va tizimlashtirilgan axborotlar tushuniladi. O'quv materialini konsentrlashtirish esa axborotlarni o'zlashtirishga ajratilgan vaqtga asoslangan holda o'quv materiallarini tizimlashtirishni talab etadi. Tadqiqot natijalari o'quv materiallarini konsentrlarga jamlash o'zida uch jihatni aks ettirishini ko'rsatdi: o'quv materiallarini tizimlashtirilganlik darajasi (struktural-mazmuniy jihat);

- ma'lum belgilangan vaqt oralig'ida o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan

- o'quv axborotlari hajmi (vaqt va makon birligi); o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish (tashkiliy-metodik).

Bugungi kunga kelib, o'quv materiallarini konsentrizm prinsipi asosida loyihalash masalasi ilmiy manbalarda yetarlicha asoslab berilmagan. Mazkur printsip o'quv materiallari va ta'lim mazmunini qanday aniqlash, bayon etish, takomillashtirish lozimligini ifodalovchi me'yoriy asosdir.

O'quv materiallarini konsentrizm prinsipi asosida strukturalashda quyidagi tamoyillarga tayaniladi: jarayonlilik va rejalilik.

Mazkur prinsiplarni qo'llash asosi sifatida konseptual yondashuvlarga tayaniladi. Darslik ta'lim jarayonining ssenariysi sifatida namoyon bo'lishi kerak. O'quv jarayoni samaradorligini oshirishning umumiy masalalariga bag'ishlangan bir qator didaktik g'oyalar mavjud. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaldagi darsliklarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularning yangi tiplari va modellari ishlab chiqishga kuchli ehtiyoj mavjud. Bunday ehtiyoj birinchi navbatda darsning tarkibiy qismlarini boyitishga bo'lgan didaktik zaruriyat sifatida kelib chiqmoqda.

O'quv materiallarini tanlash va strukturalashtirishda jarayonlilik prinsipi o'quv materialining har bir bo'lagi ta'lim mazmunining barcha elementlari bilan bog'liq holda uning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi va o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'quv materialining muayyan qismini o'zlashtirish jarayonida uning keyingi elementlarini bilib olish taqozo qilinaadi. Bunda o'quv materiallarining aniq bloklarga jamlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarning butun o'quv materialini keyingi sinflarda o'tiladigan qismlarigacha to'liq idrok etishlariga imkon beradi.

Jarayonli yondashuvning asosiy jihatlari taniqli pedagog L.V.Zankov tomonidan ishlab chiqilgan edi. Mazkur yondashuvlar, ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida qo'llaniladigan darsliklarni yaratish va unda taqdim etiladigan o'quv materiallarini loyihalashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu printsip yordamida nafaqat muayyan o'quv predmetining ichida, balki o'quv predmetlariaro bog'lanish ta'minlanadi. Bunda darslik mualliflarining e'tibori o'quv materiallarini bloklarga ajratish, ular

orasidagi aloqadorlikni ta'minlash, muayyan kontsentrlarga taqsimlash, maqsadga muvofiq tarzda loyihalash, o'quvchilarning e'tiborini esa o'zlashtirilgan bilimlarga jalb etish uchun qulay sharoit yaratiladi. Shu asosda o'quvchilar keng ko'lamli tizimlashgan bilimlar va axborotlarni o'zlashtirish jarayoniga kirishadilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir matn kirish, asosiy qism, xulosadan iborat bo'lib, sarlavhalar va paragraflar orasida bog'lanish ta'minlangan bo'lishi kerak. Matnning bir qismi o'zlashtirilgan bilimlarni umumlashtirgan bo'lib, bu o'quvchilarning bilimlarini tizimlashtirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu yaxlit paragraflar yoki 2-3 gapdan iborat matnlar sifatida darsliklarda taqdim etilgan o'quv materiallari ta'lim mazmunining nazariy qismiga aloqador bo'lib, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish uchun muhim. Takroriy-umumlashtiruvchi matnlar o'zlashtirilgan bilimlarning tadrijiyligini ta'minlashda, ta'lim maqsadiga erishishda muhim hisoblanadi. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar ularni chuqurlashtirish va rivojlantirish uchun muayyan darajada ahamiyat kasb etadi. Aksariyat hollarda mazkur vazifani kichik matnlar bajaradi. Bunda o'quvchilarga bilish jarayonining teng huquqli subyekti sifatida murojaat qilish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Tushuntirish xarakteridagi matnlarda nafaqat o'quv predmetining mantiqi ochiladi, balki uning mazmunini qismlar, bloklar, paragraflarga ajratish imkoniyatlari tahlil etiladi. Shu bilan bir qatorda o'quv predmeti mazmunida mazkur bo'limning tutgan o'rni ochib beriladi. Tushuntirish matnlari o'quvchilarga o'quv materialini muvofiqlashtiruvchi va tadrijiy aloqadorligini ta'minlovchi holatlar o'quv kursi hamda ta'lim mazmuni doirasida ochib beriladi.

O'zlashtiriladigan bilimlar va axborotlarning matn doirasidagi aloqadorligi uning o'quv predmeti, mazmuni hamda didaktik mantiqini ham ifodalaydi. O'quv vositalari sifatida umumlashtirish va tizimlashtirish faoliyati matnga muammoli topshiriqlar, savollar ham mujassam-

lashtiriladiki, ularga o'quvchilar induktiv va deduktiv usullar yordamida javoblar izlaydilar. Matnli topshiriqlar o'quvchilarni tahlil qilish, qiyoslash, chog'ishtirish, umumiy holatlarni qismlarga bo'lish, turli tushunchalarni o'zaro bir-biridan ajratish, tizimlashtirish operatsiyalarini bajarishga undaydi. Umumlashtiruvchi matnlar o'quvchilarda voqelikni yaxlit idrok etish va izchil mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Rejalashtirish prinsipi ham o'quv materiallarini strukturalashtirishda o'z o'rniga ega. Chuqurlashtirilgan ta'lim dasturlarida ta'lim mazmuniga asoslangan lavhalarining namoyon bo'lishi paragraflar, bo'limlar, o'quv kurslari shaklida ifodalanadi. Darslikda ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari yordamida kirish, asosiy matnlar, mavzularni o'rganish rejasi, tayanch jadvallar yordamida o'quv materiallarining tarkibiy qismlari, mazmuni va strukturasini bayon etiladi. O'quv predmeti ichidagi o'quv kurslari orasidagi aloqadorlikni ta'minlashda mazmunning asosi, mavzuga doir asosiy savollar hamda bilimlarning turli elementlarini o'zlashtirish haqidagi taxminlar:

- tushunchalarni oydinlashtirish;
- qonunlarni shakllantirish;
- daliliy ma'lumotlarni keltirish talab etiladi.

Bilimlarni tizimlashtirish qoidalariga ongli tarzda amal qilish o'quv materiallarini strukturalashtirish samadorligini ta'minlaydi. Ko'rsatilgan yondashuvlar tufayli ta'lim mazmuni qismlarining yaxlitlanishiga erishilgan.

Mazkur prinsip asosida tanlangan o'quv materiallarida darslikning quyidagi qismlari o'z aksini topishi kerak: rejalar, kirish matnlari kabi. Mavjud darsliklarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning ko'pchiligida kirish matnlari mavjud emas. Darsliklarda kirish matnlari juda kamdan kam holatlarda berilgan. Ularda o'quv matnini ochishning mazmuni va jarayonli ko'rsatkichlari ifodalanmagan. O'quv kursi mazmunini bayon etishda rejaliilik o'z aksini topmagan.

Rejalilik prinsipini amalga oshirishda tarkibli ko'rgazmali chizmalardan ham foydalanish lozim. Ularda

o'quv materialini o'zlashtirishga mo'ljallangan oldindan taxmin qilingan mantiqli-mazmunli, tarkibli-funksional bog'lanishlar o'z aksini topishi kerak.

Ma'lumki, darsliklarda beriladigan o'quv materiallarini tanlash va strukturalash alohida didaktik qimmatga ega. Darslikni loyihalashning dastlabki bosqichida o'quv materiallarini o'zlashtirish uchun ajratilgan bloklar alohida-alohida o'quv elementlariga bo'linadi. O'quv elementlari sirasiga o'quv obyektlari, hodisalar, tushunchalar, metodlar, faoliyat turlari, o'quv fani dasturidan o'rin olgan ma'lumotlar kiritiladi.

O'quv materiallari jamlanmasi turli chizmalarda ham ifodalanishi mumkin. O'quv materiali mazmunini ifodalovchi chizmalar tadrijiylik prinsipi asosida tarkiblashtiriladi. Mazkur chizmaning tarmoqlarini o'quv elementlari tashkil qiladi. Ushbu chizmani shakllantirishda o'quv materiallarining tadrijiylikka asoslangan tarkibini to'g'ri shakllantirish talab etiladi. Ular:

- chizma yagona ildizga ega, shuning uchun ham mavzu nomida o'z ifodasini topadi;

- o'quv materialining negizidan tashqari uning alohida bo'g'inlari bilan bog'lanmagan matnlar ham berilishi mumkin;

- o'quv materiallari orasidagi aloqa yuqoridan pastga qarab amalga oshadi;

- quyi pog'onadagi o'quvelementi faqat o'zidan yuqoridagi birgina o'quv elementi bilan bog'lanishi mumkin;

- muayyan darajada o'quv materiallarini guruhlalashtirish aniq bir umumiy belgi asosida amalga oshadi;

- o'quv materialining yuqoridagi elementi esa o'zidan quyidagi kamida ikkita o'quv elementi bilan bog'lanadi.

O'quv materiali tarkibini loyihalash ham muhim didaktik ahamiyatga ega. O'quv materiallarining qurilishi konsentrizm prinsipini qo'llashni taqozo qiladi. Konsentrizm prinsipi doirasida turli o'quv materiallari orasidagi munosabat mantiqiy bog'lanish asosida ta'minlanadi. Mantiqiy tizimlashtirishda o'quv materiallari orasidagi munosabat ketma-ketlilik, sabab-oqibat munosabatlararo bog'lanish,

kelishish, o'zaro tobelik, o'xshashlik xarakteriga ega.

O'quv materiallarining mantiqiy qurilishida mantiqiy tizimlilik va mantiqiy strukturalilik yo'nalishlari ajratiladi. Tizimli mantiqiy izchillik 5-9-sinf darsliklarida beriladigan o'quv materiallarini strukturalashda qo'llanilgan. Ayni bir o'quv predmetiga mansub bo'lgan ta'lim mazmuni elementlari orasida bir xildagi aloqadorlikni ta'minlash mumkin. Bunda muayyan o'quv predmetidan taqdim etiladigan bilimlar yig'indisidan zarur ma'lumotlar tanlab olinadi. Mazkur asosiy bilimlar chiziqli qurilish tartibiga ega bo'lib, ularning miqdori va sifati ta'lim darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Bugungi kunga qadar aksariyat darsliklarda berilgan o'quv materiallari mazkur prinsip asosida strukturalashtirilgan.

Mavjud tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, o'quv materialining mazmuni o'z qurilishiga ko'ra turli-tuman bo'ladi. Shuning uchun ham ta'lim mazmunini turlicha elementlar doirasida taqsimlash maqsadga muvofiqdir.

O'quv materiallarini tarkibiy qismlar va bloklarga ajratishda davlat ta'lim standartlari talablariga amal qilish talab etiladi. Bunda o'quvchilarning hissiy tajribalariga tayanish ham o'quv materiallarini kichik qismlarga ajratishda asosiy o'rinni egallaydi. Taniqli didaktshunos I.Ya.Lernerning ta'biricha, ta'lim mazmuni quyidagicha ko'rinishga ega bo'lgan bilimlarga ajratiladi: asosiy atamalar va tushunchalar, kundalik faoliyatga doir dalillar va ilmiy dalillar, fanning asosiy qoidalari, nazariyalar, metodologik bilimlar, baholovchi bilimlar kabi. A.V.Usova esa bilimlar tizimining bir qator o'ziga xos elementlarini ajratib ko'rsatadi: ilmiy dalillar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, dunyoning ilmiy manzarasi kabi.

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, darslik nazariyasi bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirgan mutaxassislar bilimlarni tizimlashtirishning turlicha ko'rinishlarini taklif qilganlar. O'quv materiallarini strukturalashning asosini esa o'quv predmeti doirasida taqdim etiladigan ilmiy bilimlar tashkil etishi lozim. Ular sirasiga dalillar, hodi-salar, jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari, kattaliklarni

kiritish mumkin. O'quv materiallarini quyidagicha strukturalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Uning yordamida o'quvchilarda nafaqat o'quv predmetiga oid bilimlar, balki metodologik bilimlar ham taqdim etilishi kerak. Jumladan, ilmiy bilimlar tarkibi haqidagi ma'lumotlar, uni tizimlashtirish usullari shular jumlasiga kiradi.

Bizningcha, o'quv materiallarining eng maqbul strukturalash integrallashgan didaktik model bo'lib, unda barcha bilimlar muayyan bloklarga ajratilgan holda konsentrizm prinsipi asosida joylashtiriladi. Bunda o'quv materialining bayoni bilish sikllari asosida hodisalarni ifodalashning to'rt yo'nalishida: sifati, miqdori, mavjudligi va amaliy yo'nalishlarda bayon etiladi. Buning natijasida bilimlarni alohida bloklarga ajratgan holda qismlarga bo'lish imkoniyati vujudga keladi. Bunda zarur qismlar ya'ni: alohida dalillar, tushunchalar, qonunlar tarkiblashtiriladi. Ayni vaqtda, mazkur bloklar o'quv materiallarini qisman bayon qilish xarakteriga ega emasligi uning o'quvchilar tomonidan ijobiy o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha o'qituvchilari bir vaqtning o'zida uchta muhim vazifani amalga oshiradilar:

1. Ko'p miqdordagi bilimlarni o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishini ta'minlash.
2. O'quvchilarda yaxlit tizimli tafakkur asoslarini shakllantirish.
3. O'quvchilarning aqliy rivojlanishlari uchun qulay sharoit yaratish kabilar.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, har qanday faoliyat chuqur fikrlash, axborotlarni faol o'zlashtirish, murakkab operatsiyalarni sifatli bajarish o'quvchilardan o'z diqqat-e'tiborlarini bir nuqtaga jamlashlarini talab qiladi.

O'quv faoliyatining samaradorlik darajasi o'qituvchining o'z o'quvchilari e'tiborini jalb qilish ko'nikmasida namoyon bo'ladi. O'qituvchi ularni o'z diqqatlarini rejalashtirish va strukturalashtirishga o'rgatishi lozim. Buning uchun esa, birinchi navbatda, o'quv materiallarini maqsadga muvofiq tarzda strukturalashtirish talab etiladi.

Mazkur strukturalashtirishning mohiyati shundaki, o'quvchilar axborotlarni idrok etib, ish jarayonini loyihalashtira oladilar. Axborotlar o'zgarishi barobarida o'quv materiallari ham o'zgaradi. O'quv materiallarida muayyan sohaga oid bilimlarni ajratish talab etiladi. Ular:

1. O'quvchilar diqqatini jamlaydigan o'quv materiallari – bunday o'quv materiallari yordamida o'quvchilarning ongi rivojlanadi va diqqati markazlashadi. Mazkur o'quv materiallarida yagona dalil, hodisa, obyekt o'z ifodasini topishi lozim. Ular o'quvchilar tomonidan dalillar va hodisalar jamlanmasi sifatida idrok etiladi. Bunday hodisalar diqqatni tarkiblashtirish metodi orqali strukturalashtiriladi.

2. Diqqat-e'tiborni yaqinlashtirish, uyg'unlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda barcha obyektlar yoki dalillar guruhi o'quvchi onginu nazorat qilishga ko'maklashadi.

3. Dalillarni diqqat-e'tibordan uzoqlashtirish bu – ong osti hodisasiga muvofiq keladi. Unda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan barcha axborotlar saqlanadi.

Ong ostida shaxsning hayotidagi juda ko'p hajmdagi axborotlar, uning individual turmush tajribasi o'rnashib, yig'ilib qoladi. Inson tomonidan avtomatik, instinktiv tarzda sodir etiladigan, himoya mexanizmi rolinu bajaradigan va miyani doimiy zo'riqishdan himoya qiladigan ko'pgina harakatlar ongosti tomonidan nazorat qilinadi va boshqariladi. Shu axborotlar, tajribalarga tayangan holda o'quvchilar o'quv materialida taqdim etilgan yangi axborotlarni o'zlashtiradilar.

Konsentrizm prinsipi asosida o'quv materiallarini strukturalashtirish shu bilan ham ahamiyatliki, bunda barcha axborotlarni bir yo'la muayyan o'quv materialida jamlash imkoniyati vujudga keladi.

Mazkur o'quv materiallari har bir o'quvchi uchun qulay bo'lib, ularga bosqichma-bosqich taqdim etilishi kerak. O'quv materiallarini tanlash va strukturalashtirish quyidagi yondashuv asosida amalga oshirilishi zarur:

a) Birinchi navbatda barcha axborotlarni bir joyga jamlab, ularni o'quv materialu sifatida qayd etish lozim.

b) Mazkur o'quv topshiriqlarining ko'lamini kengaytirish uchun ularga dastlabki tartibni singdirish talab etiladi. Bunda dastlab tayanch axborotlar ustida ishlash, topshiriqlarni tiplarga ajratish taqozo qilinadi. Diqqatni bir nuqtaga jamlash orqali o'quvchilar tayanch holatlarni idrok etadilar. Shu orqali asosiy holatlar ikkinchi darajali holatlardan farqli tarzda o'quvchilarning rivojlanishlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda o'quvchilar muayyan o'quv topshiriqlarini yechar ekanlar, o'z diqqatlarini tarkiblashtiradilar, uni ongli tarzda rejalashtiradilar, shu asosda o'z faoliyatlarini boshqaradilar.

O'quv axborotlarini strukturalashning asosiy sharti ma'lumotlarni moddiylashtirishdir. Axborotlarni izlashda ikkita o'zaro qarama-qarshi holatni hisobga olish lozim: bir tomondan qaraganda barcha axborotlar bir nuqtaga jamlanishi kerak;

- ikkinchi tomondan tahlil jarayonida axborotlarni tig'izlashtirmaslik talab etiladi. Aks holda o'quvchilar uni o'zlashtirishga qiynaladilar. Shuning uchun ham topshiriqlar miqdorini kamaytirish talab etiladi.

Mazkur ziddiyatlarni bartaraf etish uchun o'quv materiallari tarzida taqdim etiladigan barcha axborotlarni tarkiblashtirish lozim. Strukturalashtirilgan o'quv materiallari yordamida o'quvchilar o'z diqqatlarini bir nuqtaga zudlik bilan jamlaydilar va ular ustida ishlash usullarini egallaydilar.

Amaliy ishlar jarayonida o'quvchilar o'z diqqatlarini boshqarishga quyidagi usullar yordamida erishadilar:

Birinchi usul – diqqatni jamlash, uni taqsimlash imkonini beradigan tayanch holatlar. Bu usul o'quvchilarga o'quv materialini o'zlashtirish va esda saqlashga ko'maklashadi. Masalan, ona tili darslarida ayni bir vaqtning o'zida ichki hamda tashqi tayanch materiallardan foydalanish mumkin:

- verbal xarakterdagi o'quv materiallari; ular: rejalar, tezislar, mantiqiy-tarkibli chizmalar, tayanch so'zlar yoki fikriy ishoralar;

- chizmalar shaklidagi ifodalar; ular: o'quv materialini

qurish rejasi, chizmalar, diagrammalar, jadvallar, raqamlar, xronologik jadvallar;

- illyustratsiya shaklidagi tayanch ifodalar; ular: rasmlar, portretlar, izohli rasmlar turkumi, plakatlar kabilar.

O'quvchilarning diqqatini markazlashtirishga mos keladigan tayanch o'quv materiallarining qat'iy tartibi uni boshqarish mexanizmlarini muvofiqlashtiradi. Bunda tayanch holatlar strukturalashtirish metodidan foydalanishda yordamchi manba sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchi usul – o'quv materiallarini strukturalashtirish. O'quv materiallari mazmunini loyihalash uni shunday tartibga solish jarayoniki, bunday sharoitda ta'lim mazmunining barcha qismlarini aniq izchillikda joylashtirish imkoniyati vujudga keladi. Mazkur materiallar tizimlilik prinsipi asosida joylashtiriladi. Uning yordamida o'quv materialining tarkibiy qismi: dalillar, hodisalar muayyan darajada tartiblashtiriladi. Bunday jadvallar, rasmlar, chizmalar ular orasidagi munosabat va aloqadorlikni ifodalaydi.

U birinchi usul bilan uyg'unlashtirilganda samarali bo'ladi. Chunki tayanch nuqtani topish uchun qo'shimcha va ikkinchi darajali o'quv axborotlarining qulay strukturasi vujudga keladi. Tayanch manba ko'magida fikrlash asosida so'zlar, iboralar va gaplarni tushunish oson bo'ladi.

Mazkur vazifani yechish uchun o'quv materiallarini vizuallashtirish texnologiyasidan foydalanish lozim. O'quv materiallarini o'quvchilarga taqdim etishdan oldin uni maxsus tayyorlash zarur. Bunda o'quvchilarning undagi asosiy jihatlarni ko'ra olishlariga sharoit yaratish talab etiladi. Vizualashtirish o'quv materialini dastlabki holatda obrazlashtirish imkonini beradi.

Bilimlarni taqdim etishning barcha tiplari, modellari ixcham tarzda berilib, o'quvchilarning uni obrazli tarzda idrok etishlariga ko'maklashadi. Matnni o'rganish, o'zlashtirish, u ustida o'ylash mazkur materialni idrok etish va ongda gavdalantirish demakdir. Zarur hollarda o'quvchi matnni tiklashi, boshqa shaklga o'girishi mumkin. Biroq uning sifati va mustahkamligi mazkur chizmalarining xotirasida qay darajada o'rnashganligiga bog'liq.

Bu o'ta murakkab pedagogik jarayon bo'lib, o'quvchilarni bosqichma-bosqich mazkur faoliyatga moslashtirish talab etiladi.

O'quv materiallarini vizual tarzda ifodalash nafaqat illyustrativ, balki kognitiv vazifani ham bajaradi. Bu o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning uni obrazli idrok etishlarini ta'minlaydi. Tayanch tushunchalarni ixchamlashtirish o'zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish imkonini beradi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. O'quv materiallari, uning belgilari va tuzilishi qanday?
2. O'quv materiallarining mantiqiy tuzilishi qanaqa?
3. O'quv materiallarini tizimlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. O'quv materiallarini modellashtirish deganda nimani tushunasiz?
5. O'quv materiallarining informatsion ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
6. Konsentrizm tamoyili asosida o'quv materiallarini tizimlashtirishning afzalliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Konsentrizm tamoyiliga asoslangan ta'lim modeli va uning tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?

14-§. PEDAGOGIK FASILITATSIYA VOSITASIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH



Tayanch tushunchalar: fasilitatsiya, mustaqil ta'lim, bilim, ko'nikma, tarbiya, o'quv materiallari, pedagogik fasilitatsiya, psixologik fenomen, pedagogik jara-yon, faollik, axborot, texnologiya.

Pedagogik fasilitatsiya – o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim vositasi.

Fasilitatsion ta'limda o'qituvchi zarur ma'lumotlarni ijodiy egallash, fikr yuritishni shakllantirish, ma'lum materialdagi yangi muammolarni topish, imkoniga ega bo'ladilar. Bunda o'quvchilar o'qituvchi bilan va o'zaro hamkorlikda ko'proq dialogik munosabatlarga kirishadi, muloqotda tashabbuskor bo'lib, o'qituvchiga ko'plab savollar bilan murojaat qiladi, asosan o'quv masalalarini bajarish bilan ko'proq band bo'ladi; kognitiv faoliyatning yanada yuqori darajalarini aniqlaydi.

“Fasilitatsiya” inglizcha *facilitate* so'zidan olingan bo'lib, yengillashtirish, yordamlashish, ko'maklashish ma'nolarini anglatadi. Ushbu tushuncha psixolog Karl Rodgers tomonidan kiritilgan bo'lib, ingliz zabon mamlakatlari-ning ta'lim muassasalarida keng foydalaniladi. 1989-yildan buyon Xalqaro yetakchi fasilitatorlar assotsiatsiyasi (The International Association of Facilitators) faoliyat yuritib kelmoqda. Bugungi kunda uning faoliyatida 63 davlatning 1200 nafar a'zosi ishtirok etmoqda. Fasilitator faoliyati turli modellarda uchraydi.

Hozirgi vaqtda fasilitatsiyaning ijtimoiy va pedagogik turlari ajratilib ko'rsatiladi. Ijtimoiy fasilitatsiya ijtimoiy psixologik fenomen hisoblanadi. Ijtimoiy fasilitatsiya lotin tilida – “soshialis fasilitator” – ijtimoiy qulaylashtirish degan

ma'noni anglatadi. Pedagogik fasilitatsiya esa ta'lim oluvchilarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash asosida ta'limning (o'qitish, tarbiya) samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda pedagog tomonidan alohida muloqot usulining kasbiy-pedagogik jarayonda qo'llanilishi natijasida sifat jihatdan rivojlanishga erishiladi.

Fasilitatsiyaning yuqorida aytib o'tilgan ikki turini ma'lum shart-sharoitlar bog'lab turadi. Ya'ni, fasilitatsiya har qanday faoliyat, shu jumladan pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi, shubhasiz. Fasilitatsiyaning bu ikki turi orasidagi asosiy farq shundaki, ijtimoiy sohada faoliyatni qo'llab-quvvatlashda subyektning xatti-harakatlari asos sifatida xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda esa, fasilitatsiya pedagogning o'quvchilar bilan individual muloqot usuli va ta'lim oluvchi shaxsiga samarali ta'sir etish bilan bevosita bog'liq.

Fasilitatsiya deganda, eng avvalo, guruhiiy muammolarni hal etishning samarali texnologiyasi tushuniladi. Fasilitatsiya shunday jarayonni qamrab oladiki, bunda fasilitator barcha guruh a'zolariga ma'qul keladigan, neytral qaror qabul qilishga haqqi yo'q, ya'ni u guruhiiy muammolarni hal etishga ko'maklashadi.

“Fasilitatsiya” tushunchasi anglanilgan va maqsadga yo'nalgan faoliyatning ko'rinishi bo'lib, pedagogning bevosita ishtirokini taqozo etadi. Fasilitasion yondashuvning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

I. Faoliyat – shaxsni rivojlanishidagi asosiy hal qiluvchi vositasi va odamni ko'pqirrali faol maqsadga yo'naltiradi. A.N.Leontev “Faoliyat hayotning birligidir va psixikaning asoslangan aksidir” deb ta'kidlaydi. G.P.Shedrovskiy esa faoliyatga shunday ta'rif beradi: “Faoliyatsiz ishlab chiqarish vositalari ham, belgilari ham, san'at namunalari ham yo'qdir: faoliyatsiz insonlarning o'zi ham yo'q hisobi”.

Turli xil harakatlarda ishtirok etish bilan anglanilgan faoliyatda qatnashish turli xil narsalardir. Psixologiyada shaxsning muhim xususiyatlari sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: onglilik (anglanganlik) va faollik;

- psixika-subyektivligi, faollik, moslashganlik;

- onglilik – qayg‘urish, bilim va munosabatlar;
- faoliyat – faollik, onglilik, maqsadga yo‘nalganlik, motivlarga egalik. Barcha xususiyatlar bilish jarayoniga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ammo an‘anaviy ta‘lim tizimida bu jihatlar hamma vaqt ham hisobga olinmaydi. Psixologik adabiyotlarda keltirilishicha, bevosita faoliyat jarayonida, ya‘ni o‘zida rejalashtirish, tashkillashtirish, natijalarni tahliletish va referent guruhlar blannuloqotni mujassamlashtirgan insongina ongli ravishda anglangan faoliyat ma‘nosini tushunib yetadi. Faqat ana shu asosga tayangan insonda g‘oyalarning paydo bo‘lishi, motivlar shakllanishi va munosabatlarga yo‘nalganlik kuzatiladi. Bu formulani A.V.Shedrovskiy “yangi bilimlarnii ishlab chiqish”, deb ta‘kidlab o‘tadi.

Har qanday faoliyat, xususan bilishga oid faoliyat o‘zida o‘zaro bir-biri bog‘liq quyidagi tarkibiy qismlarni mujassam etadi:

- motivlar, qiziqishlar ehtiyojlari bloki – “psixologik motor” faoliyati;
- operatsion – shaxsning aniq maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlari;
- faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan ishbilarmonlik va shaxslararo munosabat.

To‘g‘ridan to‘g‘ri va qayta aloqalar shuni ko‘rsatadiki, bitta tarkibiy qismning o‘zgarishi, boshqalarining ham o‘zgarishga uchrashiga olib keladi. Bu o‘zgarishlar konstruktiv yoki destruktiv yo‘nalgan bo‘lishi mumkin. Mazkur holatda rivojlanish va faoliyatning susayishi yaqqol kuzatiladi.

Fasilitatsiya ta‘limning androgen modelida pedagog pozitsiyasini o‘zgarishini talab qiladi. Bunga pedagogika oliy ta‘lim muassasalaridagi o‘qitish jarayonlarini ham kiritish mumkin. Operatsion-harakat bosqichi orqali harakat qilinsa, o‘qituvchi ratsionallikka asoslangan holda fasilitatsiyani amalga oshiradi, ya‘ni o‘quvchilarni aniq faoliyatga yo‘naltiradi, yordam beradi va boshqaradi. Shuningdek ta‘lim oluvchilarni bilish faoliyatini faollashti-

ruvchi yangi pedagogik texnologiyalarni izlab topadi yoki bo'lmasa interfaol ta'lim sharoitida pedagog ingibitor (ingibitor lotin tilida, inhiberi, inhibitium – ushlab turmoq, to'xtatmoq ma'nolarini anglatadi) roliga kirishadi va ta'lim oluvchilarni faolligini pasaytiradi yoki to'xtatib turadi. Ingibitsiyani psixologik nuqtayi nazardan ko'rib chiqilganda uni jarayon va ezilishning natijasi sifatida yoki bo'lmasa qandaydir reaksiyalar, jarayonlarni, faoliyatni, faollikning pasayishi, hattoki to'xtashi deb izohlash mumkin.

Shunday qilib axborotlarga boy ta'lim muhitida asosiy shaxs ta'lim oluvchi bo'lib, u o'zining shaxsiy faoliyatida "o'z-o'zini tashkillashtiruvchi subyekt" sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi esa ta'lim muhitining imkoniyatlarini qo'llab, uni keyingi rivojlanish maqsadini ko'zlagan holda faoliyatga yo'naltiradi. Shu tarzda fasilitatsiya ta'limning androgen modelida pedagog faoliyatining maxsus ko'rinishidir. Qadimgi yunonlarda shunday hikmatli so'z bo'lgan: "Uzoq yo'l nasihat orqali, qisqasi esa o'rnak, ibrat orqalidir". Aynan shu "qisqa yo'l"ni ko'rsatish fasilitatorning vazifalaridir.

2. Faoliyat subyekt. Fasilitatsion yondashuvda faoliyat subyektlariga o'z motivlariga javob bera oladigan, o'z faoliyati davomida uni maqsadga ko'ra amalga oshira oladigan individ, guruh va jamoani kiritish mumkin.

3. Fasilitatsion yondashuvning funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- faoliyatga qiziqtirish va faoliyatni rag'batlantirish;
- faoliyatning maxsus turi;
- zamonaviy pedagogikaning yetakchi tamoyili;
- ta'lim jarayonini boshqarish tamoyili;
- faoliyat texnologiyasi;
- ijodiy ta'lim muhitini yaratish.

Shuningdek, fasilitatsiyaga asoslangan munosabatlar ni qo'llab-quvvatlovchi shaxslar har jihatdan kuchli va mas'uliyatlidirlar. J.A.Hattienning fikricha, muhitning o'zi "omad keltiruvchi vaziyatlarga" sharoit yaratib beradi. Aynan ma'lum muhitda shaxs ishonch qozonadi va qadriyat sifatida tan olinadi. O'z o'rnida muhit ta'lim oluvchilar-

ni ijodiy faoliyatga rag'batlaydi. K.Rodjersning fikricha "Bu tarzda munosabatlar o'qitish jarayoniga mos kelib, har jihatdan samaralidir". Avvalo, fasilitator haqqoniy shaxs bo'lishi, har bir lahzani o'ylab, his etib yashashi lozim. Qachonki, bu haqqoniylik o'zida o'quvchiga nisbatan qadriyatli munosabatni, g'amxo'rlikni, ishonch va hurmatni mujassam etsa, samarali ta'lim olish muhiti paydo bo'ladi. Shu bilan birga, mazkur jarayon o'zida hissiy va empatik idrok etishni jam etsa, haqiqatdan ham erkinlik muhiti qator topib, ta'lim olishda tashabbuskorlik va ilgarilash yuzaga keladi.

4. Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi kuch va sabab. O'qituvchi faoliyati ta'lim oluvchilarning subyektiv talablarigagina asosanib qolmay, balki obyektiv, bugungi kundagi va kelajakdagi ehtiyojlarni shakllantiradi va mustahkamlaydi.

5. Maqsad – natijaga erishishning ideal yo'li bo'lib, muvaffaqiyatga yo'nalgan harakatdir.

6. "Faoliyat usuli" tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, ta'lim faoliyat sifatida o'zida bilim, ko'nikma, malakalar, qobiliyatlar, motivlarning dastlabki ko'rinishini o'zida aks ettiradi.

7. "Faoliyat jarayoni" tushunchasi "subyekt", "predmet" va "natija" mazmunini ochib beradi. Shu bilan birga "jarayon" tushunchasining mazmunini "metod" va "vosita" kabilar ham ochib berishga xizmat qiladi.

8. Keng ma'noda "vosita" so'zi ma'lum bir jarayonni predmetli qo'llab-quvvatlashni aks ettiradi. Ta'lim vositalari xilma-xil bo'lib, pedagog faoliyat maqsadiga mos vositani tanlab olishi muhim ahamiyatga ega.

Fasilitator norasmiy ta'limda anchagina mustahkam o'rin egallamoqda. Fasilitatorni, istiqboli porloq bo'lishi bashorat qilinayotgan, alohida kasb sifatida ajratish taklif qilinmoqda.

Demak, fasilitatsiya – o'quvchiga ijobiy ta'sir etish yo'li bo'lib, guruhda ijobiy muhitni hosil qilish, ta'lim oluvchilarni o'z kuchlariga ishonishlariga erishish va mustaqil faoliyatlari jarayonida ularni qo'llab-quvvatlashdir.

XX asrning 50-yillarida pedagogika va psixologiyada K.Rodjers tomonidan insoparvarlik pedagogikaning boshqa vakillari bilan birgalikda taklif etilgan yangi “pedagog-fasilitator” yoki “pedagog fasilitatsiyasi” tushunchasi kirib keldi.

K.Rodjers inson xulqidagi o'zgarishlar asosi sifatida uning qobiliyatlari shaxsiy tajribalarga tayangan holda o'sadi, rivojlanadi va o'rgatiladi, deb ta'kidlangan “80-yillar uchun erkin o'qish (“Freedom to learn for the 80s”)” kitobida bayon etgan. Kimnidir o'zgartirish, unga tayyor tajribani uzatish kerak emas, aksincha uning rivojlanishiga imkon beruvchi muhitni yaratish mumkin. K.Rodjers bunday muhitni yaratishni “qulaylashtirish” (ingl. facilitate) deb ataydi.

Bugungi kunda butun dunyoda qulay muhitni yaratuvchi o'qituvchilarni fatsilitator deb atashadi. Bunday muhitni yaratish shart-sharoiti tarbiyachining bilimi va intellektiga bog'liq bo'lmaydi. Undan faqat tarbiyalanuvchini nimani yaxshi ko'rishi, nimaga qiziqishi, nima bilan shug'ullanishini aniq belgilay olish talab etiladi. Fatsilitatorning muhim hissiyoti sifatida K.Rodjers empatiya, tarbiyalanuvchi shaxsiga ijobiy baho berish, fatsilitatorning tarbiyalanuvchiga muvofiqligini kiritadi. Faqat ana shunday sharoitda shaxs o'z xulq-atvorini o'zgartirish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

K.Rodjers an'anaviy pedagogikaning quyidagi qoidalaridan qoniqish hosil qilmaydi:

1. O'qituvchi bilimlarni bayon etadi, o'quvchilar ularni o'zlashtirishga harakat qiladi.

2. Dars va imtihonlar – ta'limning asosiy tarkibiy qismlari. Dars bilimlarni shakllantirish shakli, imtihon esa egallangan bilimlarning darajasini aniqlaydi.

3. O'qituvchi boshqaruvchi, ta'lim oluvchilar esa unga bo'ysunuvchilar sifatida aks etadi.

Bu bilan bog'liqlikda K.Rodjers ta'limning ikki turini ajratib ko'rsatadi: oddiy bilimlar, faktlar bilan qurollantiradigan axboriy va ta'lim oluvchilarga ularning o'z-o'zini o'zgartirishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun zaruriy,

haqiqiy bilimlar beruvchi ahamiyatli ta'lim. Insonni shaxs sifatida shakllantiruvchi ta'lim shaxsga yo'naltirilgan yoki K.Rodgers fikricha, ahamiyatli ta'limdir.

O'qituvchi o'z faoliyatida o'quvchilarining o'z-o'zini to'liq namoyon etishiga tayanishi zarur. "Uning o'qitishi o'quvchilar katta qiziqish bilan hal etadigan, har doim ham o'zi mustaqil murakkab vaziyatlardan chiqish yo'lini topa olmaydigan, o'qituvchining yordamiga tayanadigan va ijod qilishga takrorlanmas istakni hosil qiladigan hayotiy muammolar bilan o'zaro harakatga kirishishi asosiga qurilishi kerak. O'qituvchining roli o'quvchilar bilan shunday shaxsiy o'zaro munosabatlarni va yuqorida tilga olingan tendensiyalarning namoyon bo'lishiga imkon beruvchi psixologik muhitni tashkil etishda o'z aksini topadi".

K.Rodgersning fikricha, insonni kontsentrlaydigan ta'limning natijalarini ta'lim muassasasidagi baholar bilan baholash mumkin bo'lmaydi. Uning mezonlari egallangan bilimlarning miqdor va hatto sifat ko'rsatkichlarida emas, aksincha bu o'zgarishlar shaxsda, uning o'sishi va rivojlanihida aks etadi. Ularga quyidagi turdagi o'zgarishlar kiradi:

- inson o'zini to'la idrok eta boshlaydi;
- u ko'proq o'zini va o'z tuyg'ularini qabul qiladi;
- ko'proq o'ziga ishonch va avtonomen shakllanadi;
- o'z oldiga real maqsadlar qo'yadi, o'zida komillikni

ko'radi;

- unda insoniy qiyofa shakllanadi;
- boshqa odamlarni qabul qilish va tushunish boshlanadi.

Fasilitatsiyaning asosiy vazifasi sifatida oliy ta'lim muassasasidagi o'qitish o'quvchilarning bilimlarini jadal-lashtirish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish, pedagog va o'quvchi o'rtasida tubdan yangi aloqani yo'lga qo'yishga qaratilganlik xizmat qiladi.

Qiyosiy tadqiqotlarning natijalari shu haqda dalolat beradiki, o'qituvchi-fasilitatorlar (an'anaviy o'qituvchilarga qaraganda) o'quvchilarga individual, differensiyalashgan va ijodiy yondashishni amalga oshiradi, o'quvchilarning o'y-kechinmalariga ko'proq e'tibor beradi, o'quv jarayoni-

ni rejalashtirishda ko'proq o'quvchilar bilan hamkorlik qiladi, o'z ishida ko'proq o'quvchilar fikridan foydalanadi, darslarda ko'proq tabassum qiladi.

Pedagogik fasilitatsiya o'quv faoliyati jarayonida pedagog va ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorligi, ularning alohida muloqot uslubi va pedagog shaxsining xususiyatlari hisobiga ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini tarbiyalashini rag'batlash, tashabbuslash va taqdirlar funksiyasi sifatida qaraladi.

Pedagogik fasilitatsiya pedagogika va pedagogik psixologiyada faol qo'llaniladigan nisbatan yangi tushuncha. Pedagogik fasilitatsiya qulay muhitni yaratish, o'quvchilarning o'z kuchiga ishonchini orttirish, ulardagi mustaqil samarali faoliyatga ehtiyojni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'quvchi, kichik guruhlar ishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Fasilitatsiyalovchi ta'limning turli-tuman sifatleri mavjud: haqqoniylik, ishonch, kongruentlik bo'lib, o'qituvchiga ta'lim oluvchi bilan shaxs, shaxs bilan ta'lim oluvchi tarzida o'zaro munosabatlarga kirishish imkonini beradi.

Ta'limning fasilitatsion shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi:

- ta'limni o'qituvchi bilan o'quvchilarning samarali muloqotga kirishishi va bilish usullarini egallashda shaxslararo muloqot madaniyatini o'zlashtirish tajribasini taqdim etadigan hamkorlikdagi faoliyat tarzida tashkil etish;

- o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarning yuzaga kelishi va rivojlaniishi uchun zarur asosni yaratadigan psixologik-pedagogik qulaylik;

- ta'limning dialogik shakllari: o'rganilayotgan materialni ommaviy, kichik guruhlarda va juftliklarda muhokama qilish;

- "hozir va shu yerda" tamoyiliga asoslan subyektiv muvaffaqiyat vaziyatiga erishish uchun har bir ta'lim oluvchining faoliyatini pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan kuzatib borish;

- ta'limning nazorat-baholovchi funksiyasini diagnos-

tik-korreksiyalovchi, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini baholash, o'ziga va o'zining o'quv faoliyati natijalariga nisbatan tanqidiy munosabat rivojiga ko'maklashuvchi vosita sifati-da amalga oshirish.

Mazkur shart-sharoitlarni amalga oshirish natijasida ta'lim jarayoni har bir qatnashchisining shaxsiy rivojlanish, o'sishi, shaxsning yangi psixologik sifatlari, jumladan, refleksiya, ishonch, xayrixohlik kabilarni qadriyatga yo'naltirilgan tarzida qabul qilish, o'quvchi shaxsiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, bilish motivatsiyasi, o'z-o'zini boshqarish, tanlov erkinligi va tolerantlik(bag'rikenglik)ni qaror toptirishga erishiladi.

Ta'limning fasilitatsion shart-sharoitlarining afzalliklari shundaki, ta'lim oluvchilar o'quv-bilish faoliyatidan begonalashuvining oldini oladi, zero do'stona o'zaro hamkorlik, ta'limning interfaol metodlari ta'lim oluvchiga munosib ijtimoiy-psixologik maqomni egallash imkonini beradiki, bu uning tengdoshlari orasida, oilada, oliy ta'lim muassasasida va umuman jamiyatda munosib o'rinni egalashiga xizmat qiladi. Natijada o'quvchida shaxsiy rivojlanish, o'z-o'zini takomillashtirishga ehtiyoj kuzatiladi. Ideal "Men" bilan real "Men" o'rtasidagi chegara farqlanadigan Men-konseptsiyasi shakllanadi.

Ta'limda fasilitatsion shart-sharoitlarni amalga oshirish tajribasi ta'lim oluvchilarning o'z oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo'yishdagi faolligining ortishi, o'quv motivlarining jadallashuvi, mas'uliyat va mustaqillikning ortishi, refleksiv faoliyatning faollashuvi, ta'limning natijaviyligi va tartib-intizomning yaxshilanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Fasilitatsion ta'limning muhim omili erkinlik, ya'ni, ta'lim olishning erkinligi, tanlov erkinligi, insonning shaxsiy erkinligi sanaladi. K.Rodjersning ta'limoti ta'lim oluvchining tabiati va shaxsiga chuqur hurmat bilan yo'g'rilgan. Uning ta'kidlashicha, ko'p holatlarda o'quvchilarning kreativ g'oyalari oliy ta'limda qaror topgan standart xulq-atvor me'yorlari ta'sirida qolib ketadi. K.Rodjers no-standard fikrlashning rivojlanishi uchun o'quvchi shax-

sig'a alohida ishonch, hamkechinmalilik, tushunish, g'amxo'rlik, bag'rikenglik, samimiylik muhiti zarur, deb hisoblagan.

K.Rodjers ta'limni tayyor bilimlarni uzatish va o'rgatish emas, balki o'quvchining ko'proq qanday qilib yaxshiroq o'qishga o'rganish, qay tarzda samarali moslashish va o'z-o'zini o'zgartirishni o'rganish, ishonch uchun asosni bilimlar emas, bilimlarni izlash jarayonini tushunib yetishiga xizmat qiluvchi maqsadga yo'naltirilgan jarayon, sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, zamonaviy ziyoli shaxs – mutlaq o'zgarimas bilimlar yo'qligini tushungan, yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtiradigan, doimiy o'zgaruvchan jamiyatga muvaffaqiyatli moslasha oladigan shaxs.

K.Rodjers ta'limni fasilitatsion tarzda rivojlantirishni yaratuvchan, eksperimental, o'zgaruvchan borishini o'z ichiga ola biladigan, insoniyatni bugun o'rab turgan chuqur qiyinchiliklarga javob beradigan funksiya sifatida ko'radi.

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, fasilitator-o'qituvchi bu – interfaol jarayonni nazorat qiluvchi, uning qonun-qoidalarga rioya qilinishini ta'minlovchi, bu bilan esa barcha qatnashchilarni mashg'ulot jarayoniga diqqatlarini jalb qilishga hamda uning mazmun va mohiyatini o'zlashtirib borishga o'rgatuvchi mutaxassis pedagogdir.

O'quvchilarga mashg'ulotlarda o'zlarini (jismonan va ma'n'an) qulay his qiladigan muhit yaratish juda muhim, bu ularning o'qish va rivojlanishlariga katta yordam beradi.

D.Hidoyatovanning ta'kidlab o'tishicha, ishonchlik muhitini hosil qilish quyidagi ko'pgina omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

- "jarayon maydoni", ya'ni qulay atrof-muhit (havo, yorug'lik, mebel, videotexnika, flipchartlar va hokazo);

- o'qituvchining ishonchliligi va yoqimlilik orqali birinchi taassurotlarni hosil qiluvchi taqdimoti;

- guruh bilan tashkiliy ishlar haqida: ish tartibi, tanaffuslar va o'yinning asosiy bosqichlari muhokamasi;

- "ixtiyoriylik" tamoyilini qabul qilish: agar kim gu-

ruhda ishlashni xohlamasa, majburlash va o'zini oqlashga majbur qilish kerak emas;

- guruhda bor bo'lgan bilim va amaliy tajribani ko'rsata bilish;

- "jalb etuvchi", "asabiylashishni yo'qotuvchi", "qiziqituvchi" mashq va treninglarni tashkil etish;

- natijalar to'g'risida hissiyot, taassurotlar haqida gapirmasdan va tanqid qilmasdan "hamma hammaga" asosida muhokama o'tkazish.

Ish o'yinlari natijalarini muhokama qilganda, ko'proq uning faoliyati natijasiga, qabul qilingan qaror, ishlab chiqilgan dastur va loyihalar tahliliga, kommunikativ mashqlarda o'zaro ta'sir jarayoniga ahamiyat berish kerak. Refleksli tahlil, o'zi va sherigining xatti-harakati haqida fikr yuritish yetarlicha vaqt talab qiluvchi, o'ylash jarayonidir. O'quvchilar faqat o'ylabgina qolmay, balki mustaqil ravishda yakuniy fikr va qarorlarga kelishlari ham mumkin.

O'qituvchi – fasilitator guruhni hamkorlikka o'rgatgan holda, guruhdagi har bir qatnashchining faolligini oshirishga yordam beradi va quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

- ochiq savollar berishi;

- guruhdan keluvchi turli signallarga o'rinli javob qaytarishi;

- guruh a'zolari o'rtasida kelib chiqqan chalkash, muammoli suhbatga aniqlik kiritishi;

- guruhning xulosa qilishiga yordam berishi;

- zarur axborot berishga tayyor bo'lishi;

- guruhli qaror qabul qilishga imkon berishi.

O'qituvchi fasilitator, masalan bunday savollar beradi: "Siz nimani sezdingiz?", "Kim mashq, topshiriq va hokazolarni bajarish vaqtidagi o'zining holatlari haqida gapirmoqchi?" yoki "Sizningcha yana nima sodir bo'ldi?" va har bir o'yin oxirida "vaziyatdan chiqarish"ni amalga oshiradi.

Interfaol mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish uchun o'qituvchiga shaxslararo va ishbilarmonlik muloqotida "insoniy omil" bilan bog'liq bo'lgan qimmatli yo'l-yo'riqlar kerak bo'ladi. O'quvchilarga insoniylik va e'ti-

borni, muomalada iliqlik va ochiqlikni namoyon qilgan holda, ayniqsa kommunikativ kompententlik bilan bog'liq yangi bilimlarni o'rgatishda o'qituvchi, yana ham yaxshi shart-sharoitlarni yaratadi. Dilkash odamning kishilar bilan chiqishishi, "sovuq", indifferent odamga (lot. Indiferens- e'tiborsiz, beparvo) nisbatan osonroq.

Interfaol o'zaro ta'sir haqida gap ketganda, "muloqotdagi iliqlik" tushunchasi quyidagilardan tashkil topgan:

- kommunikativlik bo'yicha sheriklarning teng huquqliligi;

- ayblovning yo'qligi;

- "himoyalaniş yo'qligi";

- yaqinlik va ishonch;

- samimiylik.

O'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi munosabatning iliqligi bu – ham uslub, ham fikrlashning xususiyati, ham kasbiy mahorat. Interfaol mashg'ulot o'tkazayotgan o'qituvchi har bir qatnashchiga nisbatan e'tibor va iliqlikni namoyon qilishga majbur. Bu uning his-tuyg'ularida, pedagogik odobida, hamma vaqt boshqa odamlar bilan munosabatda o'zini tutishida va o'zini barcha xatti-harakatlarini nazorat qilishida namoyon bo'ladi.

Boshqa odamlarni bor vujudi bilan tushunishga qodirlik, "ich-ichidan his qilish", boshqalar ko'zi bilan olamni qabul qilish va uning his-tuyg'ularini tahlil qila bilish qobiliyati, boshqa kishilarning dunyoqarashini qabul qilishga va uning ko'zi bilan dunyoni ko'rishga qodirlik bilan bog'liq. Ayniqsa, bu suhbatdoshni tinglash vaqtida, unga nisbatan qiziqish hosil bo'lganda, barcha zamonaviy psixologik yordamga muhtojlarga yordam ko'rsatilganda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari o'qituvchi, so'zsiz, barcha ta'lim oluvchilarga bir xil munosabatda bo'lishi kerak. Aynan shu tavsifga ko'ra har bir odamning qiymati va uning shaxsiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Hatto "dag'al" odamlarga nisbatan samimiy va ochiq bo'lish juda qiyin va bu o'qituvchidan faqat o'z-o'zini anglashning rivojlanishini emas, balki o'z shaxsiy muammolarini hal qilishi asosida o'zini

tuzatishini talab qiladi.

Psixologik madad berish, boshqalarning tajribalariga hurmat bilan qarash, tinglovchilarning qabul qiluvchi qaror va harakatlariga do'stona munosabat-bularning barchasi o'qishga qiziqish va uyushgan holda rivojlanishga olib keladi. O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirishda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq, degan didaktik asosga tayangan holda ushbu metodlarni tajriba-sinov jarayoniga jalb etdik:

1. Treninglar o'tkazish.
2. O'quv munozaralari tashkil etish.
3. Davra stollarini tashkillashtirish.
4. Ta'limiy o'yinlardan foydalanish.
5. Ishchan o'yinlar tashkil etish.
6. Faol metodlar yordamida interaktiv mashg'ulotlarni tashkil etish.
7. Seminarlar o'tkazish.

Ta'lim jarayonining nazariy asoslari muntazam rivojlanayotgan hozirgi sharoitda o'qituvchilardan vujudga kelayotgan yangi muammolarni yecha olish salohiyati talab etiladi. Buning uchun o'qituvchilarda yuqori darajadagi kasbiy barqarorlik tarkib topgan bo'lishi lozim. Yangi vazifalar va ta'limning rivojlanish tendensiyalari bo'lajak o'qituvchilarining ham shaxsiyati va kasbiy faoliyatiga nisbatan alohida talablar qo'yishni taqozo qilmoqda. Shu munosabat bilan bo'lajak o'qituvchilardan o'z kasbiy mahoratlarini muntazam oshirish talab etilmoqda. Ayniqsa:

- o'zlarining pedagogik-psixologik bilim darajasini oshirishlari;

- mavjud bilim, ko'nikmalari negizida yangi pedagogik qadriyatlarni o'zlashtirishlari;

- mustaqil bilish va tahlil qilish faoliyatlarining darajasini ko'tarishlari;

- shaxsga yo'naltirilgan pedagogik hamkorlik jarayonida kasbiy dunyoqarashlari va faoliyatlarining insonparvar asoslarini chuqur o'zlashtirishlari;

- pedagogik jarayonning boshqa subyektlari bilan hamkorlik texnologiyalarini egallashlari muhim ahamiyatga ega.

O'qitishning faol metodlari – metodlarning shunday tizimiki ular yordamida o'quvchilarning turli-tuman faol fikriy va amaliy faoliyatlari shakllantiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yangicha dunyoqarash asoslarini egallash imkoniyati vujudga keladi.

Faol o'qitish metodlarining o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan guruhli ish shakllarini tashkil qilish;

- ta'lim jarayoniga nisbatan faoliyatli yondashuvni amalga oshirish;

- o'quv jarayoni ishtirokchilari o'quv faoliyatini amaliy jihatdan yo'naltirish;

- ta'limning o'yin va ijodiy xarakter kasb etishini ta'minlash;

- o'quv jarayonining interfaol tarzda amalga oshirishga erishish;

- o'quv jarayonida turli shakldagi muloqot, munozara va dialog vaziyatlarini vujudga keltirish;

- mashg'ulotda bilish faolligini ta'minlash uchun o'quvchilarning mavjud bilimlari va tajribalaridan foydalanish;

- o'quvchilarning hissiy kechinmalarini bilish faoliyatlarini faollashtirishga safarbar etish;

- ta'lim jarayonida subyektlarning tahliliy faoliyatlari-ga keng yo'l ochish kabilar.

O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirishda ularning o'quvchilar bilan ishlashning faol usullarini tanlashlariga e'tibor qaratish talab etiladi. O'qitishning faol metodlari yordamida o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib hamkorlikda ishlash layoqatini tarkib toptirish mumkin. Buning uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro birgalikdagi hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga kirisha olishlari zarur. Ular o'z nuqtayi nazarlarini qat'iy himoya qilib o'z fikrlarini asoslashlari va boshqalarning fikrlariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishlari talab etiladi. O'qituvchi o'zi va o'quvchilarining faoliyatlari uchun mas'uliyatni zimmasiga ola bilishi kerak.

Kasbiy-pedagogik faoliyat nuqtayi nazaridan peda-

gogik fasilitatsiyaning quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Attraktivlik – pedagogning o'ziga e'tiborni jalb qilishga intilishi va o'quvchilarning unga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish.

Tolerantlik – sabr-toqatlilik, boshqalarning qiziqishlari, xohish-istaklari, intilishlari va fikrlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Assertivlik – o'z-o'zini ijobiy qabul qilish, o'ziga, shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlariga ishonch.

Fasilitatsiyaga asoslangan pedagogik hamkorlik faoliyati pedagog va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydigan subyekt-subyekt munosabatlarini qaror toptirishni taqozo etadi. Pedagogik fasilitatsiya jarayon sifatida pedagog va o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va muloqot uslublari hisobga olish asosida qulay ta'lim muhitini yaratish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, pedagogik faoliyat subyektlarining har tomonlama rivojlanishiga imkon beradi.

Ayrim tadqiqotchilar fasilitatsiyaning tuzilmasi va mazmuni aniqlashtirishda insonparvarlik psixologiyasi va terapiyaning "tushunish – kechirish – qabul qilish" tamoyiliga asoslanish lozimligini ta'kidlab o'tishadi. Bu esa shaxs rivojlanish sohalari (yo'nalganlik, kompetentlik, kasbiy muhim va kasbiy-zaruriy, shaxsiy sifatlar) bilan uyg'unlikda amalga oshadi

Shunday qilib, pedagogik fasilitatsiya tadqiqotchilar tomonidan turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqilgan: funktsiya, jarayon, ta'lim va o'zaro birgalikdagi faoliyat, kasbiy muhim sifatlar, guruhiy vazifalarni hal etish texnikasi va h.k. Bizningcha, psixologik-pedagogik fasilitatsiyada mazkur jihatlarining barchasi o'z aksini topadi.

Bizning nuqtayi nazarimizcha, psixologik-pedagogik fasilitatsiya o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi, rivojlanishi ularning salomatligi, shaxsiy hayotining forovonligi uchun kasbiy muhim sifat tarzida fasilitatsiyaga asoslangan maqbul ijtimoiy-psixologik va pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishidir.

U fasilitatsion shaxsiy muloqot, subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan birgalikdagi o'quv harakati va hamkorligi;

- fasilitatsion pedagogik texnologiyalar, bilishga barqaror ehtiyojni rivojlantiruvchi metod va usullardan foydalanish, mustaqil ta'limga qobiliyatlilik, ijodkorlikni talab etadi.

Muvaffaqiyatli pedagogik fasilitator sifatida shakllanishi uchun o'qituvchining o'ziga fasilitativ xizmat ko'rsatish lozim. Mazkur holatda pedagog fasilitatsiyaning obykti sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchiga munosabatiga ko'ra faoliyat subyektlari sifatida oliy ta'lim muassasasi rahbar xodimlari va psixologi aks etadi.

Pedagogik fasilitatsiyaning kasbiy ta'limdagi ahamiyati faol tayyorgarlikka ega mutaxassislarni shakllantirishga o'tish, bitiruvchiga oid standart bo'lmagan xulosalarni qabul qilish va mustaqil tahlil etish qobiliyatiga ega shaxsni shakllantirishda yorqin namoyon bo'ladi. Faol xulq-atvordagi ehtiyoj va motivlar ijro etishda emas, balki o'zaro xatti-harakatni mo'ljalga olishda to'liq namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, o'qituvchining vazifasi o'quvchilarni hamkorlikda faoliyatni to'g'ri mo'ljalga olishlarini ta'minlash, ular bilan qator boshqaruv funksiyalarini almashishi, ya'ni ularni fanga nisbatan chuqur qiziqishlarini uyg'otish maqsadida shart-sharoitlar yaratish va haqiqiy hayotiy mazmunga ega o'quv motivlarini paydo qilishdir. Pedagogik fasilitatsiya bu – yuqori sifatga ega bo'lgan, amaliyotdagi zamonaviy talablarga mos keluvchi mutaxassislarni o'qitish vositasidir. O'quvchida qancha ko'p savol tug'ilsa, u shuncha ko'p bilim egallaydi, bunda uning o'quv jarayonidagi faolligi ham nazarda tutiladi.

Materialning har qanday emotsional va mantiqiy mazmunga ega bo'lishiga qaramay, agar o'quvchilar sust tinglovchi bo'lib qolishsa, faqatgina ma'ruzada qatnashib, o'quv materiali va mazmunini avtomatik ko'chirib oladilar, xolos. Fasilitatsion ta'limda o'qituvchi dogmatik metodlar va usullarni emas, balki zarur ma'lumotlarni ijodiy egalash, tafakkurni rivojlantirish, ma'lum materialdagi yangi muammolarni izlab topish imkoniga ega bo'ladi. Bu jaray-

onda o'qituvchi shunday pozitsiyaga ega bo'ladiki, bunda "o'zimas" balki boshqa o'quvchilar bilan "birgalikda" va "amaliyotdagi mavjud muammolarni bilmaslik", ya'ni kurs davomida o'quvchilar tomonidan ikkilanishlarga sabab bo'lishi haqidagi "ayblov"dan qo'rqqmasligi kerak. Shu tarzda u tadqiqotchi sifatida o'quv jarayonida o'z rolini yo'qotmaydi, o'quv dasturiga tegishli barcha savollarga javob beruvchi dogmatik-pedagog niqobiga o'ranmaydi. Bularning barchasi o'quvchilarni har qanday sharoitda qiziquvchanliklarini va faol anglashlarini hamda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini jadallashtiradi. Pedagogik fasilitatsiya konsepsiyasi bir qator shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Ular orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) o'quvchilar uchun o'qishning ahamiyatli bo'lishi;
- b) o'qituvchining kongruentliligi;
- v) psixologik xavfsizlik va erkinlik.

Faqatgina o'quvchi uchun ahamiyatli ta'limgina samarali hisoblanib, oddiygina bilimlarni o'zlashtirish emas, balki o'quvchining ichki hissiy-kognitiv tajribasini o'zgarishiga sabab bo'ladi.

O'qituvchining kongruentligi shunda namoyon bo'ladiki, u boshqa kishilarga, o'quvchilarga nisbatan o'z munosabatini anglaydi, ya'ni birga ishlaydi, xususan o'zaro birgalikdagi harakatlarni amalga oshiradi. O'quvchilarni qanday vaziyatda ekanligiga qarab, o'zining haqiqiy munosabat hissini tushunib, ongli qaror qabul qiladi. Bu orqali o'qituvchi ta'lim oluvchilar bilan ochiq munosabatda bo'lish imkoniga ega bo'ladi. Fasilitatsiya jarayonidagi shaxsiy psixologik xavfsizlik o'quvchi shaxsini qadriyat ekanligini tushunib yetish va "tashqi" baholash mavjud bo'lmagan sharoitni yaratib berishda namoyon bo'ladi.

Psixologik mustaqillik o'quvchilarning kreativligini va ularning o'z-o'zini erkin namoyon etish xususiyatini shakllantirishni ta'minlaydi. Fasilitatsiya fikrlarni, hissiyotlar va holatlarning yorqin namoyon bo'lishiga imkon beradi. Bunda u samimiy ishonch, kutilmagan obrazlar uyg'unligi,

ongli tushunish va ijodiy anglashni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida fasilitatsiyani to'g'ri tashkillashtirishga rioya etish, quyidagi sifatlarni shakllanishiga turtki bo'ladi: mustaqillik, kasbni egallashga barqaror yo'nalganlik, bilishga qiziqish va ehtiyoj va h.k. Bularning barchasi kelajakda o'quvchilarni yetakchi mutaxassis bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchi-fasilitator guruhni hamkorlikda ishlash jarayonini qulaylashtirish hisobiga ta'lim samaradorligini oshiradi. Shunga ko'ra, ichki guruhliy o'zaro birgalikdagi harakatning shakl va usullari muhimdir: ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan qanday gaplashayotganligi, muammo-ni umumiy bir xil tushunishi, nizoli vaziyatlarni bartaraf etib, to'g'ri xulosa chiqarishi kerak bo'ladi.

O'quvchilarni mustaqil, mas'uliyatli, ijtimoiy jihatdan safarbarlikka moyil shaxs sifatida shakllantirish ularni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish va mehnat bozorida munosib o'rin topishiga tayyorlash uchun ularda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'z faoliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga odatlantirish lozim. Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun o'quv-biluv jarayonida o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik ahamiyatga ega. Pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayoni asosan o'quvchilarga yo'naltiriladi. Bunda o'quvchilarning moddiy borliq, atrof-dagilar va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini o'rganish muhim o'rin egallaydi.

O'qituvchilar o'quvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishlari lozim:

- pedagogik muhitni sog'lomlashtirish;
- o'quvchilarning rivojlanishlarini yakka va guruhli tarzda tashxislash;
- o'quvchilarga yakka tartibda va guruhli tarzda maslahatlar berish;
- o'quvchilarni yakka va guruhli tarzda rivojlantiruvchi ishlarni tashkil qilish;
- o'quvchilar bilan yakka va guruhli tarzda ular faoliyatini yaxshilash, tuzatish bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish;

- ota-onalar, o'qituvchilar, o'quvchilar va o'quv yurti ma'muriyati bilan ularning pedagogik-psixologik bilimdonliklarini oshirish maqsadida ma'rifiy tadbirlar o'tkazish;

- o'quv dasturlari, qo'llanmalar, dars loyihalari, ta'lim muhiti va pedagogik jamoaning kasbiy faoliyatini muntazam ekspertizadan o'tkazish kabilar.

Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o'quv-tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda o'quvchilarning mustaqil ishlari muhim o'rin egallaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlar deganda, shunday o'quv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etishi ta'minlanadi.

Mustaqil ish – o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda o'quvchilarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. O'quvchilarning mustaqil ishlari ularning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatlaridir.

Mustaqil ish – bilim olish shakllaridan biri bo'lib, bunda o'quvchilar o'z oldilariga u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yib, faoliyatni rejalashtiradi va uni amalga oshiradi hamda o'z-o'zini baholaydi.

Mustaqil ishlarning maqsad va vazifalari:

Professor-o'qituvchining roli o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi ko'nikma va malakalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil ishni tashkil etishda namoyon bo'ladi.

O'quvchining roli professor-o'qituvchi rahbarligida tashkil etish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning optimal yo'lini izlab topishga qobiliyatli ijodkor shaxs bo'lishda aks etadi.

Mustaqil ish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal

etishga imkon berishi lozim:

1. O'quvchilarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

2. Ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

3. O'quvchilarda umumiy va kasbiy layoqatlarni rivojlantirishga imkon berish;

4. Ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Mustaqil ish bir qancha o'ziga xos xususiyatlariga ega:

- ta'limning faol (aktiv) metodi sifatida mustaqil ishning o'ziga xosligi uning asosini o'quvchi o'qituvchining yordamisiz bajaradigan harakatlar tashkil etadi, u mazkur harakatlarni bajarish usullarini o'zi tanlaydi, ko'plab amallarni takomillashtiradi, qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda ularni nazorat qiladi;

- mustaqil ishlarning ikkinchi o'ziga xosligi o'quvchi faoliyatining o'z-o'zini boshqaradigan shakli hisoblangan o'z-o'zini nazorat qilishda aks etadi;

- uchinchi o'ziga xoslik o'z-o'zini nazorat qilish bilan mustahkam bog'liq bo'lgan, o'z-o'zini boshqarishda muhim rol o'ynaydigan baholovchi faoliyatdir;

- mustaqil ish har doim qandaydir natija bilan tugallanadi. Bu mashq bajarish, vazifalarni hal etish, insho yozish, jadval to'ldirish, grafiklar hosil qilish, savollarga javob berishga tayyorlanish kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

O'quvchining mustaqil ishi uning auditoriyada va undan tashqarida, o'qituvchi rahbarligida yoki o'qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuyini anglatadi. Mustaqil ish qanday sharoitlarda amalga oshiriladi:

1. Bevosita auditoriyada – ma'ruza amaliy mashg'ulot, seminar yoki laboratoriya ishlari bo'yicha vazifalar berish jarayonida;

2. O'qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlardagi bevosita muloqot chog'ida maslahatlar berishda, ijodiy

muloqotlar jarayonida, yakka topshiriq bajarishda va boshqalar.

3. Axborot resurs markazida, uyda, kafedralarda o'quvchi tomonidan o'quv yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida.

Pedagogika fanlari doktori, professor N.N.Azizxodjaeva xususiy-didaktik maqsadlarga bog'liq ravishda mustaqil ishning to'rt turini ajratib ko'rsatadi:

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining birinchi turi bu – sirdan qaraganda faoliyatning algoritmi ma'lumotlari va vazifalar sharoitidan iborat, ya'ni dastlabki bilimlarning (bilimlarning birinchi bosqichi) shakllanishi omillari asosida o'quvchilarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir. Bu maqsadga yetish uchun o'quvchilar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarni yechish zarurligi ko'zda tutiladi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining ikkinchi turida esa o'zlashtirilgan axborotlar xotirada qayta ishlanishiga va tipik vazifalarni, ya'ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi.

Mustaqil ishlarning ikkinchi turi barcha turlarining umumiy tavsifnomasi shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g'oyasi (tamoyili)e'lon qilinadi, o'quvchilardan ushbu g'oyani rivojlantirib, aniq sharoitga tatbiq etish usul va usullari talab qilinadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining uchinchi turi o'quvchilarda uchinchi bosqich – tipik bo'lmagan vazifalarni bajarish chog'ida shakllanadigan bilimlardan iboratdir. Bu maqsadga o'quvchilardan o'rganilayotgan obyektidagi o'zgarishlar sabablarining algoritm asoslarini tuzishni talab qilinadigan bilish (idrok qilish) masalalarini yechish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining to'rtinchi turi ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir.

Bunday ishlarni bajarishdagi o'quvchilarning bilish faolligi shundan iboratki, bunda o'quvchilar muhokama qilinaotgan ob'ekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradilar vazarur bo'lgan yangi, oldindan noma'lum bo'lgan g'o-

yalarni topish hamda yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo'lgan yangi aloqalar munosabatlarini o'rnatadilar. Bunda har bir o'quvchi vazifalarni bajarishning hamda bosqichida o'zi yaratishi lozim bo'lgan, uning uchun yangi bo'lgan harakatlar mohiyati u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi.

Pedagogik fasilatsiya vositasida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish modeliga asoslangan holda tadqiqot doirasida lokal-modulli texnologiya ishlab chiqildi. Texnologiya tayyorlov, asosiy va kreativ bosqichlarni o'zida aks ettirib, har bir bosqichda o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati mazmuni hamda ushbu bosqichlarga mos topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi.

Texnologiyaning mazmuni o'zida tayyorlov, asosiy va kreativ bosqichlarini va ana shu bosqichlarning har birida o'ziga xos tarzda namoyon bo'luvchi mustaqil ishni amalga oshirish darajalari (tanishuv, tushunish, analiz, va sintez) ni aks ettiradi

Texnologiyaning tayyorlov bosqichi quyidagi darajalarga asoslanib amalga oshirildi:

1. Tanishuvga doir: mustaqil ish topshirig'i orqali o'quvchida avval o'rganilganlarini esga tushirish va guruhlashtirish ehtiyoji shakllandi;

2. Tushunishga doir: o'quvchida mustaqil ish topshirig'ida bayon etilgan muammoni ichki ifoda etish rag'batini hosil bo'ldi;

3. Analizga doir: o'quvchida mustaqil ish topshirig'ida aks etgan muammo yechimini o'ylab topishga qiziqish paydo bo'ldi;

4. Sintezga doir: o'quvchida mustaqil ish topshirig'ida aks etgan muammo yechimini taklif etish istagi tarkib topdi.

Texnologiyaning asosiy bosqichi esa, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning to'rt (tanishuv, tushunish, analiz va sintez) darajasiga asoslanib, quyidagicha tashkil etildi:

- tanishuvga doir: o'quvchi mustaqil ish topshirig'ida aks etgan asosiy tushunchalarni belgilab oldi;

- tushunishga doir: o'quvchi mustaqil ish topshirig'ida bayon etilgan vaziyatni sharhladi;

- analizga doir: o'quvchi mustaqil ish topshirig'ini bajaradi va o'zining fikrlarini boshqalarniki bilan taqqosladi;

- sintezga doir: o'quvchi mustaqil ish yechimini izlab topdi.

Texnologiyaning kreativ bosqichi quyidagi tazda amalga oshirildi:

1) tanishuvga doir: mustaqil ish yechimini bayon etdi;

2) tushunishga doir: mustaqil ish topshirig'i yechimini amalda ko'rsatib berdi;

3) analizga doir: mustaqil ish topshirig'idagi muammo mohiyatini ochib berdi;

4) sintezga doir: mustaqil ish topshirig'i bilan bog'liqlikda o'z xulosalarini taklif etdi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Pedagogik fasilitatsiya deganda nimani tushunasiz?

2. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim vositasi nima?

3. Pedagogik fasilitatsiya vositasida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazishning o'ziga xosliklari nimalarda namoyon bo'ladi?

4. Pedagogik fasilitatsiya vositasida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi qanday?

15-§. TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHGA DOIR YONDASHUVLAR



Tayanch tushunchalar: tarbiya jarayoni, tizim, faoliyat, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individuallik, antropologik yondashuv, falsafiy yondashuv, metodologik asos, germenevtik yondashuv, sinergetik yondashuv, tizimlilik, tizimli yondashuv.

Tarbiya jarayonini tashkil etishga tizimli yondashuv.

! Tizim (yunoncha systema – yaxlit, qismlardan tarkib topgan, birlashtirilgan) muayyan yaxlitlik, birlikni hosil qiluvchi, o'zaro ta'sirlashuv va bog'liqlikda bo'lgan ko'plab elementlarni anglatadi. Tizim – tartibli ravishda joylashgan va o'zaro bog'liqlikda bo'lgan qismlar birligini ifodalovchi yaxlitlikdir.

“Tizim” bu – muayyan tahlil bilan tartibga keltirilgan elementlar to'plami bo'lib, ular o'zaro bog'liq holatda, muayyan yaxlit birlikni hosil qiladi.

“Tizimlilik” tushunchasini jarayonlar va borliqdagi hodisalarning tizim hosil qila olishi, tizimning mavjudligi, moddiy dunyoning hamda uni bilish shakllarining tizimli qurilishga egaligi kabi holatlarni aks ettira olishi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin.

Tizimli yondashuv – ilmiy bilish hamda ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo'nalishi bo'lib, uning asosida obyektlarni tizim sifatida qabul qilinishi yotadi. Tizimli yondashuv tadqiqotchini obyekt yaxlitligini ochib berishga, uning aloqalari turli tiplarini aniqlashga hamda ularni yagona nazariy ko'rinishga keltirishga yo'naltiradi. Tizimli yondashuvning metodologik o'ziga xosligi uning tadqiqotlarni quyidagilarga yo'naltirishi bilan izohlana-di: obyekt yaxlitligini va uni ta'minlovchi mexanizmlar-

ni ochib berish; murakkab aloqalarining turli tiplarini aniqlash hamda ularni yagona nazariy ko'rishga keltirish; shuningdek, ob'ektning yaxlitlik xususiyatlarini, uning tuzilmasi hamda dinamikasini belgilash imkonini beruvchi murakkab obyekt o'zaro bog'langan modellarining ierarxik tizimi to'g'risidagi tasavvurlarni amalga oshiradi. Demak, tizimli yondashuvdan kelib chiqadiki, murakkab obyekt (tizim)ning o'ziga xosligi uning tarkibiy qismlarining alohida xususiyatlarini inkor etmaydi, aksincha, ma'lum bir tarkibiy qismlar orasidagi aloqa va munosabatlarga doir bog'lanishlarni hosil qiladi.

Yaxlit tizimning asosiy belgilari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Yaxlit tizimning asosiy belgisi aynan tizimiy integral va uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarning jamoaviy sifati (yoki sifatlari)ning mavjudligidir.

2. Yaxlit tizimning ajralmas alomati uning tarkibiy qismlari, zero, tizim ulardan tarkib topadi hamda u siz mavjud bo'la olmaydi. Biroq tarkibiy qismlar tasodifiy obyektlarning yig'masi emas. Ular tizim bilan integratsiyalashgan, aynan ushbu tizimning tarkibi hisoblanadi. Tizimning maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash borasida uni tadqiq qilish, loyihalash, tarkibiy qismlarini aniqlashga tizimli-tuzilmaviy yondashuv deb ataladi.

Tizimli-tuzilmaviy (amaliy, asosli) yondashuv obyektning tuzilish xususiyatlarini yaxlit, tarkibiy qismlarga berilgan vaqt oralig'i bo'yicha bo'laklangan holatda qarab chiqishni ko'zda tutadi.

3. Yaxlit tizim – maqsadli tizim, u muayyan maqsadni amalga oshirishga intiladi. Maqsad tizimda uni hosil qiluvchi muhim omillardan biri sifatida yuzaga keladi. Biroq maqsad unga erishish uchun muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Tizimning muhitda maqsadga erishish uchun amalga oshiradigan harakatlari aynan uning funksiyalarini tashkil qiladi. Funksiyalar maqsadga nisbatan unga erishish usuli sifatida yuzaga chiqadi. Tizimning maqsadga erishish uchun muhitdagi o'zini tutishi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish va loyihalashga tizimli-funksional yondashuv deyiladi.

4. Har qanday tizim o'zgarmas, barcha davrlar uchun bir xil bo'lib qolmaydi. U abadiy emas, chunki qarama-qarshiliklar mavjudligi unga ham xosdir. Har bir tizim nafaqat faoliyat ko'rsatadi, balki shu bilan birga rivojlanadi;

- u o'z ibtidosiga ega, u yaralish davrini o'taydi, tarkib topadi va rivojlanadi. Tizimlar nazariyasida tizimning yashash vaqti uning asosiy tavsifiy belgilaridan biri hisoblanadi.

5. Tizimni uning vaqt bo'yicha rivojlanishi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish va loyihalash tizimli yondashuv deb ataladi.

Tizimli yondashuv obyektning yuzaga kelishi, yaralishi hamda tarkib topishini tizimli-genezis sifatida belgilab beradi.

6. Har bir tizim o'z navbatida o'zidan yuqori darajada turuvchi metatizimning tarkibiy qismi sanaladi, shu kabi u o'zidan quyi darajada turuvchi tarkibiy qismlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, hech bir tizim boshqalardan ajratilmagan, balki ko'plab aloqalar bilan boshqa turli tizimiy va notizimiy uyushmalar bilan ta'sirlashib turadi. Tizim o'ziga nisbatan tashqi bo'lgan muhitda harakatda bo'ladi, rivojlanadi, u bilan ko'plab kommunikatsiyalar orqali bog'lanadi. Tizimni unga nisbatan mavjud bo'lgan boshqa tizimiy va notizimiy uyushmalar nuqtayi nazari-dan o'rganishga tizimli-kommunikativ yondashish deb ataladi.

7. Tizimga doimiy ravishda o'zida uning turg'unligini buzishga qaratilgan ta'sirlar ko'rsatib turiladi. Ushbu ta'sir avvalo har qanday tizimning ichida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar oqibatida yuzaga keladi. Shu bilan birga resurslar yetishmasligi, qattiq cheklashlar kabi tashqi salbiy ta'sirlar ham mavjud. Bunga qaramasdan tizim yashaydi va rivojlanib boradi. Demak, tashkil etuvchi qismlarning o'ziga xos yig'masi, ichki tuzilma va boshqalar bilan birga boshqa tizim hosil qiluvchi, tizimni himoyalovchi omillar ham mavjud. Tizimning yashovchanligini ta'minlovchi ushbu omillarga boshqaruv deyiladi.

Shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv yo'na-

lishida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvda shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'ladi, chunki bu yondashuv jarayonida shaxs subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi.

O'z navbatida, turli xil omillar ta'sirida hamda shaxsning o'z faoliyati natijalari ta'sirida uning subyekt sifatida rivojlanishi amalga oshadi.

Sh.Shodmonovanning ta'kidlashicha, shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvda o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud omillarni aniqlash asosida mazkur jarayonda vujudga kelayotgan o'zgarishlarni vaziyatlarga ko'ra tahlil qilish zarur bo'lib, bunda ularning mustaqil va erkin fikr bildirishlari, hech qanday hadiksirashlarsiz o'z tushunchalarini ifodalashlari, erkin muloqotga kirishishlari, ya'ni o'z imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun zaruriy va yetarli shart-sharoitlar yaratiladi.

Shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar hisobga olindi: o'quvchining muayyan faoliyatga kirishishining ixtiyoriy ekanligi; qo'yilgan maqsadga erishish vositasini tanlashda o'quvchiga ishonch, har bir bolaning imkoniyatlariga ishonish va ularning qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishiga xayrixohlik bildirish; ta'lim vazifalarini belgilashda samarali va oqilona strategiya tanlash; pedagogik ta'sir etish jarayonida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarining oldini olish; o'quvchilarning qiziqishlari, ularning individual ishtiyoqi, xohish-istaklarini hisobga olish va ularni yangi qiziqishlarni paydo qilish.

So'nggi vaqtlarda pedagogik amaliyotda shaxsiy-insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan va boshqa shu kabi yondashuvlarga doir atamalar ancha ommalashdi. Mazkur yo'nalishni ilmiy tushunish va amaliy ishlab chiqish "yondashuv" atamasining mohiyatini aniq belgilab olishga asoslanadi. Bizning fikrimizcha, "yondashuv" atamasi Ye.N.Stepanov va L.M.Luzinalarning tadqiqotlarida batafsil sharhlab berilgan. Ularning ta'kidlashlaricha, yondashuv bu

– professor-o‘qituvchi yoki ta’lim muassasasi rahbarining pedagogik faoliyatdagi o‘zaro bog‘langan tushunchalar, g‘oya va usullardan foydalanishga undaydigan faoliyatni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ta’lim insonparvarlikka yo‘naltirilganda insoniy munosabatlar tizimida o‘quvchiga bosh qadriyat sifatida qarash – asosiy me’yor deb e’tirof etiladi. Ushbu tamoyil har bir insonga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, bundan tashqari vijdon, e’tiqod va dunyoqarash erkinligini ta’minlash, o‘quvchilarning jismoniy, ijtimoiy va psixik sog‘lomligi haqida qayg‘urishni talab etadi.

Quyidagilar mazkur yo‘nalishni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari hisoblanadi:

- o‘quvchining muayyan faoliyatga kirishishi ixtiyoriy ekanligi;

- qo‘yilgan maqsadga erishish vositasini tanlashda o‘quvchiga ishonch, har bir bolaning imkoniyatlariga ishonish va ularning qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishiga xayrixohlik bildirish;

- ta’lim vazifalarini belgilashda samarali va oqilona strategiya tanlash;

- pedagogik ta’sir etish jarayonida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarining oldini olish;

- o‘quvchilarning qiziqishlari, ularning individual ishtiyoqi, xohish-istaklarini hisobga olish va ularni yangi qiziqishlarni paydo qilish.

Mazkur yondashuv amaliy pedagogik faoliyatda quyidagi qoidalar asosida olib boriladi:

- o‘quvchining faol nuqtayi nazari, uning mustaqilligi va tashabbuskorligiga tayanish;

- o‘quvchi bilan muloqotda unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

- pedagog o‘quvchilarning muvaffaqiyatlaridan quvona bilishi lozim;

- pedagog muhim muammolarni hal etishda o‘quvchiga yordam berishi kerak;

- tarbiyaviy vazifalarni bosqichma-bosqich hal etish-

da pedagog ularni amalga oshirishning har bir o'quvchiga yuqori darajada foyda keltiradigan variantlarini izlab topishi kerak;

- guruhda, o'quvchilarning boshqa jamoalarida ham pedagog insonparvarlik munosabatini shakllantirishi kerak, u o'quvchilarning kamsitilishiga, ruhi tushib ketishiga yo'l qo'ymasligi zarur.

Pedagog olimlarning o'quv jarayonida o'zaro ta'sir etishni insonparvarlashtirish muammolari yoritilgan maqola, tadqiqot, darslik va o'quv qo'llanmalarda ta'limga insonparvar yondashuv tamoyillari har tomonlama asoslab berilgan. Mavjud izlanishlarni umumlashtirish ko'proq zaruriy, insonparvarlik yondashuvning o'ziga xosliklari va mohiyatini aks ettiruvchi quyidagi tamoyillarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

- yaxlit yondashuv – o'quvchini biologik va psixik, ijtimoiy va ma'naviy, anglash va o'z-o'zini anglash, ratsional va noratsional birlik sifatida tushunish;

- o'quvchiga – pedagogik qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezuvchi, individual munosabatda bo'lishni talab etuvchi shaxs deb qarash; bunda yuksak ijtimoiy qadriyatlarining inson shaxsini rivojlantirishdagi o'rni e'tirof etiladi, har bir o'quvchining noyobligi va takrorlanmas ekanligi hurmat qilinadi; uning ijtimoiy huquq va erkinliklari e'tirof etiladi; tarbiya maqsadi, obykti, subyekti, samaradorligi ko'rsatkichlari va natijalari tarbiyalanuvchining shaxsiyatida namoyon bo'ladi; tarbiyalanuvchilarga ushbu jarayondagi asosiy subyekt deb qaraladi; tarbiyaviy faoliyatda inson haqidagi bilimlarning barchasiga tayaniladi.

- birinchidan, etnik va hududiy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar bilan bog'liqlikda, ikkinchidan, tarbiyaviy institutlarning asosiy funksiyalariga muvofiq keladigan holda, uchinchidan, tarbiya jarayonida ishtirokchilarning takrorlanmasligini hisobga olgan holda, tarbiyaviy ish mazmuni, shakl va metodlari tanlab olinadigan tabaqalashtirilgan yondashuv;

- tabiat bilan uyg'unlik tamoyili quyidagi qoidalarga rioya etishni talab etadi:

1) o'quvchining individual-shaxsiy xususiyatlarini

o'rganish va tarbiyalash;

2) o'quvchining motiv va ehtiyojlariga tayanish;

3) psixologik-pedagogik tashxis, maslahat va tuzatishning o'zaro aloqadorligini ta'minlash. Tabiat bilan uyg'unlik tamoyili uni tarbiyalashda tabiiy rivojlanish qonuniyatlari, jinsiy, yoshga doir o'ziga xosliklari, psixofizik tashkillash va layoqatga doir xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Bundan tashqari, mazkur tamoyilda o'quvchilarning diqqat-e'tiborini, atrof-muhitning ekologik tozaligini, ularning tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishini ochib beruvchi keng ma'nodagi ekologik muammolarga e'tibor qaratiladi;

- madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili ta'limning barcha tizimida ta'lim oluvchini madaniy o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini o'zgartirishga qobiliyatli hayot subyekti deb qaraydi; pedagogni esa ta'lim oluvchini madaniyat dunyosiga yetaklashga qobiliyatli, madaniyat va bola o'rtasidagi vositachi deb biladi; ta'limga madaniy jarayon sifatida; oliy ta'lim muassasasiga – pedagog va o'quvchilar hayotining madaniy namunalari yaratiladigan, madaniy voqealar sodir bo'ladigan, madaniyat yaratish va madaniyatli insonni tarbiyalash amalga oshiriladigan madaniy-ta'limiy makon sifatida munosabatda bo'ladi; o'quv-tarbiyaviy jarayonda milliy an'ana, urf-odat, marosimlarga urg'u berish ham madaniyat bilan uyg'unlik tamoyilining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

- tarbiyaviy jarayondagi munosabatlarni tashkil etishga insonparvar yondashuvda – pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi hurmat, o'quvchilarning fikrini sabot bilan eshitish, ularga yaxshi va e'tiborli munosabatda bo'lishi, rivojlanayotgan shaxs o'zini himoyalangan, kerakli, ahamiyatli his etishi; ob'ektiv yagona maqsaddagi professor-o'qituvchi va o'quvchilarning har tomonlama o'zaro ta'siri uchun psixologik qulayliklar yaratadi;

- tarbiyaviy faoliyatga muhitli yondashuv ya'ni o'quvchi shaxsining rivojlanishida ta'lim muassasasining ichki va tashqi muhiti imkoniyatlaridan foydalanish;

- qadriyatli-mazmunli yondashuv – o'quvchida o'z ha-

yotining mazmunini topa olishi uchun sharoit yaratishga, uning tabiat, sotsium, madaniyat bilan muloqotida yuzaga keladigan shaxsiy fikrlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'ladi;

- jamoa (guruh) a'zolari munosabatlarini tashkil etishga doir faoliyatli yondashuv – o'quvchi va pedagoglarning maqsadlarini birlashtirishni, hamkorlikdagi hayotiy faoliyat, muloqot, o'zaro bir-birini tushunish va o'zaro yordamni, o'zaro qo'llab-quvvatlash va kelajakdagi umumiy maqsadni tashkil etishni nazarda tutadi;

- hayotiy faoliyat muhitini estetiklashtirish va o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ko'zda tutuvchi yondashuv.

N.E.Shurkovaning fikricha, boshqa hamma tamoyillarga asos bo'ladigan eng muhim tamoyillar mavjud. Muallif ularga quyidagilarni kiritadi:

- pedagogga zamonaviy madaniyat darajasidagi kundalik oddiy vaziyatlarni ko'rsatib beradigan voqea-hodisalar, harakatlar, so'z, ish, insoniy munosabat va qadriyatlarga nisbatan ijtimoiy-qadriyatli munosabatga yo'nalganlik tamoyili;

- pedagogning o'quvchilarda o'z xulq-atvori, faoliyati va nihoyat, o'z hayotining subyekti bo'lish qobiliyatini rivojlantirishga doimiy yordam berishini talab etuvchi subyektivlik tamoyili;

- o'quvchi shaxsi, hayot tarzini hurmat qilish, mazkur bosqichdagi uning individual rivojlanish darajasi va o'ziga xosliklarini, uning xulq-atvor va tanlashga bo'lgan huquqini e'tirof etishni anglatuvchi ta'lim oluvchi shaxsini mavjudligicha qabul qilish tamoyili.

Falsafiy-antropologik yondashuv o'zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy funksiyasiga ko'ra o'quvchining ma'naviy dunyosiga yo'naltirilgandir. Ana shu sababli mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda muloqot va o'zaro bir-birini tushunish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Mazkur yondashuvning o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha subyektlariga nafaqat dunyoqarash

ko'rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi navbatda borliqni anglab yetish sifatida tushunish lozim. Ikkinchidan, mazkur mavjudlik usulini uzluksiz ravishda o'z-o'zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan muloqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Falsafiy-antropologik yondashuvning o'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari uning quyidagi asosiy tushunchalarini tahlil etishda yorqin namoyon bo'ladi: 1) hayot; 2) turmush tarzi; 3) hayot falsafasi; 4) borliq; 5) ma'naviyat; 6) ruh; 7) individ; 8) inson; 9) individuallik; 10) shaxsiy tajriba; 11) dialog; 12) dialogik harakat; 13) hayot mazmuni; 14) tarbiya; 15) o'z-o'zini tarbiyalash; 16) o'z-o'zini rivojlantirish; 17) ishonch; 18) o'zaro bir-birini tushunish.

“Hayot” tushunchasi ko'p mazmunli va murakkab bo'lib o'zining xilma-xil talqiniga ega. Ana shu sababli “hayot” tushunchasiga tabiiy-biologik, kosmologik va madaniy-tarixiy nuqtai nazardan yondashuv mavjud:

1) hayot – fazoviy hayotiy shiddat, uning mohiyati ong va yuqori ongda namoyon bo'ladi;

2) hayot bu – kechinmalar oqimidir, lekin bu kechinmalar tarixiy-madaniy jihatdan shartlanadi.

Mazkur talqinlarda hayot uzluksiz, yagona, ijodiy, doimiy shakllanish va rivojlanish jarayoni sifatida ko'riladi. Bu jarayon mexanik, noorganik turlarga, har qanday noaniqlikka, qotib qolganlikka, “muqimlikka” qarshi qo'yiladi.

Turmush tarzi – ijtimoiy guruhlar, elat va millatlarning kundalik hayotini ifodalovchi tushuncha bo'lib, falsafiy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Turmush ijtimoiy hodisa sifatida inson hayotining obyektiv shart-sharoitlari hamda hayotiy faoliyat shakllari, ongi va xulqining dialektik birligini taqozo etadi.

Turmush tarzi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy davrdagi shart-sharoitlarning butun majmuasi bilan belgilanadi. Ya'ni, odamlarning, ijtimoiy-etnik birliklarning muayyan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlarda shakllangan hayot faoliyati uslubi bo'lib, ularning kun kechirish mu-

omalasi, xulq-atvori va tafakkur tarzida namoyon bo'ladi.

Falsafiy-atropologik yondashuvning mohiyatini ochib beruvchi tushunchalardan yana biri – hayot falsafasi keng ma'nodagi hayotning mazmuni, maqsadi, qadr-qimmatini talqin etishga xizmat qiladi. Hayot falsafasida tarix tug'ilishdan o'limgacha bo'ladigan biologik davriylikka o'xshash jarayonlarni boshidan kechiradigan noyob va takrorlanmas "madaniy organizmlar" sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, tarixiy jarayon "taqdir"ga bo'ysunadi, tabiat bundan mustasno, chunki unda sababiylik qonuni hukmrondir.

Aynan mazkur tushuncha mohiyatini o'quvchilar tomonidan anglanishi uchun ularda hayotning mohiyatini uning o'zidan anglab olishga intilishni rag'batlantirish zarur. Buning uchun o'rganilgan materiallarni takrorlash va umumlashtirish darslarida o'quvchilar tarixiy davrlar bilan bog'liqlikda hayotning ichki mohiyatini hissiy kechinmalar tarzida idrok etishlari kerak bo'ladi.

Falsafiy-atropologik tushuncha sifatida borliq olam va har qanday turdagi mavjudlikni ifoda etishga xizmat qiladi. Mazkur tushuncha o'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, ular turli xalqlar, sulolalarning paydo bo'lishi, ularning qisqa yoki uzoq davr hukm surganligining sabablarini o'rganish orqali insoniyat tarixida nima uchun ko'plab yo'qotishlar, xatoliklarga yo'l qo'yilganligini anglab yetadilar.

Umuman olganda, falsafiy-antropologik yondashuv konkret metodologik asoslarga ega bo'lib, mazkur yondashuv asosida tarixni o'zlashtirish natijasida o'quvchi shaxsida o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikma va malakalari tarkib topadi.

Germenevtik yondashuv. Ushbu yondashuv asosida falsafiy hermenevtika – V. Diltey, G. Gadamer, E. Guserl g'oyalari asosida qurilgan gumanitar hodisalarni tushunish va talqin qilish (interpretatsiya) falsafiy nazariyasi yotadi.

Germenevtika nuqtayi nazaridan, tarbiya bu – subjektning kechinmalar sifatida namoyon bo'luvchi psixik tajribalariga, uning "hayotiy olamiga" murojaat etish hi-

soblanadi. Bu fenomen, ya'ni psixik kechinma faqatgina refleksiyada o'zlashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, inson boshqalarda faqat o'zida boshdan kechirganlari va tushunganlarini tushuna oladi. Bu bir xil ta'lim jarayonining obyekt va subyektiga taluqli. Shu sababli bola kechinmalari – tarbiyachi faoliyatining asosiy predmeti hisoblanadi. Aynan kechinmalar (xulq-atvor reaksiyalari yoki aytilgan fikrlar emas) doimo katta inson va bola dialogi sifatida tashkil etiluvchi pedagogik o'zaro ta'sir vaziyatida paydo bo'lishi shart.

Germenevtik tarbiyaviy amaliyot bolalar kechinmalari, ularning xotiralari, kutishlari, fantaziyalari bilan olib boriluvchi ish sifatida tashkil etiladi.

Bolalar she'rlari, mustaqil qo'shiqlari, esselari, avtobiografik qaydlari, kundaliklari, xatlari tarbiyaviy jarayonning muhim atributlariga aylanadi.

Bolalar verbal ijodiyotining ushbu mahsullari tarbiyachi tomonidan qabul qilinishi lozim: ular tahlil qilinmasligi va baholanmasligi, balki o'z-o'zicha bo'lishga ruxsat etiluvchi, ulg'ayib borayotgan insonning shaxsiy qadriyati sifatida tan olinishi zarur.

Bolani germenevtik qabul qilish o'qituvchining shaxsiy bolalik tajribalarini, o'z bolalik kechinmalarini refleksiya qilishi, bolalik xotiralarini "yashab o'tishi" siz amalga oshishi mumkin emas. Bunday pedagog bolani boshqarmaydi, majburlamaydi, balki u bilan xuddi katta o'rtog'idek hamkorlik qiladi.

Germenevtika ruhida tarbiyalash bolani atrofda gi odamlar va o'z - o'zini tushunishga o'rgatishi lozim. Germenevtikada tushunish, tushunib yetish protsedurasi: insoniy madaniyatning har qanday ko'rinishlarining ma'nosini fahmlash sifatida qaraladi. Shu sababli tarbiya uchun asosiy ma'no buyuk mualliflar tomonidan tushuntirib bo'lingan, faqat ularni ochish qolgan adabiyot, musiqa, tasviriy san'at namunalari murojaat etish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Germenevtik amaliyotda "germenevtik doira"ga alohida ahamiyat beriladi. Bu – o'tmishdan hozirga, butun-

dan qismlarga va aksincha tushunish jarayonidagi maxsus siklik harakatni ko'rsatuvchi paradoksidir. Ma'lumki, har qanday hodisa, hayotiy fakt, so'z ko'pincha oldin bo'lgan yoki keyingi kontekstga bog'liq tarzda u yoki bu ma'no kasb etadi. Germenevtik yondashuv tarafdorlari uchun bolaning o'tmish hayoti, qolgan kechinmalar, ularning bugungi kun bilan nisbati har doim muhim ahamiyatga ega. Bolaning aniq harakatini faqat uning shaxsini tushungandagina tushunish mumkin, shaxsni esa davrning ijtimoiy-madaniy sharoitlarini tushunmasdan tushunish mumkin emas. Ammo zamonnini tushunishga faqatgina zamonaviy bolaning kechinmalari va harakatlarini tushunish orqali erishish mumkin.

Germenevtikada "tarbiyalovchi tushunish"ning asosiy vektori tarbiyalanuvchining hayot ma'nosini anglash imkoniyatiga yo'naltirilgan. Bolaning har qanday kechinmasi o'zining uning "ma'naviy haqiqatlarini" – hayot qadriyatlariga munosabatini saqlaydi. Germenevtik yondashuv pozitsiyasida faoliyat olib boruvchi tarbiyachi har qanday yoshdagi bolalarning o'ziga xos hayotiy qadriyatlarini tan oladi. Ularni qaysidir yuksak idealga "moslashtirish" kerak emas. Bolalik hayoti tabiatining o'zi uning har bir lahzasini to'laqonli qadriyatlar bilan boyitadi, shu sababli tarbiya obyektiv, hamma uchun umumiy bo'lgan maqsadga ega bo'lishi mumkin emas. Tarbiya maqsadi tarbiyachining hayotda konkret bola individualligining namoyon bo'lishini tushunishi hodisasida paydo bo'ladi. "Tarbiyalovchi tushunish" bolaning bevosita muammolarini hal etishga emas, balki unga qadriyatlarni identifikatsiyalash: qadriyatlar ma'nosi va tarbiyalanuvchining ular haqidagi tasavvurlari o'rtasida munosabat o'rnatish uchun yordam berishga qaratiladi.

Tarbiyaga sinergetik yondashuv murakkab tizimlarning o'z-o'zini tuzishi, tashkillashtirishi nazariyasi asosida kelib chiqqan. "Sinergetika" atamasini fanga German Xaken kiritgan va uni murakkab tarzda bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishuvchi ko'p miqdordagi qismlar, komponentlar va ichki tizimlardan tarkib topuvchi tizimlarni

o'rganuvchi fan sifatida belgilagan.

Dunyo hamjamiyatida prefigurativ madaniyatdan hosil bo'luvchi fenomenlar: kelajakning (hatto yaqin kelajakning) noaniqligi, bugunning beqarorligi, informat-sion xaos borgan sari ko'proq anglanilib bormoqda. Ushbu sharoitlarda tarbiya maqsadga yo'naltirilgan boshqaruvga bo'ysunishi mumkin emas, chunki tarbiyaning o'zi – noaniqlik sohasi. Tarbiyani diagnostika qilish, uning natijalarini o'lchash murakkabligi tasodif emas: ular doimo haqiqiy tarbiya vaziyatidan vaqt bo'yicha kechikib yuradi va noaniqdir. Tarbiya jarayonida pedagog ta'sirida shaxsning qaysi motivatsion – qadriyatli tizimlari o'zgarishga uchrayotganligini, tarbiyalanuvchining o'zining ma'naviy izlanishlari, o'zini yengishi, hayotiy tajribani egallashi natijalari qanday bo'layotganligini aniqlash oson emas.

Sinergetik yondashuv pedagogga tarbiya jarayonini chiziqsiz sifatida tushunish, tarbiya tizimlari ochiqligini, ahamiyat hosil qiluvchi tasodiflarni (fluktuatsiyalarni) tan olish shartini qo'yadi. Tarbiyaga sinergetik yondashuvning o'ziga xos xususiyati – shaxsni o'zgartirishning bir qancha yo'llari imkoniyatlarini tan olish va sakrashlar yuz beruvchi keskin, beqaror tarbiyaviy vaziyatlardan kelib chiqishdir. Inson psixikasining bu ko'rinishini K. D. Ushinskiy quyidagicha tavsiflaydi: "...bitmas-tuganmas boy inson tabiatida shunday hodisalar ham bo'ladiki, kuchli ruhiy iztirob, qalbning hayron qolarli jo'shqinligi, yuksak ruh – bir zarb bilan eng zararli moyilliklarni qirib tashlaydi va go'yo yangi nishon ostida yangi hayot boshlash uchun o'z olovi bilan barcha eskiliklarni tozalagan va yondirgan holda, tomir yoygan odatlarni yo'q qiladi".

A.S.Makarenko o'z amaliyotida tarbiyalanuvchilarda kuchli tuyg'ular, motivlar kurashi, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan munosabatning keskin o'zgarishini yuzaga keltiruvchi vaziyatlarning hayratlanarli tasodiflaridan foydalangan.

Buyuk pedagog ushbu tarbiyaviy fenomenni "portlash metodi" deya nomlagan va unga shaxsni "qayta tarbiyalash" talab etilganda murojaat etgan.

Tarbiyaga sinergetik qarash "portlash metodi"ning

fenomenal tabiatini tushuntirib beradi. Agar tarbiyaviy o'zaro ta'sir bifurkatsiya (tarmoq, "tanlov") nuqtasidan uzoqda bo'lsa, unda tarbiyalanuvchilar xulq-atvori va faoliyatida sof tashqi, miqdoriy o'zgarishlar yuz beradi. Bifurkatsiya nuqtasiga yaqin bo'lgan hatto qisqa muddatli, bir lahzali pedagogik o'zaro ta'sir ham tarbiyalanuvchi shaxsining qadriyatli – motivatsion sohasini keskin tarzda o'zgartirib yuborishi mumkin, shu sababli (tarbiya uning uchun harakatlar, amallarni tanlash imkonini yaratishi lozim).

Sinergetik yondashuv pozitsiyasi bola shaxsi faolligi ichki potensialining alohida ahamiyatiga urg'u beradi. Pedagogik ta'sir bolalar ichidagi tartibsiz ichki o'z-o'zini anglash jarayonlarini ziyraklik bilan e'tiborga olishi va hatto ularning tabiiy harakatlari va faolliklarining impulsiv portlashlari bilan ham moslasha olishi shart. Tarbiyaning har qanday haqiqiy vaziyati bola uchun yechimi uchun o'rganilgan xulq-atvor qoidalari va xotirada saqlanilgan hayotiy kolliziyalar senariylari yetarli bo'lmaydigan tanlov muammosi bilan aloqador bo'ladi. Shaxs o'zgarishining asosiy tendensiyalarini belgilab beruvchi bifurkatsiya nuqtasi bola shaxsining qadriyatlar sohasi va uning axloqiy qarashlarida paydo bo'ladi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Tarbiya jarayoni qay tartibda tizimli tashkil etiladi?
2. Tarbiya jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvning imkoniyatlari nimalardan iborat?
3. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning o'ziga xosliklari nimalardan iborat?
4. Tarbiya jarayoniga germeneytik yondashuv deganda nimani tushunasiz?
5. Sinergetik yondashuv asosida tarbiya jarayonini tashkil etish mazmuni qanday?

16-§. TARBIYA PARADIGMALARI.



Tayanch tushunchalar: paradigmalari, transtsendental, sotsiosentrik, antroposentrik, ta'lim paradigmasi, ta'lim, bilim, ko'nikma, tarbiya, uzluksiz ta'lim, androgogik paradigma, akmeologik paradigma, qadriyat, akmeologiya.

Tarbiya paradigmalari tushunchasi.

! Paradigma (grekcha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashning biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.

Tarbiya tushunchasining ikki xil ma'nosini ajratib olish zarur: tarbiya jarayon sifatida va tarbiya natija sifatida. Ko'pincha yaxshi tarbiyalanganlik yoki yomon tarbiyalanganlik haqida gapiriladi. Biroq tarbiyada maqsadga erishilganlik emas, unga erishish usullari muhim ahamiyatga ega.

Inson tug'ilganidan to umrining oxirigacha tarbiyalanib boradi. Mazkur tarbiyaviy ta'sir, tabiiy ravishda, shaxsning yoshi, ijtimoiy maqomi, holati kabilar bilan o'zgarib boradi. Pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida hoziri vaqtda tarbiyaviy jarayon amalga oshadigan – pedagogik, androgogik, akmeologik va kommunikativ paradigmasiga ega. Ularning har biri aniq shart-sharoitlarda o'zining qo'llanilish usullariga ega. Turli paradigmaning qo'llanilishida tarbiya mazmuni turlicha namoyon bo'ladi.

! **Pedagogik paradigma.** Pedagogik paradigma konsepsiyasi insonni tarbiyalash majburlash, talab etish kabi tashqi ta'sirlar tizimidan iborat. Shuning uchun mazkur tarbiya paradigmasida tarbiyalanuvchi tarbiya mazmunini, tarbiya jarayonidagi uning zaruriyatini anglab yetmaydi, deb hisobalanadi va qo'yilgan maqsadga erishishning yagoni yo'li – majburlashdir.

Andrologik paradigma. Mazkur paradigmada tarbiyalanuvchi tarbiya jarayonini anglaydi, o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi va ularga erisha oladi, degan kontseptsiya yotadi. Mazkur vaziyatda pedagogning vazifasi insonning bu yo'ldagi harakatini qo'llab-quvvatlovchi fatsilitatorlik roli bilan almashinadi.

Akmeologik paradigma. Akmeologik paradigmada tarbiya jarayonida insonning o'z faoliyatini cho'qqisiga erishishi, o'z salohiyati imkoniyatlarini amalga oshira olishi uchun maksimal yordam berish ko'zda tutiladi. Mazkur yondashuv ijodiy yo'nalganlikka ega bo'lib, isnoniy munosabatlarda maksimal indiviudallikka erishish namoyon bo'ladi. Mazkur vaziyatda tarbiyachidan katta harflar bilan yoziladigan ShAXS bo'lish talab etiladi.

Akmeologiya – ulg'aygan shaxsning rivojlanish va komillikka erishish jarayonini o'rganuvchi maxsus fan. Akmeologiya – ilm-u fanning shunday yangi tarmog'iki, u insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot-faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishining kompleks masalalarini o'rganadi. Ya'ni u shaxsni o'z takomili jarayonida, ana shu taraqqiyot va yuksalishning obyektiv hamda subyektiv omillari doirasida tadqiq etadi.

Akmeologiyaning predmetini o'z-o'zini to'liq namoyon qilishga qodir, ongli yetuklikka ega inson tashkil etadi. Mazkur jarayonda o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil ta'lim, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini takomillashtirish asosida tarbiyalanuvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayonida akmeologik shaxs ijodiy salohiyatini oshirish orqali tarbiyalanuvchilarning shaxsiy va shaxsiy rivojlanish jarayoni birligi sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayonida akmeologik yondashuvning ahamiyati va uni qo'llash imkoniyatlari quyidagi jihatlarida o'z aksini topadi: shaxsiy faoliyat sohasidagi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy jihat;

- faoliyatga shaxsiy layoqatlilik, psixologik tayyorlikni aniqlash bilan bog'liq shaxsiy jihat;

- shaxsiy yetuklik, refleksiv-innovatsion salohiyatni rivojlantirish bilan bog'liq kreativ jihat;

- shaxsiy faoliyat jarayonida shaxsning o'z-o'zini anglashi va kommunikativ kompetentlikni nazarda tutuvchi refleksiv jihat. Tarbiya kursi tarbiyalanuvchilarining shaxsiy malakasini rivojlantirishda yuqorida qayd etilgan akmeologik jihatlarining maqbul o'zaro harakatini ta'minlashda refleksiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Akmeologik nuqtayi nazardan shaxsiy yetuklik va shaxsiy rivojlanish mezonlari va ko'rsatkichlarini umumlashtirish asosida yetuk shaxs – yuqori darajadagi malakaga intiladigan, kasbiy faoliyat sohasi bilan bog'liq holda o'z xulq-atvorini maqbullashtiradigan va o'z-o'zini rivojlantirib boradigan, shaxsiy sohaga individual-ijodiy hissa qo'shadigan, shaxsiy qiziqishlari va jamiyat talablarini mos ravishda uyg'unlashtirish asosida shaxsiy faoliyatda yuqori natijalarga erishadigan mutaxassisdir, degan xulosa kelish mumkin.

Pedagogik akmeologiyaning tayanch g'oyalariga asoslanish tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning akmeologik nuqtayi nazarini rivojlantirish masalasini tahlil etishni talab etadi. Tarbiya jarayonida "akmeologik nuqtayi nazar" tushunchasining o'zi yangi hodisa hisoblanib, yagona va aniq ta'rifning mavjud emasligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, oliy ta'lim akmeologiyasi doirasida mazkur tushuncha rahbar va pedagog-kadrlarga nisbatan qo'llaniladi hamda professor-o'qituvchining shaxsiy, shaxsiy va ma'naviy rivojlanishi, ta'lim oluvchilarning salomatligi va muvaffaqiyatini ta'minlashga insonparvar yo'nalganlik sifatida akmeologik nuqtayi nazarini aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, akmeologik nuqtai nazarni tarbiya kursi tarbiyalanuvchilarining ijodiy salohiyati va hayotiy quvvatini to'liq namoyon etishi, muvaffaqiyatga barqaror intilishi, subyektiv pozitsiyasi sifatida ham qarash mumkin. Bunday yondashuv tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy yetukligi va faolligi asosini tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida, andragogik ta'lim sifatining integral mezonini

ifoda etadi. Akmeologik nuqtai nazar shaxsiy faoliyatga, jarayon subyekti va obyektiga barqaror munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa nuqtayi nazarlar singari bir paytning o'zida shaxsiy muvaffaqiyat va salohiyat, istiqbolli rivojlanish natijasi, shaxsning hayotiy qadriyatlarini faollashtirish mexanizmini aks ettiradi.

Tarbiya jarayonida pedagog va tarbiyalanuvchilarning akmeologik nuqtayi nazarlarini farqlash mumkin: pedagog akmeologiyasi deganda o'z "akme"sini rivojlantirish, tarbiyalanuvchilarning sohaga doir ilg'or ish tajribalari va yangiliklarni tahlil etish va qulay muhitni yaratishga doir sifatleri yig'indisi tushuniladi. Tarbiyalanuvchining akmeologiyasi o'zida shaxsiy faoliyatga doir bilim va malakalarini rivojlantirib borish bilan bog'liq yetakchi faoliyat motivlari, o'quv motivatsiyasini aks ettiradi.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarda akmeologik nuqtai nazar o'z-o'zini anglash jarayoni va natijasi sifatida quyidagilarda namoyon bo'ladi:

o'z-o'zini anglash bu – tarbiyalanuvchining shaxsiy malakasi va uni rivojlantirish o'rtasidagi psixologik bo'shliqni bartaraf etish;

o'z-o'zini anglash – ikki yo'nalishga ega bo'lib, shaxsiy faoliyat mazmuni bilan bog'liqlikda o'z "Men"ining namoyon bo'lishi va uning obyektivligiga erishish usullari.

Tarbiyalanuvchilarning akmeologik nuqtai nazari shaxsning o'ziga xosliklari bilan bog'liq bo'lib, ikki sifatni o'zida aks ettiradi: ijtimoiy va shaxsiy faoliyatga yo'nalganlik.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarda akmeologik nuqtayi nazarni shakllantirish faoliyat maqsadi, xususiyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi uning real qadriyatlarga munosabatini hisobga olishni talab etadi. Andragogik ta'lim jarayonidagi har bir vaziyat erkin va mustaqil tanlovning zaruratini, tarbiyalanuvchilarning o'z zimmasiga mas'uliyatni olishini talab etadi. Aynan erkin tanlov sharoitida shaxs faolligi va individualligi to'liq namoyon bo'ladi. Biroq shu bilan birga, tanlov vositalari va xatti-harakatlar nafaqat maqsadning aniqligi, balki obyektiv shart-sharoitlar orqali aniqlashtiriladi. Tarbiyalanuvchilar hamma vaqt

tarbiya jarayonida o'zini shaxs sifatida his etishi, o'zining shaxsiy nuqtayi nazariga ega bo'lishini va uni saqlab qo'lishi, eng asosiysi to'g'ri tanlov asosida shaxsiy faoliyat shart-sharoitlariga o'zini tayyorlashi lozim.

Bizningcha, akmeologik nuqtayi nazar tarbiyalanuvchilarning shaxsiy malakasini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Akmeologik nuqtayi nazar tarbiyalanuvchining andragogik ta'lim jarayonidagi roli va o'rnini, shaxsiy faoliyatga qadriyatga yo'naltirilgan va mas'uliyatli munosabatini talab etadi.

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, akmeologik nuqtayi nazar muvaffaqiyat, yutuq, faollik, shaxsiy-shaxsiy rivojlanish kabi qadriyatlarga faol munosabatini o'zida uyg'unlashtiradi. Demak, akmeologik nuqtayi nazar bu – tarbiyalanuvchilarning faolligi va intilishini belgilab beruvchi uning andragogik ta'lim jarayonida o'quv, shaxsiy va ijtimoiy yutuqlarni qo'lga kiritishiga yo'naltirilgan o'z-o'zini anglashga tayyorligidir.

Akmeologik nuqtai nazarning o'ziga xosliklarini tahlil etish asosida uning asosiy funksiyalari sifatida o'z-o'zini tu shunish, o'z-o'zini namoyon etish, o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini baholash aniqlashtirildi.

O'z-o'zini tushunish tarbiya jarayoni subyekti sifatida tarbiyalanuvchining akmeologik nuqtayi nazarni qadriyatga yo'nalganlik tizimi sifatida tushunishi, o'zining shaxsiy faoliyati mazmun-mohiyatini anglashini talab etadi. Shu bilan birga, o'z-o'zini tushunish germeneytik nuqtayi nazardan tarbiyalanuvchilarning ijodiy salohiyati natijasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini namoyon etish mustaqillik (o'z faoliyatini rejalashtirish, boshqarish, aniq maqsadga yo'nalganlik), erkinlik (alohida ajralib turuvchi xulq-atvorga ega bo'lish, o'z-o'zini yo'naltirish, iroda va o'zaro birgalikdagi hamkorlik faoliyati), ijodkorlik (faoliyatdagi kreativlik, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni his etish) kabi sifatlarni o'zida ifoda etadi. Bu esa, tarbiyalanuvchilarning o'zida quyidagi jihatlarni aks ettirishini talab etadi:

- faoliyatning maqsadga yo'nalganligi (tarbiyalanuv-

chilarning mustaqil faoliyatga yo'naltirilgan qobiliyat va imkoniyatlarini amalga oshirishga doir motiv va ehtiyojlari);

- refleksiyaga (o'zining imkoniyatlariga munosabatda tanqidiylikning namoyon bo'lishi, shaxsiy e'tiqodi asosida o'z-o'zini va boshqalarni baholash) qobiliyatlilik;

- sotsium bilan uyg'un harakatlanish (ijobiy-emotsional kayfiyat, nizoli vaziyatlarni hamkorlikda hal etish, dialog);

- individual xulq-atvor (irodaviy xususiyatlarining namoyon bo'lishi, o'z-o'zini boshqarish);

- kreativlik (faoliyatning ijodiy xarakter kasb etishi, originallik, mustaqillik);

- mas'uliyatlilik (shaxsiy burch va majburiyatini anglash, vijdoniylik, adolatlilik).

O'z-o'ziga ishonch tarbiyalanuvchining o'zining shaxsiy rivojlanishiga intilishi va shaxsiy qadriyatlari birligini talab etadi. Natijada tarbiyalanuvchilarda shaxsiy "Men" konsepsiyasini qaror toptirishga erishiladi. Mazkur jarayonda tarbiyalanuvchilarning shaxsiy faoliyat bilan aloqador muammolarni o'z vaqtida mustaqil hal etish malakasi-ni oshirishga erishiladi.

Akmeologik nuqtayi nazar subyektning quyidagi xususiyatlarni namoyon etishi orqali mujassam bo'ladi:

- o'zining xatti-harakatlari, jumladan shaxsiy rivojlaniishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi;

- shaxsiy faoliyatda muhim yutuqlarni qo'lga kiritish;

- yangi ijodiy vazifalarni o'z oldiga qo'yish va hal etishdan qoniqish;

- yangi hayotiy tajribalarga ega bo'lish.

Ekzistentsial psixologiya mazkur hodisaning qator o'ziga xosliklarini ochish imkonini beradi. Aynan o'z-o'zini rivojlantirish subyektivlik, shu jumladan akmeologik nuqtai nazarning shakllanish jarayoni sifat ko'rsatkichi sifatida yuzaga chiqadi. O'z-o'zini rivojlantirish – insonning betakrorlagini ta'minlovchi va muvaffaqiyatga intilishdagi individualligini kashf etishning aniq maqsadga qaratilgan jarayoni.

O'z-o'zini baholash funksiyasi tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatining xususiyatlari va o'z shaxsiy yutuqlarini

baholay olishida namoyon bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini, shaxsiy qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari va ijodkorligini baholay olishi muhim ijtimoiy-madaniy qadriyat hisoblanadi.

Akmeologik nuqtayi nazar singari o'z-o'zini baholash ham ko'proq faoliyatda namoyon bo'ladi, biroq u o'z-o'zini baholash salohiyati (nimagadir erishish uchun faoliyatni amalga oshirish imkoniyati), strategiyalar (real maqsad va vazifalarning belgilanishi), jarayon (maqsad va vazifalarga erishishning maqbul usullari) va natijaviylik (o'z yutuqlaridan qoniqish) tarzidagi tuzilmaviy ko'rinishga ega bo'ladi.

Shaxs akmeologik nuqtayi nazarining namoyon bo'lish funksiyalarini (o'z-o'zini tushunish, o'z-o'zini namoyon etish, o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini baholash) aniqlashtirish asosida uning quyidagi komponentlari aniqlashtirildi: emotsional, faoliyatli-qadriyatga yo'naltirilgan va xulq-atvorga oid.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning o'z faoliyati maqsadini tushunib yetishi shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirishda ongli munosabatni talab etuvchi motiv va maqsad uyg'unligiga asoslanadi. Tarbiyadan maqsad o'z-o'zining faoliyati, tajribasi va shaxsiy yo'nalganligini aniq his etish va uning mohiyatining to'liq anglanishiga erishishdir.

Akmeologik nuqtayi nazarning faoliyatli-qadriyatga yo'naltirilgan komponenti uning o'z-o'zini rivojlantirish funksiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunday xulosaga tushunib yetish (shaxsiy qadriyatlari mohiyatini tushunish) va anglash (qadriyatlar tizimining anglanishi) jarayonlarining birligidan kelib chiqib kelish mumkin. Faoliyatga qadriyatga yo'naltirilgan komponent o'z navbatida akmeologik nuqtayi nazarning o'z-o'zini baholash funksiyasini samarali amalga oshishiga ko'maklashadi. O'z-o'zini tushunish va o'z-o'zini baholashning integratsiyasi tarbiyalanuvchilarning individual-shaxsiy va shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Shaxsiy rivojlanishga xulq-atvor, me'yoriy munosabat akmeologik nuqtayi nazarning o'z-o'ziga ishonch funksiyasining to'liq bajarilishini ta'minlaydi. Tarbiyalanuv-

chilarning tashqi ta'sirlar asosida o'z-o'zini tahlil etish va baholashi natijasida o'zining shaxsiy salohiyatini oshirishiga ishonch hissi qaror toptiriladi.

Kommunikativ paradigma. Kommunikativ paradigma konsepsiyasi rivojlanish darajasiga ko'ra bir xil guruhga mansub insonlarning muloqoti va birgalikda taraqqiy etishi masalasini ko'rib chiqadi. O'zaro muloqot jarayonida insonlarni takomillashishiga xizmat qiluvchi axborotlar, bilim va ko'nikmalar almashinadi. Ilmiy sohada bu xilma-xil simpoziumlar, konferensiyalar, seminarlar shaklida amalga oshadi. Kommunikativ paradigma xilma-xil guruhli psixologik treninglar asosidan tashkil topadi.

Mazkur paradigmalar orasidan ikkitasi – akmeologik va kommunikativ paradigmalar pedagogika kolleji o'quvchilarining iqtisodiy madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Akmeologik paradigma (A.A.Derkach, N.M.Egamberdiyeva, N.A.Muslimov) pedagogika kolleji o'quvchilarining iqtisodiy madaniyatini shakllantirishning ilmiy asosi sifatida ularning mazkur jarayon ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning yetuk shaxslari va faol subyektlari tarzida namoyon bo'lishlariga asoslanadi hamda ularning subyekt va bo'lajak mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi.

Akmeologik nuqtayi nazardan iqtisodiy madaniyat iqtisodiy jarayonlarning tezligi, natijaviyligi, o'ziga xosligini, bundan tashqari iqtisodiy yangiliklarni yaratish, idrok etish, amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini hamda mazkur jarayonni amalga oshishini ta'minlovchi psixologik mexanizm – refleksiyaning tavsiflash uchun tayanch tushuncha vazifasini bajaradi. N.G.Alekseyev va I.N.Semenovlar amaliy faoliyatni tahlil etish asosida qo'shqatlamli (birinchi qatlam – faoliyat, ikkinchisi esa, meteqatlam – uning reflektiv tashkillanishi) amaliy-yo'naltirilgan bilimlar tushunchasini qo'llashni taklif etishdi.

I.O.Sorokinaning fikricha, kasbiy ijodkorlikning rivojlantirishi xilma-xil qobiliyatlarning aks etishi bilan bog'liqdir.

Akmeologik qobiliyatlar – o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini namoyon etish kabilar inson hayotiy faoliyati jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, biroq ularning aynan jadal rivojlanishi autopsixologik kompetentlikning rivojlanishi natijasida sodir bo‘ladi.

Shaxsiy autopsixologik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

1) umumiy – o‘z-o‘ziga munosabat, o‘z-o‘zini boshqarishga qodirlik;

2) bilishga doir – rivojlanish psixologiyasi va faqat insonagina xos yuqori ong darajasi sifatidagi intellekt;

3) kognitiv – ijodiy faoliyatning akmeologik mazmunida kognitivlik o‘z-o‘zini anglash va kasbiy faoliyatning o‘zaro harakatida aks etadi;

4) kreativ – ijodiy vazifalarni nostandart hal etish yo‘llarini izlab topish, yangi timsollarni tasavvur qilish va yaratish; ijtimoiy-pertseptiv

– ijtimoiy-pertseptivlik akmeologik mazmunda o‘z-o‘zini baholashning shaxslararo o‘zaro harakatida aks etadi; empatiyaga doir

– emotsional ta‘sirga beriluvchanlik; emotsional ta‘sirlarga moslashuvchanlik.

Kommunikativ paradigma asosini muloqot jarayoni tashkil etadi. Psixologik lug‘atlarda muloqot tushunchasiga ikki xil ta‘rif beriladi:

1) muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlantirish jarayoni.

2) muloqot – belgilar tizimi orqali subyektlarning o‘zaro ta‘sirlashuvi.

Muloqot – ta‘lim oluvchining psixologik va ijtimoiy rivojining muhim omillaridan biri bo‘lib, birgalikdagi faoliyatda umumiy natijalarga erishish, shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro harakati. Muloqot motivlari bolaning asosiy ehtiyojlari bilan tig‘iz bog‘lanagan bo‘lib, ana shu asosdan kelib chiqib ularni uch muhim kategoriyasini ajratib ko‘rsatish mumkin: bilish, ishbilarmonlik, shaxsiy.

Psixologiyada muloqotni tahlil qilishda uning turli jihatlariga e'tibor qaratiladi: "kommunikatsiya" (axborot almashuv), "ijtimoiy persepsiya" (insonni insonni idrok etishi va tushunishi), "interaksiya" (birgalikdagi harakat). Amaliy muloqot mazkur tarkibiy qismlarning yig'indisi sifatida yuzaga chiqadi. Muloqot – shaxslararo munosabatlarning asosiy ko'rinishi bo'lib, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, tushunadilar.

Shuning uchun muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib, shaxslararo munosabat barkamol avlod, komil inson g'oyalari qaror topishiga xizmat qiladi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, xarakter xislati, individual-ti-pologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi fazilatlar, sifatlarnamoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi.

Muloqot tashqi ijobiy ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish uquvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyatiga boshqa odamlar ham taqlid qiladi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish – o'zini-o'zi mukammallashtirish, ro'yobga chiqarish, boshqarish, baholash, o'ziga-o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidni tushunish hamda bosqichma-bosqich egalab borish – bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi — o'zini-o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan, quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samara beradi:

1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay mavqeyini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashiga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish;

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

Inson o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatlari o'zlashtirilayotgan davrda ba'zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamkorlik jarayonida ma'lum yutuqlarga erishadi:

1. Ijtimoiy hodisalarning tashqi voqe bo'lishi ichki ruhiy holat va uning mazmunini aks ettirib ikki tomonlama aloqa tufayli mazkur jarayon yuzaga keladi.

2. Ixtiyoriy, faol diqqatning tashqi obyektlarga yo'naltirilganligi va to'planganligi turli omillar ta'siri tufayli samaradorlik darajasini pasaytiradi, asabiy holat ishchanlikni kamaytirib, muloqot maromiga putur yetkazadi.

3. Inson o'zini erkin, ozod, bemalol his etish xislatini o'zlashtirishi uchun jismoniy keskinlik, asabiy taranglik, aqliy zo'riqish orqali ko'zlangan maqsadiga yetishi mumkin.

Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqotning ahamiyati katta. Oddiy narsalarni o'rganish uchun ham taqlid orqali o'zaro muloqotda bo'lish zarur. Jamiyat qonun-qoidalariga asoslangan holda munosabatlar rivojlanadi. Individ bilan shaxs muloqoti o'rtasida juda katta farqni ko'rish mumkin. Masalan, go'dak, ruhiy kasal, ongi

past rivojlangan kishilarning muloqoti bilan yetuk rivojlangan, ongi yuksak kishining muloqoti o'rtasida katta farq bor. Ongli shaxs muloqotni boshlashdan avval miyasida o'ylaydi, so'zlarini rejalashtiradi. Shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida muloqotning o'рни katta. Masalan, axloqiy rivojlanish uchun oilada, maktabda, bog'chada bolaga kattalar muloqot orqali ta'sir qiladilar. Shuningdek, estetik, aqliy, jismoniy rivojlantirish uchun o'quvchiga o'qituvchi muloqot orqali ta'sir etishga harakat qiladi. Demak, muloqot ta'sir qilish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatlari, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlilik, vijdonlilik kabilar) muloqot jarayoni yaxshi o'tadi. Chunki shaxslar bir-birini to'g'ri tushunishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular samimiy bo'lishlari lozim. Samimiylilik insonning eng ajoyib fazilatlaridan biri bo'lib, voqea-hodisalarga oqilona munosabatda bo'lish, turli ta'sirlarga berilmaslikdir.

Muloqot jarayonida va hamkorlik faoliyatida o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazish natijasida ular:

- o'zini o'zi va o'zgalarni hurmat qilish;
- o'zini o'zi va boshqalar faoliyati, xulqini baholash;
- o'zini o'zi va o'zgalarni nazorat qilish;
- o'zini o'zi anglash va o'zgalarni tushunish;
- o'zini o'zi boshqarish (ham bilish faoliyatida, ham xulq-atvorida)
- o'zini o'zi takomillashtirish va yangi fazilatlarini egallash; voqeilik mahsulini oldindan bashorat qilish shakllanadi.

Do'stona muloqot o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida bilimlarni puxta o'zlashtirishni ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Muloqot jarayonida motivatsiyaga his-tuyg'uga, shaxsga oid bilishga taalluqli, boshqaruv xususiyatli nizolar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, holatlar, vaziyatlar, vujudga kelishi mumkin. Bu muammolarni hal qilishdan ko'ra

olidini olish lozim. Shunga qaramasdan muloqot va shaxslararo munosabatlarda talaba bilan o'qituvchi o'rtasida turli darajadagi ayrim nizoli holatlar uchrab turadi:

1. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida fikriy yakdilikni yuqligi;

2. Foyda to'g'risidagi ijtimoiy muammoda shaxsiy-fikriy qarama-qarshilik mavjudligi;

3. Ayrim ma'naviy to'siqqa ega ekanligi.

4. Narsa va hodisalarning shaxsiy ma'no kasb etishi.

5. Ehtiyojlarning nufuzliligi.

6. Faoliyat, muomala, xulq uyg'unligining buzilishi kabilar.

Psixologiya fanida muloqot insonlarning o'zaro tushunish sifatida talqin qilinadi.

a) stereotipizatsiya. (ajdodlar tomonidan odatlar, aqidalar hech o'zgarishsiz hozirgi zamon odamlarining foydalanishi);

b) identifikatsiya (taqlid qilish, idealdagi xislatlarni o'zida shakllantirish);

v) refleksiya (o'z imkoniyati va xulq-atvorini bilish, muloqotdoshning odobi, fahm-farosatni anglash) kabilar.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Tarbiya paradigmalari deganda nimani tushunasiz?

2. Zamonaviy tarbiya paradigmalari nimalar kiradi?

3. Pedagogik paradigma nima?

4. Andrologik paradigma mazmuni nimalardan iborat?

5. Kommunikativ paradigmani ahamiyati nimalardan iborat?

17-§. ZAMONAVIY TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI



Tayanch tushunchalar: ta'lim, bilim, ko'nikma, tarbiya qonuniyatlari, ijtimoiy muhit, uzluksiz ta'lim, modernizatsiya, tizim, metodika, pedagogik shart-sharoit, ehtiyoj, pedagogik jarayon.

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzuga keldi. Eng avvalo, yuqorida keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi.

Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;

- ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va ta'lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayoni **o'ziga xos xususiyatlarga** ega:

- maqsadga yo'naltirilganligi;
- ko'p qirrali jarayon;
- uzoq muddat davom etishi;
- uzluksizligi;
- yaxlitligi;
- variativligi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi;
- ikki tomonlamalilik;

! Tarbiya qonuniyatlari – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi **qonuniyatlari** mavjud:

- u ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog'liqligi;

- u tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi;

- u faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;

- u tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish;

- u tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning intensivligi;

- u tarbiyalanuvchining "ichki olami"ga ta'sir etishning intensivligi;

- u tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish.

! Tarbiya tamoyillari bu – tarbiyaviy ishning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalangan dastlabki qoidalaridir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

- u maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi;
- u tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- u tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog‘liqligi;
- u tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;
- u jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko‘rish;
- u shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo‘shib olib borish;
- u o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta’sirlarining birligi;
- u tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- u tarbiya jarayonining tizimligi va uzluksizligi.

Ma‘lumki, ta‘lim oluvchining turli ko‘rinishdagi harakati va faoliyatida uning maxsus o‘ziga xos baholash munosabati namoyon bo‘ladi. Aynan ta‘lim oluvchining baholash munosabatlariga ko‘ra yangi qadriyatlarni o‘zlashtirishi amalga oshiriladi yoki bo‘lmasa avvaldan mavjud bo‘lgan qadriyatlar (masalan, ijtimoiy normalar, nuqtayi nazarlar, qarashlar, fikrlar, qonun-qoidalar) yanada, ongda mustahkamlanadi.

Fanda ehtiyojlar inson faoliyatining faolligi sababi va manbai sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘zining kelib chiqishi va rivojlanishiga ko‘ra ular ikkita bosqichni bosib o‘tishadi. Birinchi bosqichda ehtiyoj xuddi bir ichki, faoliyat uchun yopiq sharoit sifatida xarakterlanadi. Ushbu bosqichda qadriyat ehtiyojni qondirishga qodirdir, ideal sifatida maydonga chiqadi, buni amalga oshirish esa berilgan ehtiyojning real dunyoni bilish uchun bilimlarni taqqoslashni nazarda tutadi, bu esa mana shu mavjud ehtiyojni qondirish uchun

vositalarni tanlashga yordam beradi. Ikkinchi bosqichda ehtiyoj – real bir kuchdir, u insonning aniq bir faoliyatini boshqaradi. Bu yerda ehtiyoj bilan mazmun aniqlashtirilib olinadi, u esa aynan tashqi reallikdan kirib keladi.

O'z navbatida, ehtiyoj faoliyatni jadallashtiradi va o'zining aniq natijasi bilan yakunlanadi. Avvaliga u sharoit sifatida maydonga chiqadi, biroq ta'lim oluvchi harakat qilishni boshlashi bilan birga uning transformatsiyalanishi va ehtiyojning "o'zida" bo'lmay qolishi yuzaga keladi. Qanchalik faoliyat rivojlansa, shunchalik uning ko'zda tutilgan holati natijaga aylanib boraveradi.

Shuning uchun faoliyatni ehtiyojlarning qondirilishi va kelib chiqishi orqaligina to'g'ri tushunib olish mumkin. U bir vaqtni o'zida mavjud ehtiyojlarni qondirish jarayoni va yangi ehtiyojlarni yaratish sharoiti, shu bilan birga mavjud subyekt va obyekt o'rtasidagi qarama-qarshilik yechimi jarayoni va yangining paydo bo'lishini nazarda tutadi.

Ehtiyojlar kelajakka yo'naltirilgan bo'lib, natijada hayotiy faoliyat namunasini dasturlashtiradi. Ehtiyojlar o'zining regulyatorlik funksiyasiga ko'ra, o'zida muhim ahamiyatliligi yuqori bo'lgan shaxs rivojlanishi mezonini aks ettiradi.

Ta'lim oluvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishda ehtiyojlar bilan bir vaqtda qiziqishning ham mavjud bo'lishi, tabiiydir. Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda qiziqish tushunchasiga turlicha qarashlar mavjud.

Ehtiyojdan maqsadni shakllantirishga o'tish o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi. Ehtiyoj va maqsad motivni birlashtiradi. Ehtiyojlar motivga nisbatan birlamchidir, ular esa aynan kelib chiqqan ehtiyoj asosida shakllanadi. Faollik ehtiyojlarning o'zidan kelib chiqmaydi, balki subyektning mavjud holati shart-sharoiti o'rtasidagi ziddiyatga bog'liqdir. Aynan shu qarama-qarshilik (ziddiyat) faoliyatni rag'batlantiradi (stimul), va shart-sharoitlarning o'zgarishi yoki saqlab qolinishiga kurashishga undaydi.

"Motiv" kategoriyasi, o'z navbatida, "ehtiyoj" kategoriyasini aniqlashtiradi va to'ldiradi, va subyektning uning hayotiy faoliyati sharoitlariga munosabatlarini aks ettiradi.

"Men" shaxsining eng ezgu lahzalari odamlarning

xulq-atvori va xatti-harakati motivlarida yashirinadi. Bu holda qadriyatlar tizimi ideal shakldagi o'zini tutish strategiyasi, motiv esa – uning taktikasi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Motivning tabiati, ularning mazmuni, motivatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyati shaxsni o'ziga xos tomoni – “mustaqilligi”ni ochib beradi. Motivatsiya o'zida u yoki bu shaxs qabul qilgan qarorlarning sir sifatida o'zida saqlab, sirning tanlanishi va qadriyatli yondashuvning ilgari surilishi, shu bilan birga hayotiy istiqbolni aniqlashni shart qilib qo'yadi.

Shaxsning barcha faoliyatini ideal lahzasi bu maqsaddir, u esa determinlashtirilgandir, bir tomondan, ya'ni talab bilan (zarurligi darajasi va ayni sharoitda uni qondirish uchun qodirlik), boshqa tarafdin – uni amalga oshirish uchun vositalar bilan mustahkam aloqadorlikdadir. Vosita maqsad va natijani chaqiradi, shuning uchun ularni ko'p hollarda bir biri bilan o'zaro bog'liqlikda aniqlashtirishadi.

Qadriyatlar dunyosida insonlarning xatti-harakati va ijtimoiy sabab faoliyatini rag'batlantirish holatlarining qiyinlashishi ko'zga tashlanmoqda. Birinchi masala sifatida mavjud bo'lishi mumkin emas bo'lgan zarur narsa maydonga chiqmaydi, sababi bu masalalar ehtiyojlar darajasida hal qilinadi, shu bilan birga yashashning moddiy sharoitlari nuqtayi nazari ham bo'la olmaydi, bu – qiziqishlar harakati darajasidir, bunda insonning tayinlanishi va uning qadr-qimmati tegishli ravishda taqdim etilishida, xatti-harakatining motivlashtirish lahzalari shaxsning erkinlashishida va o'z-o'zini anglashida namoyon bo'ladi. Bu aynan, shaxsning barcha jihatlarini – ehtiyojlari va qiziqishlarini o'ziga qamrab oluvchi qadriyatli yondashuvdir. Biroq shaxs ehtiyojlar faoliyati bilan aniqlanadi, unda erkin va rivojlanayotgan yangi qadriyatlar bo'lmaydi. Inson ehtiyojlar ta'siridan erkin bo'lishi kerak, ya'ni ehtiyojlarga qul bo'lib qolishi kerak emas. Shaxs erkinligi – bu kichik ehtiyojlar ta'siri doirasini yo'q bo'lishi hamda oliy qadriyatlarini tanlash va ularga intilishi, demakdir.

Qadriyatli yondashuv qiyosiy jihatdan avtonom(alohidda)dir, sababi qadriyatlar haqidagi tasavvur dunyoqarashlarga tayanadi. Biroq shakllangandan so'ng, ular o'z ta'siri

ni ko'rsatadi: qiziqish, ehtiyoj, faoliyat maqsadi, shaxsning hayotiy faoliyati va ijtimoiy tuzilmalarning har tomonlama rivojlanishi. Ushbu mexanizm jamiyat hayoti va ta'limning ijtimoiy fenomen sifatida insonparvarlashishini shart qilib qo'yadi. Qadriyatli yondashuvda faqatgina shaxsning tajribasigagina emas, balki birinchi navbatda, odamzod tomonidan to'plangan tarixiy tajribalarga tayaniladi. Bu esa ma'lum bir me'yor va mezonlar tizimi bo'lib, har bir shaxs foydalanishi mumkin bo'lgan madaniy faoliyat chegaralarini belgilab beradi.

Qadriyatli yondashuvlar axloqiy ideallarda o'z aksini topadi, bular esa shaxs faoliyatida maqsadli ravishda oliy ko'rinish hosil qiladi. Ideallar o'zida belgilangan maqsadlarni namoyish etib, bu dunyoqarashlar tizimining oliy qadriyatidir. Ular ko'ppog'onali haqiqatni ideallashtirish jarayonini nihoyasiga yetkazadi.

Qadriyatli yondashuvlarni axloqiy ideallar sifatida tushunish ijtimoiylik va shaxsiylik o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi. Yuzaga kelgan ziddiyatda o'z navbatida, biri boshqasining o'rniga qurbon bo'ladi. Biroq insonparvar kishi axloqiy ideal talablari asosida ishni amalga oshiradi. Axloqiy ideallar, o'z navbatida, shaxs rivojlanish darajasini yutuqlarini shartlaydiki, bu esa aynan insonparvar kishining o'zligiga to'g'ri keladi. Ular insonparvarlik qadriyatlarining birligini o'zida aks ettiradi, aynan jamiyat rivojlanishi ehtiyojining rivojlanayotgan shaxs ehtiyojlariga to'g'ri kelishidadir. Ularda shaxsning va jamiyatning ilg'or qiziqishlari birligi uyg'un ravishda namoyon bo'ladi, sababi ular birgalikda insonparvarlik dunyoqarashining ijtimoiy funksiyasini namoyon etishadi.

Axloqiy ideallar butun umrga aniq bir etalon sifatida berib qo'yilmagan. Ular rivojlanadi, namuna sifatida takomillashadi, shaxs rivojlanishi istiqbollarini aniqlaydi. Rivojlanish insonparvar axloqiy ideallar sifatida xarakterlanib namoyon bo'ladi, shuning uchun ham ular shaxs takomillashishi motivi sifatida namoyon bo'lishadi. Ideallarni tarixiy davr va avlod bog'lab turadi, eng yaxshi insonparvarlik an'alarini vorisiylik bilan egallab olinadi

va birinchi navbatda bu ta'lim orqali amalga oshadi.

Axloqiy ideallar shaxs motivatsion-qadriyatli munosabatining oliy mezoni sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsni jamiyat oldidagi burchi, ma'suliyatini anglab yetishi bilan tavsiflanadi. Shaxs munosabati insonning atrof-muhitdagi narsa-hodisa va boshqa insonlar obyektiv aloqasiga yo'naltiradi va shaxsning subyektiv pozitsiyasini u yoki bu subyektga nisbatan nisbiy, shu bilan birga uning ahamiyat-liligini baholaydi. Shu ma'noda "munosabat" bir vaqtning o'zida ikki holatda namoyon bo'ladi: protsessual tavsif sifatida (baholash aktini qo'shadi) va barqaror shaxs ta'limi, bu esa shaxsni insonparvarlik qadriyatlarini (qadriyatli yondashuv) tashuvchisi sifatida namoyon qiladi. Shaxs bu holda borliq haqiqati bilan aloqador faol faoliyat ko'rsatuvchi sifatida namoyon bo'ladi, u tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan va uning asosida o'zining rivojlanadigan faoliyati tabiatini yo'naltiruvchisidir. Munosabatlar muhit va shaxsning o'zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi va mazmun jihatdan shaxs yo'nalganligini aniqlaydi, subyektivlikning asosiy fenomeni (qarashlar, motiv, ehtiyoj, baholash, hissiyot, ko'nikish, qadriyatli munosabat)ni o'zaro bog'laydi va muvofiqlashtiradi.

Biroq shaxs munosabatlarida uning faqatgina subyektivligi emas, balki ob'ektiv berilgan mazmun ham aks etadi, sababi unda obyektiv maqsadlar taqdim etiladi. Shaxs munosabatlarining obyektiv lahzalari sifatida uning ijtimoiy mavqeyi yuzaga chiqadi, u esa o'zida aloqalarning majmuaviyligini namoyon etadi, bular esa shaxslararo munosabatlarining referent tizimida va ijtimoiy ahamiyatli faoliyatda yuzaga keladi. Shaxs munosabati mazmuni motivlarning obyekt va predmeti (qadriyatlari) bo'la oladi, ular esa uning ongida o'ziga xos ijtimoiy mavqeda namoyon bo'ladi.

Jamiyat me'yor, talab, ideal, madaniy qadriyatlar shaxs tomonidan yakka va tanlangan holda qabul qilina-di va o'zlashtiriladi. Shaxs qadriyatli munosabati shuning uchun har doim ham jamiyat tomonidan qabul qilingan va e'tirof etiladigan qadriyatlarga mos kelmaydi. Jamiyat qad-

riyatlari qachon rag'bat va faoliyat ko'rsatishga uyg'otuvchi kuch bo'ladi, qachonki, inson tomonidan ongli ravishda qabul qilinsa va o'zlashtirilsa hamda uning shaxsiy qadriyati, da'vati, ideali, maqsadiga mos kelsagina, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishi insonparvarlik qadriyatlari tizimini o'zlashtirishni nazarda tutadi, u esa o'zida insonparvarlik madaniyati asoslarini aks ettiradi. Ushbu qadriyatlarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalasi o'zida katta ijtimoiy ahamiyatni ifoda etadi. Uning muvaffaqiyatli yechimi ko'p hollarda ta'limning insonparvarlashishiga bog'liqdir. Uning mazmuni shundan iboratki, shaxs tomonidan ongli ravishda madaniy qadriyatlar tanlovini ta'minlash va uning negizida mustahkam, inkor etmaydigan, insonparvar qadriyatli munosabatlar individual tizimini shakllantirishdir.

Qadriyatli mazmunga ega ta'limda shaxsning xulq-atvori mo'ljalga olinadi, ular esa uning insonparvarlikka yo'nalganligini aniqlaydi va qadriyatli baholash asosi sifatida namoyon bo'ladi. Dunyoqarash shaxs qadriyatli munosabatining konseptual interpretatsiyasi konteksti sifatida maydonga chiqadi, imperativ xulq-atvor, me'yor sifatida, qadriyatli munosabat – u yoki bu tizimga invariant sifatida namoyon bo'ladi. Aynan mana shunday ko'rinishda dunyoni bilish aksi va qadriyatli munosabat ma'naviy boshqarilishi ham yo'naltiriladi hamda mazmunan shaxs faoliyati va xulq-atvorini tashkillashtiradi.

Shuning uchun tarbiya ijtimoiy-tashkillashtirilgan umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasi jarayoni sifatida ko'rilishi mumkin. Hayotda esa qadriyat shaxsni faol faoliyatga, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga uyg'otishi uchun, insonning ongli ravishda tushunib yetishi hali kamdir. Qadriyat faoliyat motivini uyg'otuvchi kuch sifatida qachonki, shaxs tomonidan interiorizatsiyalansa, ichki mavjudlikni zarur lahzalarini taqdim etsa, inson o'z faoliyati maqsadini aniq shakllantira olsa, uning insonparvarlik ma'nosini ko'ra olsa, maqsadlarni amalga oshirishning samarali vositalarini topsa, to'g'ri va o'z vaq-

tidagi nazorat, o'z xatti-harakatini tuzata olsa va baholay olgandagina, aniq namoyon bo'ladi.

U yoki bu qadriyat qachonki tashkillashtirish, obyekt tanlash va sharoit yaratish, maqsadli faoliyat amalga oshirilsa va u esa shaxs tomonidan baholash va o'zlashtirish zaruriyatini uyg'otsagina, shaxs ehtiyoj obyektiga aylanaadi. Demak, ma'naviy qadriyatlar qachonki, tarbiya ularning interiorizatsiyasi jarayoni sifatida tashkillashtirilsa, inson ehtiyoji obyektiga aylanadi.

Interiorizatsiya umuminsoniy qadriyatlarning shaxs oliy psixik funksiyasiga aylanishiga olib keladi. Shaxs rivojlanishi madaniyatining istalgan funksiyasi ham interpsixik va interapsixik ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga interiorizatsiya eksteriorizatsiya bilan birga amalga oshiriladi – muhitni yangi obyektlarni yaratish yo'li bilan ijodiy o'zgartirishdir. Oxirgisi yordamida ehtiyojlarni yaratish amalga oshiriladi, u esa shaxs qadriyatli munosabati motivatsiyasi asosini tashkil qiladi.

Interiorizatsiyaning psixologik mexanizmi shaxs ma'naviy ehtiyojlari dinamikasini tushunishga imkon beradi. Ma'lum bir sharoitda shaxs tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat, yangi ob'ektlarni yaratadi, ular esa yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Bu chizmada quyidagicha ko'rinishga egadir, 1,2,3,4 va hakoza raqamlarda ma'lum bir omillar (shart-sharoit, tamoyil, mazmun, metodlar) ni tashkiliy faoliyati taqdim etilgan. Masalan, uni tashkil etishning individual-ijodiy yondashuv tamoyili. Obyekt sifatida (O1) g'oyalar bo'lishi, san'at asarlari, faoliyatni amalga oshirish usul va metodlari. Subyekt va obyekt o'rtasidagi aloqa esa, ikkitomonlama tavsifga ega: interiorizatsiya va eksteriorizatsiya. U subyektda ehtiyojni (E 1) tug'diradi, u esa o'z navbatida subyektni yangi obyektga (O 2) yo'naltiradi, yangi ehtiyoj kelib chiqadi (E 2). Bu esa cheksiz ravishda davom etadi.

“O'qituvchi-ta'lim oluvchi” pedagogik tizimining tarkibiy qismi sifatida tarbiyachi faoliyatini boshqarishga ta'sir etuvchi omillar ma'naviy ehtiyojlarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi. Ta'lim

oluvchi kelajakdagi faoliyatini o'zining ichki xatti-harakatini joy-joyiga qo'yib, uni ijtimoiy talablarga mos ravishda bashorat qiladi va ichki holatiga transformatsiyalaydi. Tanlab olingan obyekt (O) ehtiyojlar (E)ga aylanadi, ya'ni interiorizatsiya mexanizmi ishga tushadi.

Umuminsoniy qadriyatlarni shaxs tomonidan interiorizatsiyalanishi, aynan ta'lim oluvchilar tomonidan baholash faoliyatini amalga oshirish jarayonida unga jamiyat me'yorlari va belgilangan vazifaga muvofiq yangi faoliyatni loyihalashga yordam beradi. Faoliyatning yangi obyekti (O 1) yangi ehtiyojga (E 2)ga aylanadi – eksteriorizatsiya amalga oshadi, ya'ni ro'y beradi. Ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyati va tavsifi, bu yerdagi o'ziga xos faoliyat shaklida inkorni inkor qonuni ko'zga tashlanadi: ya'ni bir ehtiyoj ikkinchisini inkor etadi.

Uyoki bu ko'rinishdagi faoliyatni baholash va egallashda aynan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq xatti-harakat, yangi obyektlarni yaratadi, u esa yangi, sifat jihatidan ancha murakkab ehtiyojlarni keltirib chiqaradi va alohida motivatsion-qadriyatli munosabat darajasini tavsiflaydi.

Shaxs tomonidan interiorizatsiya va qabul qilish, u tomonidan umuminsoniy qadriyatlarni hamda shaxsiy o'zining qadriyatli munosabatini "ichki reja" sifatida ishlab chiqish faqatgina anglash (kognitiv) bosqichida amalga oshirilmaydi. Ushbu jarayonda hissiyotlar muhim rol o'ynaydi. Interiorizatsiya jarayonining hissiyotga boy tabiati ko'pgina tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Ularda ko'rsatilishicha, ijtimoiy qadriyatlar faqatgina ong bilan, oqilona fikrlash bilan emas, balki birinchi navbatda hissiyot bilan qabul qilinadi. Hattoki, ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushunish faqatgina "kuzatilmaydi", balki hissiyot bilan "bezaladi". Hissiyotlarning qatnashishi ushbu tushunchani shaxs tomonidan nafaqat real ravishda qabul qilinishini, balki oddiygina tushunishini belgilamaydi. Shuning uchun, qadriyatlar interiorizatsiyasi kognitiv va hissiy, ratsional va amaliy (faoliyatga tayyorligi), ijtimoiy va shaxsdagi individuallikning dialektik birligini hisobga olinishini talab etadi. Mazkur holat o'z navbatida ta'lim

oluvchilarda qadriyatlar tizimini bosqichma-bosqich amalga oshirish lozimligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'lim oluvchining turli ko'rinishdagi harakati va faoliyatida uning maxsus o'ziga xos baholash munosabati namoyon bo'ladi. Aynan ta'lim oluvchining baholash munosabatlariga ko'ra yangi qadriyatlarni o'zlashtirishi amalga oshiriladi yoki bo'lmasa avvaldan mavjud bo'lgan qadriyatlar (masalan, ijtimoiy normalar, nuqtayi nazarlar, qarashlar, fikrlar, qonun-qoidalar) yanada, ongda mustahkamlanadi.

Fanda ehtiyojlar inson faoliyatining faolligi sababi va manbai sifatida ko'rib chiqiladi. O'zining kelib chiqishi va rivojlanishiga ko'ra ular ikkita bosqichni bosib o'tishadi. Birinchi bosqichda ehtiyoj xuddi bir ichki, faoliyat uchun yopiq sharoit sifatida xarakterlanadi. Ushbu bosqichda qadriyat ehtiyojni qondirishga qodirdir, ideal sifatida maydonga chiqadi, buni amalga oshirish esa berilgan ehtiyojning real dunyoni bilish uchun bilimlarni taqqoslashni nazarda tutadi, bu esa mana shu mavjud ehtiyojni qondirish uchun vositalarni tanlashga yordam beradi. Ikkinchi bosqichda ehtiyoj – real bir kuchdir, u insonning aniq bir faoliyatini boshqaradi. Bu yerda ehtiyoj bilan mazmun aniqlashtirilib olinadi, u esa aynan tashqi reallikdan kirib keladi.

O'z navbatida, ehtiyoj faoliyatni jadallashtiradi va o'zining aniq natijasi bilan yakunlanadi. Avvaliga u sharoit sifatida maydonga chiqadi, biroq ta'lim oluvchi harakat qilishni boshlashi bilan birga uning transformatsiyalanishi va ehtiyojning "o'zida" bo'lmay qolishi yuzaga keladi. Qanchalik faoliyat rivojlansa, shunchalik uning ko'zda tutilgan holati natijaga aylanib boraveradi.

Shuning uchun faoliyatni ehtiyojlarning qondirilishi va kelib chiqishi orqaligina to'g'ri tushunib olish mumkin. U bir vaqtni o'zida mavjud ehtiyojlarni qondirish jarayoni va yangi ehtiyojlarni yaratish sharoiti, shu bilan birga mavjud subyekt va obyekt o'rtasidagi qarama-qarshilik yechimi jarayoni va yangining paydo bo'lishini nazarda tutadi.

Ehtiyojlar kelajakka yo'naltirilgan bo'lib, natijada ha-

yotiy faoliyat namunasini dasturlashtiradi. Ehtiyojlar o'zining regulatorlik funksiyasiga ko'ra, o'zida muhim ahamiyatliligi yuqori bo'lgan shaxs rivojlanishi mezonini aks ettiradi.

Ta'lim oluvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishda ehtiyojlar bilan bir vaqtda qiziqishning ham mavjud bo'lishi, tabiiydir. Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda qiziqish tushunchasiga turlicha qarashlar mavjud.

Ehtiyojdan maqsadni shakllantirishga o'tish o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi. Ehtiyoj va maqsad motivni birlashtiradi. Ehtiyojlar motivga nisbatan birlamchidir, ular esa aynan kelib chiqqan ehtiyoj asosida shakllanadi. Faollik ehtiyojlarning o'zidan kelib chiqmaydi, balki subyektning mavjud holati shart-sharoiti o'rtasidagi ziddiyatga bog'liqdir. Aynan shu qarama-qarshilik (ziddiyat) faoliyatni rag'batlantiradi (stimul), va shart-sharoitlarning o'zgarishi yoki saqlab qolinishiga kurashishga undaydi.

“Motiv” kategoriyasi, o'z navbatida, “ehtiyoy” kategoriyasini aniqlashtiradi va to'ldiradi, va subyektning uning hayotiy faoliyati sharoitlariga munosabatlarini aks ettiradi.

“Men” shaxsining eng ezgu lahzalari odamlarning xulq-atvori va xatti-harakati motivlarida yashirinadi. Bu holda qadriyatlar tizimi ideal shakldagi o'zini tutish strategiyasi, motiv esa uning taktikasi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Motivning tabiati, ularning mazmuni, motivatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyati shaxsni o'ziga xos tomoni – “mustaqilligi”ni ochib beradi. Motivatsiya o'zida u yoki bu shaxs qabul qilgan qarorlarning sir sifatida o'zida saqlab, sirning tanlanishi va qadriyatli yondashuvning ilgari surilishi, shu bilan birga hayotiy istiqbolni aniqlashni shart qilib qo'yadi.

Shaxsning barcha faoliyatini ideal lahzasi bu maqsaddir, u esa determinlashtirilgandir, bir tomondan, ya'ni talab bilan (zarurligi darajasi va ayni sharoitda uni qondirish uchun qodirlik), boshqa tarafdin – uni amalga oshirish uchun vositalar bilan mustahkam aloqadorlikdadir. Vosita maqsad va natijani chaqiradi, shuning uchun ularni ko'p hollarda bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda aniqlashtirishadi.

Qadriyatlar dunyosida insonlarning xatti-harakati va

ijtimoiy sabab faoliyatini rag'batlantirish holatlarining qiyinlashishi ko'zga tashlanmoqda. Birinchi masala sifatida mavjud bo'lishi mumkin emas bo'lgan zarur narsa maydonga chiqmaydi, sababi bu masalalar ehtiyojlar darajasida hal qilinadi, shu bilan birga yashashning moddiy sharoitlari nuqtayi nazari ham bo'la olmaydi, – bu qiziqishlar harakati darajasidir, bunda insonning tayinlanishi va uning qadr-qimmatini tegishli ravishda taqdim etilishida, xatti-harakatining motivlashtirish lahzalari shaxsning erkinlashishida va o'z-o'zini anglashida namoyon bo'ladi. Bu aynan, shaxsning barcha jihatlari – ehtiyojlari va qiziqishlarini o'ziga qamrab oluvchi qadriyatli yondashuvdir. Biroq shaxs ehtiyojlar faoliyati bilan aniqlanadi, unda erkin va rivojlanayotgan yangi qadriyatlar bo'lmaydi. Inson ehtiyojlar ta'siridan erkin bo'lishi kerak, ya'ni ehtiyojlarga qul bo'lib qolishi kerak emas. Shaxs erkinligi bu – kichik ehtiyojlar ta'siri doirasini yo'q bo'lishi hamda oliy qadriyatlarni tanlash va ularga intilishi, demakdir.

Qadriyatli yondashuv qiyosiy jihatdan avtonom (alo-hida)dir, sababi qadriyatlar haqidagi tasavvur dunyoqarashlarga tayanadi. Biroq, shakllangandan so'ng, ular o'z ta'sirini ko'rsatadi: qiziqish, ehtiyoj, faoliyat maqsadi, shaxs hayotiy faoliyati va ijtimoiy tuzilmalarning har tomonlama rivojlanishi. Ushbu mexanizm jamiyat hayoti va ta'limning ijtimoiy fenomen sifatida insonparvarlashishini shart qilib qo'yadi. Qadriyatli yondashuvda faqatgina shaxsning tajribasigagina emas, balki birinchi navbatda, odamzod tomonidan to'plangan tarixiy tajribalarga tayaniladi. Bu esa, ma'lum bir me'yor va mezonlar tizimi bo'lib, har bir shaxs foydalanishi mumkin bo'lgan madaniy faoliyat chegaralarini belgilab beradi.

Qadriyatli yondashuvlar axloqiy ideallarda o'z aksini topadi, bular esa shaxs faoliyatida maqsadli ravishda oliy ko'rinish hosil qiladi. Ideallar o'zida belgilangan maqsadlarni namoyish etib, bu dunyoqarashlar tizimining oliy qadriyatidir. Ular ko'ppog'onali haqiqatni ideallashtirish jarayonini nihoyasiga yetkazadi.

Qadriyatli yondashuvlarni axloqiy ideallar sifatida

tushunish ijtimoiylik va shaxsiylik o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi. Yuzaga kelgan ziddiyatda o'z navbatida, biri boshqasining o'rniga qurbon bo'ladi. Biroq insonparvar kishi axloqiy ideal talablari asosida ishni amalga oshiradi. Axloqiy ideallar, o'z navbatida, shaxs rivojlanish darajasini yutuqlarini shartlaydiki, bu esa aynan insonparvar kishining o'zligiga to'g'ri keladi. Ular insonparvarlik qadriyatlarining birligini o'zida aks ettiradi, aynan jamiyat rivojlanishi ehtiyojining rivojlanayotgan shaxs ehtiyojlariga to'g'ri kelishidadir. Ularda shaxsning va jamiyatning ilg'or qiziqishlari birligi uyg'un ravishda namoyon bo'ladi, sababi ular birgalikda insonparvarlik dunyoqarashining ijtimoiy funksiyasini namoyon etishadi.

Axloqiy ideallar butun umrga aniq bir etalon sifatida berib qo'yilmagan. Ular rivojlanadi, namuna sifatida takomillashadi, shaxs rivojlanishi istiqbollari aniqlaydi. Rivojlanish insonparvar axloqiy ideallar sifatida xarakterlanib namoyon bo'ladi, shuning uchun ham ular shaxs takomillashishi motivi sifatida namoyon bo'lishadi. Ideallarni tarixiy davr va avlod bog'lab turadi, eng yaxshi insonparvarlik an'analarini vorisilik bilan egallab olinadi va birinchi navbatda bu ta'lim orqali amalga oshadi.

Axloqiy ideallar shaxs motivatsion qadriyatli munosabatining oliy mezoni sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsni jamiyat oldidagi burchi, mas'uliyatini anglab yetishi bilan tavsiflanadi. Shaxs munosabati insonning atrof-muhitdagi narsa-hodisa va boshqa insonlar obyektiv aloqasiga yo'naltiradi va shaxsning subyektiv pozitsiyasini u yoki bu subyektga nisbatan nisbiy, shu bilan birga uning ahamiyatligini baholaydi. Shu ma'noda "munosabat" bir vaqtning o'zida ikki holatda namoyon bo'ladi: protsessual tavsif sifatida (baholash aktini qo'shadi) va barqaror shaxs ta'limi, bu esa shaxsni insonparvarlik qadriyatlarini (qadriyatli yondashuv) tashuvchisi sifatida namoyon qiladi. Shaxs bu holda borliq haqiqati bilan aloqador faol faoliyat ko'rsatuvchi sifatida namoyon bo'ladi, u tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan va uning asosida o'zining rivojlanadigan faoliyati tabiatini yo'naltiruvchisidir. Munosabatlar muhit va shaxs-

ning o'zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi va mazmun jihatdan shaxs yo'nalganligini aniqlaydi, subyektivlikning asosiy fenomeni (qarashlar, motiv, ehtiyoj, baholash, hissiyot, ko'nikish, qadriyatli munosabat)ni o'zaro bog'laydi va muvofiqlashtiradi.

Biroq, shaxs munosabatlarida uning faqatgina subyektivligi emas, balki obyektiv berilgan mazmun ham aks etadi, sababi unda obyektiv maqsadlar taqdim etiladi. Shaxs munosabatlarining obyektiv lahzalari sifatida uning ijtimoiy mavqeyi yuzaga chiqadi, u esa o'zida aloqalarining majmuaviyligini namoyon etadi, bular esa shaxslararo munosabatlarning referent tizimida va ijtimoiy ahamiyatli faoliyatda yuzaga keladi. Shaxs munosabati mazmuni motiplarning obyeksi va predmeti (qadriyatlari) bo'la oladi, ular esa uning ongida o'ziga xos ijtimoiy mavqeda namoyon bo'ladi.

Jamiyat me'yor, talab, ideal, madaniy qadriyatlar shaxs tomonidan yakka va tanlangan holda qabul qilinaadi va o'zlashtiriladi. Shaxs qadriyatli munosabati shuning uchun har doim ham jamiyat tomonidan qabul qilingan va e'tirof etiladigan qadriyatlarga mos kelmaydi. Jamiyat qadriyatlari qachon rag'bat va faoliyat ko'rsatishga uyg'otuvchi kuch bo'ladi, qachonki, inson tomonidan ongli ravishda qabul qilinsa va o'zlashtirilsa hamda uning shaxsiy qadriyati, da'vati, ideali, maqsadiga mos kelsagina, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishi insonparvarlik qadriyatlari tizimini o'zlashtirishni nazarda tutadi, u esa o'zida insonparvarlik madaniyati asoslarini aks ettiradi. Ushbu qadriyatlarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalasi o'zida katta ijtimoiy ahamiyatni ifoda etadi. Uning muvaffaqiyatli yechimi ko'p hollarda ta'limning insonparvarlashishiga bog'liqdir. Uning mazmuni shundan iboratki, shaxs tomonidan ongli ravishda madaniy qadriyatlar tanlovini ta'minlash va uning negizida mustahkam, inkor etmaydigan, insonparvar qadriyatli munosabatlar individual tizimini shakllantirishdir.

Qadriyatli mazmunga ega ta'limda shaxsning xulq-atvori mo'ljalga olinadi, ular esa uning insonparvarlikka yo'nalganligini aniqlaydi va qadriyatli baholash asosi sifatida namoyon bo'ladi. Dunyoqarash shaxs qadriyatli munosabatining kontseptual interpretatsiyasi konteksti sifatida maydonga chiqadi, imperativ hulq-atvor – me'yor sifatida, qadriyatli munosabat – u yoki bu tizimga invariant sifatida namoyon bo'ladi. Aynan mana shunday ko'rinishda dunyoni bilish aksi va qadriyatli munosabat ma'naviy boshqarilishi ham yo'naltiriladi hamda mazmunan shaxs faoliyati va xulq-atvorini tashkillashtiradi.

Shuning uchun tarbiya ijtimoiy-tashkillashtirilgan umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasi jarayoni sifatida ko'rilishi mumkin. Hayotda esa qadriyat shaxsni faol faoliyatga, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga uyg'otishi uchun, insonning ongli ravishda tushunib yetishi hali kamdir. Qadriyat faoliyat motivini uyg'otuvchi kuch sifatida qachonki, shaxs tomonidan interiorizatsiyalansa, ichki mavjudlikni zarur lahzalarini taqdim etsa, inson o'z faoliyati maqsadini aniq shakllantira olsa, uning insonparvarlik ma'nosini ko'ra olsa, maqsadlarni amalga oshirishning samarali vositalarini topsa, to'g'ri va o'z vaqtidagi nazorat, o'z xatti-harakatini tuzata olsa va baholay olgandagina, aniq namoyon bo'ladi.

U yoki bu qadriyat qachonki tashkillashtirish, obyekt tanlash va sharoit yaratish, maqsadli faoliyat amalga oshirilsa va u esa shaxs tomonidan baholash va o'zlashtirish zaruriyatini uyg'otsagina, shaxs ehtiyoj ob'ektiga aylanadi. Demak, ma'naviy qadriyatlar qachonki, tarbiya ularning interiorizatsiyasi jarayoni sifatida tashkillashtirilsa, inson ehtiyoji obyektiga aylanadi.

Interiorizatsiya umuminsoniy qadriyatlarning shaxs oliy psixik funksiyasiga aylanishiga olib keladi. Shaxs rivojlanishi madaniyatining istalgan funksiyasi ham interpsixik va interapsixik ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga interiorizatsiya eksteriorizatsiya bilan birga amalga oshiriladi – muhitni yangi obyektlarni yaratish yo'li bilan ijodiy o'zgartirishdir. Oxirgisi yordamida ehtiyojlarni

yaratish amalga oshiriladi, u esa shaxs qadriyatli munosabati motivatsiyasi asosini tashkil qiladi.

Interiorizatsiyaning psixologik mexanizmi shaxs ma'naviy ehtiyojlari dinamikasini tushunishga imkon beradi. Ma'lum bir sharoitda shaxs tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat, yangi obyektlarni yaratadi, ular esa yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Bu chizmada quyidagicha ko'rinishga egadir, 1,2,3,4 va hakoza raqamlarda ma'lum bir omillar (shart-sharoit, tamoyil, mazmun, metodlar) ni tashkiliy faoliyati taqdim etilgan. Masalan, uni tashkil etishning individual-ijodiy yondashuv tamoyili. Obyekt sifatida (O₁) g'oyalar bo'lishi, san'at asarlari, faoliyatni amalga oshirish usul va metodlari. Subyekt va obyekt o'rtasidagi aloqa esa, ikkitomonlama tavsifga ega: interiorizatsiya va eksteriorizatsiya. U subyektda ehtiyojni (E 1) tug'diradi, u esa o'z navbatida subyektni yangi obyektga (O 2) yo'naltiradi, yangi ehtiyoj kelib chiqadi (E 2). Bu esa cheksiz ravishda davom etadi.

“O'qituvchi-ta'lim oluvchi” pedagogik tizimining tarkibiy qismi sifatida tarbiyachi faoliyatini boshqarishga ta'sir etuvchi omillar ma'naviy ehtiyojlarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi. Ta'lim oluvchi kelajakdagi faoliyatini o'zining ichki xatti-harakatini joy-joyiga qo'yib, uni ijtimoiy talablarga mos ravishda bashorat qiladi va ichki holatiga transformatsiyalaydi. Tanlab olingan obyekt (O) ehtiyojlar (E)ga aylanadi, ya'ni interiorizatsiya mexanizmi ishga tushadi.

Umuminsoniy qadriyatlarni shaxs tomonidan interiorizatsiyalanishi, aynan ta'lim oluvchilar tomonidan baholash faoliyatini amalga oshirish jarayonida unga jamiyat me'yorlari va belgilangan vazifaga muvofiq yangi faoliyatni loyihalashga yordam beradi. Faoliyatning yangi obyekti (O 1) yangi ehtiyojga (E 2)ga aylanadi – eksteriorizatsiya amalga oshadi, ya'ni ro'y beradi. Ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyati va tavsifi, bu yerdagi o'ziga xos faoliyat shaklida inkorni inkor qonuni ko'zga tashlanadi: ya'ni bir ehtiyoj ikkinchisini inkor etadi.

U yoki bu ko'rinishdagi faoliyatni baholash va egallashda aynan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq xatti-harakat,

yangi obyektlarni yaratadi, u esa yangi, sifat jihatidan ancha murakkab ehtiyojlarni keltirib chiqaradi va alohida motivatsion-qadriyatli munosabat darajasini tavsiflaydi.

Shaxs tomonidan interiorizatsiya va qabul qilish, u tomonidan umuminsoniy qadriyatlarni hamda shaxsiy o'zining qadriyatli munosabatini "ichki reja" sifatida ishlab chiqish faqatgina anglash (kognitiv) bosqichida amalga oshirilmaydi. Ushbu jarayonda hissiyotlar muhim rol o'ynaydi. Interiorizatsiya jarayonining hissiyotga boy tabiati ko'pgina tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Ularda ko'rsatilishicha, ijtimoiy qadriyatlar faqatgina ong bilan, oqilona fikrlash bilan emas, balki birinchi navbatda hissiyot bilan qabul qilinadi. Hattoki, ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushunish faqatgina "kuzatilmaydi", balki hissiyot bilan "bezaladi". Hissiyotlarning qatnashishi ushbu tushunchani shaxs tomonidan nafaqat real ravishda qabul qilinishini, balki oddiygina tushunishini belgilamaydi. Shuning uchun, qadriyatlar interiorizatsiyasi kognitiv va hissiy, ratsional va amaliy (faoliyatga tayyorligi), ijtimoiy va shaxsdagi individuallikning dialektik birligini hisobga olinishini talab etadi. Mazkur holat o'z navbatida ta'lim oluvchilarda qadriyatlar tizimini bosqichma-bosqich amalga oshirish lozimligini ko'rsatadi.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Tarbiyaviy jarayonda sabab-oqibat aloqadorligi qanchalik muhim?
2. Tarbiya qonuniyatlari va metatamoyillariga nimalar kiradi?
3. Tarbiya umuminsoniy qadriyatlarni interiorizatsiyalashni ijtimoiy tashkillashtirilgan jarayoni sifatida qanday mazmundorlikka ega?
4. Ta'lim va tarbiya tamoyillarining o'zaro aloqadorligini nimalarda ko'rish mumkin?

18-§. O'QUVCHI-YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH.



Tayanch tushunchalar: globallashuv, modernizatsiya, immunitet, mafkura, ma'naviy tahdid, pedagogik tizim, bilim, ko'nikma, tarbiya, uzluksiz ta'lim, ijtimoiy muhit, ijtimoiy omil, mafkuraviy immunitet.

Globallashuv sharoitida o'quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning nazariy masalalari.

Mafkura tushunchasi kishilik tarixida mavjud bo'lgan bugungi kunda esa, o'z mazmuni va vazifasiga ko'ra yanada dolzarblashib borayotgan murakkab tushuncha hisoblanadi. Tarixdan ma'lumki, mafkura haqida gap borganda "siyosiy, iqtisodiy, diniy mafkura haqida; biror-bir shakldagi mafkura;

- partiyalar, harakatlar, tashkilotlar mafkurasi;
- hatto xo'jalikning konkret mafkurasi haqida gapiriladi, yoziladi". Shunga ko'ra mafkura ijtimoiy hayotning asosiy elementi sifatida kishilik jamiyatida mavjud bo'ladi va boshqa sohalarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ta'lim menejmenti haqida so'z borganda ushbu sohaga mafkurani ta'siri borligini, aniqroq qilib aytganda ta'lim menejmenti bilan mafkura o'rtasida o'ziga xos dialektik aloqa mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Darhaqiqat, har bir mamlakat ta'lim boshqaruvida ana shu mamlakatning rasmiy (huquqiy asosga ega) yoki norasmiy (huquqiy asosga ega bo'lmagan) mafkurasi (masalan, Xitoy Xalq Respublikasi ta'limi boshqaruvida kommunistik mafkura, Yaponiya ta'limida yapon natsionalizmi, Isroil davlati ta'limi boshqaruvida sionizm mafkurasi) rol o'ynaydi. Shunga ko'ra mafkurani ta'lim mazmuni va menejmentining stilini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etish mumkin. Shunday

ekan, mafkurani nafaqat falsafa, siyosat, tarix va boshqa shu kabi fanlarda balki, pedagogika, jumladan ta'lim menejmenti fanida ham tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mafkurani tadqiq etish masalasi haqida so'z borganda ayrim kishilar bu masalaga xuddi nopok yoki xavfli narsaga qaragandek qarashadi. Bunday kishilar avvalo mafkura deganda umumiy tadqiqot obyektini, insoniyat faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy ong mahsulini tushunmaydilar. Aksincha, ular mafkurani tor mazmunda, tarixiy yoki bugungi kundagi konkret mafkuralarning noinsoniy faoliyatlariga bog'lagan holda tushunadilar. Shunday kishilarning mafkura borasidagi noto'g'ri munosabati tufayli hozirda "mafkura tushunchasi semantik jihatdan undan amalda foydalanib bo'lmaydigan darajada sayozlashib ketgan. Ba'zilar uni bir xil mazmunda talqin qilishsa, boshqalar o'zgacha mazmun baxsh etishadi. Ko'pincha unga biron-bir tayinli mazmun berishmaydi. Bunday semantik anarxiya sharoitida aslida hech qanday ma'noli gap bo'lishi mumkin emas". Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda tadqiqot ishini, eng avvalo, mafkura tushunchasini to'la tahlil etishdan boshlash maqsad muvofiq.



"Mafkura" arabcha so'zdan olingan bo'lib tor ma'noda qarashlar va e'tiqodlar tizimi, majmuyi degan ma'noni anglatadi. Keng ma'noda mafkura – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuyidir. G'arb mamlakatlari tillarida mafkura "ideologiya" atamasi vositasida qo'llaniladi".

Mafkura tushunchasini fanga ilk bor XVIII asr oxirlarida Fransiyada A.Destyut de Trasi tomonidan kiritilgan. Uning 1801-yilda chop etilgan "Ideologiya elementlari" asarida g'oyalarning paydo bo'lishi, turlari va evolyutsiyasi, umumiy qonuniyatlari to'g'risida muhim fikrlar bor edi. U Eten Kondilyak bilan birgalikda g'oya shakllanishining umumiy prinsiplari va inson bilimining asoslari haqidagi

fanni yaratish ustida ish olib borgan. Djon Lokkning sensualistik gnosologiyasi davomchisi sifatida de Trasi g'oyalari haqidagi ta'limotni belgilash uchun fanga mafkura (ideologiya – ideya – g'oya, logiya – ta'limot) atamasini kiritdi va uning nazdida bu ta'limot hissiy soha tajribasi mazmunidan kelib chiquvchi g'oyalarning sodir bo'lishining umumiy qonuniyatlari sifatida talqin qilingan. Mazkur ta'limot ilm va ijtimoiy hayotni boshqarishda asosiy prinsiplar o'rnida xizmat qilish lozim edi. Shuning uchun ham Destyut de Trasi mafkurada bilimlar tizimini ko'radi.

Ta'kidlash lozimki, mafkura tadqiqot obyekti sifatida shu kungacha dunyo olimlari tomonidan ko'p bora tadqiq etilgan va unga ko'plab ta'riflar berilgan. Jumladan, Slavoy Jijek tadqiqotlarida, "mafkura bu – arvoth kabi ko'rinmas illyuziya bo'lib, chidab bo'lmas voqelikdan yashirinish uchun o'zimiz tomonimizdan o'ylab chiqariladi, deb hisoblanadi; bu – mohiyatiga ko'ra fantazmatik tuzilma bizning "voqeligimiz" uchun asos bo'lib xizmat qiladi: "illyuziya" bizning jamiyatimizdagi konkret, real munosabatlarni tizimlashtiradi va bundan tashqari chidab bo'lmas, real voqelikni niqoblashtiradi. Mafkuraning funksiyasi bizga voqelikdan qochish yo'lini taklif qilish emas, balki mavjud ijtimoiy voqelikni jarohatli real mohiyatdan pana bo'lish imkoni sifatida namoyon qilishdir", deyilgan.

Mafkura tushunchasini chuqur tahlil etilishiga Jorj Uolford va Garold Uolsbi, Charlz Blattberg, Devid Minar, Uillard Mallinza va boshqa bir qator ijtimoiy-gumanitar fan vakillari hissa qo'shganlar. Jumladan, Jorj Uolford va Garold Uolsbilarning "mafkurani tizimlashtirish" borasidagi ishlari mafkura va ijtimoiy sohalar o'rtasidagi farqni o'rganishga qaratilgan. Charlz Blattberg tadqiqot ishidagi mafkura, siyosiy mafkura va siyosiy falsafa o'rtasidagi farqni o'rganadi. Devid Minar mafkura tushunchasini qo'llashning oltita yo'lini tavsiflab beradi. Ular:

- ma'lum "mazmunga ega" g'oyalari to'plami sifatida (odatda normativ);

- to'plamdagi g'oyalarga xos bo'lgan ichki mantiqiy tuzilmaning shakli sifatida;

- insonlararo hamkorlik faoliyatlarida g'oyalarning

egallagan roliga ko'ra;

- tashkilot strukturasidagi roliga ko'ra;
- "ishontirish"dagi ahamiyatiga ko'ra;
- ehtimol, ijtimoiy hamkorlik "lokus"i sifatida.

Uillard Mallinza esa, mafkura – to'rt tayanch xususiyatga ega bo'ladi, deya hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra mafkura:

- bilish qobiliyatidan ustuvor bo'lishi kerak;
- baholashga oid mulohazalarni boshqarishga qodir bo'lishi kerak;
- harakatlar uchun yo'riqnoma sifatida xizmat qilish kerak;
- maniqiy ketma-ketlikda bo'lishi kerak.

Uillard Mallinza o'z tadqiqotlarida mafkurani u bilan bog'liqligi bilan bir vaqtda undan keskin farq qiluvchi "utopiya" va "tarixiy mifologiya" bilan adashtirmaslik lozimligini ta'kidlab o'tgan.

"Mafkura" atamasidan fransuz olimlari: Kabanis, Volney, Gar, Jerando, Lanselin va boshqalarning asarlarida ham keng foydalanilgan. Biroq, Napoleon Bonapart o'z davrida istalgan har qanday mafkura agar u jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq ehtiyojlar, qiziqish va qarashlarni ifoda etmas ekan, hech qanday mazmunga ega bo'lmaydi, deb hisoblaganligi uchun ham ularning qarashlari mavjud senzura ta'sirida qolib ketgan.

Mustaqillik davrida barcha sohalar qatori mafkura sohasi ham olimlar tomonidan tadqiq etildi va ushbu yo'nalishda ko'plab ilmiy adabiyotlar yaratildi. Mazkur adabiyotlarda, albatta, mafkura tushunchasiga ta'riflar berilgan. Jumladan, mustaqillikni daslabki yillari (1993-yil)da J.Tulevov, E.Yusupov, Z.G'afurov hammuallifligida nashr etilgan "Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo'nalishlari" nomli qo'llanmada "mafkura – jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, millatlar va elatlar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, jamoat tashkilotlari, davlat hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, falsafiy qarashlarining tizimlashtirilgan bilimlar yig'indisidan tashkil topadi", deya ta'riflangan bo'lsa, S.Mamashokirov, Sh.Tog'yaevlar tomonidan yaratilgan "Erkin

va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari" nomli adabiyotda "mafкура – g'oyaning manfaatlashgan mazmuni, shakli, qismi, tomoni, ko'rinishi, qiyofasi va xarakteridir. Ayni paytda, mafkuraning amal qilishida odamlarning undagi g'oyalarga bo'lgan ishonch – e'tiqodi muhim o'rin tutadi. Bu holda mafkurani tavsiflovchi asosiy omillar:

a) kishilarning talab, ehtiyoj – manfaatlari va ularni qondirish usul – vosita, mexanizmlari;

b) g'oyalarga bo'lgan ishonch – e'tiqodning namoyon bo'lishidir", deya ta'riflangan.

2007-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi (Nazarov Q. va boshqalar) tomonidan nashr etilgan "Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati" kitobida "Mafкура – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish tizimi", deya ta'riflangan. Mafкура tushunchasiga doir aynan yuqoridagiga o'xshash ta'riflarini mustaqillik yillarida chop etilgan boshqa ko'plab manbalarda ham ko'rish mumkin.

Mafкура tushunchasiga atroflicha yondashuv, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni masalalari yurtimiz olimlari tomonidan atroflicha tahlil etilgan. Jumladan, mafкура tushunchasi, milliy mafkuraning barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati, shaxs ma'naviyati va milliy tarbiya muammolari M.Quronov milliy ma'naviyatimiz va mafkuramizning nazariy va tarixiy-tadrijiy masalalari M.Bekmurodov, ijtimoiy-milliy ongliklik, faollik, milliy g'urur hamda iftixor tuyg'usini shakllantirishning asosiy manbalari bo'lgan milliy g'oyaning mohiyati I.Ergashev, ma'naviyat hamda mafкура tushunchalarining uzviy bog'liqligi va aloqadorligi, mustaqillik va shaxs ma'naviyatini shakllantirish masalalari A.Ochildiyevlarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

Mafкура sohasi bilan ta'lim menejmentining o'zaro aloqadorligi masalalarida ham ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, jumladan, ma'naviy va g'oyaviy ta'lim-tar-

biya jarayonida interfaol texnologiyalarni qo'llash R.Jo'rayev, talaba-yoshlarning milliy g'oya va ma'naviyat ruhi- da tarbiyalash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish Q.Quronboyev, ta'lim-tarbiya jarayoni monitoringining elektron tizimi U.Begimqulov, milliy tarbiyani ma'naviy asoslari va o'quvchilarda ma'naviyatini shakllantirish O.Musurmonova, pedagogik fikr taraqqiyotida ma'naviy va g'oyaviy jihatdan barkamol inson tarbiyalash S.Nishonova, davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyati orqali yosh avlodni g'oyaviy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash masalalari S.Yo'ldoshevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Ta'kidlash kerakki, mustaqillik davri ilmiy adabiyotlarida mafkura tushunchasining tahlili borasida so'z bor-ganda bu borada O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan bildirilgan fikrlarga to'xtalmaslik mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Is-lom Karimov tom ma'noda mafkurani inson va jamiyat ha-yotida tutgan rolini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab ber-gan shaxs hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining bir-inchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida "maf-kura sohasi bilan bog'liq ko'pgina muammolar oydinlashadi. Uni qu-yidagi jihatlarda ko'rish mumkin:

Birinchidan, "maf-kura" tushunchasi keng ma'noga ega ekanligini "kommunistik maf-kura"dan farqini anglashda ko'rish mumkin. Maf-kura va har qanday jamiyat hayoti-ning uzviy bog'liqligi to'g'risidagi muhim kontseptual g'oya mustaqillik sharoitida O'zbekiston jamiyati uchun ham zarurligini anglab yetishda, amaliy faoliyatda uni hisobga olishda asosiy tayanch, ma'naviy kuch ekanligini tushunib olishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, "milliy g'oya", "O'zbekistonning milliy g'oyasi" atamalarining ma'no va mohiyati atroflicha tahlil qilib beriladiki, bu mafkurani tushunishda o'ziga xos yan-gilanish, yangicha yondashuv edi.

Uchinchidan, bu asarlar mafkuralar xilma-xilligi, ya'ni ezgu va yovuz g'oyalarni bir-biridan farqlashda, shu bilan

birga, mafkura sohasida bo'shliq bo'lmasligi to'g'risidagi g'oya bilan ham ahamiyatlidir. "Davlat mafkurasi" bilan "jamiyat mafkurasi" tushunchalarining ma'no-mazmunidagi farq milliy g'oya jamiyat mafkurasi ekanligi hamda biror-bir mafkurani davlat mafkurasi sifatida o'rnatish mumkin emasligi g'oyasi strategik, konseptual aspektga ega ekanligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, milliy g'oyani amalga oshirish, uning shart-sharoitlari, milliy-ma'naviy, umumbashariy negizlarining o'zaro mushtarakligi bilan bog'liq ravishda ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov nafaqat mafkuraning mazmun-mohiyatiga va ayni vaqtda uni shakllantirish jarayoniga ham katta e'tibor qaratgan. Jumladan, Islom Karimov "Albatta, mafkurani bir kun yoki bir yilda yaratib bo'lmaydi. Chunki, mafkura shakllanadi, shakllantirib boriladi. Uning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish mumkin. Ammo bu tamoyillar real hayotda o'z o'rnini topmasa, bunday mafkura faqat qag'ozda bo'ladi xolos", deya ta'kidlab, "xalq, millat o'z milliy mafkurasini butun umri davomida takomillashtirib, boyitib boradi. Chunki, mafkura qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas. Bu – uzluksiz jarayon bo'lib, hayot davom etar ekan, uning shiddatli sur'at tufayli mafkuraning oldiga qo'yiladigan yangi-yangi talablar ham paydo bo'ladi", deya mafkurani vujudga kelishi va uni jamiyat hayotida mustahkam o'rin egallashini evolyutsion hodisa sifatida baholagan.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti mafkuraga baho berar ekan, uning jamiyatdagi asosiy funksiyasini quyidagicha izohlaydi: "Biz kishilar dunyoqarashini boshqarish fikridan yiroqmiz, balki biz odamlar tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish tarafdorimiz. Har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq ravshan va charog'on etadigan mafkura – milliy g'oyani shakllantirishning asosiy sharti – odamlarning tafakkuri, dunyoqarashining voqealikka nisbatan ta'sirini inobatga olish-

dir". Bulardan tashqari, muallif o'z asarlarida mafkurani shakllantirish, uni fuqarolar, ayniqsa, yoshlar ongidan mustahkam o'rin olishi uchun ma'rifat va ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor bergan. Jumladan, "ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilayligan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi", deya ta'kidlagan. Birinchi Prezidentimizning bu boradagi qarashlari natijasida 2001-yil 18-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi Farmoyishi qabul qilingan. Mazkur farmoyish asosida mamlakatimiz ta'lim tizimiga XXI asr – globallashtan davr uchun zarur bo'lgan yangi fan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani joriy etildi. Hozirda mazkur fan o'quvchi yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlab, ularda axborotlashgan davrda yashash ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muayyan vazifani bajarib kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham mafkura masalasiga o'z e'tiborini qaratib, o'z ma'ruza va nutqlarida "mafkura sohasi-da bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ong-u tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti!", deya ta'kidlab kelmoqda.

Aytish lozimki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning mafkura masalasida o'ziga xos yondashuvi mavjud. Bu yondashuvni O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning yondashuvi bilan taqqos-

lab ko'radigan bo'lsak, Islom Karimov yondashuvida mafkuraning nazariy-konseptual asoslariga kuchli e'tibor qaratilgan bo'lsa, Shavkat Mirziyoyev yondashuvida nafaqat nazariy-konseptual asos, balki amaliy faoliyatga juda katta e'tibor qaratilayotganligini ko'rish mumkin. Masalan, Prezidentimizning mafkura amaliyoti haqida "bir-ikki marta nomiga tadbir o'tkazish bilan ish bitmaydi. Bu yo'nalishda har kuni, har soatda, doimiy va tizimli ravishda ish olib borish kerak. Buni ma'naviy hayot, g'oyaviy-mafkuraviy ish deb qo'yibdi. Bu bizga g'alla yoki chigit ekish emas", degan so'zlari yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Shavkat Mirziyoyevning mafkura sohasidagi o'ziga xos qarashlaridan yana biri bu mazkur sohaga amaliy jihatdan kompleks yondoshish lozimligiga e'tibor qaratayotganligidir. Darhaqiqat, Prezidentimiz "o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar bu –mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi, ayniqsa, faol bo'lishlari lozim", deya endilikda mafkura sohasiga barcha daxldor ekanligiga, bu borada o'zaro hamkorlikda kompleks faoliyat olib borish lozimligiga urg'u bermoqda.

Shavkat Mirziyoyevning mafkura masalasidagi eng asosiy yondoshuvi bu barcha sohalar qatori ushbu sohaga ham innovatsiyalarni joriy etishga intilayotganligidir. Prezidentimiz ushbu jarayonni: "bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi", deya izohlaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning mafkura sohasida innovatsiyalarni joriy etayotganligiga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- xalq bilan muloqotni amalda yo'lga qo'yish uchun zarur mexanizmlar (xalq qabulxonalari, O'zbekiston Res-

publikasi Prezidenti (2016-yil 23-dekabrga qadar Bosh vazir)ning virtual qabulxonasi)ni joriy etilganligi;

- 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ikkinchi bosqichi ya‘ni, 2018-yilni “Faol tadbirkorlik va innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e‘lon qilganligi;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati tomonidan radio, televideniye (O‘zbekiston 24 telekanali), internetda (ko‘plab saytlar jumladan, www.president.uz sayti), ijtimoiy tarmoq va messengerlar (jumladan, feysbukda / mirziyoyev, instagramda / mirziyoyev_sh, twitterda president_uz, telegramda / shmirziyoyev kanallari)da aktiv faoliyatni yo‘lga qo‘yilayotganligi;

- davlat organlari va ularning mutasaddi shaxslariga internet va ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lishga undayotganligi;

- mafkura masalasida nafaqat jamiyat ichida va ayni vaqtda xalqaro maydonda ham amaliy harakatlarni boshlaganligi, jumladan, avvalo qo‘shni, qardosh mamlakatlar bilan va ayni vaqtda boshqa uzoq mamlakatlar bilan ham o‘zaro hamkorlikni pragmatik jihatdan yo‘lga qo‘yayotganligi, O‘zbekiston yoshlari xalqaro assotsiatsiyasini tuzish va Markaziy Osiyo yoshlari forumini tashkil etish borasidagi takliflari shular jumlasidandir.

Yuqorida tilga olingan mazkur masalalar, albatta, tom ma‘noda mafkuraviy masalalar hisoblanadi.

Ta‘kidlash kerakki, yaxshi o‘ylangan mafkuraviy ishda barcha maqsad va g‘oyalar ochiq-oydin namoyon etilmaydi, balki ularni amalga oshirish uslub va usullariga katta e‘tibor qaratiladi. Bu mafkuraning “g‘oya demasdan turib g‘oyani singdirish” tamoyili hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyevning mafkura sohasidagi faoliyatida ham “g‘oya demasdan turib g‘oyani singdirish” tamoyili mavjudligi, jumladan bu sohada asosiy urg‘u amaliy ishlariga berilayotganligi va zamonaviy, innovatsion loyihalarga katta e‘tibor qaratilayotganligini ko‘rish mumkin. Mazkur holat Prezidentimizning mafkura sohasida ham juda katta salohiyat va kuch-g‘ayratga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlil va ta'riflardan ko'rinib turibdiki, mafkura ijtimoiy ongning serqirra mahsulidir. Mafkurani ilmiy jihatdan chuqur o'rganish ta'lim-tarbiya jarayoni va boshqaruvida undan samarali foydalanish imkonini vujudga keltiradi.

Mafkura tushunchasi va uning mazmun-mohiyatini aniqlash bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va ulardan olingan xulosalarga ko'ra, bizningcha, mafkura tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: mafkura bu, muayyan ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning dunyoqarashini ifodalaydigan ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy yoki boshqa (masalan, diniy) tomondan tizimga solingan g'oyalar, tamoyil va kategoriyalar yig'indisi hamda ularning jamiyat hayotiga tadbiq etish yo'llari, usul va vositalari majmuasi hisoblanadi. Har qanday mafkura yaxlit mexanizm bo'lsa-da, analiz qilinganda u uch tarkibiy qismdan tashkil topganligi ma'lum bo'ladi. Ular: birinchisi, muayyan tizimga solingan (ilmiy, falsafiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa tomondan asoslangan) g'oyalar, kategoriyalar, tamoyillar majmuyi; ikkinchisi, mafkuradagi g'oyalar, kategoriyalar va tamoyillarni amaliyotga tadbiq etuvchi subyektiv omillar (mafkuraviy muassasalar va ideologlar); uchinchisi, g'oya va kategoriyalarni amaliyotga tadbiq etish jarayonida qo'llanilgan yo'llar, usullar va vositalar.

Mafkura uch tarkibiy qismdan iborat bo'lsada aslida u bo'linmas, yaxlit mexanizm hisoblanadi. Aksincha bo'lsa, ya'ni mafkuraning biror qismi to'la shakllanmagan holda, o'z vazifasini bajarmasa ushbu mafkura nuqsonli bo'lib jamiyatda yetakchiligini yo'qotadi.

Ta'kidlash lozimki, mafkuraning birinchi tarkibiy qismi mafkuraning nazariy-fundamental asosi hisoblanadi. Birinchi tarkibiy qismdagi muayyan tizimga solingan g'oyalar, kategoriyalar hamda tamoyillar ana shu mafkura mohiyatini ochib beruvchi asosiy elementlar bo'lib, ular qanday mohiyat (bunyodkorlik yoki vayronkorlik)ga ega bo'lsa, ushbu mafkura real hayotda ham ana shunday namoyon bo'ladi. Mafkuraning shakllanish jarayoni avvalo, ana shu birinchi tarkibiy qismdan boshlanadi. Albatta, mafku-

ranning mazkur qismi ya'ni nazariy-fundamental asosini shakllanishida nafaqat zamonaning bir guruh shaxslari, balki o'tmishdagi mutafakkirlarning qarashlari ham rol o'ynashi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, mafkuraning birinchi tarkibiy qismdagi g'oyalar, kategoriyalar va tamoyillar bir-biridan alohida tushunchalar hisoblanadi hamda ular amaliyotda o'ziga xos vazifalarni bajaradi. "G'oya deganda ijtimoiy xarakter va manfaatni ifodalovchi, o'z davri uchun yangi va dolzarb bo'lgan, inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etadigan tafakkur mahsuli tushuniladi". Barcha g'oyalar nazariy ong darajasida vujudga kelib, o'zida ijtimoiy xarakter, manfaat va munosabatni aks ettirsa-da, lekin jamiyatga ko'rsatadigan ta'siriga qarab ikki turga bo'linadi. Ular bunyodkor va vayronkor g'oyalar bo'lib, bunyodkor g'oya deyilganda gumanistik talab va tamoyillarga hamohang bo'lgan, insonlarni ezgulikka, adolat va haqiqatga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga, ma'naviyatli bo'lishga, o'zidan yaxshi nom qoldirishga chorlaydigan g'oyalar tushuniladi. Vayronkor g'oya bu gumanistik talab va tamoyillarni inkor etadigan, insonni o'zligidan, milliy, diniy yoki jinsiy xususiyatlaridan mahrum qiladigan, jamiyatni g'ayriinsoniylikka, ma'naviyatsizlikka boshlaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzulga mahkum etadigan g'oya hisoblanadi. Vayronkor g'oyalarda o'ziga xos ikki xususiyat mavjud bo'ladi. Ularning birinchisi, juda yaxshi niqoblanish bo'lsa, ikkinchisi, o'ziga ergashgan kishilarga o'z yo'lini mutloq to'g'ri va haqiqat deb tushuntirishidir. Ta'kidlash lozimki, vayronkor g'oyalar inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi barcha narsalardan jumladan, so'z, musiqa, san'at, din va hakovolardan hech ikkilanmay niqob sifatida foydalanishi va ular orqali kishilar ongi va qalbiga kirib borishi mumkin. Hozirda o'quvchi-yoshlarni vayronkor g'oyalar ta'siriga tushib qolmasliklarini ta'minlash umumiy o'rta ta'lim maktablari va uning rahbarlari oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanib, bu o'rinda maktab rahbarlarining vayronkor g'oyalarning xususiyatlari va turlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmoqlari talab etiladi.

G'oya haqida so'z borganda yana shuni aytish kerakki, u qaysi (bunyodkor yoki vayronkor) turga mansub bo'lishidan qat'iy nazar agar u mafkura tarkibidan o'rin olmagan bo'lsa, quruq nazariya sifatida qolaveradi va keng ko'lamli ta'sirga ega bo'lmaydi. Har qanday g'oya mafkura tarkibida harakatlansagina keng ko'lamli ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

G'oyalar mafkura tarkibidan bosh va asosiy g'oyalar ko'rinishida o'rin egallaydi. Har qanday bosh g'oya yakka shaxs, muayyan guruh, millat yoki butun xalq tomonidan strategik maqsad va manfaatni anglanishi natijasida vujudga keladi. Anglangan birlamchi maqsad va niyat mafkuraviy maqsad bo'lib, u qanday (bunyodkor yoki vayronkor) bo'lsa, yaralgan bosh g'oya ham shunday mohiyatga ega bo'ladi. Bosh g'oya vujudga kelib mafkura tarkibidan o'rin olgach, u o'zida yuqorida aytilgan anglangan strategik maqsad va manfaatni aks ettiradi. Mafkuraning qurilishida butun bir struktura ana shu bosh g'oya atrofiga quriladi hamda bosh g'oyani targ'ib etish va amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Mafkura tarkibidagi asosiy g'oyalar esa, o'z mazmuniga ko'ra bosh g'oyaga nisbatan torroq bo'lib, o'zlarida bosh g'oyaning alohida qirralarini ifodalaydi va o'zaro bog'langan holda uni mazmunan boyitishga hizmat qiladi.

Asosiy g'oyalarning mafkuraviy amaliyotdagi roli juda katta bo'lib, ular o'zlari orqali kishilarni mazmunan torroq, biroq aniq narsalarga ishonitirishga undaydi. Hosil qilingan kichik ishonchdan esa, yuqoriga ya'ni bosh g'oyaga ishonch tomon borishni ta'minlab beradi. Negaki, asosiy g'oyalar tizimlashtirilayotganda bevosita yoki bilvosita bosh g'oya mazmunidan kelib chiqadi va unga tobe qilib qo'yiladi. Asosiy g'oyalarning miqdori qancha bo'lishi bosh g'oyaning ya'ni, anglangan strategik maqsadning mazmunga bevosita bog'liqdir. Bunda bosh g'oya chuqur mazmun-mohiyatiga ega bo'lsa, uning har bir qirrasini xususiy tarzda ifodalash uchun asosiy g'oyalarning ham miqdori ko'p bo'ladi. Bosh va asosiy g'oyalar hamda mafkuraviy kategoriyalar birgalikda mafkuraning nazariy-fundamental asosini tashkil etibgina qolmay ular ana shu mafkura

amal qiladigan makon va zamon uchun metodologik asos vazifasini ham o'taydilar.

Yuqorida aytilganidek, mafkuraning birinchi tarkibiy qismida g'oyalar tizimidan tashqari mafkuraviy kategoriyalar ham o'rin egallaydi. Mafkuraviy kategoriyalar deganda bu – metodologik va dunyoqarash mazmuniga ega bo'lgan, mafkuraviy bilish hamda mafkuraviy amaliyot natijasida vujudga kelib, g'oyaviy tus olgan va o'zaro bir-biri bilan qonuniy bog'langan asosiy tushunchalar tushuniladi. Ushbu tushunchalar kundalik ong natijasida emas, balki nazariy ong natijasida vujudga kelganligi bilan ham oddiy tushunchalardan farqlanadi.

Mafkuraviy kategoriyalarni mohiyatini belgilovchi quyidagi mezonlar mavjud:

1. Mafkuraviy kategoriyalar muayyan mafkuraviy ta'limot bilan birga vujudga keladi va ana shu mafkura monopoliyasida bir-biri bilan qonuniy bog'langan holda harakatlanadi.

2. Mafkuraviy kategoriyalar qaysi millat tilida yaratilgan bo'lsa, mafkuraviy amaliyotda ham ular hech bir millat tiliga tarjima qilinmasdan qo'llaniladi.

3. Ular hajm jihatdan bir yoki ikki so'zdan iborat bo'ladi (bu ularni tushuncha hajmi qancha kengaysa mazmun shuncha torayadi, aksincha, tushuncha hajmini qisqaligi unga keng mazmun baxsh etadi, degan teskari nisbat qonuniga bo'ysinishligini ko'rsatadi).

4. Ular jozibador va inson ruhiyatiga ta'sirchan bo'lib, makon va zamon ehtiyojlarini o'zlarida yaxlit va dixotomik tarzda namoyon etadi.

5. Mafkuraviy amaliyotda ular o'zlarining raqiblariga nisbatan o'ta murosasiz bo'ladi.

6. Mavjud mafkuraning maqsadi qanday mohiyat (bunyodkorlik yoki vayronkorlik)ga ega bo'lsa, undagi kategoriyalar ham shu maqsaddan kelib chiqib, borliqni o'zlarida ifodalaydi.

7. Mafkuraviy kategoriyalar insonlar uchun bilish, baholash va faoliyat yuritish mezonini ko'rsatuvchi obrazli belgi hisoblanadi.

Ana shu mezonlarga to'g'ri keladigan mafkuraviy kategoriyalar tasniflanganda asosan uch turga bo'linadi. Ya'ni ular:

1. Ideal (pozitiv) obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar.
2. Noideal (negativ) obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar.

3. Holat va jarayonlarni ifodalovchi kategoriyalar.

Ushbu kategoriyalar amaliyotda o'z o'rnini saqlab ke-
layotgan har bir mafkurada mavjud bo'ladi.

Mafkuralardagi ideal (pozitiv) obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar, qo'yilgan mafkuraviy maqsadga hamohang tarzda o'zida ideal inson va makon(jamiyat)ni yorqin "rang"larda aks ettiradi. Mazkur kategoriyalar inson ongi-
ni namunaga yo'naltiradi va tanlangan namuna va andoza-
ga "mutlaq ishonish"ni taqozo etadi. Demak, ideal (pozitiv) obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar asosida ongga yo'nal-
tirilgan voqelik, andoza yoki namunaga nisbatan "mutloq ishonch" paydo bo'ladi. Aynan ana shu ishonch sub'ektlarni mudom idealga talpinib yashashga, unga imkon qadar tez-
roq yetishish uchun dadil harakatlarga undaydi. Mazkur holat mafkuraning harakatlantiruvchi, safarbar etuvchi kuchini ko'rsatib beradi.

Holat va jarayonlarni ifodalovchi kategoriyalar ham aynan ana shu mafkura pozitsiyasidan kelib chiqib kishilar xarakteri va ijtimoiy muhitdagi holat va jarayonlarni o'zida ifoda etadi.

Ta'kidlash lozimki, har bir mafkura o'zidagi bu uch tasnifdagi kategoriyalar orqali, inson, jamiyat va ijtimoiy voqeilikka o'zining strategik maqsadidan kelib chiqib baho beradi. Ya'ni, mafkuraviy maqsad ilmiy va umuminsoniy mezonlarga to'g'ri kelsa, bu mafkuraviy kategoriyalarida ham aks etadi va ular mafkuraviy maqsadda ifodalanayotgan voqeilikni real hayot bilan uyg'unlashtiradi. Lekin, mafkurani maqsadi aksincha bo'lib, ya'ni u ilmiylikdan, insoniylikdan uzoq bo'lsa-chi, u holda undagi kategoriyalar real hayotdagi oqni qora, qorani esa oq – deb ko'rsatadi. Bu jarayon birinchi navbatda inson ruhiyatida va qolaversa jamiyatning barcha sohalarida o'nglanishi qiyin bo'lgan fojealarni yuzaga keltiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mafkuraviy amaliyotda ishlatiladigan mafkurani asosiy tushunchalari bilan mafkuraviy kategoriyalar o'rtasida tafovut mavjud. Bu tafovut faqatgina ularni shaklida emas, balki mazmunida ham ko'rinadi. Ma'lumki, tushuncha bu – borliqdagi predmet va hodisalarni umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakllaridan biridir. Kundalik va ilmiy iste'molda ishlatiladigan tushunchalar mazmuniga ko'ra klassifikatsiya qilinganda bir qator (iqtisodiy, siyosiy, matematik, ximiyaviy va boshqa) turlarga bo'linadi. Mafkuraning asosiy tushunchalari ham huddi mana shunday klassifikatsiyalangan, mazmun-mohiyatiga ko'ra bir-biriga yaqin tushunchalar hisoblanadi. Biroq, bu tushunchalar borliqni yakka, bir-biri bilan o'zaro mantiqiy bog'lanmagan holda aks ettirish xususiyatiga ega. Mazkur xususiyat tufayli mafkuraning asosiy tushunchalari mafkuraviy amaliyotda kishilar ongi va qalbidan to'liq o'rin egallay olmaydi. Shu orqali ular mafkuraviy kategoriyalardan farqlanadi.

Mafkuradagi bosh va asosiy g'oyalar, tamoyil va kategoriyalar amaliyotda og'zaki shaklda bo'lmaydi. Ular, birinchi navbatda, strategik maqsad va manfaatni anglagan hamda shu orqali mafkuraviy maqsadni ishlab chiqqan muallif(lar)ning asarlarida aks etadi. Mazkur adabiyotlar mafkuraning nazariy qurilish ierxiasida yuqori o'rinda turadi va ular ushbu mafkura uchun nazariy-metadologik asos bo'lib xizmat qiladi. Keyingi pog'onalarda, mafkura muallif(lar)ining qarashlarini chuqur anglagan va ularga maslakdosh bo'lgan ijodkorlarning asarlari turadi. Bu turdagi asarlarda mafkuraviy maqsadni ifodalovchi bosh va asosiy g'oyalar hamda kategoriyalar turli shakllarda sharhlangan holda, xalqchillashtirilib keng xalq ommasiga yaqinlashtiriladi.

Mafkuradagi bosh va asosiy g'oyalar hamda kategoriyalar faqat ilmiy yoki ijtimoiy-siyosiy adabiyotlardangina o'rin egallaydi deyish noto'g'ri hisoblanadi. Amaliyot to'g'ri ishlab chiqilgan bo'lsa, mafkuraning bosh va asosiy g'oyalari hamda kategoriyalari badiiy adabiyot (nasr va nazm), kino, teatr, multfilm, qo'shiqchilik va rassomchilik

san'ati namunalari, internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlar, qo'yinki, insonning e'tiborini nimalar tortishi mumkin bo'lsa ana shular (masalan reklama roliklari kabilar)ning barchasidan o'rin egallashi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, mafkuraning bosh va asosiy g'oyalari hamda kategoriyalari uchun subyekt ham inson, obyekt ham inson hisoblanadi. Mafkuraning subyeksi bo'lgan insonlar o'z xususiyatiga ko'ra mazkur mafkuraning maqsadini, undagi bosh va asosiy g'oyalar hamda kategoriyalarning mohiyatini anglagan va ularni keng halq ommasi jumladan, yosh avlodga yetkazishga mas'ul shaxslar (masalan, umumta'lim maktab rahbarlari) hisoblanadi. Mafkurani obyektini esa, mafkuraviy maqsadni to'la tushunib yetmagan, hali hayotiy harakat yo'nalishiga ega bo'lmagan insonlar jumladan, o'quvchi-yoshlar tashkil etadi.

Mafkuraviy tarbiya tizimida "ommaviy madaniyat" ta'siriga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda to'rtta asosiy yo'nalishni ajratish mumkin. Bular:

- milliy san'atimiz afzalliklari, yutuqlarini ta'sirchan tarzda ko'rsatish;

- buzg'unchi g'oyalar mohiyatini, "jozibalari va ko'rka-mliklar"ni fosh qilish;

- "kitch" asarlar, behayo she'r va qo'shiq, disklar va boshqa zararli g'oya tashuvchi vositalarga asosli, keskin rad javobini berish;

- "ommaviy madaniyat"ni g'oyaviy kuchsizlantirishning maqsad, vazifa va usullarini ochib berishdir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligi va kutilgan natijalarni berishi bu jarayonda muayyan pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligini taqozo etadi. Biz tajriba-sinov maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari, sinf rahbarlari o'smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga yo'naltirishning pedagogik shart-sharoitlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirni uyushtirishdan oldin ko'zlangan aniq pedagogik maqsadni qo'yish;

- erishiladigan natijani bashoratlash;

- tadbirning maqsadi, vazifalari hamda natijalarini nazariy jihatdan asoslash;

- har bir tadbir loyihasini yaratish;

- fan, texnika, texnologiya va tajribaning eng yangi, ilg'or yutuqlarini natijani kafolatlashga safarbar qilish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida o'smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishni intensiv asosga qurish, ya'ni, maksimal ilmiy aniqlik, kam resurs sarflab samarali natijaga erishish tamoyiliga qurish;

- tarbiyaviy (kinetik) jarayonni boshqariluvchi jarayonga aylantirish;

- maqbullik, ilmiy-amaliy yo'nalishga o'tish (masalan, tarbiyalanuvchilarda ma'naviy tahdidlar to'g'risidagi bilimlarni shakllantirishdan ularda amaliy mafkuraviy immunitetning namoyishiga erishish;

- subyektlarni professionallashtirish (maktabning ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, sinf rahbarlari, o'qituvchilarida pedagogik mahorat, texnologik yondashuv, pedagogik tahlil, loyihalash, tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirish);

- ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida samarali shakl, metod va vositalardan foydalanishga aloqida e'tibor berish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar o'rtasida ijodiy hamkorlikni qaror top-tirishga erishish;

- o'smirlarning ijtimoiy faolligini oshirish;

- har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbir yakunida uning samaradorligini baholash, tadbir ishtirokchilarining fikr-mulohazalarini o'rganish, ularni umumlashtirish asosida erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlab borish;

- mavjud yutuqlarni boyitish va kamchiliklarni bar-taraf etish chora-tadbirlarini belgilash;

- tadbirni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadning nati-jalanganligini tahlil etib borish, ekspert baholash va h.k.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida samarali usullar-dan ishontirish, odatlantirish (faoliyatda mashqlantirish), suhbat, hikoya, ma'ruza, munozara, tushuntirish, uqti-

rish, namuna ko'rsatish, guruhiy va individual yondashuvni kuchaytirish, suhbatlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, ertalabki saflanish, allomalarning yubileylari, o'lka tarixi bilimdonlarining tanlovlari, O'zbekiston Qahramonlari, mehnat va urush faxriylari bilan uchrashuvlar ko'rik-tanlov, viktorinalar, Davlat ramzlari qabul qilingan kunlarni nishonlashga bag'ishlangan marosimlar, O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun, sobiq ibratli o'quvchilar bilan uchrashuvlar, "Birinchi (oxirgi) qo'ng'iroq", "Ustozlar, Sizga ehtirom" kechasi, "Alpomish avlodlari" o'g'il bolalar bellashuvi, mavsumiy sport musobaqalari, mavsumiy hasharlar, "Kitobxonlik haftaligi", o'quv predmetlari haftaliklari, "Tarbiyaviy soat" va boshqa shakllardan, shuningdek, vositalar - ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yillik ish rejalarni o'smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga yo'naltirish; ommaviy axborot vositalari, bolalar va o'smirlar uchun ko'rsatuv hamda eshittirishlaridan foydalanish maqsadga muvofiq M.Quronov tomonidan yozilgan barcha asarlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Olimning ayniqsa, "Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi" nomli kitobi mazkur muammoning nazariy va amaliy echimlarini topishda katta ahamiyatga ega. Mazkur risola O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir" mavzuidagi ma'ruzasi asosida tayyorlangan bo'lib, unda g'oyaviy bo'shliq, ommaviy madaniyat, egotsentrizm, ular bilan o'zaro bog'liq ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarining ta'rif va tavsifi, ularga qarshi kurashda milliy madaniyat, milliy tarbiya, islomiy qadriyatlar, milliy mafkura kabi omillarga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, risolada Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzluksiz tarzda o'quvchi-o'quvchilar ongiga milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasini singdirish, yoshlarni iymon-e'tiqodli, aql-zakovatli, mustahkam irodali, bilimli va dono, o'z yurti tarixi, milliy qadriyatlari hamda ilmiy va ma'naviy merosimizni ko'z qorachig'iday asrashga

o'rgatish, g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning izchilligi, hayotiyliigi, ta'lim va ilm uyg'unligi tizimliliigi, shaxsga yo'nalganligi, milliy manfaatlar ustuvorligi masalalari tahlil qilingan.

Asarda ta'kidlab o'tilganidek, bugungi kunda bizga qarshi ma'naviy qo'poruvchilik ishlarini olib borayotgan mafkura poligonlari o'z maqsadiga erishish uchun hech narsani ayamayapti, barcha vositalarni ishga solmoqda, qancha-qancha mablag' sarflamoqda. Eng zamonaviy usul-uslublarni qo'llamoqda. Informatsion xurujlar, axloqsizlik falsafasi, o'z demokratiya modellarini zo'rlab joriy etish, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning vatanparvarlik tuyg'ularini kuchsizlantiruvchi "dunyo fuqaroligi"ni targ'ib qilib, ularni o'ziga rom etadigan turli shou-tomoshalar, ko'ngilochar ko'rsatuvlar, musiqiy kanallar orqali buzg'unchi g'oyalar kirib kelmoqda. Shu sababli bunday informatsion tajovuzlarning mohiyatini ochib berish uchun faqat "G'oyaga qarshi – g'oya, fikrga qarshi – fikr, jaholatga qarshi – ma'rifat" asosida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya yo'li bilan kurash olib borish lozim.

Asarning birinchi masalasi sifatida olim mafkuraviy tahdid sifatida "ommaviy madaniyat" masalasiga to'xtalib o'tadi.

Milliy-tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va zamonaviylashtirish umuminsoniy, shu bilan birga, dolzarb vazifadir. Mafkuraviy maqsadlar asosida turli milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, uni teran anglash, ilmiy talqin qilish ma'rifiy zaruratdir. Milliy o'zlikni anglash negizida millatimizning ma'naviy-madaniy hayoti, milliy qadriyatlarimizni har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar ongiga chuqur singdirib borilmoqda. Shu bilan birga, e'tibor bersak, biz uchun mutlaqo yot, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini qamrab olgan ommaviy madaniyat ham yopirilib kirib kelayotganini sezgishimiz mumkin. Ma'lumki, ommaviy madaniyatning mukammal ta'rifi mavjud. Ya'ni, "ommaviy madaniyat" bizga chetdan kirib kelayotgan, o'zbekona qadriyatlarimizga yot, ma'naviy-axloqiy tuban illatlarni o'z ichiga olgan xurujlar yig'indisi, desak mubolag'a bo'lmas.

Ommaviy madaniyat – murakkab hodisa. Uni tushuntirish ham qiyin. Ustoz pedagoglarning “bir narsaga o‘xshatib bo‘lmaydigan narsani tushuntirib ham bo‘lmaydi”, degan fikri bor.

Bugungi ommaviy madaniyat XIX asr oxiri – XX asr boshida shakllandi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya (radio, kino, televideniye, gazeta jurnallar, keyinchalik internet)ning keskin rivoji bunga sabab bo‘ldi. Ma’naviy, madaniy tovarlarni ishlab chiqarish sanoati yuzaga keldi. Biroq, aholining funksional bilimlarida ko‘tarilish, ma’naviyatida esa pasayish kuzatila boshlandi.

“Ommaviy madaniyat” bozoridagi tovarlar oddiy va “ko‘cha odami”ga mo‘ljallangan. Biz iste‘mol qilmoqchi bo‘lgan mahsulotlarimizni tekshirib, keyin olamiz. Lekin ko‘rayotgan, eshitayotgan narsalarga, ochig‘i, e‘tiborsizmiz. Vaholanki, globallashuv “ommaviy madaniyat”ni yoymoqda. U o‘zbeklarning tafakkuriga, musiqasi, kiyinishi, o‘zaro muomalasi, oilasi, oilaviy munosabatlariga, hatto orzulariga ham chang solmoqda.

Bizga qarshi ma’naviy qo‘poruvchilik olib borayotgan mafkura poligonlari o‘z maqsadiga erishish uchun hech narsani ayamayapti, hamma vositalarni ishga solmoqda, ko‘plab mablag‘ sarflamoqda, eng zamonaviy usul uslublarni qo‘llagan holda, yoshlarni o‘ziga rom etadigan turli tomoshalar, ko‘ngilochar ko‘rsatuvlar, musiqiy kanallar tashkil etmoqda. Bunday manbalar orqali buzg‘unchi g‘oyalar targ‘ib etilayapti, eng yomoni – ularni hali oq qoraning farqiga bormaydigan, ishonuvchan, ta‘sirga beriluvchan yoshlarimiz ko‘rayapti, tomosha qilayapti. Bu esa ommaviy madaniyat tizimi, mahsulotlari, yoshlarimizni avrash uslubiyati shakllanganligini, demak, ularga qarshi kurash har birmizning kundalik amaliy ishimizga aylanishi zarurligini talab etmoqda.

Asarning ikkinchi masalasi sifatida mafkuraviy tahdidning yana bir ko‘rinishi – egotsentrizm masalasiga to‘xtalib o‘tgan. Olim egotsentrizmni “yovvoyilik falsafasi” deb ataydi.

Egotsentrizm xudbinlikning ko‘rinishi bo‘lib, faqat

o'zini, o'z manfaatlarini o'ylab yashash, boshqa narsani tan olmaslikni anglatadi. Bu illat insoniyatga yetkazadigan zarari nuqtai nazaridan jaholat va aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi.

Loqaydlik, o'z manfaatini hamma narsadan ustun qo'yish, xudbinlik, shuhratparastlik, kabi salbiy odatlar egotsentrizm dardiga duchor bo'lgan odamning asosiy xususiyatlaridir.

Shuningdek, olim asarda yoshlar dunyoqarashida sog'lom e'tiqod, ishonch va milliy qadriyatlarining yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalashda quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratishni ta'kildlab o'tadi:

- 1) milliy istiqlol g'oyalari bilan qurollantirish;
- 2) hayot hodisalarini dunyoviylik, ilmiylik tamoyili asosida tahlil qilish va baholashga odatlantirish;
- 3) o'z qarashlarini himoya qilishga o'rgatish;
- 4) buzg'unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo'lishga tayyor bo'lishlari zarur .

Olim asarlarida milliy mafkuraviy immunitet shakllantirishda hammaning fidoyilik ko'rsatishga chaqiradi. Yurtimizda farovonlik, tinchlik-xotirjamlik, barcha sohalarida rivojlanish jadallik bilan amalga oshayotgan hozirgi vaqtdagi asosiy vazifa fidokorlikni tushuntirish emas, uni o'rgatish, ko'rsatish, deb belgilanishi kerak. Chunki bizga vaziyat taqozo qilsa (o'qishda bo'ladimi, ishda bo'ladimi, jamoat ishlarida bo'ladimi) fidokorlikka tayyor yigit qizlar kerak.

Xo'sh, qanday fidokorlik qilish mumkin? Bugun jon fido qilishga zarurat yo'q. Chunki davlatimiz Vatan, fuqaro tinchligi himoyasini kafolatli ta'minlagan. Mamlakat tinch, barqaror yuksalayotir. Demak, bizga "tinchlik sharoitida, mehnatda, o'z ish joyida ko'rsatiladigan fidoyilik", ya'ni fidokorlik kerak. Bular – Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi uchun, buzg'unchi g'oyalar, informatson xurujlarga qarshi ko'ngilli, o'z ixtiyori bilan, o'zidan kechib, jonbozlik va sadoqat bilan, berilib ishlash taqozo etilmoqda. Ana shunda biz engilmas kuchga aylanamiz. Inson omilining bor kuch qudrati namoyon bo'ladi. Chunki kelajak bizniki.

Bugungi yoshlar ilgari his qilmagan bir tuyg'uni – o'zi millatning bir parchasi ekanligini yaxshi anglamog'i kerak. Mehrli qarashlar ikki vatandoshning xuddi ikki qo'ldak bir biriga yordamga shayligini kafolatlaydi.

Milliy birlik tuyg'usi millat qadrini oshira boradi. Bunday millat istalgan daqiqada bu qudratni ishga solib, qiyin va katta vazifalarni hal qila oladi.

Mafkuraviy immuniteti yuksak darajada shakllangan fuqaro atrofida g'ilarni ham g'oyaviy tarbiyalash salohiyatiga ega bo'ladi. Millat manfaatlarini o'z manfaati, o'z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi.

Mahalla, ta'lim muassasalarida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika – O'zbekiston xalqini buzg'unchi g'oyalar ta'siridan asraydi, uning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga ishonchini, sog'lom e'tiqodini saqlash va yanada mustahkamlashga qaratilgan ilmiy, tashkiliy, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiyaviy, targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiradi

Mafkuraviy profilaktikaning pirovard maqsadi yoshlarda mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir. Shu o'rinda mafkuraviy immunitet mohiyatini sodda, xalqchil talqin qilishga zarurat tug'iladi.

Vatanimizning buyuk kelajagini qurish, katta-katta muammolarni hal qilish, mustaqilligimizni himoya qilish, hayotda milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi tamoyiliga amal qilib yashashni yosh avlod o'zining muqaddas burchi deb bilayotgani, ayniqsa, e'tiborga sazovor. Shuning bilan birga, bugungi globalizatsiya sharoiti, inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olgan bir paytda mafkuraviy tarbiyaning zamonaviy, ta'sirchan texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

Milliy g'oyani yoshlarning qalbi va ongiga singdirish ta'lim-tarbiyaning turli uslub, vosita va shakllari orqali amalga oshiriladi. Ular orqali yoshlarga to'g'ri yashashni, vatanparvar va buzg'unchi g'oyalarga murossasiz bo'lishni, erkin fikrlashni o'rgatish zarur. Zero, o'rgatish bir tomonlama jarayon bo'lmay, u ustozlar namunasi orqali tarbiyalanuvchining fazilatlarini shakllantiradi. Bunday

murakkab ishni tashkil etishda har bir ijtimoiy toifa yoki shaxsning individual pedagogik-psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiyalanuvchiga shaxs sifatida qarashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov "Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ul-miz" asarida ta'kidlaganidek, "Jondan aziz bolalarimizni o'zgalarning noma'qul tarbiyasi va mudhish ta'siriga tashlab qo'yish – kelajagimizga nisbatan kechirib bo'lmas xiyonatdir".

Ta'lim muassasalarida bolalar va o'quvchilarning yoshiga mos ravishda milliy g'oyani singdirishning differensial pedagogik-psixologik dasturlarini va yangi pedagogik texnologiyalarini yaratish o'quvchi-yoshlarda:

- mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirish;
- yon atrofdagi voqealarga daxldorlik tuyg'usini rivojlantirish;
- faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;
- o'ziga ishonchni mustahkamlash;
- tafakkurini boyitish;
- milliy g'ururimiz manbayi bo'lgan intellektual salohiyatni shakllantirish;
- mafkuraviy immunitetni mustahkamlash;
- ongli yashashga – o'z aqli va fikriga, ezgu, insoniy mafkuraga, aniq milliy g'oyaga suyanib yashashga o'rgatish;
- milliy g'oyaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish;
- milliy g'oya yoshlarimizning maqsadi, xatti-harakatlarining ma'naviy asosiga aylantirilgandagina samarali bo'ladi.

Bu o'rinda fikr tarbiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadir". Bu vazifaning muvaffaqiyatli ado etilishi yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. O'qituvchi-muallimlar yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan asrashda axloqiy qadriyatlardan, axloqiy ta'sir ko'rsatish texnologiyasidan oqilona foydalanish-

lari lozim. Buning yo'llari – o'quvchi bilan munosabatda gumanistik tamoyillarni joriy etish, erkin fikr almashinish muhitining yaratilishi, "Yoshlar-yoshlarga" tamoyili asosida yoshlarni passiv tarbiya obyektidan o'z-o'zini tarbiyalashning faol subyektlariga aylantirishdir.

XXI asr avlodi yuksak texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalari asosida kamol topmoqda. Mazmun-mohiyatiga milliy g'oya singdirilgan kitobning inson kamoli va intellektual salohiyatini oshirishdagi roli alohida ahamiyatga ega. Shu ma'noda, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish va ularda milliy g'oya tamoyillarini teran aks ettirish o'ta muhimdir.

Maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish maqsadida aniq tarbiyaviy natijalari kafolatli loyihalashtirilgan "Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash texnologiyasi"ni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, har bir ta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy ishlar dasturida "Mafkuraviy tarbiya" bo'limini rejalashtirish va amalga oshirishda tarbiyaviy maqsad va natija birligiga erishish ta'minlanadi.

Pedagog kadrlarning malaka oshirish tizimida maxsus, yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda tinglovchilarda mafkuraviy kurash, informatsion xurujlar sharoitida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning eng yangi nazariy bilim, texnologik ko'nikma va malakalarini shakllantirish zarur.

M.Quronovning fikricha, mafkuraviy tarbiya tizimida "ommaviy madaniyat" ta'siriga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda to'rtta asosiy yo'nalishni ajratish mumkin. Bular:

- milliy san'atimiz afzalliklari, yutuqlarini ta'sirchan tarzda ko'rsatish;

- buzg'unchi g'oyalar mohiyatini, "jozibalari va ko'rkamliliklar"ni fosh qilish;

- "kitch" asarlar, behayo she'r va qo'shiq, disklar va boshqa zararli g'oya tashuvchi vositalarga asosli, keskin rad javobini berish;

- "ommaviy madaniyat"ni g'oyaviy kuchsizlantirishning maqsad, vazifa va usullarini ochib berishdir.

M.Quronov tomonidan yozilgan barcha asarlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Olimning ayniqsa, "Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi" nomli kitobi mazkur muammoning nazariy va amaliy yechimlarini topishda katta ahamiyatga ega. Mazkur risola O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir" mavzuidagi ma'ruzasi asosida tayyorlangan bo'lib, unda g'oyaviy bo'shliq, ommaviy madaniyat, egotsentrizm, ular bilan o'zaro bog'liq ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarining ta'rif va tavsifi, ularga qarshi kurashda milliy madaniyat, milliy tarbiya, islomiy qadriyatlar, milliy mafkura kabi omillarga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, risolada Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzluksiz tarzda o'quvchilar ongiga milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasini singdirish, yoshlarni iymon-e'tiqodli, aql-zakovatli, mustahkam irodali, bilimli va dono, o'z yurti tarixi, milliy qadriyatlari hamda ilmiy va ma'naviy merosimizni ko'z qorachig'iday asrashga o'rgatish, g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning izchilligi, hayotiyli, ta'lim va ilm uyg'unligi tizimlili, shaxsga yo'nalganligi, milliy manfaatlar ustuvorligi masalalari tahlil qilingan.

Asarda ta'kidlab o'tilganidek, bugungi kunda bizga qarshi ma'naviy qo'poruvchilik ishlarini olib borayotgan mafkura poligonlari o'z maqsadiga erishish uchun hech narsani ayamayapti, barcha vositalarni ishga solmoqda, qancha-qancha mablag' sarflamoqda. Eng zamonaviy usul-uslublarni qo'llamoqda. Informatsion xurujlar, axloqsizlik falsafasi, o'z demokratiya modellarini zo'rlab joriy etish, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning vatanparvarlik tuyg'ularini kuchsizlantiruvchi "dunyo fuqaroligi"ni targ'ib qilib, ularni o'ziga rom etadigan turli shou-tomoshalar, ko'ngilochar ko'rsatuvlar, musiqiy kanallar orqali buzg'unchi g'oyalar kirib kelmoqda. Shu sababli bunday informat-

sion tajovuzlarning mohiyatini ochib berish uchun faqat “G‘oyaga qarshi – g‘oya, fikrga qarshi – fikr, jaholatga qarshi – ma‘rifat” asosida ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya yo‘li bilan kurash olib borish lozim.

Asarning birinchi masalasi sifatida olim mafkuraviy tahdid sifatida “ommaviy madaniyat” masalasiga to‘xtalib o‘tadi.

Milliy-tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va zamonaviy-lashtirish umuminsoniy, shu bilan birga, dolzarb vazifadir. Mafkuraviy maqsadlar asosida turli milliy-ma‘naviy qadriyatlarni tiklash, uni teran anglash, ilmiy talqin qilish ma‘rifiy zaruratdir. Milliy o‘zlikni anglash negizida millatimizning ma‘naviy-madaniy hayoti, milliy qadriyatlarimizni har bir fuqaro, ayniqsa. yoshlar ongiga chuqur singdirib borilmoqda. Shu bilan birga, e‘tibor bersak, biz uchun mutlaqo yot, ma‘naviy va axloqiy tubanlik illatlarini qamrab olgan ommaviy madaniyat ham yopirilib kirib kelayotganini sezgishimiz mumkin. Ma‘lumki, ommaviy madaniyatning mukammal ta‘rifi mavjud. Ya‘ni, “ommaviy madaniyat” bizga chetdan kirib kelayotgan, o‘zbekona qadriyatlarimizga yot, ma‘naviy-axloqiy tuban illatlarni o‘z ichiga olgan xurujlar yig‘indisi, desak mublag‘a bo‘lmas. Ommaviy madaniyat – murakkab hodisa. Uni tushuntirish ham qiyin. Ustoz pedagoglarning “bir narsaga o‘xshatib bo‘lmaydigan narsani tushuntirib ham bo‘lmaydi”, degan fikri bor.

Bugungi ommaviy madaniyat XIX asr oxiri – XX asr boshida shakllandi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya (radio, kino, televideniye, gazeta jurnallar, keyinchalik Internet)ning keskin rivoji bunga sabab bo‘ldi. Ma‘naviy, madaniy tovarlarni ishlab chiqarish sanoati yuzaga keldi. Biroq aholining funksional bilimlarida ko‘tarilish, ma‘naviyatida esa pasayish kuzatila boshlandi.

“Ommaviy madaniyat” bozoridagi tovarlar oddiy va “ko‘cha odami”ga mo‘ljallangan. Biz iste‘mol qilmoqchi bo‘lgan mahsulotlarimizni tekshirib, keyin olamiz. Lekin ko‘rayotgan, eshitayotgan narsalarga, ochig‘i, e‘tiborsizmiz. Vaholanki, globallashuv “ommaviy madaniyat”ni yoymoqda. U o‘zbeklarning tafakkuriga, musiqasi, kiyini-

shi, o'zaro muomalasi, oilasi, oilaviy munosabatlariga, hatto orzulariga ham chang solmoqda.

Bizga qarshi ma'naviy qo'poruvchilik olib borayotgan mafkura poligonlari o'z maqsadiga erishish uchun hech narsani ayamayapti, hamma vositalarni ishga solmoqda, ko'plab mablag' sarflamoqda, eng zamonaviy usul uslublarni qo'llagan holda, yoshlarni o'ziga rom etadigan turli tomoshalar, ko'ngilochar ko'rsatuvlar, musiqiy kanallar tashkil etmoqda. Bunday manbalar orqali buzg'unchi g'oyalalar targ'ib etilayapti, eng yomoni – ularni hali oq-qoraning farqiga bormaydigan, ishonuvchan, ta'sirga beriluvchan yoshlarimiz ko'rayapti, tomosha qilayapti. Bu esa ommaviy madaniyat tizimi, mahsulotlari, yoshlarimizni avrash uslubiyati shakllanganligini, demak, ularga qarshi kurash har birmizning kundalik amaliy ishimizga aylanishi zarurligini talab etmoqda.

Asarning ikkinchi masalasi sifatida mafkuraviy tahdidning yana bir ko'rinishi – egosentrizm masalasiga to'xtalib o'tgan. Olim egosentrizmi "yovvoyilik falsafasi" deb ataydi.

Egosentrizm xudbinlikning ko'rinishi bo'lib, faqat o'zini, o'z manfaatlarini o'ylab yashash, boshqa narsani tan olmaslikni anglatadi. Bu illat insoniyatga yetkazadigan zarari nuqtayi nazaridan jaholat va aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi.

Loqaydlik, o'z manfaatini hamma narsadan ustun qo'yish, xudbinlik, shuhratparastlik, kabi salbiy odatlar egosentrizm dardiga duchor bo'lgan odamning asosiy xususiyatlaridir.

Shuningdek, olim asarda yoshlar dunyoqarashida sog'lom e'tiqod, ishonch va milliy qadriyatlarining yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalashda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishni ta'kiddlab o'tadi:

- 1) milliy istiqloq g'oyalari bilan qurollantirish;
- 2) hayot hodisalarini dunyoviylik, ilmiylik tamoyili asosida tahlil qilish va baholashga odatlantirish;
- 3) o'z qarashlarini himoya qilishga o'rgatish;

4) buzg'unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo'lishga tayyor bo'lishlari zarur.

Olim asarlarida milliy mafkuraviy immunitet shakllantirishda hammaning fidoyilik ko'rsatishga chaqiradi. Yurtimizda farovonlik, tinchlik-xotirjamlik, barcha sohalarda rivojlanish jadallik bilan amalga oshayotgan hozirgi vaqtdagi asosiy vazifa fidokorlikni tushuntirish emas, uni o'rgatish, ko'rsatish, deb belgilanishi kerak. Chunki bizga vaziyat taqozo qilsa (o'qishda bo'ladimi, ishda bo'ladimi, jamoat ishlarida bo'ladimi) fidokorlikka tayyor yigit qizlar kerak.

Xo'sh, qanday fidokorlik qilish mumkin? Bugun jon fido qilishga zarurat yo'q. Chunki davlatimiz Vatan, fuqaro tinchligi himoyasini kafolatli ta'minlagan. Mamlakat tinch, barqaror yuksalmoqda. Demak, bizga "tinchlik sharoitida, mehnatda, o'z ish joyida ko'rsatiladigan fidoyilik", ya'ni **fidokorlik** kerak. Bular – Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi uchun, buzg'unchi g'oyalar, informat-sion xurujlarga qarshi ko'ngilli, o'z ixtiyori bilan, o'zidan kechib, jonbozlik va sadoqat bilan, berilib ishlash taqozo etilmoqda. Ana shunda biz yengilmas kuchga aylanamiz. Inson omilining bor kuch-qudrati namoyon bo'ladi. Chunki kelajak bizniki.

Bugungi yoshlar ilgari his qilmagan bir tuyg'uni – o'zi millatning bir parchasi ekanligini yaxshi anglamog'i kerak. Mehrli qarashlar ikki vatandoshning xuddi ikki qo'ldek bir-biriga yordamga shayligini kafolatlaydi.

Milliy birlik tuyg'usi millat qadrini oshira boradi. Bunday millat istalgan daqiqada bu qudratni ishga solib, qiyin va katta vazifalarni hal qila oladi.

Mafkuraviy immuniteti yuksak darajada shakllangan fuqaro atrofidaligilarni ham g'oyaviy tarbiyalash salohiyatiga ega bo'ladi. Millat manfaatlarini o'z manfaati, o'z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi.

Mahalla, ta'lim muassasalarida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika – O'zbekiston xalqini buzg'unchi g'oyalar ta'siridan asraydi, uning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga ishonchini, sog'lom e'tiqodini saqlash va yanada mustahkamlashga qaratilgan ilmiy, tashkiliy,

ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiyaviy, targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiradi.

Mafkuraviy profilaktikaning pirovard maqsadi yoshlarda mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir. Shu o'rinda mafkuraviy immunitet mohiyatini sodda, xalqchil talqin qilishga zarurat tug'iladi.

Vatanimizning buyuk kelajagini qurish, katta-katta muammolarni hal qilish, mustaqilligimizni himoya qilish, hayotda milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi tamoyiliga amal qilib yashashni yosh avlod o'zining muqaddas burchi deb bilayotgani, ayniqsa, e'tiborga sazovor. Shuning bilan birga, bugungi globalizatsiya sharoiti, inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olgan bir paytda mafkuraviy tarbiyaning zamonaviy, ta'sirchan texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

Milliy g'oyani yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta'lim-tarbiyaning turli uslub, vosita va shakllari orqali amalga oshiriladi. Ular orqali yoshlarga to'g'ri yashashni, vatanparvar va buzg'unchi g'oyalarga murosasiz bo'lishni, erkin fikrlashni o'rgatish zarur. Zero, o'rgatish bir tomonlama jarayon bo'lmay, u ustozlar namunasi orqali tarbiyalanuvchining fazilatlarini shakllantiradi. Bunday murakkab ishni tashkil etishda har bir ijtimoiy toifa yoki shaxsning individual pedagogik-psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiyalanuvchiga shaxs sifatida qarashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Isom Karimov "Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz" asarida ta'kidlaganidek, "Jondan aziz bolalarimizni o'zgalarning noma'qul tarbiyasi va mudhish ta'siriga tashlab qo'yish – kelajagimizga nisbatan kechirib bo'lmas xiyonatdir".

Ta'lim muassasalarida bolalar va o'quvchilarning yoshiga mos ravishda milliy g'oyani singdirishning differensial pedagogik-psixologik dasturlarini va yangi pedagogik texnologiyalarini yaratish o'quvchi-yoshlarda:

- mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirish;
- yon atrofdagi voqealarga daxldorlik tuyg'usini rivoj-

lantirish;

- faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;
- o'ziga ishonchni mustahkamlash;
- tafakkurini boyitish;
- milliy g'ururimiz manbayi bo'lgan intellektual salohiyatni shakllantirish;
- mafkuraviy immunitetni mustahkamlash;
- ongli yashashga – o'z aqli va fikriga, ezgu, insoniy mafkuraga, aniq milliy g'oyaga suyanib yashashga o'rgatish;
- milliy g'oyaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish;
- milliy g'oya yoshlarimizning maqsadi, xatti-harakatlarining ma'naviy asosiga aylantirilgandagina samarali bo'ladi.

Bu o'rinda fikr tarbiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadir". Bu vazifaning muvaffaqiyatli ado etilishi yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. O'qituvchi-muallimlar yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan asrashda axloqiy qadriyatlardan, axloqiy ta'sir ko'rsatish texnologiyasidan oqilona foydalanishlari lozim. Buning yo'llari – o'quvchi bilan munosabatda gumanistik tamoyillarni joriy etish, erkin fikr almashinish muhitining yaratilishi, "Yoshlar-yoshlarga" tamoyili asosida yoshlarni passiv tarbiya obyektidan o'z-o'zini tarbiyalashning faol subyektlariga aylantirishdir.

XXI asr avlodi yuksak texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalari asosida kamol topmoqda. Mazmun-mohiyatiga milliy g'oya singdirilgan kitobning inson kamoli va intellektual salohiyatini oshirishdagi roli alohida ahamiyatga ega. Shu ma'noda, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish va ularda milliy g'oya tamoyillarini teran aks ettirish o'ta muhimdir.

Maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish maqsadida aniq tarbiyaviy natijalari kafolatli loyihalashtirilgan "Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-

yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash texnologiyasi"ni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, har bir ta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy ishlar dasturida "Mafkuraviy tarbiya" bo'limini rejalashtirish va amalga oshirishda tarbiyaviy maqsad va natija birligiga erishish ta'minlanadi.

Pedagog kadrlarning malaka oshirish tizimida maxsus, yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda tinglovchilarda mafkuraviy kurash, informatsion xurujlar sharoitida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning eng yangi nazariy bilim, texnologik ko'nikma va malakalarini shakllantirish zarur.

M.Quronovning fikricha, mafkuraviy tarbiya tizimida "ommaviy madaniyat" ta'siriga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda to'rtta asosiy yo'nalishni ajratish mumkin. Bular:

- milliy san'atimiz afzalliklari, yutuqlarini ta'sirchan tarzda ko'rsatish;

- buzg'unchi g'oyalar mohiyatini, "jozibalari va ko'rkamliliklar"ni fosh qilish;

- "kitch" asarlar, behayo she'r va qo'shiq, disklar va boshqa zararli g'oya tashuvchi vositalarga asosli, keskin rad javobini berish;

- "ommaviy madaniyat"ni g'oyaviy kuchsizlantirishning maqsad, vazifa va usullarini ochib berishdir.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Globallashuv sharoitida o'quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning nazariy masalalari nimalardan iborat?

2. O'quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ma'naviy tahdidlarga nimalar kiradi?

3. O'quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik tizimini izohlab bering.

19-§. O'QUVCHI-YOSHLARDA QADRIYATLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH



Tayanch tushunchalar: qadriyat, qadriyatli yondashuv, ta'lim, bilim, ko'nikma, tarbiya, uzluksiz ta'lim, pedagogik jarayon, metodika, pedagogik shart-sharoit, tamoyil.

O'quvchi-yoshlarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning tarixiy-falsafiy masalalari.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor berish asosiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishga oqilona yondashishning ko'rinishidir. Bu jihatdan, globallashuv jarayonlari tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'layotgani va yoshlar omilining alohida e'tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimizning ushbu anjumandagi "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq... Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir", degan xulosasi esa BMTga a'zo barcha mamlakatlar vakillarining diqqatini o'ziga qaratgani bejiz emas.

Darhaqiqat, istiqloq tufayli xalqimiz o'z taqdirining egasi, tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Milliy o'z-o'zini anglashga intilish kuchaydi.

Mazkur jarayonda tarbiyaviy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilishi, uning yuksak ma'naviyatli shaxsni

shakllantirishdagi ahamiyatining ochib berilishi o'ta muhimdir. Yuksak ma'naviyatli shaxsini shakllantirishda quyidagi tarbiyaviy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- boy ma'naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand bo'lib borish;

- jahon madaniyati xazinasiga katta hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy merosi chuqurligi anglab olinganligi;

- yoshlarni o'z o'tmishiga, milliy, diniy an'analarga hurmat bilan qarashi, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi;

- o'z millatining o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatidan, obro'-e'tiboridan faxrlanish;

- millat manfaatini himoya qilishdagi mas'uliyatni his etish va kelajakka ishonch.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, biron-bir jamiyat o'zining ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. "Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbayi bo'lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'alarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi".

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bebaho madaniy va ma'naviy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-apreldagi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 8-iyundagi Qaroriga asosan Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi tuzildi. Uning faoliyat yo'nalishi quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- O'zbekiston xalqining ma'naviy-madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhiga mos g'oyalarni shakllantirish, tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

- yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan istiqboli sari yo'naltirish;

- millatlararo hamjihatlik va fuqarolar totuvligini ta'minlash va boshqalar.

Mustaqillikning ijtimoiy, ma'naviy mohiyati bevosita ommani fikrini uyg'otishda, xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi xususida qayg'urish hissini kuchaytirishdan iborat. Chunki, "...faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyat-gina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin". Xalqimizga xos bo'lgan milliy qadriyatlar, an'analar, uning eng yaxshi xislatlari jamiyatdagi ma'naviy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, birinchidan, biror-bir jamiyat o'zining madaniy merosini, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini odamlar ongida rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Ikkinchidan, mamlakatimiz yoshlarida yangi siyosiy dunyoqarash shakllanayotgan bir paytda, ota-bobolarimizdan meros bo'lib o'tgan bebaho go'zal madaniy durdonalardan unumli foydalanish va ular asosida yangicha mazmun kasb etadigan dunyoqarashni, ma'naviyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu sababli kelgusida pedagoglik kasbi bilan shug'ullanuvchi pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarida qadriyatlar tizimini shakllantirish o'zida muhim pedagogik muammoni aks ettiradi.

Qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari bilan borliq muammolarning tahlili uzoq tarixga ega. Kishilar qadim zamonlardan o'zlarini o'rab turgan olam, undagi narsa va hodisalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularni qadri va qimmatiga to'g'risida fikr yuritganlar. Zamonlar o'tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi muammolar ko'paygan, ularni hal qilishni ahamiyati ortavergan. Qadriyatlar mavzusi ko'pgina ilohiy, ilmiy va siyosiy dunyoqarashlarning asosida yotgan, ularning o'zagini, markaziy kismini tashkil qilgan, falsafiy oqimlar va buyuk mutafakkirlar ham bu mavzuni chetlab o'tmaganlar.

"Qadriyat" falsafiy tushunchadir. U obyektiv olamni bilish va idrok etishning diniy, ilmiy, siyosiy, badiiy-estetik, falsafiy va boshqa shakllaridan farqlanadigan alohida bir shaklidir.

Qadriyatlar – falsafiy kategoriya bo‘lib, insoniyatning ma’naviy taraqqiyoti yo‘lida erishgan muhim yutug‘i sifatida vujudga keldi. U olamdagi narsalar, hodisa va jarayonlar mohiyatini inson va jamiyat manfaatlari nuqtayi nazaridan bilish, idrok etish yo‘lidagi muhim qadam, mohiyatni bilishga yangicha yondashishdir.

Albatta qadriyatlar muammosi turli tarixiy davrlarda tadqiq etilgan. Xususan, Markaziy Osiyolik mutafakkirlar o‘zlarining ilmiy, badiiy va falsafiy asarlarida qadriyatlar muammosini ilmiy asosda hal etishga harakat qilganlar. Insoniyat tarixining burilish nuqtalarida qadriyatlarni yangicha baholash va idrok etish alohida ahamiyat kasb eta boshlaydi. Jumladan, milliy mustaqillik yillarida qadriyatlar muammosini tadqiq etishga alohida e’tibor berilayotganligi bejiz emasdir.

G‘arbiy Yevropa olimlari XIX asr o‘rtalarida qadriyatshunoslik ya’ni aksiologiya faniga asos soldilar.

Sharqda, xususan, Markaziy Osiyoda ilmiy qadriyatlarga nisbatan diniy qadriyatlar ko‘proq qadrlanar, qadriyat tushunchasiga diniy-ilohiy mazmun berilar, diniy bilim oliy qadriyat hisoblanar, dunyoviy ilm ahillari uncha e’zozlanmas edi. Diniy qadriyatlar ustivorlik qilgan muhitda dunyoviy ilm ahillari o‘z yurtlaridagi g‘oyat biqiq muhitni tark etishga, o‘zga yurtlarda ilm-fan bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lardilar.

Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda yetishib chiqqan, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning sarson va sargardonlikda o‘tgan hayot yo‘li, Abu Rayhon Beruniyning guvohliklari ham ana shundan dalolat beradi. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan taniqli olimlar o‘z ilmiy-falsafiy asarlarini diniy qadriyatlar doirasida yaratgan. Ularning oldida “Qadriyat nima?” degan muammo hech qachon ko‘ndalang bo‘lmagan. Chunki bu muammo Qur’oni karimda ideal darajada hal etilgan, deb hisoblaganlar. Darhaqiqat, islom dini va uning g‘oyalari qadriyatli ong rivojida juda muhim rol o‘ynagan. Islom dinida Qur’on karimning birinchi mar-ta Muhammad sallallohu alayhi vasallamga nozil bo‘lgan

kuningning “Laylatul qadr” deb, ya’ni “qadr kechasi” deb atalishi, hozirga qadar ramazon oyining 27-kuniga o’tar kechasining musulmonlar tomonidan mo’jiza sodir bo’lgan kun sifatida nishonlanishi aslo bejiz emasdir.

Diniy nuqtayi nazardan oliy qadriyat – ilohiy kalom, ya’ni Qur’on karimdir, shariat hukmlari va payg’ambarimizning sunnatlaridir. Davrlar o’tishi bilan inson va jamiyat hayotining barcha sohalarida diniy qadriyat nuqtayi nazaridan talqin etila boshlagan, ilohiyotda qadriyat tushunchasi tabarruklik, muqaddaslik tamg’asi qo’yila boshlagan. Binobarin, har bir musulmon nazarida qadriyat tushunchasining mazmuni, mohiyati va mavjudligi ilohiy hikmat, mo’jizadan boshqa narsa emasdir.

Aksiologiya fan sifatida dunyoviy ilm-fan rivojining mahsuli sifatida Yevropada vujudga keldi va rivojlandi. Yangi zamon Yevropa ijtimoiy-falsafiy tafakkuri ilohiy hikmatlar va mo’jizalarni emas, balki real inson, uning erki, aqli va tafakkuri saltanatini oliy qadriyat deb tushunishga asoslanar edi. Aksiologiya olam mohiyatini diniy va ilmiy asosda bilishdan butunlay farqlanadigan qadriyatli bilishga, ya’ni narsa va hodisalar mohiyatini bilishga ijtimoiylashgan inson manfaatlarini nuqtayi nazaridan yondashishga asoslanar edi.

Qadriyatshunos-faylasuf Q.Nazarov o’z tadqiqotlarida to’g’ri ta’kidlaganidek, insoniyat taraqqiyotining buirilish nuqtalarida, bir ijtimoiy-siyosiy tuzum boshqasi bilan almashinayotgan o’tish davrlarida faylasuflar oldida muqarrar ravishda “Qadriyat nima?” degan savol paydo bo’laveradi, insoniyat taraqqiyoti qadriyatlar tizimining almashinuvidan iborat bo’lib qolaveradi.

Mamlakatimiz O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning yangi bosqichini boshdan kechirmoqda. Prezidentimizning tashabbuslari bilan qabul qilingan 2017–2021-yillar uchun mo’ljallangan Harakatlar strategiyasi qadriyatlar mohiyatini butunlay yangicha idrok etish, dunyoqarash, mafkura va fikrlash tarzimizda sifat o’zgarishlari qilishdir. Bu – ma’naviy hayotda tub o’zgarish yasash, xalqimizni bunyodkorlikka safarbar etuvchi

qadriyatlar tizimini qaror toptirish demakdir. Sirtidan qaraganda, diniy qadriyatlar bilan ilmiy qadriyatlar o'rtasida qarama-qarshilik, bir-birini istisno etish, rad qilish mavjuddek, bo'lib tuyilishi mumkin. Biroq aslida ular o'rtasida vorisiylik, bir-birini taqozo etuvchi aloqadorlik mavjuddir. Gap shundaki, diniy qadriyatlar yoki qadriyatlar mohiyatini diniy asosda tushunish ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, totuvlik, hamjihatlik, birodarlik, mehr-oqibat va boshqalarni ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Diniy qadriyatlar narsa va hodisalar mohiyatini ilohiy-lashtirish, muqaddaslashtirish bilan ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Qadriyatlar mohiyatini ilmiy asosda tushunish esa narsa va hodisalar mohiyatini inson va uning manfaatlari nuqtayi nazaridan bilish va qadrlashga, insonning yaratuvchan faoliyatini kuchaytirishga, inson shaxsini yanada takomillashtirishga imkon beradi.

Qadriyatlar ma'naviy taraqqiyotning sifat jihatidan yangi bosqichidir. Ma'naviyat va qadriyat tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ma'naviyat qadriyat tushunchasiga nisbatan boy va keng qamrovli tushunchadir. Qadriyat ma'naviyat tarkibiga kiradi va uni rivojlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham qadriyat deganda, kishilarda avvalo ma'naviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvur paydo bo'ladi. Tub o'zgarishlar va yangilanish davrida ma'naviy qadriyatlar ahamiyatining ortib borishi o'tish davriga xos obyektiv-tarixiy qonuniyatdir.

Mavjud ilmiy-falsafiy adabiyotlarda qadriyatlar mohiyatini ta'riflashda tushuncha bilan u ifodalaydigan narsa va hodisalarni oydinlashtirish va buning oqibatida qadriyatlariga g'oyat jo'n ta'rif berish, qadriyatlariga ehtiyojlar rivojining mahsuli sifatida qarash kabi hollarni kuzatish mumkin.

Jumladan, "Eng yangi falsafa lug'ati"da qadriyatga "Absolyutga, shartga, maqsadga yo'naltirilgan obyekt va hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy mohiyatini aks ettiruvchi atama" deb talqin beriladi. U insonning, barcha ijtimoiy obyektlarning "sotsiomadaniy faolligi doirasini

belgilab keladi”, madaniy faoliyat natijasi sifatida esa shaxsdan, ayrim hollarda esa tarixiy hodisalardan ayricha idrok etiladi. Shuning uchun qadriyatlar o‘tmish, hozir va kelajakni uyg‘unlashtirish (vaqtda namoyon bo‘lishi), faoliyat natijalarini semiotik ifodalash (makonda namoyon bo‘lishi), narsa va hodisalarni baholashda ularning maqsadga muvofiqlarini ustuvor hisoblash, dunyoni idrok etishda turli darajadagi qadrlash tizimlarini yaratish va fikrlarni asoslash tarzida keladi.

Ushbu yondashishdan ma’lum bo‘ladiki, qadriyatlar inson va subyektlarning sotsiomadaniy faoliyatining ma’lum bir natijasi sifatida shakllangan bo‘lsa-da, shaxslar ularni tayyor holda topadilar, aynan shu nuqtayi nazardan qadriyatlarning mavjudligi yoki amal qilishi ayrim olgan shaxslar, tarixiy hodisalarga bog‘liq emas, balki ulardan boqiyroqdir. Ta’rif muallifi (V.L.Abushenko) qadriyatlarining vaqt va makonda namoyon bo‘lishi ayrim olgan boyliklardan kengligini to‘g‘ri ta’kidlasa-da, ulardagi milliy xususiyatlarning yetakchi o‘rin tutishini esga olmaydi. Natijada qadriyatlar milliy, hatto umuminsoniy belgilersiz qandaydir sof sotsiomadaniy hodisa sifatida talqin etiladi.

Qadriyatlarga axloqiy-etik hodisalar sifatida yondashish u yoki bu darajada barcha adabiyotlarda mavjud. Biroq ayrim mualliflar qadriyatlardagi ushbu belgilarni mutlaqlashtirishga moyildirlar. Masalan, A.I.Kravchenko qadriyatlarga quyidagicha ta’rif beradi: “Qadriyatlar, – deb yozadi u, – ko‘pchilik kishilar tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadigan ezgulik, adolat, vatanparvarlik, romantik sevgi, do‘stlik kabi hodisalar haqidagi tasavvurlardir... Qadriyatlar shubha ostiga olinmaydi, ular barcha kishilar uchun etalon, ideal bo‘lib xizmat qiladi”

Birinchiidan, olimning qadriyatlarni, hatto ular barcha kishilar uchun “etalon, ideal bo‘lib xizmat qilsa”-da, tasavvurlar tarzida talqin qilinishi kishida e’tiroz uyg‘otadi. Agar qadriyatlar subyektiv tasavvurlardan iborat bo‘lsa, noosferada yoki moddiy madaniyat sohasida yaratilgan boyliklar (Eyfel minorasi, Toj Mahal maqbarasi, Vizantiya arxitekturası, Samarqanddagi madrasa-yu minoralar va

h.k.), axloqiy, huquqiy, diniy normalar, urf-odatlar qadriyatlariga kirmaydimi? Degan haqli savol tug'iladi.

Ikkinchidan, subyektiv tasavvurlarning barcha kishilar uchun bir xil andozada, idealda, etalonda bo'lishini faqat xayoldagina tasavvur qilish mumkin. Hatto bir onadan ketma-ket tug'ilgan va bir sharoitda o'sgan, yagona oilaviy va tarbiyaviy muhitda shakllangan aka-ukalar ham yon-atrofni, dunyoni, shu jumladan qadriyatlarni ham bir xil tasavvur qilmaydilar. Demak, qadriyatlar tasavvurlargina emas, ular inson va tarixiy subyektlarning yon-atrofni, olamni idrok etishi, o'zlashtirishi va o'zgartirishi jarayonida ijtimoiy norma sifatida yaratgan moddiy hamda ma'naviy boyliklarining ijtimoiy muhit tan olgan majmuasidir.

O'zbekistonlik olimlar ham qadriyatlarni ijtimoiy-tarixiy va madaniy kategoriya sifatida qarab, ularga "inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalardir", – deb ta'rif beradilar. Biroq bu ta'rif ham savollar uyg'otadi. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli, kerakli bo'lmagan narsa bormi o'zi? Hatto zaharli ilon ham odam uchun ahamiyatli ekanini isbotlab o'tirish kerakmi? Demak, olamda mavjud jamiki narsa, mavjudot inson va insoniyat uchun ahamiyatli, keraklidir. Demak, bu o'rinda qadriyat tushunchasi haddan tashqari keng talqin etilgan. Bundan tashqari, lug'atda ikki jumla o'tgach, qadriyatlar "moddiy va ma'naviy boyliklar olamining gultoji, sarasi" deb ta'riflanadi. Unday bo'lsa, barcha moddiy va ma'naviy boyliklar emas, balki ularning "sarasi, gultoji" qadriyatlarga kiradi, degan xulosaga kelamiz. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, inson va insoniyat uchun ahamiyatli barcha narsalar emas, balki moddiy va ma'naviy boyliklarning gultoji, sarasi – qadriyatlardir. Ushbu fikrlarda ichki ziddiyatlar borligini ko'rmaslik mumkin emas.

R.Nurmuhamedov va I.Yunusovlar insonning qadriyat qimmatini va "qadriyat" tushunchasini oydinlashtirishga harakat qilishgan "Qadr-qimmat – axloq tushunchasi bo'lib, odamni ma'naviy tomondan to'liq baholashga ishlatiladi. Shu bilan birga odamning o'z-o'ziga va jamiyat unga shaxs sifatida beradigan qadriyatni ham ko'rsatadi".

Mualliflar ushbu ta'rifni kengroq ochib bermaydilar. Ular qadr-qimmatni shunchaki izohlash bilan cheklanadilar. Aslida o'zbek tilida chop etilayotgan deyarli barcha adabiyotlarda qadr-qimmat, qadriyat, shaxs qadri, inson qimmatini kabi atamalar, haqli tarzda, yonma-yon ishlatiladi, goho ular sinonim kategoriyalar sifatida keladi. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv mohiyatan to'g'ri bo'lsa-da, hodisalar va voqealar ifodasiga etimologiya hamda germeenvtika nuqtayi nazaridan qaraganda yuqoridagi tushunchalar o'rtasida ma'lum bir farqlar borligini ko'rsatadi. Qadriyatlar ushbu kategoriyalardan keng bo'lib, ular ushbu kategoriyalar uchun genesis, asos vazifasini o'tagan. Qadr-qimmat, shaxs qadri, inson qimmatini kabi kategoriyalar faqat insonga nisbatan ishlatiladi; inson xatti-harakatlari, tushunchalari, xislat va fazilatlarini ularning ifoda obyektidir. Qadriyatlar esa "insonlardan tashqarida" (V.A.Abushenko) ham bo'lishi mumkin.

Tushunchani ta'riflash uning hamma belgilarini emas, balki muhim belgilarini ko'rsatib berish demakdir. Biroq tushunchani ta'riflash, bu – o'sha tushunchada ifoda etiladigan predmetlarning har tomonlama aks etishi degan so'z emas. Tushuncha ta'rifida uning eng muhim belgilariga ajratib ko'rsatilishi kerak.

Shu ma'noda Q.Nazarov to'g'ri ta'kidlanidek, qadriyat tushunchasini haddan tashqari keng talqin etish ham, uning ma'nosini toraytirish ham birdek xatodir. Qadriyat falsafiy tushunchadir. U ilmiy tushunchalardan farqli ravishda obrazli-mavhum tushunchadir. Ya'ni qadriyat deganda hamisha ijobiylik, foydalilik, yoqimlilik, taraqqiyot, go'zallik, insoniylik, ezgulik tasavvuri o'z-o'zidan namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda M.S.Kagan mulohazalari e'tiborga loyiqdir. Uning yozishicha, qadriyatni uning obyektidan farqlamaslik, ya'ni ularni ayniylashtirish ham, yoki uni "foydalilik", "keraklilik" singari obyektiv holatlar bilan tenglashtirish ham birday xatodir.

Bizning fikrimizcha, qadriyatlarni ta'riflashda uni madaniyat bilan oydinlashtirish yoki "xalqning ma'naviy

madaniyatini shakllantirish manbaya sifatida qadrlanib kelingan ma'naviy-ruhiy xatti-harakatlar, narsa va hodisalar majmuyi sifatida ta'riflash, afsuski, qadriyatlar to'g'risida aniq va konkret tasavvur hosil qilishga imkon bermaydi. Rossiyalik tadqiqotchi N.S.Rozov "qadriyat" tushunchasiga xuddi "haqiqat", "aql", "inson", "madaniyat" tushunchalari kabi uzil-kesil va to'la ta'rif berib bo'lmashligini to'g'ri ta'kidlaydi va falsafiy jihatdan qadriyatlarni "inson ongi va xulqining oxirgi normativ asoslari" sifatida tushunishni taklif etadi.

Qadriyatlar mohiyatini falsafiy-aksiologik jihatdan to'g'ri tushunishda Q.Nazarovning mulohazalari e'tiborga loyiqdir: "Qadriyat biror-bir tarzda, shaklda zohir bo'ladigan, sub'ekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko'rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqalarning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyatli va qadriyatni ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir".

Rus tilida qadriyat ("tsennost") va baho (tsena) tushunchalari o'zakkodosh va ma'nodosh tushunchalar bo'lsa ham, ammo ular bir-biridan farqlanadi. Tushunchaga aniqlik kiritish maqsadida "qadriyatli baholash" tushunchasi qo'llaniladi. Bizning tilimizda bu tushuncha sodda va lo'nda qilib "qadrlash" deyiladi. Shu sababli ma'naviy-axloqiy tarbiyada yoshlarda tarixiy-madaniy merosni, an'analarni, ajdodlarni qadrlash hissini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi.

"Qadriyat" g'oyat murakkab, ko'pqirrali va keng qamrovli aksiologik kategoriyadir. Olamdagi narsa, hodisa va jarayonlarning inson va kishilik jamiyati uchun ahamiyati tobora chuqurroq anglanishi bilan qadriyat tushunchasi-ning mohiyati va mazmuni tobora chuqurlashib boraveradi. Shuning uchun ham "qadriyat" muttasil ravishda boyib boradigan tushuncha bo'lib, unga beriladigan ilmiy-falsafiy ta'rif hamisha davrning ma'naviy-intellektual salohiyati, ilmiy izlanishlarning bugungi darajasi bilan bog'liq bo'ladi.

Qadriyat tushunchasi voqea va hodisalarning ob'ektiv borlig'i, uning shaxs, guruh va jamiyat uchun ahamiyatini o'zida to'la va yorqin aks ettiradi. Narsa va hodisalar takomillashib borishi, ularning shaxs guruh va jamiyat uchun ahamiyati ortib borishi bilan qadriyat tushunchasining mazmuni ham chuqurlashib va kengayib boraveradi.

O'zlikni anglash, eng avvalo, o'tmishni o'rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat, o'zini anglayotgan, o'zini tushunayotgan har bir odam qanday oilada dunyoga kelgani, o'z ajdodlari kimlar bo'lgani, ota-bobolari nimalar bilan shug'ullanishgani va qanday umr kechirishganini bilib olishga intiladi. Ularning fazilat-lari va meroslari bilan faxrlanib yashaydi.

Tarixni, o'tmishni to'g'ri tushunish oson emas. Biz o'zgacha vaziyat va tarixiy bosqichda yashayotganimiz sababli har doim ham o'tmish hodisalariga to'g'ri baho beravermasligimiz mumkin. O'tmishda nafaqat ijobiy tajribalar, shu bilan birga, ko'pincha sub'ektiv xarakterga ega bo'lgan xatolar, kamchiliklar ham mavjud bo'ladi. Xo'sh, ushbu kamchiliklar va xatolarni biz har doim ham to'g'ri baholay olamizmi? O'z paytida shunday savolni o'z oldiga buyuk ingliz tarixchisi va faylasufi A.Dj.Toynbi ham qo'ygan edi. U oxir natijada tarixni to'g'ri idrok etish uchun uning ayrim bir yo'nalishini, qismini emas, jamiyatni butunicha o'rganish zarur, degan xulosaga keladi. Ushbu idrok kelajakni to'g'ri ko'ra bilish, uning istiqbolini aniqlab olishga yordam beradi.

Bundan tashqari tarixni to'g'ri idrok etishda o'tmishda yaratilgan madaniy meros, qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Ular o'z davrining tarixiy-madaniy boyliklari sifatida avlodlar ongida, tafakkurida ma'lum bir qarashlarni, tasavvurlarni shakllantiradi, har bir tarixiy shaxs hayoti va faoliyatiga to'g'ri baho berishga o'rgatadi. Tariximizni to'g'ri anglash "milliy istiqbol mafkurasining, davlatimiz olib borayotgan keng miqyosli islohotlarning oliy qadriyati ana shunda!" .

Pedagog-olim B.Xodjayeov ta'kidlab o'tganidek, tarixiy tafakkur fuqarolik jamiyatini taraqqiy ettirishning

muhim omili bo'lib, o'tmishni anglash, uni to'g'ri tushunish orqali o'quvchilarning ongi va ruhiyatida jiddiy o'zgarishlarni tarkib toptirish, bu orqali hayotni, turmush tarzini ma'naviy isloh qilishga erishiladi. Tarixiy tafakkur – milliy mustaqillik va taraqqiyotning “o'zbek modeli” asosini tashkil etib, u o'quvchi tomonidan yaxlit tarixiy voqelikni o'zlashtirish, ularning o'zaro munosabati hamda aloqadorligini umumlashtirish orqali tarixiy jarayonlarning tub mohiyatini anglash, tarix saboqlaridan oqilona xulosa chiqarish qobiliyatidir.

Qadriyatlar muammosining falsafiy-tarixiy tahlili, avvalo, naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni, xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan. O'zbek xalqi dostoni “Alpomish”da muhabbat va do'stlik, To'maris va Shiroq to'g'risidagi afsonalarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik, Hotami Toy haqidagi ertaklarda qo'li ochiqlik, bag'rikenglik, xokisorlik, “Kuntug'mish”da oila va farzandga muhabbat ruhi badiiy tasvirlangan. Qadimgi odamlar borliq to'g'risida o'ylaganlarida, afsona, hikoyat yoki dostonlar so'ylaganlarida olamning qadri, uning botiniy cheksizligi, buyukligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrini, ma'nosi, mazmuni, maqsadi, botirlik, oqillik, xokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berganlar, ahamiyatini turlicha talqin qilganlar, hatto ularning ayrimlarini ilohiylashtirganlar.

Qadriyatlar mavzusi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o'z aksini topgan. Har bir din o'ziga xos ilohiy qadriyatlar tizimiga ega. Ular bir-birlaridan ana shu qadriyatlar tizimi bilan ham farqlanadilar. Hozirgi zamondagi milliy va jahon dinlarining asosiy kitoblari Qur'on, Tavrot, Injil, Veda va boshqa kitoblarda muayyan ilohiy qadriyat tizimlari o'z ifodasini topgan. Dinlarning tarixiy shakllari takomillashib borgan sari, ulardagi qadriyatlar tizimi ham yangi-yangi qirralarini namoyon qilib boravergan.

“Avesto”da qadimgi xalqlarimizning umuminsoniy qadriyatlarini mohiyati va ahamiyati yoritib berilgan asardir. Ma’lumotlarga ko’ra kitob bir necha avlodlar tomonidan yaratilgan. Avesto zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo’lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi o’z ifodasini topgan. Shu bilan birga kitobda umuminsoniy qadriyatlarga, ularning inson ma’naviyati va amaliy faoliyati uchun ahamiyatga katta o’rin berilgan. Asarda yaxshilik, yorug’lik, barkamollik, hurfikrlilik timsoli bo’lgan afsonaviy Axuramazda qiyofasida yaqqol namoyon bo’ladi. Kitob mualliflaridan biri Zaratushtra (Zardo’sht) fikricha, odamlar yaxshilik, yorug’lik kuchlariga ergashishi, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni haqsizlikdan farqlab olishi, hayoti davomida Axuramazda tomonida bo’lishi lozim. Insonning bu jarayondagi qadri esa, yaxshilikning g’alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzida, ma’naviy qiyofasida, ijtimoiy faoliyatida, “to’g’ri so’z” va “yaxshi ish”ida o’z ifodasini topadi. Ana shunday fazilatlariga ega bo’lgan kishigina yomonlik ustidan g’alaba qilish, yaxshilik urug’ini sochish ishiga ko’maklashishi, yaxshi nom qoldirishi, boshqalarning tahsiniga va minnatdorchiligiga sazovor bo’lishi mumkin.

Osiyoda qadriyatlar to’g’risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda islom dini keng yoyilgan, ijtimoiy-siyosiy hayotda muayyan tinchlik hukm surayotgan edi.

Islom dini Osiyoda faqat arablarning dini bo’lib qolmadi, u turkzabon xalqlarning ham umumiy diniga aylandi. Alohida e’tirof etish kerakki, islom, uning asosiy qomusi – Qur’on karimda ta’riflab berilgan ilohiy qadriyatlar mam-lakatimiz xalqlari tarixi, madaniyati va ma’naviyatiga nihoyatda katta ta’sir ko’rsatdi. Bu ta’sirni turlicha baholash, tahlil qilish mumkin, ammo uning o’tmishda ham, hozir ham muayyan ahamiyatga molik ekanligini inkor qilishning iloji yo’q.

Hadislarda axloqsizlik, hayosizlik, beodoblik singari illatlar qattiq qoralangan, ularga nisbatan loqayd va befarq bo’lish tanqid qilingan. Ta’lim-tarbiyaga doir hadislar-

ning ahamiyati shundaki, ularda ijtimoiy kelib chiqishi, lavozimi, jinsi, yoshidan qat'iy nazar Rasululloh (s.a.v.) o'g'itlari, da'vat-u maslahatlariga birday rioya qilish lozimligi ta'kidlangan. Farzandlarga axloqni o'rgatishda ota-onaning vazifasi xususida "Kishi o'z bolasiga odobdan afzalroq narsa ado etolmaydi" deyilsa, yana birida esa "Har bir ota o'z farzandiga xulqu odobidan buyukroq meros berolmaydi", deyilgan.

Chunonchi, hadisshunoslik ilmi sakkizinchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'n birinchi asr o'rtalari-gacha deyarli barcha ilm ahllari uchun asosiy va zaruriy mashg'ulotlardan biri darajasiga aylanib, yozma man-balarda keltirilishicha, bu davrda Sharqning turli mam-lakatlaridan bo'lgan to'rt yuzdan ortiq mualliflar hadis-shunoslik bilan shug'ullanganlar.

Ma'lumki, o'z bilimini oshirish borasida at-Termiziy ko'pgina xorijiy mamlakatlarni ziyorat qilgan. El-ma-el kezib, cho'l-u biyobonlar osha yo'lda yurib, safarda bo'lganida ham yoki bir joyda muqim turgan paytida ham har bir fursatni g'animat bilib roviylardan eshitgan ha-dislarni yig'ish bilan shug'ullangan. Ularni tartibli ravishda yozib qayd qilish bilan birga ushbu hadislarning qanchalik darajada sahih yoki g'ayrisahih ekanligini qayta-qayta tek-shirib ilmiy ravishda aniqlagan.

Bu borada o'zi ziyorat qilgan turli ellar va mamlakat-lar olimlaridan ta'lim oldi, ilm-fan yo'lida ular bilan sama-rali hamkorlik qildi. Shu boisdan uning ustozlari orasida nafaqat termizlik, balki xurosonlik, iroqlik, hijozlik va ni-shopurlik olimlarni ham uchratish mumkin.

Shuningdek, allomaning ko'pdan ko'p shogirdlari orasida ham turli xalqlar va millatlar vakillarini ko'ramiz. Shu sababli ham bundan o'n ikki asr muqaddam yasha-gan buyuk bobomizning tom ma'noda haqiqiy baynalmilal olim bo'lganligi barcha insonlar, shuningdek jamiyatimiz ahli uchun turli millat vakillarini ilm-fan yo'lida, ezgu-liklar yo'lida hamjihat va yakdil ishlashlariga yorqin ham-da namunali bir misoldir.

Bu o'rinda at-Termiziy o'z ustoziga bo'lgan samimiy sadoqati va benihoya chuqur izzat-hurmati ham zo'r tar-

biyaviy ahamiyatga molik hollardan hisoblanadi. Bu xusuda at-Termiziyning o'z ustozlari va safdoshi al-Buxoriy bilan bo'lgan munosabatlari hozirgi kun uchun ham g'oyatda dolzarb va ahamiyatlidir.

Yoshi qirqdan oshgan va turli mamlakat olimlaridan ta'lim olgan at-Termiziy ham u paytda yetuk olim darajasida tanilgan bo'lgan. Ikkala olim o'rtasida ko'pdan-ko'p samarali ilmiy munozaralar, samimiy, do'stona uchrashuvlar bo'lgan. At-Termiziy o'z asarlari uchun ko'pgina foydali ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan bo'lgan uchrashuvlarda olganligini yozadi. Shu bilan birga al-Buxoriy ham at-Termiziyning bilimni yuqori baholab unga chuqur hurmat bilan qaragan va: "Men sendan olgan foyda, sen mendan olgan foydadan ko'ra ko'proq", deb unga nisbatan o'z munosabatini samimiy bildirgan.

Abu Iso at-Termiziy yozib qoldirgan "Al-jome' as-sahih", "Ash-shamoil an-nabaviya" kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib insonlarni halol, adolatli, e'tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-ona, ayollarga nisbatan hurmatda va e'tiborli bo'lishga chorlaydi.

Islom dini yurtimizda hukmron bo'lib olganidan keyingi davrlarda ichki urushlarni nisbatan barham toptirishga harakat qilindi, ijtimoiy hayotda esa nisbatan barqarorlik bo'lishiga erishildi. Bu nisbiy mo'tadillik davrida madaniy rivojlanish, ilm-fan hamda adabiyot taraqqiyoti uchun imkoniyat ochildi. Buyuk mutafakkir Muhammad Muso al-Xorazmiy o'sha davrda yashadi. U xalifa al-Ma'mun tadbir qilgan akademiya – "Bayt ul-hikma"da katta mavqega ega bo'lgan. Uning ushbu akademiya olimlari bilan ilmiy bahslarda ilgari surgan g'oyalari, yaratgan asarlarida hayot falsafasida qadriyatlarining umuminsoniy tomonlari izohlangan deyish mumkin.

Xorazmiy olimning qadri o'tmishdoshlari fikrlarini kelajakka xokisor yetkazib berishda, deb hisoblar edi. Mutafakkir quyidagicha yozadi: "O'tmish davrlarda o'tgan olimlar fanning turli tarmoqlari... sohasida asarlar yozish bilan o'zlaridan keyin keladiganlarni nazarda tutardilar..."

Ulardan biri o'zidan avvalgilaridan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalaridan o'zib ketadi, uni o'zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi... o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi. Bu so'zlari butun Sharq olimlari uchun umumiy talab va axloqiy kamolot mezoni, ular ma'naviy qiyofasi-ning ustuvor xususiyati sifatida namoyon bo'ladi".

Sharq madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan allo-ma Abu Nasr Forobiy (873-950) ham qadriyatlarga katta e'tibor bergan. Forobiyning qadriyatlar to'g'risidagi fikrlarini "Madina al-fozila" ta'limotida yaqqol kuzatish mumkin. Bu ta'limot "Fozil odamlar shahri" kitobida to'laroq ifodasini topgan. Qomusiy olim sifatida Forobiy fozil jamiyat to'g'risidagi ta'limotida yuksak g'oyalar, adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning umumiy tizimini izohlab bergan. Forobiy bunday jamiyatda diniy qadriyatlar ham muayyan ahamiyatga ega bo'lishini, unda kalom (teologiya) va fiqh (huquqshunoslik) vakillari kishilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalar-ni boshqarishlari, ijtimoiy munosabatlarni asosiy sohalar-i esa donishmand-hukmdorlar tomonidan boshqarib borilishini ta'kidlaydi. Mutafakkir diniy qarashlar g'oyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan o'sha davrda, nafaqat Alloh g'oyasini, balki inson, jamiyat va ilm-u fan qadriyatlarini falsafiy bilimlarning asosiy mavzularidan biri sifatida qaray olgan dastlabki Sharq faylasuflaridan biridir.

Forobiy yuqorida eslatib o'tgan kitobi hamda "Baxt-saodatga erishuv haqida"gi kabi asarlarida o'zaro yordam va birlashuv asosida vujudga keladigan inson jamoasi, hamkorlik, ilm va yaxshi axloq asosiy jihatlarini talkil qilishi lozim bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, kishilarni baxt-saodatga eltuvchi davlat, yetuk xislatlar ega bo'lgan va fuqaro tomonidan saylanadigan boshqaruvchilarga ega bo'ladigan jamiyat to'g'risidagi fikrlarni qayd qiladi. Uning asosiy orzusi va maqsadi eng buyuk ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ilm-fan qadri baland bo'lgan jamiyatdir.

Qadriyatlar mavzusini Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ham chetlab o'tmagan. Beruniy qomusiy olim sifatida qadriyatlarning tabiatini juda yaxshi o'rgangan. Ma'naviy qadriyatlarning vujudga kelishi Beruniy fikricha, ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan.

Masalan, kishilar o'rtasidagi hamkorlik odamlarni birlashish ehtiyojlari ko'pligi, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan o'zini himoya qilish zarurati tufayli vujudga kelgan.

Beruniy inson eng asosiy qadriyatlardan biridir, tafakkur esa uni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ma'naviy omildir deb hisoblagan. U ma'naviy qadriyatlar tizimini o'ziga xos tarzda ifodalaydi, ya'ni yaxshi va yomon xulqlarga ajratadi. Uning fikricha, yaxshi xulqlarga – rostgo'ylik, odillik, oqillik, mardlik, botirlik va muruvvatlilik kabi qadrli xususiyatlar, yomon xulqlarga esa yolg'onchilik, zolimlik, qalloblik, o'g'rilik, hiylagarlik, nomardlik kabi jihatlar mansubdir.

Qadriyatlar muammosi Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) ham diqqat markazida turgan. Olim asarlarini katta qismi falsafa muammolariga bag'ishlab yozilgan bo'lsa-da afsuski, ularning ko'pchiligi, masalan, 20 tomndan iborat "Adolat" nomli falsafiy ensiklopediyasi, "Sharq falsafasi", "Yaxshi ish va gunoh" asarlari bizgacha yetib kelmagan. Qadriyatlar muammosi ibn Sinoning "Risolat-ut tayr" ("Qushlar risolasi"), "Donishnoma", "Solomon va Ibsol" kabi bizgacha yetib kelgan asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Uning nazarida o'z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o'rab turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uning qadri beqiyos, inson esa hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o'ziga davo topadi.

Ibn Sino ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyatiga ham katta e'tibor bergan. Uningcha odamzod qadri boshqalar bilan hamkorligi, yaxshi ahloqiy fazilatlariga ega bo'lish uchun intilishi, donoligi, boshqalarga yaxshilik qila olishidadir. Faylasuf nazarida, yaxshilik, rohat-farog'atga

va lazzatlanishga olib kelishi, yomonlik esa azoblanish va uqubatga olib borishi bilan tavsiflanadi. Ibn Sino “Axloq ilmi haqida risola”sida “iffat”, “shijoat”, “hikmat”, “adolat”, “saxiylik” kabi insoniy-ma’naviy qadriyatlarni ta’riflaydi.

Qadriyatlar mavzusi falsafiy-tarixiy tahlilini madaniy rivojlanishda katta mavqega ega bo’lgan “tasavvuf” oqimining asosiy namoyondalari qarashlarisiz tasavvur qilish qiyin. Tasavvuf g’oyat murakkab va serqarra diniy-falsafiy oqim bo’lib, unda islomning ilohiy qadriyatlar tizimi yangi zamonga moslashtirilgan, zamonaviy nuqtayi nazardan izohlab berilgan. Tasavvufning qadriyatlar tizimida eng asosiy o’rinni Alloh, u bilan bog’liq ilohiy qadriyatlar, shariat, tariqat, haqiqat va ma’rifat g’oyalari egallaydi. Lekin tasavvuf falsafasini faqatgina ana shu jihatlar bilan ta’riflashning o’zi yetarli emas. Bu borada islomshunos, olimlarning asarlari ko’p. Biroq hanuzgacha tasavvuf ta’limoti batamom o’rganilgan va uning tarixi, dunyoqarashi xususida aniq, yaxlit xulosalar chiqarilgan, deb ayta olmaymiz.

Ushbu fikrni nafaqat tasavvuf, balki umuman islom to’g’risida, bu dinning umummilliy, milliy va ma’naviy qadriyatlarimiz rivojiga qo’shgan hissasi to’g’risida ham aytish mumkin. Muammoning bu tomoni qadriyatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilinmagan va bunga umumiy sivilizatsiyamizga mansub islomdan oldingi qadriyatlar tizimi bilan, islom hukmron bo’lgan davrdagi qadriyatlar tizimi o’rtasidagi dialektik inkor va vorislik maslalalari qo’shilishini hisobga olsak, masala maxsus ilmiy tadqiqotni talab qilishi yanada oydinlashadi.

Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari faqat adabiy turkiy tilning buyuk yodgorligi bo’libgina qolmay, Turkiston xalqlari falsafiy tafakkurining nodir yodgorligi hamdir.

Ahmad Yugnakiy futuvvat falsafasi haqida turkiy til shoirlari orasida birinchi bo’lib, fikr yuritganlardandir. Axiylardek sahiy bo’lsang, hech kim senga ziyon yetkazmaydi, la’nat aytmaydi, deydi. Saxovat yomon so’zlarning yo’lini to’sadi. Mutafakkir fikricha, baxillikni maqtovchi til

topilmaydi, saxiylikni barcha toifa odamlar maqtab gapiradi. Saxovatli odamlar bilimli kishilarni, ulamoni qadrlaydi, ularga mol-dunyosini sarflaydi va olimlardan maqtoV, olqish oladi. Dunyoda bunday kishilar o'zidan yaxshi nom qoldiradilar, shon-shuhrat topadilar, vafotlaridan keyin ham ularning nomi uzoq yashaydi. Aksincha, baxil odamlar esa la'nat va badnomlikka yo'liqadilar. Baxil qancha ko'p mol-dunyo to'plasa ham, baribir u dunyoga bir chaqa ham olib ketolmaydi, uning oxiratda topgani la'nat, qarg'ish bo'ladi. Allomaning yozishicha, qo'llar ichida beruvchi qo'l qutlug' qo'ldir, faqat o'zi olib, boshqalarga bermaydigan qo'l qutsiz, barakasiz, xosiyatsiz qo'ldir.

Sharq xalqlari, ma'rifati va ma'naviyati tarixida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga eltuvchi bilim") asari muhim o'rin tutadi. Bu asarning to'liq matnini hozirgi o'zbek tilida tabdili bilan nashr etgan atoqli turkshunos olim Qayum Karimov xolisona ta'kidlaganidek, "Qutadg'u bilig" poemasi ning tili o'sha davrda keng maydonga ega bo'lgan qoraxoniylar saltanati tarkibiga kirgan barcha turkiy qabilalar uchun tushunarli bo'lgan.

Adl (adolat), aql va qanoat Sharq, tasavvuf falsafasida inson ma'naviy kamolotining asosiy bosqichlari, ustunlaridan hisoblanadi. Bundan oldin Aflotun va Arastu falsafasida ham adolat, oqillik, nafsni tiyish, qanoat eng yaxshi insoniy fazilatlar sifatida maqtalgan. Xususan, Aflotun insoniy ne'matlar (qadriyatlar) qatoriga: birinchi salomatlik, ikkinchi go'zallik, uchinchi kuch-quvvat, to'rtinchisi esa oqilona, halol va jismoniy mehnat bilan topilgan boyligi kiritadi. Yusuf Xos Hojib ham "Qutadg'u bilig" asarida ilohiy ne'matlar haqida, ularga shukrona aytish, rizq-nasibalarni beg'araz berayotgan Tangriga madh-u sano aytdi. "Ey, xaloyiq, Yer-u osmonlar egasi rizq bermoqda, sen kulib, xursand bo'lib yegin. Barchaga hisobsiz rizq beruvchi barchani yediradi, lekin o'zi yemaydi. Barcha nafas oluvchi jonzodlarni hargiz och qo'ymaydi".

Yurtimiz madaniyatida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) o'zining "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Xazoyin ul-maoniy" va boshqa asarlarida qadriyatlar masalasiga katta e'tibor bergan.

Alisher Navoiy o'sha davrda targ'ib qilinadigan insonning ma'naviy qiyofasi uning taqvodorligi va toat-ibodat-lari bilan begilanadi, degan qarashni e'tirof etadi. Ammo kishining qiyofasini uning ma'naviy-axloqiy qadriyat-lari va yaxshi ishlari bezaydi, degan fikrni ilgari suradi. Navoiy tomonidan izohlangan qadriyatlar tizimi ham ana shunga asoslanadi va ilohiy, tabiiy hamda insoniy qadriyatlarning bir butunligi sifatida talqin etiladi. Bunda abadiy ilohiyat – (Alloh), uning eng serqirra va sermazmun namoyon bo'lishi – koinot va tabiat, bu zoxiriylilikning “gultoji” bo'lgan inson dialektik aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Bunda odamzot erishishi lozim bo'lgan maqsad nafaqat Alloh jamoli, balki baxtli hayotga erishish va komil inson bo'lib voyaga yeti-shishdir.

Navoiyning jamiyat to'g'risidagi qarashlarida umum-ijtimoiy qadriyatlar tizimi o'z ifodasini tol-gan, komil inson ta'limotida esa eng yetuk inson kiyofasiga xos bo'ladigan shaxsiy qadriyatlar tizimi ta'riflangan. Bunda ana shu ikki qadriyatlar tizimining aloqadorligi yaqqol ko'rinib turadi.

Alisher Navoiy vafotidan besh-olti yil o'tar-o'tmas, Movaraunnahrda hukmronlik qilgan temuriylar sulolasi davlati tanazzulga uchradi. Uning o'rniga Shayboniyxon davlati tuzildi. Ammo oradan ko'p o'tmay, Shayboniyxon vafotidan keyin bu yerdagi markazlashgan davlat parchalanib ketdi. Avvalo Buxoro amirligi va Xiva xonligi, so'ngra Qo'qon xonligi vujudga keldi. Amirlik va xonliklar davri qadriyat-lari tahlilida muayyan o'ziga xoslik namoyon bo'ladi. Uch yuz yildan oshiqroq davrni o'z ichiga olgan bu jara-yon amirlik va xonliklar, turli sulolalar, urug'lar o'rtasida-gi urushlar, tinimsiz ziddiyatlar orqali kechdi. Bu esa o'sha davr jamiyati hayotini muayyan darajada izdan chiqardi, xalq turmushi va hayotida turli salbiy hodisalar vujud-ga kelishiga sabab bo'ldi, kelajakka ishonch ruhi susaydi, tushkunlik kayfiyat-lari kuchaydi.

Kezi kelganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, yur-timizda aynan ana shu davrga kelib ilohiyot ilmi ham bir qadar tanazzul davrini boshdan kechirdi. Uning qadriyat-lar tizimini yangi zamonga mos qirralarini ochib beradi-

gan, shon-shuhrati, ilohiyot ilmidagi qarashlari butun islom dunyosiga tarqalgan Al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy, Naqshbandiy kabi ilohiyot ilmining zabardast teran fikr egalari bilan tenglashadigan mutafakkirlarni bu davr tarixidan topish qiyin. Shunday bo'lsa-da ijtimoiy taraqqiyot to'xtab qolgani, qadriyatlar amaliyoti o'z ta'sirini butunlay yo'qotgani yo'q, albatta.

Bu davrda Sayid Nasafiy, Yusuf Qorabog'iy, Xuvaydo, Mirzo Bedil kabi mutafakkirlar ijod qildilar. Hassos shoir va mutafakkir Boborahim Mashrab (1657-1711) ana shu davrda yashadi. Zamonasining ko'pgina ilg'or namoyondalari qatori Mashrab ham islomning qadriyatlar tizimini va Alloh g'oyasini inkor etmaydi. Ammo g'oyaviy ustozlari Boyazid Bistomiy, Mansur Xalloy va Imomiddin Nasimiylar izidan borganligidan, u, bir qator umuminsoniy qadriyatlarni, ularning o'rni va ahamiyatini o'ziga xos talqin qiladi. Bu o'ziga xoslik islom paydo bo'lganidan keyin ming yil o'tishi, hayotda turli o'zgarishlar bo'lishiga qaramasdan ba'zi din arboblari va ruhoniylarni islom qadriyatlari tizimidan eskicha, o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishlariga nisbatan tanqidiy munosabat tarzida namoyon bo'ladi.

Mashrab ko'pchilik o'rganib qolgan ma'naviy qoliplarga sig'maydigan murakkab zotdir. Uning qalandarligida – olam sirlaridan boxabar faylasuf, isyonkorligida – islom qadriyatlarini zukko bilimdoni, sodda hayot tarzida xalqqa donolarcha yaqinlikni kuzatish mumkin. "O'zining butun umrini haqiqatga yetishish yo'lida... sarflangan Mashrabning bevafo olamda ma'naviy tubanlik, razolat, aqliy najosatga botgan insonlarga – podshodan tortib qozigacha, soxta olim-u vafosiz obidgacha, o'g'ridan tortib nobop dehqongacha bo'lgan nafrat-g'azabi, haq ishqiy yo'lidagi sobit imoni, odilparvar va odamparvarligi, el-ulus umidlarining ifodasi yanglig' tobora majoziy lashib, afsonaviylashib borgan"i.

Qalandarlik Mashrab uchun asosiy qadriyat emas, balki adolatsizlik, zo'ravonlik, munofiqlik, aldanchilik va yomonlikning ko'rinishlariga qarshi kurash, ularni fosh qilish vositasi, haq visoli va haqiqatga erishish yo'lidir. Uning

ijodini bosh qahramoni – shoirning o‘zi. Bu ijoddagi asosiy qadriyat “ikki jahonga sig‘magan”, “gavhari lomakon” bo‘lgan insondir.

XIX asr o‘rtalarida besh yuz yilga yaqin (garchand amirlik va xonliklarga bo‘lingan bo‘lsa-da) mustaqil yashagan o‘lka Chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi. Rossiya bosqini davri qadriyatlari tizimida istilochilarning g‘oyalari o‘z aksini topganligi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bu davrda xalq turmush tarzida bosib olingan o‘lkalarga xos Ijtimoiy o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi, ya‘ni, yurt boylklarini tashib ketish, kishilarni ma‘naviy va madaniy qoloqlikda saqlash boshlandi.

Bu davrda tarqalgan ma‘rifatparvarlik g‘oyalari Ahmad Donish (1827-1887), Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘li (1827-1900), Sattorxon (1843-1902), Furqat (1858-1909), Muqimiy (1859-1903), Anbar otin (1870-1915) kabilar keng targ‘ib qildilar. Ularning asarlarida sharqona qadriyatlar, ilm-parvarlik, insonparvarlik g‘oyalari kuylandi. Bu, ayniqsa, Ahmad Donishning “O‘g‘illarga nasihat” asarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Unda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarning umumiy tizimi bayon qilib berilgan, ilm-ma‘rifat g‘oyalari, axloq-odob talablari, fozillik va ziyolilikning inson kamoli uchun ahamiyati tahlil qilingan.

XIX asr oxirlarida hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni, ularning milliy va umummilliy qadriyatlarni jahon taraqqiyoti talablari nuqtayi nazardan tahlil qilish borasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Fitrat kabi zamonasining ilg‘or kishilari katta yutuqlarga erishdilar. Qadriyatlar bilan bog‘liq muammolar jadidlar diqqat markazida turgan, ularning ko‘pchiligi sharqona qadriyatlar tahlili borasida qimmatli fikrlarni bayon qilganlar.

Bu borada Abdulla Avloniy (1878-1937) alohida o‘rin tutadi. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida umuminsoniy-manaviy qadriyatlar tizimi ta‘riflab berilgan. Asarda fatonat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, xilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmoq, haqqoniyat, iffat, hayo, idrok, zako, lafz, iqtisod,

viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, adolat, muhabbat, oliyhimmat, avf kabi qadriyatlar “yaxshi xulqlar” degan umumiy nom ostida tahlil qilinadi. “Yomon xulqlar”ga esa g‘azab, shahvat, jaholat, razolat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namiyat, g‘iybat, haqorat, shabonat, hasad, ta‘ma, zulm kabi xususiyatlar misol bo‘ladi. Agar ushbu asarda tilga olingan qadriyat nomlariga diqqat qilinsa, o‘sha davrda yurtimizda ma‘naviy tushunchalar ko‘lami qanchalik keng bo‘lganligini, tilimizning boyligini kuza-tish mumkin.

Yuqoridagi atamalar orasida biz allaqachon esimizdan, tilimizdan va balki dilimizdan ham chiqarib yuborgan tushunchalarga duch kelamiz. Tarixning g‘ildiragi g‘ayri aylanib, bizni necha o‘nlab yillar ulkan merosimizdan judo qilganligi, rasmiy ma‘naviyat sohasini Sharqona qadriyatlar emas, balki butunlay boshqa shiorlar egallab olganligi kishini achintiradi, xolos.

“Turkiy guliston yoxud axloq” darslik sifatida bitilgan va unda sharqona ta‘lim-tarbiya mazmuni, asosiy talablari ham ta‘riflab berilgan. Bu kitob xalqimiz madaniyatiga yanada kattaroq ta‘sir ko‘rsatishi mumkin edi. Afsuski, o‘tgan asrning 30 yillarida boshlangan siyosiy jarayonlar Avloniylar mansub oqimni va ularning boy merosini o‘z domiga tortdi. Kitobning taqdiri ham shunday kechdi, u ta‘qiqlab qo‘yildi, hatto kutubxonalardan ham topish amri-mahol bo‘lib qoldi. Faqat respublikamiz mustaqil bo‘lganidan keyingina uni chop etish (“O‘qituvchi” nashriyoti, 1992-yil) imkoni tug‘ildi. Ana shunga o‘xshash fikrni Behbudiy, So‘fizoda, Cho‘lpon, Fitrat va ularning asarlari to‘g‘risida ham aytish mumkin.

Qadriyatlar mavzusining mamlakatimiz o‘tmishiga doir qisqa falsafiy-tarixiy tahlili davomida asosan quyidagilar ko‘zga tashlanadi:

1. Yurtimizda yashagan allomalarimiz qarashlarida qadriyatlar muammosiga katta e‘tibor berilgan. Turli mutafakkir va olimlar mansub bo‘lgan xilma-xil oqimlar va tariqatlar biror shakldagi qadriyatlar tizimiga e‘tiqod

qilganlar, u yoki bu qadriyatlarni turlicha talqin qilish va unga ershish yo'llarining ko'rsatib berganlar. Shu ma'noda qadriyatshunoslik fani yurtimiz tarixida o'z o'tmishiga ega, uning ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi.

2. Mamlakatimizda Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Ulug'bek, Navoiy, Mashrab, Bedil, Ahmad Donish, Abdullo Avloniy va boshqa mutafakkirlarning qariyb barchasi o'z davrida muayyan qadriyatlar tizimiga e'tibor berganlar, o'z munosabatlarini bildirganlar.

Ammo bu masalani ikkinchi tomoni ham bor, bu – yurtimiz qadriyatlarning arab va boshqa Sharq xalqlari madaniyatiga aks ta'siri masalasidir. Afsuski, ushbu masalaning qadriyatlar va qadriyatshunoslik bilan bog'liq jihatlari haligacha to'la-to'kis, ilmiy va adolatli baholanmagan. Xullas masalaning bu jihati o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

3. Biz yashayotgan zamin qo'lda yashirinib yotgan, bizga o'zlarining boy me'rosini qoldirgan, tarix va zamon, ilm va adabiyot, ma'naviy xokisorlik va kelajakka ishonch ruhi, ustoz va shogirdlik an'anasi birlashtirgan ulug' zotlarimizni turli yo'nalishlarga ajratmasdan, balki yaxlit madaniyat, ulug' bir sivilizatsiya allomalar sifatida qaramoq kerak. Qadriyatshunoslik tarixining asl durdonalari nafaqat G'arbdan, balki Sharqdan ham qidirilmog'i, biz yuqorida ba'zi namoyondalarning nomlarinigina tilga olgan yurtimiz sivilizatsiyasining ulkan hissasi jahon madaniyatini eng buyuk yutuqlari sifatida muqarrar sur'atda e'tirof etilmog'i lozim.

4. Xullas, qadriyatlar muammosi o'tmishda ham, hozir ham u yoki bu olim yoki mutaxassis yashagan davr, uni o'rab turgan ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy aloqadorlikda izohlanadi. O'tmishning buyuk aql egalari u yoki bu qadriyatga ko'proq e'tibor berganliklari tasodifiy emas, balki zaruriyatdir. Ular davr tarozusi tamal toshlarini qo'ygan, zamona zayllariga ta'sir ko'rsatadigan, kishilar uchun ma'naviy mezonlar mavqeyiga ega bo'lgan qadriyatlarni sharhlaganlar, tahlil qilganlar yoki ularga yetishish yo'llarini izohlab berganlar. Ularning madaniy-ma'naviy merosi

bir butun, yaxlit umummilliy boylikdir. O'tmishdagi qadriyatlar mavzuning atroflicha tahlili esa bir necha alohida tadqiqotlar uchun mavzu bo'lishga arziydi.

“Qadriyat” tushunchasiga berilgan ta'rif va tasniflarga asoslangan holda, “pedagogik qadriyatlar” atamasini quyidagicha izohlash mumkin: “Pedagogik qadriyatlar bu – pedagogik faoliyatning shunday o'ziga xosligiki, ular nafaqat pedagogik ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi, balki uning ijtimoiy va kasbiy faolligini mo'ljalga olishga xizmat qiladi. Pedagogik qadriyatlar hayotda o'z-o'zidan tasdig'ini topmaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalarga bog'liq”.

V.A.Slastyoninning fikriga ko'ra, “Pedagogik faoliyatga doir qadriyatlarning interiorizatsiyasi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatiga tamal toshini qo'yadi”.

O'qituvchining ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning shaxslararo muloqotida, ijodiy faoliyatida, bola shaxsining rivojlanishida, kasbiy hamkorlikda, ma'naviy qadriyatlar almashinuvidagi kasbiy yo'nalishlari tizimini hosil qiladi.

Olimlar tomonidan pedagogik qadriyatlarning ikki jihati alohida tadqiq etilgan:

- o'qituvchiga uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga imkon beruvchi va ijtimoiy ahamiyatli insonparvar maqsadlarga erishishga qaratilgan uning ijtimoiy va kasbiy faolligida yo'l ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladigan o'ziga xos jihatlar;

- pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi me'yorlar va ta'lim hamda pedagogik faoliyat sohasidagi vujudga keladigan ijtimoiy dunyoqarash orasida vosita va bog'lovchi bo'g'in bo'lib keluvchi bilish-faoliyat tizimi.

Pedagogik aksiologiyaga oid adabiyotlarda pedagogik qadriyatlarning xilma-xil tasniflari mavjuddir. Jumladan, Z.I.Ravkin pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: ta'limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat'iy nazar, barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi, o'quvchi-yoshlarni va ota-onalarning ta'lim muassasasini

tanlash erkinligi;

2) intellektual qadriyatlar: bilishga ehtiyoj, bilishga qiziqish va faollik, o'quvchi-yoshlarning ijodiy faoliyati, fikrning go'zalligi va so'z bilish faoliyati vositasi sifatida;

3) axloqiy qadriyatlar: o'quvchi-yoshlarning burch va shaxsiy majburiyatlari, uning pedagogik jarayonning subyekt bo'lish huquqi, bilimlarni egallashdagi axloqiy rag'batlar va motivlar, vatanparvarlik va fuqarolik, mehnat va boshqa kishilarning mehnatini hurmat qilish;

4) kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar: o'qituvchi-tarbiyachini mehnat qilishga chorlash, tanlagan kasbiga mas'uliyat bilan yondashuv, pedagogning mahorati, uning izlanishli-tadqiqotchilik, innovatsion faoliyati, kommunikativ qobiliyati, o'quvchi-yoshlarlar bilan muloqotdagi ijobiylik, pedagogik mahorat.

P.I. Novgorodsevning axloqiy ideal haqidagi tasavvurlariga e'tibor qaratib, quyidagi xulosasini ajratib oldik: bu avloddan avlodga o'tib boradigan, kelajakka intilgan, murakkab doimiy samarali maqsad. Mazkur ta'rif axloqiy idealning u bilan bog'liq boshqa empirik voqeliklardan farqi hisoblanadi.

Ta'kidlash joiz, aniq bir insonga axloqiy ideal salohiyatining faol namoyon bo'lishining ikki yo'nalishi xos:

– shaxsiy va ommaviy, yer va koinotga xos sintezda ifodalangan etik ibtido;

– o'zini o'zi tashkil etish, o'zini o'zi o'zgartirish, o'zini o'zi yangilash va o'zini o'zi qayta talqin etish orqali ifodalangan faoliyatga xos ibtido.

Endi ma'naviylikni ko'rib chiqamiz, ularga quyidagilar kiradi:

1) yuksak axloqiy qoidalar (altruistik va xudbinlik ibtidosining tegishli dasturlari sintezi bo'lgan, muhabbat va ijod, yaxshilik va go'zallik, erkinlik va mas'uliyat, ijod va muhabbat);

2) altruistik ibtido va xudbinlik ibtidolariga xos axloqiy tavsiflar;

3) o'zaro yordam va musobaqa (raqobat);

4) "ishonch <--> ishonchsizlik" ikkiligi;

- 5) oliy, ijodiy, jinsiy tanlanish va saralash;
- 6) oliy axloqiy qoidalar, altruistik va xudbinlik ibtido-ning axloqiy tavsiflari hamda oliy ijodiy tanlanish va saralash ta'sirida vujudga kelgan axloqiy tavsiflari.

Ma'naviylik tuzilishini o'rganish shunga ishora qilmoqdaki, dastlabki besh komponentda tashqi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar insonning potensial qarama-qarshi tabiatiga mos kelmasa, haqiqiy tarkibga aylantirilishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar mavjud.

Ma'naviylikni tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, u insoniyat urug'idagi etik yo'nalishning evolyutsion tanlangan dasturlari hisoblanadi. Evolyutsion rivojlangan faoliyatga xos yo'nalishning o'rnini faoliyat uslubshunosligi, jonli mushohada va muloqot egallaydi. Ma'naviylik salohiyati va faoliyat uslubshunosligini o'rganish bizni ularning sintezi hisoblangan urug'dosh insonning donoligini yangitdan anglashga olib chiqadi.

Hissiy dunyoning obyektlarini hodisa sifatida o'rganayotgan zamonaviy fan, individning aprior berilgan ko'rinmas ma'naviy sohasini fundamental tadqiq qilishga muvaffaq bo'lmadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Metafizik uslubshunoslikning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini bayon etamiz:

1. Inson birlamchi, jamiyatlar, texnika olami va ularning institutlari esa ikkilamchi.

2. Ma'naviy metafizik ibtido, axloqiy ideal va donolikning jamoaviy hamda individual mentalitetdan ustunligi.

Birinchi xususiyat shunga ishora qiladiki, Homo-ning ijobiy evolyutsion tanlangan salohiyatidan foydalanish, jamiyatlar, texnika olami va ularning institutlarining faoliyat yuritishi va rivojlanishining ichki determinanti hisoblanadi. Ikkinchi xususiyatning amaliyotda qo'llanilishi ushbu tizimlarning faoliyat yuritishi va rivojlanishining ikkinchi determinanti sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida keltirilgan aprior berilgan xususiyatlarning namoyon bo'lishiga yordam beruvchi muhit, jamiyatlar, texnika olami va ularning institutlari, shuningdek, mamlakatlar, hududlar, shaharlar va qishloq joylarining samarali rivoj-

lanishiga xos tashqi determinanti bor.

Evolyusiya jarayonidagi ijtimoiy muhit urug'dosh insonning ma'naviy sohasida axloqsiz arxetiplar bloki va buzilgan tabiiy tanlanishning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi va quyidagi haqiqiy qarama-qarshiliklarning vujudga kelishiga olib keldi:

- oliy darajadagi axloqiy qoidalar va axloqsiz arxetiplar o'rtasida;

- oliy, ijodiy, jinsiy tanlanish va saralash bilan buzilgan tabiiy tanlanish o'rtasida.

Inson evolyutsiyasi jarayonida ushbu qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishi, odamlar tomonidan yaratilgan muhit, Homoning ziddiyatli tabiatiga javob bermay, jamiyatda axloqsiz arxetiplar hukmronligi va buzilgan tabiiy tanlanishni keltirib chiqarishi bilan bog'liq. Ta'kidlash joiz, kapitalistik ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya insondagi xudbinlik ibtidosining giperbolizatsiyasiga asoslangan, sobiq Sovet ittifoqidagi sotsialistik ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya esa – altruistik ibtido giperbolizatsiyasiga. Jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozining ichki determinanti ochiqdan boryapti. U iqtisodiyotning virtual sektori faoliyatida xudbinlik ibtidosining giperbolizatsiyasi hisoblanadi. Urug'dosh inson tabiatiga to'g'ri kelmaydigan atrof-muhit va unga mos bo'lmagan iqtisodiyotning real va virtual sektorlari orasida antinomiyani keltirib chiqaruvchi iqtisodiy faoliyat, mazkur inqirozning tashqi determinanti mohiyatidir. Aytish mumkinki, o'z mohiyatiga ko'ra bu determinantlar mazkur inqirozning chuqur sabablari sanaladi.

O'z-o'zidan va shiddat bilan rivojlanayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot va ommaviy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning kuchli dinamikasi hozirgi vaqtning besh yilgacha keskin qisqarishiga olib keldi. Bu ta'limning institut sifatida quyidagilarga nechog'li yordam bera olayotganini aniqlashga imkon beradi:

1) insonlarda butun hayoti davomida shaxsiyat, axloqiy ideal va donolikning namoyon bo'lishi;

2) yaxshi tarbiyalangan, kollektivizm va hamkorlikka moyil, aniq abstrakt, transratsional, transsendental tafak-

kurga ega, qarorlarni tez qabul qilish va amalga oshirish qobiliyati rivojlangan ijodiy ma'nodagi professionallarni tayyorlash;

3) jamiyatlar, texnika olami, ularning institutlarining ishini murakkab tizim sifatida rag'batlantiradigan tashqi muhitni shakllantirish, ularning boshlang'ich nuqtasi shaxsiyat, axloqiy ideal va donolikning ustuvorligi bo'ladi.

Ularning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jahondagi ta'lim xuddi fan va iqtisodiyot kabi inqirozda, chunki inson hodisa, matn yoki o'zini tashkil qiluvchi matn sifatida o'rganiladi, vaholanki, u o'tmishda rivojlangan va hozirgi zamonda rivojlanayotgan dasturlar, tillar va kodlarning tashuvchisi hisoblanadi.

Fikrimizcha, ushbu muammolarni yechish davomida ta'lim ma'naviy yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan institutga aylanib, individlarda shaxsiyatning aprior berilgan dasturlari, axloqiy ideal va donolik, shuningdek, aniq abstrakt, transratsional va transsendental tafakkurning namoyon bo'lishi va rivojlanishini maqsad qiladi.

V.A.Slastenin esa, kasbiy yo'nalganlik tizimiga asoslangan holda, pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) maqsadli qadriyatlar: shaxsiy "Men" va kasbiy "Men" yig'indisidagi bo'lg'usi o'qituvchining shaxsiy konsepsiyasi. Pedagog pedagogik faoliyat maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini qidirar ekan, o'zini va o'zgalarni rivojlantirish yo'lidagi o'z kasbiy strategiyasini tanlab oladi. Binobarin, maqsadli qadriyatlar davlatning ta'lim siyosatini va pedagogika ilmining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Bu qadriyatlar subyektlashgan holda pedagogik faoliyatning ahamiyatli omillariga aylanadi va vositali qadriyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ular nazariya, metodologiya, pedagogik texnologiyalarni egallash natijasida shakllanib, pedagogning kasbiy ta'limi asosini tashkil etadi. Shaxs uchun zaruriy qadriyatlar quyidagi maqsadli qadriyatlarni o'zida aks ettiradi: o'qituvchi mehnatining ijodiy va serqirralilik tavsifi, uning nufuzi va ahamiyatliligi, jamiyat olidagi yuksak mas'uliyat, o'zini namoyon qilish, bolalarga mehr va bosh-

qalar. Bunday qadriyatlar ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi shaxsining, o'quvchi-yoshlarlar jamoasi va pedagogik jamoaning rivojlanishi bilan bog'liq pedagogik faoliyatda o'z ifodasini topadi;

2) vositali qadriyatlar: pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, monitoring, innovatika, intuitsiya tizimi. Vositali qadriyatlar maqsadli qadriyatlarga erishishda vosita bo'lib xizmat qiladi (mehnat natijalarining jamiyatda tan olinishi, shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini pedagogik faoliyat tavsifiga muvofiqligi, kasbiy o'sish va b.);

3) munosabatli qadriyatlar: pedagogik jarayon ishtirokchilarining munosabati, kasbiy-pedagogik faoliyatga munosabat;

4) sifat qadriyatlari: shaxsning xulq-atvor, faoliyatga doir xilma-xil sifatлари.

5) bilishga oid qadriyatlar. O'qituvchilik kasbining bilishga doir qadriyatlari nazariy darajada o'quvchi-yoshlarning o'qituvchilik kasbiga doir qadriyatlarni e'tirof etishi va qabul qilishi bilan bog'liq.

N.M.Egamberdiyeva esa, talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nuqtayi nazaridan pedagogik qadriyatlarni ikkita katta guruhga tasnif etishni taklif etadi: ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy-pedagogik qadriyatlar.

Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar turli ijtimoiy tizimlarda ish olib boruvchi va ijtimoiy ongda namoyon bo'luvchi qadriyatlarning tavsifi va mazmunini aks ettiradi. Bu ta'lim sohasidagi jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi g'oyalar, tushunchalar, me'yorlar, qoidalar, an'analar majmuyidir.

Shaxsiy-pedagogik qadriyatlar ijtimoiy-psixologik ta'lim sifatida yuzaga chiqib, ularda o'qituvchi shaxsining maqsadlari, motivlari, ideallari va boshqa dunyoqarashga oid xususiyatlari aks etadi. Bu xususiyatlar majmui uning qadriyatlar yo'nalishi tizimini tashkil etadi. Qadriyatlar yo'nalishi sifatidagi aksiologik "Men" nafaqat kognitiv(bilishga doir) tarkibiy qismlarni, balki insonning ichki yo'nalganligida muhim o'rin tutuvchi hissiy-irodaviy tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi. Unda ham ijtimoiy-pedagogik, ham pedagogik qadriyatlarning individual-shaxsiy tizimiga asos bo'lib xizmat qiluvchi kasbiy-jamoaviy qadri-

yatlar o'rin olgan.

Shuningdek, o'z navbatida pedagogik qadriyatlarini bunday xilma-xilligi ularni umumiy tarzda ta'limiy va tarbiyaviy qadriyatlarga ajratishga imkon beradi.

Ta'limiy qadriyatlar shaxsga ilmiy-nazariy bilimlarni berish, unda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, uning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan, shuningdek, o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi obyektiv va subyektiv omillar majmuasidir.

O'zbekistonda ta'limiy qadriyatlar sohasida tadqiqot olib borgan olim Sh.Mardonov ta'limiy qadriyatlarining o'ziga xosligiga ko'ra, bir necha guruhga tasnif etadi: global konseptual-ta'lim qadriyatlari; aniq ta'limiy qadriyatlar; ta'limning individual-shaxsiy xarakterdagi qadriyatlari; innovatsion pedagogik texnologiyalar – umum-bashariy (global)-konseptual ta'limiy qadriyatlar; shaxsni shakllantirish; ta'limning demokratik va gumanitar yo'nalganligi; insonparvarlik, shaxs dunyoqarashini shakllantirish.

Tarbiyaviy qadriyatlar deganda esa, ijobiy tarzdagi obyektiv-ijtimoiy shart-sharoitlar, munosabatlar orqali tarbiyalanuvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi moddiy va ma'naviy voqelik tushuniladi. Tarbiyaviy qadriyatlar o'zida ota-onalar va pedagoglar tarbiyalanuvchi shaxsida tarkib toptirishni xohlaydigan, fuqarolik jamiyati uchun foydali, mazkur ijtimoiy sharoitda muhim va zaruriy ahamiyat kasb etuvchi fazilat, sifat, xohish-istak, intilish kabilarni aks ettiradi.

Tarbiyaviy qadriyatlar ijtimoiy hayot va inson ongida xilma-xil muddatlarda mavjud bo'lishi; mazkur qadriyatlarining barcha jamiyatlar uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lmasligi; tarbiyaviy tizimlarda mavjud bo'la olishi va pedagogik samaradorlikni belgilashga xizmat qiladi. Ana shu bilan bog'liqlikda tarbiyaviy qadriyatlar mutlaq – shu jumladan, genetik manbadan yuzaga keluvchi umuminsoniy qadriyatlar; vaqt bilan bog'liq (vaqtinchalik) – aniq-tarixiy; barqaror – mental, etnik; individual-shaxsiy kabi turlarga bo'linadi.

Mutlaq umuminsoniy qadriyatlarga quyidagilar kiradi: diniy-ma'naviy; barcha mohiyat-e'tiborga molik kuch va individual qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon beruvchi; ichki axloqiy erkinlik, burch va majburiyatli ongni tarkib toptirishga yordam beruvchi; vijdon, sevgi, ishonch, burch, ziyolilik kabi ma'naviy poydevorga ega axloqiy individuallik va jamoaviylikni shakllantiruvchi; intellektual mulk va jismoniy mehnatga doir qobiliyatni rivojlantiruvchi; dunyoni axloqiy, estetik va ekologik idrok etish va anglashga imkon beruvchi.

Aniq tarixiy shart-sharoit va vaziyat bilan bog'liqlikda mavjud bo'luvchi vaqt bilan bog'liq tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi: mafkuraviy va siyosiy qarashlar; huquqiy va axloqiy ong va me'yor tizimi; fuqarolik ongi, xulq-atvori va fazilati darajasi; hayot va amaliy yo'nalganlik istiqboli; moda, etiketga yo'nalganlik; kasbiy yo'nalishlar.

Barqaror mental-etnik tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi: yaxlit milliy tarixiy-tajriba, ishlab chiqarishdagi o'ziga xosliklar, milliy madaniyat, geografik shart-sharoitlar, xalqaro vaziyat asosida yuzaga keluvchi milliy xarakter xususiyatlari; – an'analar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, xalq amaliy san'ati namunalari, obidalar, yodgorliklar; ta'limiy an'analar (ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalari); oilaviy an'analar va munosabatlardagi o'ziga xosliklar; xalq hunarmandchiligi; milliy badiiy tasviriy san'at, musiqa, teatr, kinomatografiya, poetik ijod; diniy qarash va e'tiqoddagi o'ziga xoslik.

Mutlaq ijtimoiy ahamiyatga ega individual-shaxsiy qadriyatlarga esa, quyidagilar kiradi: iroda erkinligi; mustaqil fikrlash, xatti-harakatlardagi mustaqillik; qonunlarga rioya etish va qonunlarni takomillashtirishga qobiliyatlilik; adolatparavarlik; ziyraklik; g'amxo'rlik; go'zallik va ezgulikka ishonch; intizomlilik, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini boshqarish; o'zligini saqlab qolish, ichki insoniy borlig'ini anglash.

Ilmiy adabiyotlarda "qadriyat", "qadriyatga yo'nalganlik", "qadriyatlar tizimi" tushunchasiga doir xilma-xil ta'riflarni uchratish mumkin.

Agar qadriyat din, mafkura, san'at kabi ijtimoiy ong shaklidan alohida ajratib qaralsa, u holda uning mustaqil ma'no-mohiyatiga nisbatan shubha uyg'onadi. Chunki inson yoki jamiyatning biror-bir ehtiyojlarining qondirilishi nafaqat, moddiy, shuningdek ideallik bilan ham aloqadorlikni aks ettiradi. Ehtiyojning o'zi ham ijtimoiy hayotning qator shart-sharoitlari va o'ziga xosliklarini aniqlab beradi. Demak, qadriyat inson va jamiyatning tashqi olamga munosabatining, ularning ichki ehtiyojlari va voqelikka munosabatlari bilan uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Mazkur munosabatning barqaror xususiyat kasb etishi inson faoliyatining maqsadi va motivlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi "qadriyatli yo'nalganlik" atamasi bilan ifoda etiladi.

Shaxsning "qadriyatga yo'nalganligi" atamasi XX asrning 20-yillarida sotsiologiya fanida U.Tomas va F.Znanskiylar tomonidan kiritilgan bo'lib, ularning fikricha ijtimoiy ustanovka – individning ijtimoiy dunyodagi real va mavjud faolligini aniqlab beruvchi individual anglash jarayonidir. Boshqacha so'z bilan aytganda, ijtimoiy ustanovka individ, guruh, yaxlitlikda jamiyat xulq-atvorini boshqarishni ta'minlovchi yadro vazifasini bajaradi. Ijtimoiy ustanovkaning paydo bo'lishidan avval individ tomonidan ehtiyoj va shart-sharoitlarning anglanishi sodir bo'ladi. Sotsiumning ta'siri jamiyat tomonidan ma'lum axborotlarni olish asosida ehtiyojlarning qondirilishiga erishish bilan belgilanadi. Shunday qilib, qadriyatga yo'nalganlik individning ongida shakllanadi, qaror topadi va o'zgarib turadi.

T.Parsonsning "Ijtimoiy harakatlarning tuzilishi haqida" deb nomlangan asarida qadriyat va qadriyatga yo'nalganlik tushunchalari o'rtasidagi aloqadorlik ajratib ko'rsatilgan. Ya'ni, sotsium madaniyatida etalonlarga intilishning namoyon bo'lishi asosida jamiyatning funktsional ehtiyojlari yuzaga chiqadi.

Qadriyatga yo'nalganlik shuningdek, o'z ichiga individning hayotiy tajribalari va orzu-armonlarini ham qamrab oladi. Ana shu sababli qadriyatga yo'nalganlik o'ziga

xos psixologik tavsifga ega bo'lib, shaxs tuzilishining barcha komponentlari va yaxlit tizimini aks ettiradi.

Pedagogik aksiologiyaga doir adabiyotlarda "qadriyatli ustanovka" tushunchasi ham uchraydi. Garchi ko'pchilik mualliflar "qadriyatli yo'nalganlik" va "qadriyatli ustanovka" tushunchalarini sinonim sifatida qo'llashsa ham, birinchilardan bo'lib M.Rokich ular orasidagi farqni alohida ajratib ko'rsatgan. Amerikalik olimning fikricha, ustanovkani ma'lum bir obyekt (konkret yoki abstrakt, shaxsiy yoki ijtimoiy)ga yoki vaziyatga nisbatan subyekt munosabatida aks etuvchi uzoq vaqt davomida shakllangan bir qancha ishonch, e'tiqodlar majmuyi deb qarash mumkin. Demak, yo'nalganlik shaxsning jamiyatdagi me'yorlar bilan inson ehtiyojlari uyg'unlashuvi aks etsa, qadriyatli ustanovkada shaxsning amaliy faoliyatda mazkur munosabatlari tizimini ro'yobga chiqarishga tayyorligi aks etadi.

Pedagogik aksiologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan olim B.Xodjayevning ta'kidlashicha, shaxsning o'zining ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog'liqlikda amaliy faoliyatga tayyorligi qadriyatli ustanovkaning mohiyatini belgilab beradi. Ustanovka shaxsning aniq faoliyatga tayyorgarlik holatini aks ettiruvchi kognitiv (bilim, axborot) va affektiv (emotsiya, hissiyot) komponentlar majmuyi sifatida namoyon bo'ladi.

"Qadriyatlar tizimi" muayyan ijtimoiy subyektlarga (shaxs, millat, jamiyat va boshqalar), biron bir davr, tarixiy bosqich yoki soha bilan bog'liq bo'lgan qadriyat shakllarining o'zaro aloqadorligi va chambarchas bog'liqligini ifodalaydigan tushunchadir.

Tizim, tuzilish, tizimni tashkil etuvchi qismlar, tizimlilik asosida yondashish usuli kabi muammolar, ularning mohiyati, mazmuni va ahamiyatiga doir falsafiy, pedagogik-psixologik adabiyotlarda nihoyatda ko'p. Tizimlilik prinsipi esa ilmiy bilish va tadqiqotlarning asosiy usullaridan biriga aylangan. Eng muhimi, ana shu prinsip va uni ilmiy bilishda namoyon bo'lish qonuniyatlarining aksiologik tadqiqotlar, qadriyatlar va qadriyat tizimlarining amaliyotini tahlil qilishda kashf etadigan o'ziga xos xusu-

siyatlarini o'rganishdir. Bu borada tarixiylik mezonining qo'shilishi hamda masala tizimlilik va tarixiy usul qoidalaridan aksiologik tizimlarga tatbiqan foydalanish tarzida qo'yilayotgan muammoni yanada dolzarblashtiradi. Bu usul muqarrar ravishda vaqt va zamon bilan bog'liq jarayonlarni har qanday tizim amaliyotining asosiy shartlaridan biri sifatida qarashni e'tirof etadi.

Har qanday tizimning vaqt va zamon bilan bog'liq xususiyatlarini tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor beriladi: muayyan tizim cheksiz tarixiylik jarayonida muayyan vaqtda paydo bo'ladi, aniq bir zamonda amal qiladi, o'ziga xos yashash davrini boshidan kechiradi. Shu ma'noda, har qanday tizimning ibtidosi – vujudga kelishi va intihosi – muqarrar ravishda o'z o'rnini boshqasiga bo'shatib berishi orasidagi tarixiy amal qilish davri mavjud. Ma'lum bir sivilizatsiya yoki etnoslar taraqqiyotining muayyan davriga xos umumiy qadriyat tizimlari xususida ham ana shunday mulohaza yuritish mumkin: ularning har biriga xos tarixiy amal qilish davrlari bo'ladi.

Tarixiylik prinsipini qadriyatlar tizimining ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liqligi masalasiga nisbatan qo'llanilganida quyidagicha xulosa chiqarish imkoni tug'iladi: taraqqiyot jarayonida muayyan qadriyat tizimlari shakllanadi, takomillashadi, inkor qilinadi va boshqasiga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Bu jarayonda inkor va vorislik dialektikasi alohida o'rin tutadi. Shu ma'noda o'tmish tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy jarayonlarning ketma-ketligi bo'lgani singari, qadriyat tizimlarining o'rin almashinuvi, inkori va yangilanishidan iborat jarayon hamdir.

Qadriyat tizimlarining amaliyotida barqarorlik va o'zgarishlar dialektikasi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Barqarorlik va o'zgarishlarning mohiyati va o'zaro aloqasi to'g'risida manbalar nihoyatda ko'p. Bizni esa, barqarorlik va o'zgarishlar dialektikasining qadriyat tizimlari amaliyotida namoyon bo'lishi va u kasb etadigan o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish, ya'ni masalaning aksiologik jihatini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish qiziqtiradi,

xolos. Qadriyat tizimlarining barqarorligi ularning boshqa tizimlardan farq qiladigan, tarkibiy qismlari mutanosiblikda namoyon bo'ladigan, bu tizimni tashkil etuvchi qismlar oqilona qadriyat mo'ljallari mezoniga mos keladigan, tizimning o'zi esa ijtimoiy subyektlarning ehtiyojlarini qondiradigan, ularning hamjihatligini ta'minlaydigan mezon sifatidagi ahamiyatini saqlab turgan biror davrdagi "real holat" in ifodalaydi.

Barqarorlik va o'zgarishlar o'rtasidagi murakkab, dialektik o'zaro aloqadorliklarni aniqlash, ilm-fanning yanada rivojlanishi va boyishining, (tizimli tahlil, tizimli yondashuv kabi) yangi tadqiqot-usullari paydo bo'lishining ilmiy asosidir. Holbuki, zamonaviy ilmiy bilishda barqarorlik va o'zgarishlarning muqoyasasi qator xususiyatlar kashf etmoqda. Subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sirning tavsifi o'zgarmoqda, ilmiy bilimlarni barqaror shakllarining murakkab dinamikasini o'zida ifodalaydigan bilish jarayonining omilkorligi oshib bormoqda. Aynan ana shunday omilkorlik va ijodiylikkina barqarorlik va o'zgarishlar jarayonining aksiologik tavsifini berish imkonini yaratadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ilmiy-falsafiy adabiyotlarda tizim, tuzilish, qism, barqarorlik, o'zgarishlar, mutanosiblik, ziddiyatlar, ularning dialektik aloqasi, namoyon bo'lishi bilan bog'liq masalalar atroflicha qarab chiqilgan. Muayyan voqelik, obyekt yoki subyekt qadri va ahamiyatining in'ikosi bo'lgan, obyektiv ravishda tasavvur qilinadigan va bilish jarayonida anglab olinadigan turli qadriyat shakllarining o'ziga xos bog'lanishini ifodalaydigan aksiologik tizimlar qadriyatlar tizimi deyiladi.

Qadriyat shakllari o'rtasidagi bog'liqlikni sistemalilik prinsipi asosida o'rganish, ularni muayyan tartibdagi tuzilishiga ega bo'lgan xilma-xil tizimlar sifatida talqin qilish imkoni borligidan dalolat beradi. Bu tizimning umumiy manzarasi uni tashkil etgan tarkibiy qismlarning o'zaro bog'lanishlari, aloqalari, munosabatlari, mutanosibligi yoki nomutanosibligi, ular orasidagi farq, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyatlarga hamda tizimdagi o'zgarishlar

va boshqa dialektik jarayonlarga bog'liq. Mutaxassislar ta'kidlaganlaridek tizim uchun faqat uni tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarning mavjudligi emas, balki muhit bilan chambarchas birlikda bo'lish ham xarakterlidir, chunki muhit bilan o'zaro munosabatlarda tizim o'zining yaxlitligini ifodalaydi. Ana shunga asoslangan holda jamiyatning umumiy ijtimoiy tuzilishiga qadriyatlarning ham eng umumiy tizimi, ushbu ijtimoiy tuzilishni tashkil etgan va o'zaro bog'langan tarkibiy qismlarga (yoki elementlarga) esa xususiy qadriyat tizimlari mos keladi, deb qarash mumkin.

Qadriyat tizimlarini tizimlilik prinsipi nuqtayi nazardan talqin qilishda quyidagi holatlarga alohida e'tibor beriladi: qadriyat tizimlari bog'langan obyektlarning o'zini ham real sistema tarzida tushinish, ularga asoslanadigan qadriyatlar tizimining murakkab tuzilishini e'tibordan qoldirmaslik; qadriyatlar tizimining tarkibiy qismlarini, ya'ni mazkur tizimni tashkil qiladigan qadriyat shakllarini aniqlash, ular o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish; qadriyatlar tizimining real manzarasidagi asosiy bog'lanishlarni aniqlash, uni tashkil etadigan tarkibiy qismlar muayyan tizimni tashkil etganlarida sodir bo'ladigan aksiologik holatni nazardan qochirmaslik; qadriyatlar tizimining shakllanishi va amaliyoti jarayonidagi ta'sir va aks ta'sirlarni, ularning orasidan asosiy, ichki va tashqi shakllarni hisobga olish; muayyan qadriyatlar tizimining barqaror va o'zgarish holatlarini, bu boradagi inkor va vorislik dialektikasini e'tiborga olish; ijtimoiy voqelikdagi jarayonlarning qadriyatlar tizimiga ta'siri, aks etishi va qadriyat tizimlarining zamona realliklariga moslashuvi jarayonini nazardan qochirmaslik.

Alohida ta'kidlash kerakki, jamiyat rivoji muayyan bosqichi yaxlit ijtimoiy organizm ekanligi, uni o'ziga xos tizim va tuzilishga egaligi hozirgi davrga kelib ko'pchilik ijtimoiy fan olimlari tomonidan e'tirof qilingan. Mutaxassislar bu to'g'rida xilma-xil qarashlarni bayon qilsalar-da, jamiyatning umumiy ijtimoiy tizim va tuzilishga ega ekanligini rad qilmaydilar. Bu xilma-xil qarashlarni o'rganishga

ilmiy tadqiqot nuqtayi nazaridan, uning hajmi imkoniyatlari darajasida e'tibor berish juda muhim.

Ammo ijtimoiy tizim va uni tuzilishini tashkil etgan tarkibiy qismlar orasidagi mutanosiblik hamda uyg'unlikka asoslangan barqaror holat yoki ular orasidagi farq, tafovut, nomutanosiblik kuchaygan, turli o'zgarishlar ro'y berayotgan hollar bilan bog'liq jarayonning akseiologik jihatini tadqiq qilishning ahamiyati ham katta. Bunda gap ijtimoiy rivojlanish muayyan bosqichning (uni qaysi ta'limotda qanday aytilishidan qat'i nazar) ijtimoiy tuzilishiga mos keladigan umumaksiologik sistema (ya'ni umumiy qadriyatlar tizimi) haqida bormoqda. Ushbu tizim uchun eng asosiy jihatlar – uni tashkil etuvchi asosiy qadriyat shakllari o'rtasidagi aloqalar, munosabatlar, muayyan uyg'unlik va mutanosiblikni jamiyat ijtimoiy tuzilishi, kishilar o'rtasida shakllangan va barqarorlashgan munosabatlar, ulardan o'zgarishlar jarayoni bilan uzviy bog'liqligidir. Aynan ana shu bog'liqlik o'z navbatida qadriyatlar tizimining biror holatdagi manzarasi uchun asos bo'ladi, undagi mutanosiblik, uyg'unlik yoki o'zgarishlarni belgilaydi.

Qadriyatlar tizimi madaniyatning asosini tashkil etib, jamiyat a'zolarining ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlari, qiziqishlari, ularning ijtimoiy harakatlari va xulq-atvorini boshqarishni o'zida aks ettiradi.

B.Bitinas va I.P.Podlasiylar qadriyatlarning uchta asosiy tizimini ajratib ko'rsatishgan: transsendental (diniy mohiyat nuqtai nazaridan qandaydir mutlaqlikka ega), ijtimoiy yo'naltirilgan – sotsiotsentrik (guruhiy, umuminsoniy, kasbiy, milliy va h.k.) va antropotsentrik (individual).

M.A.Makarevich qadriyatlar tizimini quyidagi guruhlarga ajratgan:

Hayot mazmunini belgilab beruvchi (yaxshilik, yomonlik, baxt, farovonlik), universal (hayotiy (vital), demokratik, ijtimoiy obro'e'tibor, shaxsiy rivojlanish, shaxslararo munosabat), norasmiy (an'anaviy, diniy va urbanizatsiyaga oid) va jamoaviy (o'zaro bir-biriga yordam berish va birdamlik). Hayotiy (vital) qadriyatlarga deganda inson hayotini muhofaza qilish va uzaytirishga yo'naltirilgan bir-

lamchi va oddiy ehtiyojlar tushuniladi. Hayot mazmunining belgilab beruvchi qadriyatlar esa murakkab tuzilishga ega bo'lib, butun inson hayotini murakkabliklari va g'aroyibotlarga boyligini ifoda etadi.

P.A.Sorokin qadriyatlar tizimining uchta turini ajratib ko'rsatgan:

– ideatsional qadriyatlar tizimi. Mazkur tizimga doir qadriyatlar va iduallar o'zgarishsiz va doimiy, mutlaq tavsifga ega bo'lib, ularni tushunib yetish jarayonida yuzaga keladigan to'siqlarni yengib o'tish jarayonida insonda hissiy qoniqish yuzaga keladi;

– hissiy qadriyatlar tizimi. Mazkur tizimga xos qadriyatlar mutlaq ko'rinish kasb etmaydi, individ ishtirok etayotgan vaziyat bilan bog'liqlikda amal qiladi;

– ideal qadriyatlar tizimi. Ideatsional va hissiy qadriyatlarining umumlashtirish asosida tarkib topadi.

Tizimli, subyektiv va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar va qadriyatga yo'naltirilgan faoliyatning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda "qadriyat" tushunchasi o'quvchi-yoshlarning kasbning ijtimoiy ahamiyatini to'liq anglab yetilganligi tavsifida bo'lg'usi pedagogik faoliyatga subyektiv munosabati va bahosini ifoda etishi haqidagi xulosaga kelindi. Mazkur asosga tayangan holda "qadriyatlar tizimi" tushunchasiga barqaror, doimiy va dinamik-funksional aloqadorlikka ega qadriyatga yo'naltirilgan (baholashga doir) faoliyat asosida kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllanadigan komponentlar (qadriyatning turlari va shakllari) majmuyidir, tarzida ta'rif berildi.

Ma'lumki, tadqiqot predmetining kategorial apparati sifat darajasi ko'p jihatdan pedagogik vazifalarni hal qilish mezonlari va pedagogik hodisalar mohiyatini belgilab beradi. Pedagogika oliy ta'lim muassasasi o'quvchi-yoshlarlarida qadriyatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish uchun eng avvalo, "rivojlanish" va "shakllantirish" tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Tadqiqot doirasida "rivojlantirish" atamasi qo'llanilganligi bois shunday xulosaga kelindi.

B.M.Bim-Badning ta'rifiga ko'ra, ta'lim o'zida tarbiya, o'qish va o'qitishni qamrab oladi. V.I.Andreyev "ta'lim"ni "madaniyat"da o'z aksini topuvchi, o'qitish va tarbiya orqali amalga oshiriluvchi hodisa sifatida talqin qiladi. O'z navbatida "o'qitish" kategoriyasi insonning "ta'limi", "tarbiyasi" va "rivojlanishi" tushunchalari orqali ochib beriladi. Ba'zi adabiyotlarda "rivojlanish", "shakllanish" orqali amalga oshadi, deb qayd etilsa, boshqalarida "shakllanish" "rivojlanish" orqali deb ta'kidlanadi. Shunga qaramasdan, ko'plab mualliflar "rivojlanish" tushunchasining nisbatan kengroq va qamrovliroq ekanligini hamda shaxsning asosiy – motivatsion ehtiyojlari, kognitiv, irodaviy rivojlanish sohasidagi o'zgarishlar dinamikasini ifodalashda ko'proq qo'llanilishini e'tirof etadilar.

Tahlillarimizdan ma'lum bo'ldiki, "shakllanish" kategoriyasi ko'proq tarbiya muammolariga bag'ishlangan pedagogik tadqiqotlarda uchraydi. Biroq odatda u turli ma'noda talqin qilinadi. Aksariyat holatlarda shaxs rivojlanishi quyidagi tushunchalar bilan ifodalanadi:

a) turli vaziyat va sharoitlarda namoyon bo'luvchi, shaxsning ichki qarashlarini belgilab beruvchi yetakchi motivlar tizimi;

b) jamiyatda mavjud bo'lishning o'ziga xosligini belgilab beruvchi shaxs o'zagi, asosi;

v) tashqi ta'sirlarning ichki shartlar bilan qo'shib umumiy yo'naltirilganlikni kasb etuvchi, tashqi va ichki sharoitlar birligining ifodasi;

g) motivlar, qiziqishlar, ehtiyojlar, intilishlar, g'oyalar, e'tiqodlar.

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda "rivojlantirish" atamasi individga, uning psixikasiga munosabat nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Ya'ni rivojlanish bu – individning ichki zaruriy xatti-harakati, "o'z-o'zini harakatlantirishi" bo'lib, tashqi ta'sir doimiy ravishda ichki yo'nalganlik asosida harakatlanadi. Rivojlanish bu – inson jismoniy va ma'naviy rivojlanishining ketma-ketlikda amalga oshirgan miqdor va sifat o'zgarishlarining obyektiv jarayoni.

I.P.Podlasiy "Rivojlanish ichki va tashqi shart-sharoit-

lar bilan shartlanadi. Ichki shart-sharoitlarga organizmning fiziologik va psixologik xususiyatlari kiradi. Tashqi shart-sharoit insonni o'rab turgan borliq, u yashaydigan va rivojlanadigan muhitdir. Tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir asosida insonning ichki borlig'i o'zgaradi, o'z navbatida keyingi o'zgarishlarga olib keluvchi yangi munosabatlarni shakllantiradi", degan umumiy qonuniyatni ko'rsatib o'tgan.

Qadriyatlar tizimi tuzilmasi kasbiy qadriyatlar majmuyi sifatida namoyon bo'ladi. Kasbiy qadriyatlar subyekt tomonidan pedagogik kompetentlik tizimida muhim ahamiyat kasb etadigan faoliyat sohasining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatining anglanganligi, ijobiy-emotsional munosabatning qaror topishi va shaxs ichki yo'nalganligini belgilab berishga xizmat qiladi.

Kasbiy-qadriyatga yo'nalganlik o'z navbatida pedagogik faoliyatga doir ilmiy bilimlarni egallash va aksiologik munosabatni shakllantirishga imkon beradigan kognitiv (kasbiy bilimga doir qadriyatlar), pedagogik faoliyatga shaxsiy munosabat orqali aniqlashtiriladigan emotsional komponent (kasbiy munosabat qadriyatlari) va pedagogik faoliyatda aksiologik munosabatni qaror toptirishga imkon beradigan xulq-atvor komponenti (kasbiy ko'nikmalarga doir)dan tashkil topadi.

Tarbiyaga texnologik yondashuv – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o'zida uning ko'p omilliligi – ko'plab omillar ta'siriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo'lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo'naltirilganligi, ko'p bosqichlilik bilan bog'liq ravishda mujassamdirl. Ko'p bosqichlilik tarbiyalanuvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o'zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda to'g'ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga

o'tish bilan tavsiflanadi. Shunga asosan V.S.Selivanov tarbiya jarayoni, uning bosqichlari ketma-ketligi murakkab o'ziga xoslikka ega ekanligi haqidagi xulosaga keladi. Tarbiya, shaxs sifatlarini shakllantirish emotsional yo'nalganlik, xulqning ma'lum shakliga ijodiy munosabat uyg'otishdan boshlanadi. Ikkinchi bosqich harakatni to'g'ri bajarish malakasini, ya'ni to'g'ri xatti-harakat qilishni mashq qilish sanaladi. Keyinchalik harakatni unga ijobiy munosabat bilan ko'p marta bajarish davomida oqilona xulq-atvorga odatlantiriladi. Tushunchani o'zlashtirish (shakllantirish) – tarbiya jarayonining keyingi bosqichi. O'zlashtirilgan tushunchalar asosida ijtimoiy xulq tajribasi tashkil qilinadi.

Ishlab chiqarish jarayonida oddiy va aniq-ravshan tartib mavjud, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish murakkab va mazkur jarayonni texnologiyalashtirish ishlab chiqarishga o'xshash bo'lmagan kutilmaydigan belgilarga ega jarayondir:

1) ishlab chiqarish jarayonlaridan farqli ravishda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish yaxlit tavsifga ega, pedagogik ta'sir kichik qadamlar yoki alohida sifatarni bosqichma-bosqich shakllantirish tarzida amalga oshadi.

Tarbiyaviy ta'sir bosqima-bosqich, parallel tarzda emas, yaxlit tarzda amalga oshiriladi; shaxsni mazkur jarayonga olib kirish murakkab ish bo'lib, tarbiyachidan texnologik jarayonni boshidan oxirigacha olib borishni talab etadi. Bu yerda umumiy texnologiyaga asoslangan holda, individual mahoratga ega bo'lishi talab etiladi.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, Sh.T.Ergasheva shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga quyidagi bosqichlar ketma-ketligi sifatida qaraydi:

- qadriyatli yo'naltirilgan bosqich mavjud shaxsiy tajribani o'zining ma'naviy-axloqiy shakllanishining boshlang'ich bazasi sifatida aniqlash va dolzarblashtirishni ko'zda tutadi, o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi mazmun jihatini hamda keyingi faoliyati yo'nalishini belgilashda yordam beradi;

- kognitiv-intellektual bosqich bo'lajak mutaxas-

sisning hayotiy-amaliy, ilmiy va kasbiy bilimlar, qadriyatlar, munosabatlar olamiga kirishi; o'z fikrlari, g'oyalari, xatti-harakatlarini anglash va baholash imkonini beradigan ongning reflektivligi, shuningdek ilmiy bilimlar va dunyoni sezishi asosida o'zining subyektiv tajribasini tashkil etish ehtiyoji bilan tavsiflanadi;

- modelni realizatsiyalashning faoliyatli-xulqiy bosqichi o'quvchi harakatlarining reproduktiv, izlanishli va kreativ shakllari bilan bog'liq. Bu bosqichda uning ichki pozitsiyasini harakatlarning tashqi rejasiga o'tkazish, aksiologik ongning aniq faoliyatda – xulqda, xatti-harakatlarda namoyon bo'lishi ro'y beradi. O'quvchida o'z bilimlari, o'z axloqiy rivojlanish doirasini kengaytirish ehtiyoji yuzaga keladi. O'quvchi axloqiy shakllanishining bu bosqichi uning butun hayoti mobaynida, dastlab kollej va OO'Yu ta'limi jarayonida, keyin ulardan tashqarida – kasbda, hayotda davom etadi. Taklif qilingan modelda axloqiy tarbiyaning mazmunli va tashkiliy-metodik tarkibiy qismlari birgalikda taqdim etilgan .

Sh.T.Ergasheva tomonidan taklif etilgan axloqiy tarbiya texnologiyasi quyidagi uch bosqichni o'z ichiga oladi:

- o'quvchining shaxsiy axloqiy tajribasini aniqlash;
- axloqiy qadriyatlarni bilish va anglash;
- ichki nuqtayi nazarni tashqi harakatlar rejasiga o'tkazish.

I.F.Xarlamovning axloqiy sifatlarni tarbiyalash texnologiyasi esa o'ziga xos ko'rsatkichlarga ega:

- axloqiy rivojlanish ziddiyatlarini, axloqiy sifatlarni rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash;
- kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha vazifalarni belgilash;
- o'quvchilarni shakllantiriladigan sifat mohiyatini anglashga qaratilgan bilish faoliyatiga jalb qilish;
- rolli va xulqiy tarkibiy qismlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish;
- to'g'ri xatti-harakatni mashq qildirish, uni mustahkamlash .

Mazkur texnologik yondashuvlardan ko'rinadiki, texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o'zida uning ko'p omilliligi – ko'plab omillar ta'siriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo'lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo'naltirilganligi, ko'p bosqichlilik bilan bog'liq ravishda mujassamdir. Ko'p bosqichlilik tarbiyalanuvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o'zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda to'g'ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o'tish bilan tavsiflanadi. Xulq-atvor(odatlar)ning ma'lum shakllarini shakllantirish jarayonini bu kabi tasavvur qilishga muvofiq tarzda umuman tarbiyaning ketma-ketligi haqidagi tasavvur shakllanadi: dastlab xulq-atvor qoidalari va me'yorlari haqidagi bilimlar o'zlashtiriladi, keyin o'zini risoladagidek tutish malakalari ishlanadi, nihoyat, tizimli mashq qilish yo'li bilan oqilona xulq-atvor odatlari tarbiyalanadi. Shunga asosan V.S.Selivanov tarbiya jarayoni, uning bosqichlari ketma-ketligi murakkab o'ziga xoslikka ega ekanligi haqidagi xulosaga keladi. Tarbiya, shaxs sifatlarini shakllantirish emotsional yo'nalganlik, xulqning ma'lum shakliga ijodiy munosabat uyg'otishdan boshlanadi. Ikkinchi bosqich harakatni to'g'ri bajarish malakasini, ya'ni to'g'ri xatti-harakat qilishni mashq qilish sanaladi. Shu asosda bolada to'g'ri xulq-atvor me'yori haqida tasavvur shakllanadi. Keyinchalik harakatni unga ijobiy munosabat bilan ko'p marta bajarish davomida oqilona xulq-atvorga odatlantiriladi. Tushunchani o'zlashtirish (shakllantirish) – tarbiya jarayonining keyingi bosqichi. O'zlashtirilgan tushunchalar asosida ijtimoiy xulq tajribasi tashkil qilinadi va etika, estetika, insoniy munosabatlar va jamiyat haqidagi boshqa fan asoslari o'zlashtiriladi.

V.S.Selivanovning axloqiy tarbiya texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- xulqning ma'lum shakliga ijobiy emotsional munosabat uyg'otish;

- oqilona xatti-harakat tarzini hosil qilish;
- xulqning ijtimoiy ma'qullanadigan shakli haqida tasavvurni shakllantirish va mustahkamlash;
- oqilona xulq-atvor odatlarini tarbiyalashga doir mashqlar;
- tushunchani o'zlashtirish.

N.M.Egamberdiyevaning pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishga doir tadqiqotida talabalarni o'quv-ijodiy faoliyatda faol ishtirok etishini ta'minlash, shuningdek, nazariyaning amaliy-kasbiy faoliyat bilan aloqasini, umumiy madaniyat va etika haqidagi umumiy tasavvurlarning pedagogik madaniyat va axloqshunoslik bilan aloqasini ta'minlashda "ijtimoiylashuv" texnologiyasi samarali vosita sifatida qo'llanilgan. Mazkur ijtimoiylashtirish texnologiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

1. Bosqichma-bosqich ijtimoiylashuv (birinchi bosqich: talabalarining kichik guruhi – butun guruh; ikkinchi bosqich: butun guruh – ta'lim muassasasidagi aniq kasbiy faoliyat)ni nazarda tutish.

2. Talabalar faoliyatini har bir bosqichda algoritmlashtirish orqali amalga oshirish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida bayon etilgan mazkur texnologiyalarning butun tizimi alohida-alohida qismlarga ajratish, pedagogik shakl va metodlarning aniq turini to'g'ri belgilab olishga katta ehtiyoj mavjud. Qaysi pedagogik vositalar yordamida axloqiy ideallarning axloqiy e'tiqod, o'quvchining xatti-harakati va sifatlariga o'tishini ko'rsatib berish kerak. Texnologiyalar algoritmi bosqichliligi jarayonni qayta hosil qilishni talab etadi, masalan, emotsional munosabatning munozaraga o'rin qoldirmaydigan ahamiyatiga qaramay, undan oldin "taqdim qilish" (qadriyatni namoyish qilish, tushuntirish) bosqichini amalga oshirish zarur.

Tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq, qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan qadamlar

ketma-ketligi texnologik jarayonni o'zida ifoda etadi.

Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvga doir nazariyalarni chuqur tahlil etish asosida mazkur hodisaga tegishli quyidagi muhim jihatlar aniqlashtirildi:

- tushunchaga berilgan ta'riflar o'zining asosiy mohiyat tavsifiga ko'ra bir-biriga mos keladi va qarama-qarshi holat mavjud emas;

- barcha ta'riflar asosida texnologiyani qo'yilgan maqsadga erishishga doir tarkibiy qismlar yig'indisi tashkil etishi tushuniladi;

- texnologik jarayon real amaliyot bilan uyg'un;

- amalga oshirilayotgan obyekt yoki jarayonni to'liq izohlab beradi.

Falsafiy, sotsiologik, psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, refleksiya fikrlashni o'rganish, o'z-o'zini bilish, muloqotga kirishish, o'z-o'zini anglash va o'z-o'ziga ta'lim berish, shu bilan birga bilimlarni o'zlashtirish va ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirishda reflektiv yondashuv g'oyasi undan ham o'quv jarayonida, ham auditoriyadan tashqari faoliyatda foydalanishga imkon beradi.

Refleksiya deganda talabalarda qadriyatlar tizimining tuzilishini tushunish va anglashning shaxsiy shakl va shart-sharoitlariga yo'naltirilgan fikrlash qobiliyatlari va tamoyillarini nazarda tutildi.

Nazariy va amaliy tadqiqot ishlarini o'rganish talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishga imkon berdi. Mazkur texnologiyaning asosiy maqsadi talabalarda pedagoglik kasbiga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish shaxsiy-ijtimoiy anglangan yo'nalishlarni erkin tanlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya to'rt qismdan iborat:

- nazariy-metodologik (tarbiyalanuvchilarda insonparvarlik ruhini shakllantirishning maqsad, vazifa, tamo-

yillari);

- mazmunli (uchlik – “bilim – qadriyat – faoliyat”da amalga oshiriluvchi insonparvarlik mazmuni);

- protsessual (refleksiv metod va usullar asosida tarbiyalash jarayonida pedagog va tarbiyachining faoliyati tizimi), baholovchi (ko'rsatkichlar, darajalari, ularning muvaffaqiyati mezonlari).

Texnologiyaning metodologik asoslari munosabatli, aksiologik, madaniyatshunoslik, subyektli, faoliyatli tamoyillar, bundan tashqari yaxlitlik, tizimlilik asosidagi insonparvarlik pedagogikasiga asoslangan.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. O'quvchi-yoshlarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning tarixiy-falsafiy masalalari haqida nimalarni bilasiz?
2. O'quvchi-yoshlarda qadriyatlar tizimini shakllantirish tamoyillari va mezonlarining yutuq va kamchililari nimalardan iborat?
3. O'quvchi-yoshlarda qadriyatlar tizimini shakllantirish texnologiyasi deganda nimaning tushunasiz?

20-§. O'QUVCHI-YOSHLARDA TOLERANTLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH



Tayanch tushunchalar: tolerantlik, tolerantlik madaniyati, madaniyat, texnologiya, metodik ta'minot, axboriy ta'minot, ijtimoiy guruhlar, etnik jamoa, tarbiya, ijtimoiy omil, ta'lim jarayoni.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning konseptual-metodologik masalalari.

! **Tolerantlik** (lot. *tolerantia* – “chidam”, “sabr-toqat”), bag'rikenglik – o'zgarlarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulo-hazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lish.

Bu bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahil-likda yashashidir. Biror-bir insonda yoki biror-bir begona madaniyatda bizga nimadir yoqmasligi mumkin, biroq o'zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazmasa, joriy qonunlarni buzmasa ularning mavjudligi va rivojlantirishini tan olishimiz kerak. Ya'ni tolerantlik bu o'zgalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatiga passiv, tabiiy ravishda bo'ysunishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yo'lidagi faol axloqiy nuqtayi nazar va psixologik hamkorlikni anglatadi.

Ijtimoiy ishga doir lug'at-ma'lumotnomada esa: “Tolerantlik – ijtimoiy ishning boshqaruv tamoyili, individlar, guruhlar va ijtimoiy hamjamiyatlar o'rtasidagi madaniy, irqiy va boshqa tafovutlarni tan olish, odamlarning tashqi qiyofasi, xatti-harakati, qadriyatlar yo'nalishi va ulardagi farqlarga nisbatan bag'rikenglikdir”, deyilgan.

“Tolerantlik” tushunchasi uzoq asrlar davomida shakllandi va hozirgi vaqtda ham turli belgilar bilan to'ldi-

rib borilmoqda. Tolerantlik tushunchasi turli madaniyat va xalqning tarixiy tajribasi bilan bog'liqlikda xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. O'zbek tilida nashr etilgan lug'atlarda "tolerantlik"ning "bag'rikenglik" tushunchasi bilan sinonim sifatida ishlatilish holati ko'zga tashlanadi: "Bag'rikenglik – o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g'amxo'r, saxiy, kengfe'lli bo'lgan, ana shunday ma'naviy fazilatlariga ega kishilarni ifodalovchi tushuncha. Bag'rikenglik o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlariga hurmat-ehtiromda bo'lish, muomala-munosabatda kamsitish va tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla-kuyda bunga rioya etishni anglatadi. Mazkur tushuncha turli dindagi, turli millat va elatlarga mansub kishilarning bir mamlakat doirasida, yagona davlat tarkibida bahamjihat, tinch-osoyishta yashashini ifoda etadi".

Xuddi shunday boshqa xalqlarda ham mazkur tushunchaning o'ziga xos ta'riflari mavjud. Quyida A.Ro'ziyev tomonidan amalga oshirilgan tasnif asosidagi dunyo tillarida tolerantlikni ta'riflovchi atamalarning lug'aviy ma'nolarini keltirib o'tamiz:

1) tolerance (ingl.) – muruvvatli, sabr-toqatli bo'lishga tayyorlik; to tolerance – sabr-toqatli bo'lish, hech bir ta'qiqlashsiz o'z fikrlarini namoyon qilish huquqini berish;

2) tolerance (fr.) – boshqalar bizlarga qaraganda yaxshiroq va mukammalroq fikrlashlari mumkinligiga bo'lgan qat'iy ishonch;

3) tolerancia (isp.) – o'z fikrlari va g'oyalari ham mukammalrog'lari borligini tan olish;

4) kuan rong (xit.) – boshqalarni boricha qabul qilish va boshqalarga bag'rikeng munosabatda bo'lish;

5) tasamul (arab.) – ko'ngilchanlik, rahm-shafqatlilik, kechirimlilik, boshqalarni boricha qabul qilish va kechirish;

6) tolerantnost (rus) – sabrli bo'lish (o'zini tuta bilish, toqatli bo'lish, har qanday sharoitda murosa qila olish), boshqalarning borligini qabul qilish va tan olish, boshqalarga yoki biror narsaga munosib yoinki munosib emasligini anglash, tan olish.

Bugungi kunda “tolerantlik” tushunchasining turli fanlarning obykti sifatida tadqiq etilayotganligi mazkur atamaning fanlar doirasidagi ta’riflarining shakllanish holatini ham yuzaga keltirdi. Jumladan, falsafiy tadqiqotlarda mazkur tushuncha dunyoqarash sifatida turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar va konfessiyalar (diniy e’tiqodlar) ning yashashga bo’lgan huquqini tan olish, balki ularning o’zaro munosabatlari va aloqalarining umumiy qoidalari majmuyi ekanligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda qayd etilishicha esa, tolerantlikka falsafiy kategoriya sifatida qaralib, materiyaning obyektiv amal qilish shakli tarzida, ya’ni tushuncha holda ongda o’z ifodasini topishini ham e’tibordan soqit qilmaslik kerak. Tolerantlik – o’zga shaxsga yoki narsaga, yoxud begona, yoinki farqlanuvchi shaxs – hodisaga nisbatan o’z his-tuyg’ularimizni qo’lga ola bilish demakdir. O’z-o’zini cheklash iroda kuchiga ega bo’lmoqlik demakdir. Tolerantlik o’z-o’zini cheklash orqali ifodalangan irodadir va bu o’zgalarga xayrixoh – murosasozlik bilan qarash imkoniyatini bildiradi.

Psixologik nuqtayi nazardan tolerantlik – insoniy bag’rikenglikning bir ko’rinishi yoki ifodasi bo’lib, inson uchun yoqimsiz, noxush bo’lgan biror omilga nisbatan qat’iy javobning yo’qligi yoki uning kuchsizligini bildiradi. O’sha vaziyat yoki omil qanchalik shaxsga yoqmasada, u bunga chidaydi, bosliqlik qiladi, kerak bo’lsa moslashadi.

Falsafiy, sotsiologik va psixologik nuqtayi nazarlarga tayangan holda, pedagogika fani tolerantlik tarbiyasi tushunchasiga quyidagi ta’rif berishi o’rinli bo’ladi: “Tolerantlik tarbiyasi deganda, uzluksiz ta’lim jarayonida tarbiyalanuvchilarda tolerantlikka doir tushunchalar, sifatlar, odatlar, xulq-atvor, qadriyatlar tizimini tarkib toptirishga qaratilgan, maqsadli yo’naltirilgan, izchil, tizimli pedagogik jarayon tushuniladi”.

Tolerant xulq-atvorga ega shaxsni tarbiyalash masalasiga qadimgi davrlardanoq, alohida e’tibor qaratib kelingan. Erkinlik, inson shaxsiga hurmat, uning individualligi kabi qadriyatlar tizimi bilan bog’liqlikda mazkur fazilat

noyob hodisa sifatida eng qadimgi davrlardayoq, yuzaga kelgan.

Jumladan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan "Avesto"da mazkur fazilatning mohiyati batafsil yoritib berilgan. "Avesto"dagi axloqiy tarbiyaning asosini terisining rangi, tili va yashash manzilidan qat'iy nazar poktiynat, halol, qalban sof insonlarni tarbiyalash masalasi tashkil etadi. "Pok va beayb tug'ilmoq, yoziqsiz dunyoga qadam qo'ymoq odamlar taqdiri va tirikligida nechog'li ulug' tole'dir. Odamning odobligi, jahonning osoyishtaligi uchun jid-u jahd qilmoq, uni asramoq va yorug'likka tomon eltmoq kerak" degan fikrning o'zidayoq, irqiy tolerantlik yorqin ifoda etilgan. "Avesto"da behuda qon to'kuvchi urushlar, qirg'inlar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik hujumlari qoralanib, o'troq, tinch, osuda, osoyishta hayot kechirishga ham da'vat etiladi: "Jahon ahliga ozor yetkazmoqchi bo'lganlarning kirdikoridan menga hech ranj yetmagaydir. Bu dushmanona xatti-harakatlarning kasri dushmanlarning o'ziga qaytgaydir", deb alohida ta'kidlanadi.

Shuningdek, islom dinining muqaddas manbalari Qur'oni karim va Hadisi shariflarda ham insonning bag'rikengligi, mehr-muravvat ko'rsata olishi kabi sifatlar ulug'lanadi. Masalan, hadislarda boshqa dinlarga mansub bo'lgan kishilarga tazyiq o'tkazish, qoralash katta gunoh ekani aytilib, odamlarni bunday illatlardan yiroq yurishga da'vat etiladi: "Kimki musulmon mamlakatida yashovchi boshqa dinga mansub kishini haqorat qilsa, qiyomat kuni o'tdan yasalgan qamchi bilan savalanadi", "Kimki sulh bitimi bilan yashayotgan g'ayridinni o'ldirsa, u jannatning bo'yini ham hidlamaydi", "Qora tanli xalqlarni ham do'st tutaveringlar, zero, ulardan uch nafari jannat ahlining ulug'laridan bo'lurlar: Luqmoni Hakim, Najoshiy, Muazzin Bilol Habashiy".

Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabilarning asarlarida ham mazkur fazilatning muhim jihatlari yoritib berilgan. Masalan, Sharqning buyuk allomasi Abu Nasr Forobiy shunday yozadi: "Ba'zi odamlar o'rtasida tabiiy yoki ixtiyoriy

bog'lanishlar yo'q, har bir odam o'z manfaati uchun zarar yetkazish, biri boshqasiga begona bo'lishi zarur, mabodo ular birlashmasalar ham zarurat, majburiyat tufayli birlashadilar, o'zaro murosaga kelishsalar ham faqat biri g'olib chiqadi. Boshqalar mag'lub bo'lganda murosaga keladilar deb o'ylaydilar. Bunda ular tashqaridan ta'sir etuvchi bir kuch tazyiqidan o'zaro kelishuvga majbur bo'ladilar, agar ana shu kuch yo'qolsa kelishuv ham yo'qoladi. Yana begonalashuv paydo bo'ladi va ular tarqalib ketadilar. Insoniyatga xos hayvoniy aqidalardan biri mana shu noto'g'ri tasavvur va aldamchi aqidadir”.

Forobiyning bu fikrlaridan ko'rinib turibdiki, u insonlarning birgalikda o'zaro, ixtiyoriy ravishda birlashib, hamkorlikda yashashlari zarurligi natijasida turli nizolar bartaraf etilishini uqtiradi. Haqiqatdan ham, tolerantlikni ifodalovchi xususiyatlarga kishilarning hammasi ham ongli ravishda bo'ysunavermaydi, balki ularning bir qismi ko'pchilikka taqliddan, masala mohiyatini yetarli his etmasdan turib ham amal qilaveradilar.

Ibn Sino insoniyatning kelib chiqishi bir ekanligini ta'kidlab irqiy motivlarga asoslangan har qanday zo'ravonlikni qoralaydi. Shuningdek, milliy va diniy kamsitishlar, chegaralashlar xalqlar, ijtimoiy guruhlar, alohida odamlar orasidagi o'zaro tinch, do'stona munosabatga rahna solishini ko'rsatadi. O'z izlanishlari jarayonida buyuk mutafakkir insonlar qaysi dinga va irqqa mansubligidan qat'iy nazar yagona Olloh oldida tengdirlar degan g'oyani yanada rivojlantiradi.

Ibn Sino xalqlar, davlatlar o'rtasidagi nizolar, urushlarni qoralaydi. Shoh Mahmud G'aznaviy ta'qibidan shahardan shaharga qochib yurgan Ibn Sino uning istilochilik faoliyatini tanqid ostiga olib, turli din va millat vakillari boshiga tushgan kulfat, shaharlarning buzilishi, qamal qilinishi natijasida ochlik asosida har xil kasalliklar tarqalishi to'g'risida fikr yuritadi.

Shuningdek, diniy mutaasiblik avj olgan vaqtda Ibn Sino barcha insonlar teng degan aqidaga asoslangan holda, yahudiylar, xristianlar va boshqa dinga mansub insonlar-

ni davolab, parvarish qilib, kasalliklardan forig' qiladi. Bu unda bag'rikenglik, olijanoblik, mardlik, insonparvarlik kabi xususiyatlar oliy darajada mujassamlashganligini ko'rsatadi.

Beruniyning ma'naviy-ma'rifiy ta'limotida millatlar, xalqlar, elatlar tengligi, birodarligi umumbashariy qadriyat sifatida ulug'lanadi. U biron-bir xalqni yoki e'tiqodni sababsiz ulug'lab, boshqasini qoloqlikda ayblamagan.

Dunyodagi barcha xalqlarga hurmat bilan qarash, ularning tarixi, madaniyati, turmush tarzi, hayoti, odob-axloqi, tili, milliy urf-odatlarini va qadriyatlarini e'zozlash yuksak ma'naviyat, hozirgi ta'bir bilan aytsak tolerantlikdir. Olim o'zining "Hindiston" asarida xalqlarni do'st, inoq, ittifoq bo'lib yashashi, madaniy-ma'rifiy hamkorligi va hamjihatliligiga xalaqit beradigan urushlarni afsuslanib tilga oladi. U xalqlar o'rtasida to'g'ri munosabatlarni o'rnatishda milliy va diniy chegaralanishni bartaraf qilish lozim, degan g'oyani ilgari surdi. Beruniy hindlarning ayrim millatchilik, mahalliychilik qarashlarini keskin qoralaydi. "Ahmoqlik, da'vosi yo'q bir kasallikdir, shundayki, ularning e'tiqodicha, - deydi alloma. - Dunyoda o'z yerlaridan boshqa yer yo'q, jinslaridan boshqa xalq yo'q, o'z boshliqlaridan boshqa podshohlar yo'q, o'zlaridagidan boshqa ilm yo'q va dinlaridan boshqa din yo'qdir. O'zlarini yuqori tutib, bema'ni harakat qiladilar va kibrlanib, bilimsiz qoladilar. O'rgangan narsalariga baxillik qilib, o'z jinslaridan bo'lsa ham, noahil o'zga kishiga o'rgatmaydilar".

Tasavvuf ta'limoti VIII asr oxiri va IX asr boshlarida paydo bo'lib, butun musulmon mamlakatlarida, jumladan, Movarounnahrda ham keng tarqalgan. Tasavvuf butun Sharq ma'naviy hayotida inson kamoloti haqidagi g'oyalarning shakllanishida muhim rol o'ynagan.

So'fiylik ta'limotida komil inson – bu dono, oqil, pok niyatli odamdir. Ular ilohiy poklik, nafasat, e'tiqod va tafakkur insoniyatni balo-qazolardan asraydi, ularni avaylab asraydi, deb bilganlar. So'fiylar ana shu yo'l, – mana shu haqiqat uchun intilganlar. Aslida esa, komil inson bu – ularning ideali, orzusi bo'lgan. Ular ana shu komil inson, ma'rifatli inson ideali orqali johiliyat va nodonlikka, hirs

va ta'maga qarshi bel bog'laganlar. Taniqli olim N.Komilov ta'rifi bilan aytganda: "Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayz-u karomatdan serob, siyrat-u, suvrati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zot". Komil insonning eng muhim fazilatlaridan biri bag'rikenglikdir. Bag'rikenglik g'oyasining tasavvuf ta'limoti namoyondalari tomonidan o'ziga xos va chuqur yoritib berilganligi alohida e'tiborga loyiqdir.

Tasavvuf ta'limotining yetuk namoyondalaridan biri Abdulxoliq G'ijduvoni bag'rikenglik – xilma-xillik va rang-baranglikni qabul etish, ularga umumiy go'zallikning bir jabhasi sifatida qarab, e'zozlab, ular bilan uyg'un bo'lib yashashdir, deb hisoblaydi. Abdulxoliq G'ijduvoni ta'limotining asl mohiyati ham bag'rikenglikdir. Abdulxoliq G'ijduvoni asoslagan xojagon tariqati yo'li ham, asarlari – "Maqsad as solikin", "Maslak al orifin", "Risolayi sohibiya", "Vasiyatnoma"lardagi g'oyalari ham bag'rikenglikka chorlaydi. Bularning tahlili shuni ko'rsatadiki, Abdulxoliq G'ijduvoni bag'rikenglikni juda keng ma'noda tushungan va uni umuminsoniy qadriyat sifatida e'zozlagan. Falsafa fanlari doktori G.Navro'zova Abdulxoliq G'ijduvoni asarlari asosida bag'rikenglikni qanday namoyon bo'lishini hisobga olgan holda, quyidagicha guruhlaydi:

1. Insoniy bag'rikenglik – insonning butun borliqqa muhabbati va uyg'un harakati.

2. Oilaviy bag'rikenglik – oila eshigining va oila ahli qalbining ochiqligi, mehmonnavozlik, mehribon va g'amxo'r bo'lish.

3. Mahalliy bag'rikenglik – qavm-qarindosh, qo'ni-qo'shni, turli din va millat vakillarining hamjihatlik va hamkorlikda o'zaro yordam qo'lini cho'zib yashashi.

4. El-yurt bag'rikengligi – mamlakat ahli bir-birining urf-odat, e'tiqod, g'oyalarni tan olib, hamkor va hamjihat bo'lib yashashi.

5. Xalqlar va millatlararo bag'rikenglik – millati, irqi, jinsi darajasi, yashash joyidan qat'iy nazar birlik va do'stlikda umr kechirishdir.

Abdulxoliq G'jduvoniyy ta'limotidagi bag'rikenglik turiga qarab quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Etno-psixologik bag'rikenglik – har bir xalq, qabilaning urf-odati, qadriyati ruhiy o'ziga xosligini tan olish, qadrlash, hurmat etish, qabul qilish.

2. Milliy bag'rikenglik – turli millatlarning yonma-yon tenglik va do'stlik asosida yashashi.

3. Irqiy bag'rikenglik – turli irqning teng huquqligini tan olib, ular bilan bahamjihat umr kechirish.

4. Jinsiy bag'rikenglik – jinslar o'rtasidagi tenglikni tan olish, ayollarni e'zozlash, qadrlash.

5. Diniy bag'rikenglik – turli xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir manzil-makonda ezgu niyatlar bilan hamkorlik va murosada yashashi.

6. Iqtisodiy bag'rikenglik – iqtisodiy yordam, teng munosabatga asoslangan hamkorlik.

7. Ijtimoiy-siyosiy bag'rikenglik – jamiyatdagi mol-mulki, nufuzi, siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar, o'zaro teng huquqli insonlar sifatida tan olish va ular bilan muloqotda bo'lish.

8. Umuminsoniy bag'rikenglik – barcha insonlarni e'zozlash, qadrlash va teng munosabatda bo'lish. Bu g'oyalarni amalga oshirish irq, elat, millat, aholi qatlami, dinlar, jinslar hamda himoyasizlarga nisbatan har qanday zo'ravonlik siyosatini qoralaydi va ulug'vor sifatlarni egalashga, ezgu amallar qilishga undaydi. G'jduvoniyy odamlarga tenglik, hamkorlik, hamjihatlik, o'zaro hurmat bilan qarash, bir-birini qadrlash, imkoniyat va salohiyatlarining unib o'sishiga imkon berish, e'zozlash, sevish, mehr-muhabbatli bo'lishga chorlaydi.

G'jduvoniyy g'oyalariga asoslangan bag'rikenglik quyidagi insoniy sifatlarda namoyon bo'ladi: o'z-o'zini anglash, o'z nafsini tiyish va uni idora etish; o'z-o'zini hurmatlash va qadrlash; murosada; o'zaro hurmat; bir-birini qadrlash; sabr-toqatlilik; chidamlilik; qanoat; shukr; kechirimli bo'lish; xolislik; saxovatpeshalik; ozor bermaslik; rahmdillik.

Kubraviya ta'limotida ham bag'rikenglik alohida o'rin egallagan. Shayx Najmiddin Kubroning "Al-usul al-asha-

ra”, “Risolayi at-turuq”, “Fi odabus solikin” kabi asarlarida tolerantlik tarbiyasiga oid bir qator ibratli fikrlar bayon qilingan. Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning “Najmiddin Kubro” nomli risolasida quyidagi fikrlar bayon etilgan: “ul zotning xonaqosida sunniy mazhabli muridlar bilan birga shia mazhabiga mansub shogirdlari birgalikda ta’lim olishgan. Shayx Kubroning o’zlari sunniylikka e’tiqod qilgan bo’lsalar-da, hazrati Ali Abutolib raziyallohu anhu xonadoniga ham hurmat bilan qaragan va shia ahli bilan sunniylar orasida xusumat va janjal kelib chiqishiga yo’l qo’ymagan”.

Najmiddin Kubro o’z asarlarida mehr-muhabbat va odamlarning baxt-saodati uchun xizmat qilish, bag’rikenglik kabi tushunchalar muhim o’rin egallaydi. U o’zining “Fi-al-adab (“Odob qoidalari”)” asarida shunday deydi: “Ibodatlarni eng afzali farzlarni ado qilish, odatlarning eng ma’quli va chiroyligi esa gunohlardan, odamlarga ozor berishdan tiyilish ekan”.

Umuman olganda, tasavvuf ta’limoti bag’rikenglik g’oyasiga asoslangan yaxlit konsepsiya bo’lib, komil insonni tarbiyalashda muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridagi manbalar tahlilidan ko’rinadiki, tolerantlik fazilati muhim ijtimoiy ko’rsatkichlarga ega:

1) teng huquqlilik (millati, tili, dini, jinsi, irqiy kelib chiqishidan qat’iy nazar barcha odamlar bir xil huquqqa egadirlar);

2) jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etish uchun imkoniyatlarning tengligi;

3) umumbashariy muammolarni hal etishda barcha xalqlar, davlatlar, odamlarning o’zaro hamkorligi;

4) jamiyatning turli qatlam vakillariga o’zaro hurmat va olijanoblik;

5) barcha xalqlarning o’z tili, madaniyati, urf-odatlariga amal qilish imkoniyati;

6) jamiyatning boshqa a’zolari huquq va erkinliklariga xalaqit bermaydigan sharoitdagi e’tiqod erkinligi.

Mazkur ko’rsatkichlarga asoslangan holda, tadqiqotlarimiz natijasida Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini

shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: tolerantlik sifatlariga ega (tolerant) va tolerantlik sifatlariga ega bo'lmagan (intolerant).

Tolerant tavsifga ega shaxs sifatleri:

- hamdardlik;
- o'z-o'zini anglash;
- himoyalanganlik;
- mas'uliyatlilik;
- ochiqko'ngillilik;
- tuyg'ularni his eta olish;
- empatiyaga qobiliyatlik;
- insonparvarlik.

Intolerant tavsifga ega shaxs sifatleri:

- o'ziga bino qo'yanlik;
- boshqalar bilan kelisha olmaslik;
- xavotirga beriluvchanlik;
- alamzadalik;
- xudbinlik;
- tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik;
- dunyoni turfa xilligini ko'ra olmaslik;
- kishilarni o'z qarashlari bilan baholash.

Shuningdek, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida tolerantlik fazilati ikki jihatdan namoyon bo'lishi aniqlandi: botiniy (tashqi) va zoxiriy (ichki).

Tolerantlikning botiniy (tashqi) ko'rinish tarbiyalanuvchining real sharoitda boshqalar bilan o'zini taqqoslashi natijasi bo'lib, o'zining nuqtayi nazariga egaligi, boshqalarning ko'zi bilan narsa-hodisalarni ko'ra olishga qobiliyatli ekanligiga ishonishidir.

Tolerantlikning zohiriy (ichki) jihati tarbiyalanuvchining barcha dalil va sabab-oqibatlar ma'lum bo'lmagan sharoitda ham muammo yuzasidan fikr yurita olish va qarorlar qabul qila olishga qobiliyatli ekanligini o'zida aks ettiradi.

Bundan tashqari, o'quvchi-yoshlarning ijtimoiylashuvida aynan tolerantlik fazilati katta ahamiyatga egaligi ma'lum bo'ldi. Ijtimoiylashuv bilan bog'liqlikda o'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilatining namoyon bo'lishi to'rt o'zaro bir-biri bilan bog'langan tarkibiy qismni o'z

ichiga qamrab oladi:

1. Kommunikativ (muloqotga doir) tarkibiy qism – muloqotning turli ko‘rinishlarini egallashning xilma-xil shakl va usullaridan tashkil topadi.

2. Kognitiv (bilishga doir) tarkibiy qism – atrof-muhit, voqelik bilan bog‘liqlikda aniq bilimlar doirasini o‘zlashtirish, ijtimoiy tasavvurlar tizimining shakllanishi.

3. Xulq-atvorga doir tarkibiy qism – tarbiyalanuvchi rivojlanadigan xulq-atvor harakatlari, modellarining keng va xilma-xil sohasi.

4. Qadriyatli tarkibiy qism – tarbiyalanuvchining qadriyatga yo‘nalganlik tizimining namoyon bo‘lishi.

O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy tajribani:

- xilma-xil faoliyat jarayonida;

- turli yoshdagi kishilar bilan muloqot jarayonida;

- turli ijtimoiy rollarni bajarish jarayonida egallaydi.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchi-yoshlarning ijtimoiylashuvi faoliyat subyekti bilan o‘zaro harakatlanish jarayonida sodir bo‘ladi.

O‘zaro harakat rivojlanishning universal shakli sifatida o‘zaro harakatlanuvchi ob‘ektlar, hodisalarning yangi holatga o‘tishini ta‘minlaydi. Mazkur fikr “tolerantlik” va “o‘zaro harakat” tushunchalarining aloqadorligini aniqlab olishni talab etadi.

O‘zaro harakatning umumlashgan turlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) dialog;

2) hamkorlik;

3) g‘amxo‘rlik;

4) tushkunlik;

5) loqaydlik;

6) qarama-qarshilik;

7) konflikt (nizo).

Tolerantlik dastlabki uch turdagi o‘zaro harakatni talab etadi. Dialogik muloqotda individuallik namoyon bo‘ladi, nuqtayi nazarlarda tenglikning bo‘lishi ta‘minlanadi. Dialogik o‘zaro harakatning tuzilishida yuqori darajadagi empatiya, sherigini his qila olish, uni bor holicha qabul qila

olish, fikrlashning egiluvchanligi, o'zini adekvat baholay olish ko'nikmalari bilan tavsiflanuvchi emotsional va kognitiv tarkibiy qismlar ishtirok etadi.

O'zaroharokatning ikkinchi turi – hamkorlik bo'lib, butun faoliyat maqsadini hamkorlikda aniqlash, uni birgalikda rejalashtirish, har bir ishtirokchining kuch va imkoniyatlaridan kelib chiqib bajariladigan vazifalarni taqsimlashni o'z ichiga oladi. Tolerant xulq-atvorning mazkur darajasi quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- muloqotchanlik;
- olijanoblik;
- xavotirlanishning mavjud bo'lmasligi;
- harakatlarning safarbarligi;
- g'amxo'rlik;
- sabrlilik;
- o'zaro ishonch;
- ijtimoiy faollik.

G'amxo'rlik ham o'zaroharokat turi sifatida o'zida tolerantlik tushunchasi bilan bog'liqlikni aks ettiradi. G'amxo'rlik subyekt va obyektning tabiiy me'yor sifatida muruvvat ko'rsatishi, qayg'ura olishida namoyon bo'ladi. Mazkur darajadagi tolerantlikning tavsifiy belgilari sifatida quyidagi keltirib o'tish mumkin:

- emotsional barqarorlik;
- yuqori darajadagi empatiya;
- ekstravertlik;
- ijtimoiy faollik;
- yordamga shaylik.

! Tolerantlik fazilatiga ega shaxsni shakllantirish – murakkab jarayon bo'lib, o'quvchi-yoshlarning tengdoshlar va atrofdagi kishilar bilan muloqotga kirishish asosida hamda boshqa kishilarga munosabati va qarashlari bilan bog'liq ijtimoiy voqelik ta'sirida amalga oshadi.

Ijtimoiy institut sifatida quyidagi muhim vazifalarni amalga oshiradi:

1. Bolaning normal rivojlanishini ta'minlab beruvchi

qulay sharoitlar yaratib berish.

2. Bolalar sog'ligini saqlash.

3. Bolaning ijtimoiy himoyasini tibbiy-pedagogik va ijtimoiy moslashuvini ta'minlash.

6. O'quvchi-yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish.

7. Bolalarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishi hamda shaxs, jamiyat, davlat manfaati yo'lida yetarli ta'lim olishi.

8. O'quvchi-yoshlarning umumiy madaniyati, hayotga adaptatsiyasini shakllantirish.

9. O'quvchi-yoshlarning o'z-o'zini rivojlantirish va hayotdagi o'z o'rnini belgilab olish ehtiyojlarini shakllantirish.

Mazkur umumiy vazifalarga tayangan holda, o'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilatini shakllantirishga doir quyidagi muhim funksiyalarni ham amalga oshirishi zarur:

1) o'quvchi-yoshlarda borliqqa, aniq hayotiy vaziyatlarga, o'z xulq-atvori va atrof-dagilarga adekvat munosabatni shakllantirishga barqaror yo'nalganlikni qaror toptirish (yo'naltiruvchi funktsiya). Mazkur funktsiyaning samarali amalga oshishi o'zaroharakatlanuvchi subyektlar haqidagi ma'lumotlarning umumiy lashuvi uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

2) moslashuv(adaptatsion)ga doir funktsiya birgalikdagi faoliyatni yo'lga qo'yish orqali o'quvchi-yoshlarda o'z faoliyati, hamkorlikdagi faoliyat obyekt va subyektlariga, ijobiy, emotsional, barqaror munosabatlarni tarkib toptirishga imkon beradi;

3) o'quvchi-yoshlarda o'zi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, dunyoqarashini va hayotiy tajribasini rivojlantirish (da'vat etuvchi funktsiya);

4) o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirishi, muloqot va hamkorlik jarayonidagi o'z o'rnini aniq belgilay olishiga erishish (integratsion funktsiya);

5) jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bog'liklikda o'quvchi-yoshlarning qadriyatga yo'naltirilgan uyg'unlik asosida atrof-muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakatlanishini ta'minlash (baholovchi-prognostik funk-

siya).

Shuningdek, maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat natijasida o'quvchi-yoshlarda quyidagi tarzda psixologik-axloqiy yo'nalganlik tarkib toptirilishi zarur:

1) insoniylik – shaxslararo munosabatlarni insoniy-lashtirish, insonning ichki olamiga e'tibor qaratish;

2) refleksivlik – shaxsiy o'ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklarini anglash, ularni tolerant xulq-atvor bilan bog'liqlikda yo'lga qo'yish;

3) javobgarlik – qarorlar qabul qilish vaziyatida ichki kuchlarning namoyon bo'lishiga asoslanuvchi shaxsiy ta-lablar tizimiga egalik;

4) himoyalanganlik – boshqa kishilar bilan birgalikda faoliyat yuritishning qo'llab-quvvatlanishi, xavfsizligi va imkoniyati borligining kafolatlanishi;

5) moslashuvchanlik – vaziyat, sharoit bilan bog'liqlik-da to'g'ri qarorlar qabul qila olish;

6) o'z-o'ziga ishonch – o'zining kuch va imkoniyatlarini adekvat baholay olish;

7) o'z-o'zini boshqara olish – o'zining his-tuyg'ularini boshqara olish, o'z xulqini nazorat qila olish;

8) xilma-xillik – bir-biriga o'xshash murakkab vaziyat-larda qarorlar qabul qila olish, voqelikni baholashda xil-ma-xil yondashuvlarga tayanish;

9) persepsiya – kishilardagi turli xil xususiyatlarni seza olish va aniqlay olish, ularning ichki dunyosini anglash ko'nikmasi;

10) empatiya – boshqa kishilarning muammolariga hamdard bo'lish, voqelikni emotsional baholay olish;

11) hazilkashlik – ayrim holatlar, noqulay vaziyatlar-dan kulgi yo'li bilan chiqib keta olish.

Tolerantlik tarbiyasi bilan bog'liqlikda tashkil etiluv-chi faoliyat tolerantlikning turli yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab olishiga ham e'tibor qaratilishi zarur.

Ijtimoiy-demografik omillarga tayangan holda, olim-lar tolerantlikning quyidagi sohalarini ajratib ko'rsatishadi:

1) gender tolerantlik – boshqa jins vakillariga noto'g'ri munosabatda bo'lmaslik, bir jinsning ikkinchi jins asosida

kelib chiqqanligi haqidagi g'oyalardan voz kechish;

2) yoshga doir tolerantlik – insonning yoshi bilan bog'liq o'ziga xosliklarini to'g'ri qabul qilish (keksalarning yoshlarni tushuna olmasligi, yoshlarda bilim va tajribaning yetarli emasligi va boshqalar);

3) ma'lumotlilik darajasi bilan bog'liq tolerantlik – nisbatan past darajadagi ma'lumotga ega kishilarning fikrlari va xatti-harakatlariga sabrli bo'lish;

4) millatlaro tolerantlik – turli millat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, biror millat vakilining kamchilik va salbiy harakatlarini shu millatga mansub boshqa kishilarda ham bor deb hisoblamaslik. Millatlara ro tolerantlik, har bir millat va elatning o'z vazifalari va burchini anglab yetishini nazarda tutadi. Bu burch va vazifalar ko'p millatli muhitda hayot kechirish, shu jumladan, o'zining munosabatlari, ko'nikma va malakalari, muloqot olib borish ehtiyojiga talabchanlik bilan qarash zarurligi, ya'ni, bir-birini tinglash, tushunish, shuningdek, ko'p yillar davomida to'planib qolgan muammolarni sabr-toqat bilan o'zaro maslahatlashib, har qaysi tomonlar manfaatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich ijobiy hal qilishga intilishni taqozo etadi;

5) irqiy tolerantlik – boshqa irq vakillariga past nazar bilan qaramaslik;

6) diniy tolerantlik – turli dinlar, konfessiyalar, konfessional guruhlariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish;

7) geografik tolerantlik – turli hududda istiqomat qiluvchi kishilarning bir-birlarining yashash sharoitlarini bor holicha qabul qila olishlari, kamsitishga yo'l qo'ymaslik;

8) tabaqaviy tolerantlik – jamiytdagi turli qatlam vakillari (boylarning kambag'allarga, kambag'allarning boylarga)ga sabrli bo'lish;

9) fiziologik tolerantlik – kasal, nogiron, jismoniy nuqsoni bor kishilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish;

10) siyosiy tolerantlik – turli siyosiy partiya va jamoat birlashmalari, siyosiy liderlar faoliyatiga toqatli bo'lish;

11) madaniy tolerantlik – madaniy qiziqqonlikka zid

bo'lib, boshqa madaniyatlarni tan olish, ularni to'g'ri qabul qilishga qobiliyatlilik. Madaniy tolerantlik madaniy ta'sir o'tkazish, madaniy ekspansiyaga yo'l qo'yilmasligini talab etadi;

12) shaxslararo tolerantlik – insonlardagi murakkab tabiiylikni, ular orasidagi farqlarni anglash va qabul qilishga qobiliyatlilik bo'lib, muloqot jarayonida insonning boshqalarni o'z mavjudligi va rivojining yuksak timsoli sifatida ko'ra olishidir.

Bundan tashqari, tolerantlik tarbiyasini amalga oshirishda bugungi kungacha to'plangan tajribalar, falsafiy yondashuvlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Boshqacha aytganda, o'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilatini shakllantirishda ekzistensial, deversifikatsion, kognitiv, bixiveorizm, dialogik, fasilitativ, ijtimoiy-madaniy yondashuvlarning mazmuni va imkoniyatlarini samarali tatbiq etish lozim.

Ekzistensial yondashuv tolerantlikni avtomatlashgan, stereotip harakat sifatida emas, anglangan, aniq vaziyatda tolerantlik subyektidan mazmunli yo'nalganlikni topa olish va mas'uliyat hissi bilan yondashuvni talab etuvchi jarayon siftida ta'riflaydi. Mazkur holatda tolerantlik sinkretik tavsifga ega aksiologik modelni o'zida aks ettiradi. Ya'ni, maqsad bilan bog'liq qadriyatlar unga erishish mazmuni, vositalari bilan bog'liq qadriyatlarni aniqlab olishni talab talab etadi.

Deversifikatsion yondashuv nuqtai nazaridan tolerantlik faqat bir defenits yoki tavsifgagina ega emas. Tolerantlik bu – murakkab, ko'pgina jihatlariga, tarkibiy qismlarga, ko'plab namoyon bo'lish va rivojlanish yo'nalishlariga ega, insonning individual va ijtimoiy hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi hodisa sifatidadir.

Kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan tolerantlik o'zida ko'p o'lchamli, xilma-xil bilim va tafakkur natijalarini aks ettiradi. Olam manzarasi murakkab ko'rinishga ega bo'lib, ko'plab turli-tuman nuqtayi nazarlardan yagona haqiqatga kelish oson emas.

Bixevioristik yondashuv tolerantlikni insonning

“boshqalar” bilan konstruktiv o‘zaro harakatiga yo‘nalgan xulq-atvori; boshqa insonlarni o‘zi bilan teng ko‘rish, shaxs sifatida e’tirof etishini tavsiflovchi sifat sifatida sharhlaydi.

Dialogli yondashuv tolerantlikning muhim turi – boshqa kishilar bilan o‘zaro munosabat, shaxslararo o‘zaro harakat va muloqotni yo‘lga qo‘yishning muhim usuli – shaxslararo tolerantlikni taqozo etadi. Aynan tolerantlikning mazkur turida tolerantlik muammosining barcha (ham uni o‘rganish, ham o‘rgatish va rivojlantirish nuqtayi nazaridan) jihatlari yorqin namoyon bo‘ladi.

Fasilitativ yondashuvda tolerantlikni rivojlantirishning adekvat psixologik-pedagogik taktikasini izlash, tolerantlikning tabiiy, refleksiv va individual shakllanishi uchun har bir subyektda shaxsiy, mustaqil va erkin nuqtai nazarni ishlab chiqish uchun ko‘proq ijobiy shart-sharoitni yaratishga asosiy e’tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv tolerantlikni hayotiy faoliyat strategiyasida namoyon bo‘luvchi shaxs fazilati sifatida ko‘rib chiqishni talab etadi. Aynan mazkur yondashuv shaxsda etnik tolerantlikni shakllantirishda ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yondashuvlarga asoslangan holda, bugungi kunda o‘quvchi-yoshlarda tolerant ong va xulq-atvorni shakllantirishga doir qator modellar ishlab chiqilgan. Mazkur modellar orasida integratsion, institutsional, modulli va fanlararo modellar ayniqsa, keng tarqalgan.

Integratsion model tarafdorlarining fikricha, ta’lim muassasasida o‘qitiladigan fanlar tolerant ong va xulq-atvorni shakllantirishda yetarlicha imkoniyatlarga ega. Shuning uchun turli fanlar bo‘yicha o‘tiladigan darslarning mazmuniga tolerantlikni singdirish lozim. Jumladan, respublikamizning yosh olimlaridan B.Xodjayevning “O‘quvchilarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishda tarix fanining imkoniyatlaridan foydalanish”, Z.Saliyevaning “Pedagogika fanini o‘qitish jarayonida pedagogika kolleji o‘quvchilarida tolerantlik fazilatini shakllantirish”, Sh.Akbarovanning “O‘quvchilarda tolerantlikni tarbiyalashda badiiy asarlarning imkoniyatlaridan foydalanish”,

H.Eshmirzayevaning “Chet tillarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda tolerantlik fazilatlarini tarbiyalash”ga doir tajribalarini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

Tolerantlik madaniyatini shakllantirishning institutsional modeli o‘zida tolerant ong va xulq-atvorni shakllantirishning bir nechta ssenariylarini qamrab oladi. Mazkur modellarni orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

- “ta’lim muassasasining tarbiyaviy tizimi” – tolerantlik tushunchasi hamkorlik hamda tizimli, shaxsiy va faoliyatli yondashuvlarni amalga oshirish sharti sifatida yuzaga chiqadi. Ta’lim muassasasining maqsadi sifatida esa, har tomonlama barkamol, yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish belgilab beriladi;

- “ijtimoiy loyihalash” – mazkur holatda tolerantlikka boshqa kishilar, o‘zi va jamiyat uchun ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat tajribasi asosi sifatida qaraladi, maqsad sifatida esa, faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini anglash hamda shaxsiy faollik, kattalar va yoshlarning hamkorlikdagi faoliyatini hisobga olish asosida aniq ijtimoiy muammolarni hal eta olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish talab etiladi.

- “fuqarolik forumi” – mazkur yondashuvda tolerantlik befarqlik, loqaydlikni bartaraf etish usuli sifatida namoyon bo‘ladi, maqsad esa, jamiyatda sodir bo‘layotgan turli voqea-hodisalarga kishilarning o‘z munosabatlarini bildira olishlariga erishishdir.

Tolerantlikni shakllantirishning modulli modeli – mazkur holatda tolerantlik fazilatini shakllantirish muammosi mustaqil masala sifatida ko‘rib chiqiladi hamda o‘quv rejasiga maxsus kurs va fakultativ mashg‘ulotlarni kiritish orqali hal etiladi.

Tolerant ong va xulq-atvorni shakllantirishning fanlararo modeli o‘zida mazmuni va yo‘nalganligidan qat’iy nazar tolerantlik madaniyatini shakllantirishning barcha pedagogik metod va usullarini o‘zida birlashtirishni talab etadi. Har bir ta’lim muassasasi o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, laboratoriyalar tashkil etishi va tolerantlik madaniyatini shakllantirish metodikalarini ishlab chiqishi yo‘lga

qo'yiladi.

Umuman olganda, tolerantlik tarbiyasiga doir faoliyatni tashkil etish quyidagi pedagogik-psixologik jihatlarini e'tiborga olishni taqozo etadi:

1) o'quvchi-yoshlarida tolerantlik fazilatini shakllantirish o'z-o'zidan muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni bolalar tengdoshlari – turli hayotiy tajribaga ega bo'lgan, hamma bilan birdek muloqotga kirisha olmaydigan, turli xil mikrosotsium a'zolari bilan birga harakatlanadilar. Mazkur vaziyatlar bolalar jamoasida konfliktli vaziyatlar mavjudligidan dalolat beradi va pedagoglarni yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni hal etishga da'vat etadi. Bolalarga insonparvar va hurmat bilan munosabatda bo'lish, pedagogning ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi va ularni pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashi tolerantlikni tarbiyalashga imkon beradi;

2) o'quvchi-yoshlarida boshqa nuqtayi nazarlarni qabul qila olishga asoslanuvchi, bundan tashqari oshkoralik va to'g'rilik, o'zaro ishonchga asoslangan muhitni tashkil etishga imkon beruvchi muloqot asosida ta'limni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, respublikamizda va xorijda ta'lim texnologiyalari bilan bir qatorda tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqishga ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xorijlik olimlardan O.S.Gazman (tarbiyada individual qo'llab-quvvatlash texnologiyasi), O.S.Anisimov, P.G.Shedrovitskiy (refleksiv o'z-o'zini tarbiyalash texnologiyasi), Ye.N.Stepanov (sinf jamoasi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar texnologiyasi), N.B.Krilova (yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirish texnologiyasi), A.A.Uxtomskiy, G.K.Selevko (o'quvchi shaxsini takomillashtirish texnologiyasi), I.F.Xarlamov (axloqiy sifatlarni tarbiyalash), V.V.Selivanov (axloqiy tarbiya texnologiyasi) kabilar, respublikamiz olimlaridan M.Quronov ("Bir tahdidga besh zarba"), R.J.Ishmumammedov ("Amaliyotda jamoaviy ijodiy ishlar"), Sh.T.Ergasheva (axloqiy tarbiya texnologiyasi), Z.Saliyeva (ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish texnologiyasi) singari olimlar tomonidan ayrim tarbi-

ya texnologiyalari ishlab chiqilgan. Biroq respublikamizda yaxlit moslashuvchan tarbiya texnologiyasi yaratilmagan edi. Mazkur muammoga javob sifatida "ITD-4-122 – Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasini ishlab chiqish" amaliy loyihasi doirasida yaxlit tarbiya texnologiyasini ishlab chiqish amalga oshirildi. Dastlab mazkur texnologiya xususida to'xtalib o'tamiz.

Texnologiyaning tasnifiy belgilari:

Qo'llanilishi darajasi va tavsifi: umumpedagogik darajadan mikro texnologiya darajasigacha.

Falsafiy asosi:

- 1) insonparvarlik;
- 2) barcha xilma-xil konsepsiyalar.

Metodologik yondashuvi: tizimlilik, shaxsga yo'naltirilganlik, individuallik, faoliyatli yondashuv, qadriyatga yo'naltirilgan yondashuv.

Rivojlanishning yetakchi omillari:

- 1) sotsiogen;
- 2) psixogen.

Tajribani o'zlashtirishning ilmiy konsepsiyasi: asso-satsiativ-reflektorli + faoliyatli + rivojlantiruvchi + interorizatorli.

Shaxsni rivojlantirish sohasiga yo'nalganligi va tuzilishi: BMO (bilim, malaka, odat) + EAS (estetik-axloqiy soha) + O'zBMS (o'z-o'zini boshqarish mexanizmi sohasi)+HAS (harakatli-amaliy soha).

Mazmunli tavsifi: ta'limiy, tarbiyaviy, texnokratik.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi: ijtimoiylashtirish.

Qo'llaniladigan metodlari:

- 1) izlanishli;
- 2) xilma-xil tarbiya metodlaridan foydalanish.

Tashkiliy shakllari:

- 1) individual;
- 2) barcha tarbiya shakllari.

Qo'llaniladigan vositalari:

- 1) audiovizual;
- 2) barcha tarbiya vositalari.

Tarbiyalanuvchiga yondashuv va tarbiyaviy o'zaro

harakat tavsifi: shaxsga yo'naltirilgan.

Modernizatsion yo'nalishi va an'anaviy tarbiyaviy tizimga munosabati: motivatsion, mazmunli, faoliyatli va qadriyatga yo'naltirilgan funktsiyani kuchaytirish asosida.

Qo'llanilish toifasi: ommaviy, barcha toifadagi tarbiyalanuvchilar uchun.

Texnologiyaning maqsadga yo'nalغانlik jihatlari:

Ijtimoiy-madaniy siyosat bilan bog'liqlikda texnologiyaning maqsadli yo'nalغانligi quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi:

- jamiyatning ma'naviy madaniyatini uzatish, saqlash va rivojlantirish;
- ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, e'tiqodlar va xulq-atvor modellarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- shaxsning har tomonlama kamol topishini rivojlantirish;
- ma'naviy-axloqiy, siyosiy-huquqiy, ekologik, diniy bag'rikenglik, iqtisodiy, g'oyaviy bilim va madaniyat, sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish.

Individual tarbiya nuqtai nazaridan esa:

- shaxsni ma'naviy-axloqiy va estetik jihatdan rivojlantirish;
- tarbiyalanuvchi shaxsining o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini namoyon etishiga yordamlashish;
- shaxs rivojining ijodiy sohasini rivojlantirish.

Texnologiyaning konseptual g'oyalari va tamoyillari:

- yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish va ijtimoiylashuvning o'zaro aloqadorligi;
- insonparvarlik tamoyili;
- madaniy-tarixiy, milliy-etnik, ijtimoiy-pedagogik tajribaning o'zaro bog'liqligi;
- tarbiyalanuvchini o'z shaxsiy ma'naviy dunyosi subyekti sifatida rivojlantirish;
- ta'lim, tarbiya va rivojlanishning birligi;
- tarbiyaning hayot va amaliyot bilan bog'liqligi;
- tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiyalanuvchilar bilan faol hamkorlikni yo'lga

qo'yish.

Tarbiya texnologiyasi bosqichlari:

1. Motivatsion bosqich – tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni egallashga qiziqish, ehtiyoj va istakni qaror toptirishga qaratilgan jarayon.

2. Mazmunli bosqich – tarbiyalanuvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarga doir tasavvur, tushuncha va bilimlar majmuini ishlab chiqish.

3. Faoliyatli bosqich – tarbiyalanuvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarga doir aniq vaziyatlar, faoliyat shakllarini yaratish orqali ularni amaliy faoliyatga jalb etish.

4. Qadriyatli bosqich – ma'naviy-axloqiy fazilatlarni qadriyatga aylantirish, ularda mustahkam e'tiqodni shakllantirish maqsadida tashkil etiluvchi tarbiyaviy jarayonning yuqori bosqichi.

Yuqorida keltirib o'tilgan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasining tasnifiy xususiyatlaridan uning qo'llanilishi darajasi va tavsifiga ko'ra umumpedagogik darajadan mikrotexnologiya ko'rinishida namoyon bo'la olishi ma'lum bo'ladi. Texnologiyaning ana shu xususiyatini asos qilib olgan holda, undagi to'rt bosqich(motivatsion, mazmunli, faoliyatli, qadriyatli)ga tayanib, "O'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilatini shakllantirish texnologiyasi"ni ishlab chiqdik.

Eng avvalo, o'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilatini shakllantirish texnologiyasining tasnifiy belgilari aniqlandi:

- qo'llanilish darajasi va tavsifiga ko'ra: mikrotexnologiya;

- falsafiy asosiga ko'ra: qadriyatga yo'naltirilgan, insonparvar;

- tajribani o'zlashtirishning ilmiy asosiga ko'ra: assotiativ-reflektorli va interiorizatorli;

- shaxs rivojlanishining yetakchi omiliga ko'ra: sotsiogen va psixogen;

- tuzilishi va mazmunli tavsifiga ko'ra: ijtimoiy, tarbiyaviy.

- qo'llaniladigan metod, usul va vositalariga ko'ra:

muammoli, rivojlantiruvchi, dilogli.

Texnologiyani bayon etish uchun dastlab kutiladigan natija, natijadan kelib chiqib qo'yilgan maqsad hamda oydinlashtirilgan tarbiya vazifalariga to'xtalib o'tish lozim.

Texnologiyalashtirishdan kutiladigan natija o'quvchi-yoshlarda tolerantlikka doir bilim, xulq-atvor odatlarini tarkib toptirish orqali ularda tolerantlik fazilatining yorqin namoyon bo'lishiga erishishdan iborat. Mazkur natijaga erishish esa o'z navbatida o'quvchi-yoshlarda tolerant xulq-atvorga va yaxlitlikda turmush tarziga tayyorgarlikni shakllantirishni va mazkur maqsad bilan bog'liqlikda quyidagi vazifalarni hal etishni talab etadi:

1) o'quvchi-yoshlarda ijtimoiy yo'naltirilgan qadriyatli orientatsiya tizimini shakllantirish;

2) ularda voqelikni ko'p tomonlamali baholash, o'z nuqtayi nazarlariga qarama-qarshi axborotlarni qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirish;

3) o'z-o'ziga ijobiy munosabatni, konfliktlarga bardoshlilikni shakllantirish;

4) ijtimoiy sheriklikka asoslangan shaxslararo o'zaro harakat ko'nikmalarini rivojlantirish.

Texnologiya to'rt bosqichli tavsifga ega bo'lib, motivatsion, mazmunli, faoliyatli va qadriyatli tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

O'quvchi-yoshlarni tolerant xulq-atvorga odatlantirish hamma vaqt uni harakatga undovchi motivlar yig'indisidan iborat motivatsion jihatlarini aniqlab olishni va ularda barqaror ehtiyojlar obyektiga aylantirishni talab etadi. Motivatsion tarkibiy qismning ahamiyati tarbiyalanuvchilarda ular tomonidan anglangan ehtiyoj sifatida tushuniladigan tolerant xulq-atvorga ichki motivni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Motivatsion tarkibiy qismning asosini esa, shaxsning motivatsion sohasini boshqarib turuvchi qadriyatli orientatsiya tashkil etadi.

Mazkur tarkibiy qismni amalga oshirish jarayonida tor ijtimoiy motivlar (atrofdagilarning hurmatiga sazovor bo'lish) ijtimoiy hamkorlik motivlari (boshqa odamlar bilan o'zaro birgalikda harakatlanishning turli usullariga yo'nalganlik) bilan birlashishi lozim.

Motivatsion bosqichni amalga oshirishda muammoli tavsifdagi suhbat, munozara, o'z-o'zini tahlil etish, o'z-o'zini anglash, empatiya, o'yinli texnika kabi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Muammoli tavsifdagi suhbat. Mazkur suhbat turi o'quvchi-yoshlar bilan tahliliy-izlanishli tarzda amalga oshiriladi. Savol-javobni tashkil etishda quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish zarur:

1) savollar o'quvchi-yoshlar tasavvurga ega bo'lgan ma'lumotlarga asoslanishi;

2) savollar o'qilganlarini mexanik qayta ishlab chiqish bilan cheklanuvchi javoblarni talab etmasligi;

3) savollar mazmunining o'zaro bir-biri bilan bog'liqligiga e'tibor qaratish.

Tolerantlikning xilma-xil turlari bilan bog'liqda qator muammoli tavsifdagi suhbatlarni amalga oshirish mumkin.

Kommunikativ tolerantlikni shakllantirish jarayonida quyidagi muammoli savollardan foydalanish mumkin:

1. Nega insonlar o'zaro muloqot qilishga ehtiyoj sezadilar?

2. Boshqalarning fikrlarini diqqat bilan eshita olish uchun kishida qanday sifatlar mavjud bo'lishi lozim?

3. Sizga qanday holatda hamsuhbatingizning fikrini tinglash qiyinlik tug'diradi?

4. Nima uchun ba'zi insonlar o'zlarining nuqtayi nazarlariga qarama-qarshi fikrlarni qabul qila olmaydilar?

5. Do'st bo'lish uchun, albatta, bir xil yoshda bo'lish shartmi?

6. Ikki kishi bir-birini yoqtirmasa, o'zaro do'st bo'la olishi mumkinmi?

7. Do'stlar bir-biriga yolg'on gapira oladimi?

Madaniy tolerantlikni shakllantirish jarayonida esa quyidagi muammoli savollarni hal etishga e'tibor qaratilishi lozim:

1) milliy madaniyatning umumbashariy ahamiyati qanday jihatlarda namoyon bo'ladi?

2) madaniy jihatdan turli-tumanlik ijobiy tavsifga ega-

mi yoki salbiy?

3) submadaniyatni qadriyat sifatida qabul qilish mumkinmi?

Millatlararo tolerantlikni shakllantirish bilan bog'liq suhbatlar jarayonida quyidagi muammoli savollar taqdim etilishi zarur:

1) o'zga millat vakillariga nega hurmat bilan munosabatda bo'lish lozim?

2) boshqa millat vakillarining tili, madaniyati, urf-odatlarini o'rganish va ularni qabul qila olishning zaruriyati nimada?

3) milliy biqlik qanday oqibatlariga olib keladi?

4) buyuk davlatchilik shovinizmi qanday ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin?

Gender tolerantlikka doir suhbatlar esa, quyidagi savollarni muhokama qilish asosida o'tkaziladi:

1) nega boshqa jins vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish lozim?

2) o'g'il bolalarning qizlarga qaraganda o'zlarini ustun qo'yishlari to'g'rimi?

3) bir jinsning ikkinchi jins asosida paydo bo'lganligi haqidagi g'oyalarga ishonish mumkinmi?

4) boshqa jins vakillari haqida ma'lumotga ega bo'lishning zaruriyati nimada?

Diniy tolerantlikka doir suhbatlar jarayonida quyidagi muammoli savollarning qo'llanilishi maqsadga muvofiq:

1) dinlarning umumiy jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

2) boshqa dinga e'tiqod qiluvchi kishilarni o'z diniga e'tiqod qilishga da'vat etish to'g'rimi?

3) vijdon erkinligini cheklab qo'yish qanday oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin?

4) o'zga din vakillariga nisbatan toqatli bo'lish uchun kishi o'zida qanday sifatlarni tarkib toptirish lozim?

Motivatsion bosqichda keng foydalanishni talab etuvchi metodlardan yana biri bu – munozaradir. Munozara – bahslashuvni talab etuvchi biror masalani erkin muhokama qilish. Munozarani tashkil etishdan avval tarbiyalanuv-

chilarga quyidagi ko'rsatmalarni eslatib o'tish zarur:

1) muammoni muhokama qilishda shay va tayyor bo'l. Muammo nimaga qaratilganligi, uning mohiyatini anglab olgin;

2) muammo yuzasidan o'z fikringni bildir, boshqalarga ham o'z fikrini ifodalashga imkon ber;

3) boshqalarning fikrini diqqat bilan tingla;

4) so'zlayotgan kishining fikrini chalg'itma, ma'qul deb topmagan o'rinlarini belgilab bor, so'ngra so'zga chiqish uchun ruxsat so'ra;

5) boshqalarning shaxsi va fikrini hurmat qil, boshqalarning fikrlariga e'tiborli va tolerant bo'l;

6) g'oyalarni tanqid qil, biroq so'zga chiqqan kishini emas. Shaxsiyat bilan bog'liq jummalarni ishlatma;

7) munozara ishtirokchilari qabul qilgan qarorlarni hisobga ol, boshqalarning fikrlarini qadrla;

8) istalgan yo'l bilan qurollangan holda bahsga g'alabaga erishishga harakat qilma;

9) albatta, oraliq va yakuniy xulosalarga kelish lozim.

O'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilatini shakllantirish bilan bog'liqlikda quyidagi mavzularda munozaralar o'tkazish maqsadga muvofiq:

1. "Tolerantlik" va "intolerantlik": ko'rinishlari va namoyon bo'lishi.

2. Ogohlik – etnik-diniy tolerantlikka da'vat sifatida.

3. Islom dini – bag'rikenglik dini.

4. Jamiyat tabaqalarga bo'linmasligi lozim!

5. Irqiy kamsitish – insonni xo'rlashning qo'pol ko'rinishi sifatida.

Shuningdek, motivatsion bosqichni samarali tashkil etish maqsadida o'z-o'zini tahlil etish, o'z-o'zini anglash usullaridan ham foydalanish mumkin.

Tahlil etish gnoseologiya, psixologiyada bilish va amaliy faoliyatga doir barcha harakatlarni o'z ichiga oladi, pedagogikada esa, tadqiq qilinayotgan narsa-hodisalarning alohida tarkibiy qismlarga ajratish qonuniyat va usullarini o'zida aks ettiruvchi bilish jarayoni sifatida ifoda etiladi. O.O.Kashenkoning fikricha, o'z-o'zini tahlil etish falsafa va

psixologiyada o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini baholashning tarkibiy qismi sifatida aks ettirilsa ham mustaqil kategoriya sifatida ishlatilmaydi. Biroq o'z-o'zini anglashning shakllanishi va rivojlanishi o'z-o'zini tahlil etish asosida amalga oshishini esda tutish zarur. Chunki aynan O'quvchi-yoshlarda o'z-o'zini tahlil etish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ularning o'zi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari, motiv, ehtiyojlari tizimi sifatida tushuniladigan "Men-konsepsiyasi"ning rivojlanishiga undovchi ichki omillarning eng asosiylaridan biridir.

O'z-o'zini tahlil etish usullari quyidagilarga e'tibor qaratishni talab etadi:

1) ijtimoiylikka yo'naltirilgan o'zaroharakat vaziyatlaridan shaxsiy xulq-atvor, tarbiyalanuvchi shaxsi, uning o'ziga xosliklari, qadriyatlarini tizimi kabilarni ob'ekt sifatida ko'rib chiqish;

2) o'z xulq-atvori, shaxsiy fazilatlarini tahlil etish mezonlari tizimini aniqlash;

3) noma'lumdan ma'lumni ajratib olish;

4) qarama-qarshiliklarni aniqlash.

O'z-o'zini tahlil etish o'z-o'zini anglashdan avval kelib, aynan uning asosida shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari umumlashgan ko'rinishga o'tadi. O'z-o'zini anglash natijasida shaxsda o'zining kimligini anglash, o'zining jamiyatdagi o'rnini tushunib yetish, boshqalarning ko'z o'ngida kim sifatida gavdalanishini his etish kabilar shakllanadi. O'z-o'zini anglash o'z-o'ziga munosabat sifatida shakllanuvchi hissiy va mantiqiy jihatlarni o'zida aks ettiradi.

Ma'lumki, o'z-o'zini anglash usullari ham mantiqiy, ham emotsional darajada o'z-o'zini tahlil etish natijasida olingan axborotlarni aniqlashtirish va umumlashtirishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, o'z-o'zini tahlil etish va o'z-o'zini anglash tarbiyalanuvchida o'zi va boshqalarning u haqidagi tasavvuri sifatidagi "Men qiyofasi"ni shakllanishiga olib keladi.

Bundan tashqari mazkur bosqichda empatiya va o'yin-

li texnika usullaridan ham samarali foydalanish mumkin.

Empatiya usullari. Harakatga monologik yondashuv nuqtai nazaridan empatiya insonning “obyekt” va bilish subyektidagi o‘zgarishlarini o‘zida ifoda etishga doir emotsional qayg‘urishidir. Dialogik yondashuv nuqtai nazari-dan empatiya sherigigiga nisbatan emotsional jihatdan qayg‘urishgina emas, balki emotsional qayg‘urish, mazkur holat bilan bog‘liq tushunchalar mazmunining anglangan-ligini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun anglash baholash bilan chambarchas bog‘liq.

Tarbiyachining pedagogik mahorati haqida gap ket-ganda empatiya muhim o‘rin tutadi. Tarbiyalanuvchilarga yo‘naltirilgan empatiya tarbiyachining ularning emotsio-nal dunyosiga yo‘nalganlik, ichki olamidagi vaziyatni his qila olishga imkon beradi. Empatiya ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: qayg‘urish (sherigining emotsional ho-latiga qayg‘udosh bo‘lish) va achinish (sherigining hissi-yotiga o‘zining hamdardligini ifoda etish).

Empatiyaning rivojlanishi eng avvalo, hamsuhbat-doshini har tomonlama tushuna olishga ichki yo‘nalgan-likka asoslanadi. Empatiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshib, suhbatdoshining fikrlariga e‘tibor qaratish-dan, voqelikka qayg‘udosh va hamdard (sherigining emot-sional holatiga o‘tish) ekanligini ifoda etishgacha tarzda amalga oshadi. Umuman olganda, empatiya o‘zaro bir-bi-rini tushunishning muhim mexnazmlaridan biri va o‘quv-chi-yoshlarda tolerant xulq-atvorni shakllantirishning asosiy usullaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Motivatsion bosqichda o‘yinli texnika usullaridan ham foydalanish O‘quvchi-yoshlarning ham o‘z guruhidagi, ham butun jamoa haqidagi ma‘lumotlarni yaqindan bilish-lariga imkon beradi. Ayniqsa, “Qor yig‘imi”, “Olma”, “Ism-lar – fazilatlar”, “Juftlik asosida tanishuv” kabi o‘yinlarni qo‘llash tavsiya etiladi.

“Qor yig‘imi” o‘yini. Tarbiyachi ko‘rsatmasiga binoan uning o‘ng yoki chap tomonida turgan ishtirokchilardan bittasi o‘z ismini aytadi. Ikkinchisi esa birinchi ishtirok-chining va o‘zining ismini aytadi. Uchinchi ishtirokchi esa

birinchi, ikkinchi ishtirokchining va o'zining ismini aytadi. Shu tariqa oxirigacha davom etadi. Oxirgi ishtirokchi birinchi ishtirokchidan boshlab to ishtirokchilarning hammasini va o'zining ismini aytadi. Ishtirokchilarning bir-biri bilan tanishishi ana shu tarzda amalga oshadi.

“Olma” o'yini. Qatnashuvchilar davra qurib o'tiradilar. Boshlovchi “Mening ismim... Men ...ni yaxshi ko'raman (xohlagan narsa yoki kishini aytishi mumkin)”, – deydi va olma (koptok)ni biron kishiga qarab otadi. Olma (koptok)ni ilib olgan ishtirokchi ham o'z navbatida o'zini shunday tanishtiradi va koptokni boshqa ishtirokchiga uzatadi. O'yin barcha ishtirokchilar o'zlarini tanishtirib bo'lgunlariga qadar davom etadi.

Ishtirokchilar tanishtirish jarayonida aytilishi mumkin bo'lgan jumalar:

Men ...ni yaxshi ko'raman.

Bolalagimdan yaxshi ko'rgan ovqatim ... edi.

Men yoqtiradigan rang (gul yoki meva) – ...

“Ismlar – fazilatlar” o'yini. Bu o'yin guruh ishtirokchilarining kayfiyatini ko'tarish, ishtirokchilar o'zlarini yaxshi his etishlari uchun tashkil qilinadi.

Har bir ishtirokchi biron-bir ismning birinchi harfi bilan boshlanadigan shaxsning ijobiy xarakter xususiyati, kishi fazilati nomini aytish lozim.

“Juftlik asosida tanishuv” o'yini. Ishtirokchilar juft-juft bo'lib o'n minut davomida bir-birlariga o'zlari haqida ma'lumot beradilar. Keyin ulardan biri ishtirokchilar bir-birlarini tanishtirgunlariga qadar davom etadi.

Texnologiyaning mazmunli bosqichini asosida ijtimoiy muloqot me'yor va qoidalarini o'zlashtirish, ijtimoiy yo'naltirilgan orientatsiyani shakllantirish, voqea-hodisalarni tanqidiy baholay olish qobiliyatini rivojlantirish, voqelikni rivojlanib borishining ehtimoliy variantlarini bashorat qilish va shu asosda mustaqil qaror qabul qila olish kabilar yotadi.

Mazmunli bosqich o'z navbatida ikki qismdan tashkil topadi: axboriy va kognitiv. Axboriy darajada tolerantlik fazilati bilan bog'liq nazariy bilimlar egallansa, kognitiv

darajada mazkur bilimlarning tolerant xulq-atvor ko'rishiga o'tkazilishi uchun zaruriy ko'rsatmalar taqdim etiladi.

Mazkur bosqichda tushuntirish, matn bilan ishlash, aqliy hujum, ma'ruza – munozara, dialog kabi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tushuntirish – ta'limning og'zaki metodi sifatida barcha yoshdagi tarbiyalanuvchilar bilan ishlashda qo'llash mumkin bo'lgan universal metoddur. Tushuntirish metodi analiz(tahlil etish), sintez (umumiylashtirish), induksiya (umumiydan xususiyga qarab borish) va deduksiya (xususiydan umumiyga qarab borish) usullari orqali amalga oshiriladi. Mazkur metod orqali O'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilati bilan asosiy tushunchalar, tolerantlikning turlari, tolerantlikning tarixiy asoslari, bugungi kundagi ahamiyati haqidagi bilimlar tarkib toptiriladi.

Matn bilan ishlash – tarbiyalanuvchilarni axborotlar bilan tanishishi, mazmunini tushunib yetishlari, axborotlarni tahlil etish, umumlashtirish, taqqoslash va xulosa chiqara olishlarigacha bo'lgan jarayonni samarali amalga oshirishini ta'minlovchi metod. Mazkur metodni qo'llash jarayonida tarbiyalanuvchilarni matn bilan ishlashga qiziqishlarini orttirish maqsadida turli darajadagi savollardan foydalanish mumkin:

1) ma'lumotlarni o'zlashtirganlikni aniqlash maqsadida va tarbiyalanuvchilardan o'qiganlarini mexanik qayta esga tushurishlarini talab etuvchi oddiy turdagi savollar: "Mazkur voqea qachon va qayerda sodir bo'lgan?", "Matnda qanday voqea haqida gap boryapti?";

2) o'qilganlarini tarbiyalanuvchidan boshqa shaklga ko'chirib o'tkazishni talab etuvchi savollar: "O'qiganlarinigizni bayon etib bering", "Mazkur kishi sizningcha, qanday ko'rinishga ega?";

3) g'oya, dalil, tushuncha yoki qadriyatlar orasida aloqadorlikni ochib berish uchun tarbiyalanuvchilarga beriladigan savollar: "Sizningcha, bunday xulq-atvorning sababi nima-da?", "Mazkur voqeani kelib chiqish sabablarini qanday izohlash mumkin?", "Mazkur voqeaga o'xshash

yana qanday holatlarni bilasiz?”;

4) bevosita tarbiyalanuvchilardan qo'llab ko'rishni talab etuvchi savollar: “Siz yoningizdagi o'rtog'ingizga xuddi shunday muomala qila olasizmi?”, “O'zingizga zarur, biroq o'rtog'ingiz sizdan aynan shu narsani so'rab turibdi, unga o'zingizdan kechib berib tura olasizmi?”;

5) tarbiyalanuvchilardan tahlil etishni va yuqori intellektual darajada javob berishni talab etuvchi savollar: “O'zingizni mazkur holatga ko'rib qo'ya olasizmi?”, “Mazkur kishining o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?”;

6) tarbiyalanuvchilardan ijodiy yondashuvni talab etuvchi savollar: “Mazkur vaziyatdan qanday chiqib ketish mumkin?”, “Muammo qanday tarzda hal qilinsa, hech kimga zarar yetmaydi?”;

7) tarbiyalanuvchilarda baho berishni talab etuvchi savollar: “Matni sizga yoqdimi?”; “Matndagi eng asosiy g'oya nima?”, “Ishtirokchilarning matn yuzasidan bildirgan fikrlariga qanday munosabat bildira olasiz?”.

“Aqliy hujum” metodi ilmiy va amaliy muammolarni hal etish uchun yangi g'oyalarni izlab topishni keng qo'llaniladigan usullari yig'indisidir. Uning mohiyati muammoni hal qilishning noan'anaviy yo'llarini izlab topishga doir jamoaviy birgalikdagi faoliyatni tashkil etishda yorqin namoyon bo'ladi.

O'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilatini shakllantirishda mazkur metodni qo'llashda biz quyidagi pedagogik maqsadlarga erishishga harakat qildik:

1) tarbiyalanuvchilar tomonidan o'quv materialini ijodiy o'zlashtirish;

2) nazariy bilimlarning amaliyot bilan aloqadorligi;

3) tarbiyalanuvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish;

4) tanqidiy, moslashuvchan fikrlashni rivojlantirish;

5) refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish;

6) dolzarb vazifalarni hal etishda tarbiyalanuvchilarning diqqat va aqliy kuchlarini birlashtira olish qobiliyatini shakllantirish;

- 7) jamoaviy ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish;
- 8) tarbiyalanuvchilar guruhida xohish-istakka asoslangan ishchan muhitni shakllantirish.

“Ma’ruza – munozara” metodi. Ushbu metodning maqsadi o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, axborotni tushuna olish jarayonini faollashtirish hamda o‘rganilgan ma’lumotni yanada chuqurroq tushunishdan iborat.

Bunga ko‘ra, tarbiyachi ma’ruzani mantiqiy qismlarini bayon etishda tezda fikrlar almashuvini tashkil etadi. Tanlab olingan masalalarni ma’ruzachi eshituvchilardan mustaqil muhokamasini amalga oshiradi. Munozara ishtirokchilari o‘z fikrlarini o‘tirgan joylaridan turmasdan ham bildirishlari mumkin.

Munozara mashg‘ulot so‘ngida butun ma’ruza mazmuni bo‘yicha ham o‘tkazilishi mumkin.

Hatto ma’ruza davomidagi qisqa munozara o‘quv jarayonini jonlantirib yuboradi, tarbiyalanuvchilarning bilish faolligini faollashtiradi, eng muhimi, ma’ruzachiga butun guruhning fikrini boshqarishga yordam beradi.

Shuningdek, mazmunli bosqichda dialog usullaridan keng foydalanish lozim. Dilogli muloqot o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga imkon beribgina qolmasdan, balki shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bilan bog‘liqlikda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Dialog shaxslararo muloqot shakli sifatida individuallarning bitta narsa-hodisaga nisbatan o‘zaro tenglikdagi harakatini talab etuvchi istalgan tarzdagi birgalikdagi kommunikativ faoliyatini o‘zida aks ettiradi. Dialogik muloqot birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarining individual kuchlarini birlashtirish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning to‘liq o‘zaro bir-birlarini tushuna olishlarining radikal vositasi sifatida muhim ahamiyati kasb etadi. Dialogik muloqotga kirishish natijasida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida barqaror aloqalar yuzaga keladi.

Texnologiyaning uchinchi – faoliyatli bosqichining asosini xilma-xil konstruktiv muloqot shakllarida ishtirok

etish hamda tolerantlik nuqtayi nazaridan muloqotning yangi shakllarini loyihalash va amalga oshirish tashkil etadi. Bu maqsadlarga quyidagi pedagogik shartlar bajarilganidagina erishish mumkin: tarbiyalanuvchilarni zarur sifatning yo'naltirilgan rivojlanishiga olib keladigan tolerantlik mazmuni bilan boyitilgan real hayotiy vaziyatlarga kiritish; tarbiyachilarni rivojlantirishga qaratilgan o'z-o'zini axloqiy takomillashtirish vazifalarini ongli ravishda o'z oldiga qo'yishlari kerak; pedagogik ta'sir odimlovchi tavsifga ega bo'lishi, o'zida yangi, biroq hozirgacha shaxsiy tajribada sinovdan o'tganlardan iborat bo'lishi kerak.

Faoliyat real pedagogik vaziyatlarni yaratish jarayonida tashkil qilinadi hamda motivatsion va mazmunli bosqich imkoniyatlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichda o'yinli metodlar, treninglar, strategiyalarni modellashtirish, aniq vaziyatlarni tahlil etish (keys-stadi) metod va usullaridan foydalanish mumkin.

O'yin metodi o'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilatini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Pedagogik adabiyotlarda o'yin "ijtimoiy tajribani yaratish va o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat shakli" sifatida tavsiflanadi.

O'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilatini shakllantirishda o'yin metodining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) tolerantlik tamoyili asosida bo'lajak hayotiy faoliyatini modellashtirish;

2) tolerant xulq-atvorga ega xilma-xil "fuqarolik qiyofasi" modellarida o'zini sinab ko'rish;

3) ishchan, ijtimoiy-rolli o'zaro munosabatning refleksiv usullarini egallash.

O'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilatini shakllantirishda turli murakkab hayotiy vaziyatlarda insonning xulq-atvor usullariga yo'naltirilgan rolli, dramalashtirilgan, ishbop, taqlidga asoslangan (imitatsion) o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Trening metodi. Ta'limning faol metodlari orasida trening yetakchi o'rin egallaydi. Mazkur yo'nalishda tad-

qiqot olib borgan olimlar (I.V.Vachkov, L.P.Grimak, B.M. Masterov, G.A.Tukerman va boshqalar) treningni yetakchi tamoyillari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi: subyekt-subyekt, muammolilik, faollik, jamoaviylik. Bizning tadqiqotimizda esa trening o'quvchi-yoshlarda tolerantlik fazilatini shakllantirish bilan bog'liq qator usullarni o'z ichiga oluvchi metod sifatida namoyon bo'ladi. Trening turlari orasida ijtimoiy-psixologik treninglar muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy-psixologik treningning bosh maqsadi – muloqotda kompetentlikni oshirishdir. Keng ma'noda ijtimoiy-psixologik trening deganda, muloqot sohasida egallanadigan alohida bilim va ko'nikmalar, ularni korreksiyalashga muvofiq keluvchi ish shakllari tushuniladi.

“Kontakt” – jamoaviy hikoya tuzish treningi.

Trening maqsadi:

- 1) ishtirokchilarni bir-biri bilan tanishtirish;
- 2) do'stona munosabatni va ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
- 3) tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi ruhiy to'siqlarni yengishga o'rgatish.

Treningdan kutiladigan natija: Mazkur trening tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar jamoasini, uning tabiati, ijodiy imkoniyatlari, qobiliyatlari, ishga munosabatlari, shuningdek, pedagogik jarayonda kim bilan qanday ishlashni, nimaga e'tibor berishni, kinga nimada yordam berishni, kimni quvvatlashni va sh.k.larni bilishga imkon yaratadi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi. Mashg'ulot boshlanishidan oldin tarbiyachi iltimosiga ko'ra tarbiyalanuvchilar xonaning kiraverish joyida maxsus stolga tayyorlab qo'yilgan raqamlar yozilgan qog'ozlardan bittadan tanlab oladilar (raqamli qog'ozlar o'quvchilar soni bo'yicha tayyorlanadi) va doira shaklida qo'yilgan stullarga borib joylashadilar.

Tarbiyalanuvchilar o'z joylarini egallagach, tarbiyachi ular bilan tuziladigan hikoyaning mavzusini kelishib oladi yoki tarbiyachining o'zi biron bir mavzu taklif etadi (hikoya mavzusi tarbiyalanuvchilarning yoshi, qiziqishlarini hisobga olgan holda sarguzashtli, hayotiy yoki yoshlar hayoti, odob-axloqi haqida bo'lishi mumkin).

Mashg'ulot tarbiyalanuvchilardan birining biron-bir mavzu yoki tanlangan mavzu asosidagi hikoyasidan boshlanishi mumkin (uncha faol bo'lmagan guruhlarda mavzu bo'yicha hikoyani tarbiyachining o'zi boshlab berishi mumkin). Hikoyani boshlagan tarbiyalanuvchi, uning eng qiziqarli joyida so'zlashdan to'xtab, "Hikoyaning davomi raqamli tarbiyalanuvchida" deydi. Raqami ko'rsatilgan tarbiyalanuvchi hikoyani (voqeani) to'xtagan joyidan (mavzudan chiqmagan holda) boshlab davom ettiradi. Bu tarbiyalanuvchi ham avvalgi tarbiyalanuvchi kabi hikoyaning eng qiziqarli joyida to'xtab "Hikoyaning davomi raqamli o'quvchida" deydi. Mos raqam ko'rsatilgan tarbiyalanuvchi hikoyani (voqeani) kelgan joyidan boshlab davom ettiradi. Hikoyani so'zlash, davom ettirish davradagi tarbiyalanuvchilarning har biri ishtirok etmaguncha, shu tariqa davom etadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning so'zlayotgan hikoyalari bir-biriga mantiqan bog'liq va mazmunga ega bo'lishini kuzatib boradi hamda mavzudan, mazmundan chetlanish bo'lsa, bu holatni to'g'rilab boradi.

Hikoya tuzilgach, tarbiyachi barchaga minnatdorchilik bildiradi va kerakli tavsiyalarni beradi.

"Qadam-baqadam" treningi.

Trening maqsadi: tarbiyalanuvchilarning tolerant xulq-atvorni egallaganlik darajalarini aniqlash.

Treningdan kutiladigan natija: tarbiyalanuvchilar bir-biriga qarama-qarshi so'zlarni topish orqali tolerant va intolerant so'zlar bilan tanishadilar, ularning hayotdagi o'rnini aniqlaydilar, bu so'zlarni o'z faoliyatlarida qo'llash darajasini belgilaydilar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi. Mashg'ulot "qadam-baqadam" usuli asosida tashkil etiladi, ya'ni mashg'ulot davomida amalga oshirilishi kerak bo'lgan har bir ish bir qadam deb olinadi va har bir qadamda tarbiyalanuvchilar biron-bir faoliyatda ishtirok etadilar yoki biron-bir ish bajaradilar. Misol tariqasida, "Bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlarni ayt" mavzusidagi tarbiyaviy mashg'ulotni o'tkazish tartibini keltirib o'tish mumkin:

1-qadam – tarbiyalanuvchilar tarbiyachi tomonidan tarqatma materialda yozilgan soʻzlarni diqqat bilan oʻqib chiqishlari va har bir soʻzning qarshisiga ahamiyati boʻyicha qarama-qarshi boʻlgan soʻzlarni yozishlari zarur:

Hamdardlik – ...

Rahmdillik – ...

Ochiqkoʻnglilik – ...

Insonparvarlik – ...

Ziyraklik – ...

Sahovat – ...

Erkinlik – ...

Adolat – ...

2-qadam – tarbiyalanuvchilardan har bir soʻzga taʼrif berish talab qilinadi.

3-qadam – guruhlariga boʻlinib, keltirilgan soʻzlar ishtirokida hikoya yoki ertak tuzish tavsiya etiladi.

4-qadam – guruhlarda bir-birlarining hikoyalari (ertaklari) yuzasidan savol-javoblar oʻtkaziladi.

5-qadam – guruh ishlari oʻzaro baholanadi.

6-qadam – tarbiyachi mashgʻulotni yakunlaydi.

“Panorama” treningi.

Trening maqsadi: mashgʻulot tarbiyalanuvchilarni aniq bir muammoni yakka holda (yoki kichik jamoa boʻlib) fikr yuritib hal etish, yechimini topish, koʻp fikrlardan zarurini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qoʻyilgan muammo yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, oʻz fikrlarini maʼqullay olishga oʻrgatish.

Treningdan kutiladigan natija: tarbiyalanuvchilar erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga; jamoa boʻlib ishlashga, izlanishga; fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga oʻz fikrini oʻtkazishga, uni maʼqullashga; qoʻyilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda oʻtilgan mavzular boʻyicha egallagan bilimlarini qoʻllay olishga oʻrganadilar.

Mashgʻulotni oʻtkazish tartibi. Tarbiyachi mashgʻulotni yoshlar tarbiyasiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi tahdidlar, xatarlar: xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm, gi-

yohvand moddalar tajovuzi, OITS, egotsentrizm, axloqsizlik falsafasi, “Dunyo fuqarolari” – kosmopolitizm va ularga nimalarni qarshi qo‘yish: farzandlarni asrash, hushyorlik, yoshlarni g‘oyaviy qurollantirish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, tahdidlar mohiyatini oddiy so‘zlar, hayotiy misollar bilan tushuntirish, millat kelajagi uchun mas‘uliyatni shakllantirish, iroda, e‘tiqodni mustahkamlash, ongli yashashga o‘rgatish, axborot tajovuz mohiyatini ochib berish, nikohni mustahkamlash kerakligi haqida ma‘lumot berishdan boshlaydi. Tarbiyachi mashg‘ulotning asosiy mavzusi bo‘yicha yo‘naltiruvchi so‘zida, hozirgi kunda yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga katta e‘tibor qaratilayotgani, chunki mafkuraviy immunitet – begona, zararli g‘oyalar, mafkuralar bilan to‘qnash kelganda, unga nisbatan o‘z munosabatini bildira olish, unga qarshi kurashishga g‘oyaviy, ma‘nan tayyor bo‘lish imkoniyati ekanligi, har bir odam, avvalo, har bir yosh o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lmaguncha bunday immunitetni shakllantirib bo‘lmasligi haqida fikr bildiradi va shu sababdan bugungi tarbiyaviy mashg‘ulotning mazmunini “Zamonaning global muammolari” mavzusi orqali yoritish zarurligini tushuntiradi.

Tarbiyachi kirish so‘zidan so‘ng, tarbiyalanuvchilarning umumiy soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi (kichik guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo‘lgani maqsadga muvofiq). So‘ngra, u tarbiyalanuvchilarga mashg‘ulotning maqsadi va uni o‘tkazilish tartibini tushuntiradi. Har bir kichik guruhga avvaldan tayyorlangan tarqatma materiallarni tarqatadi. Tarbiyachi kichik guruh a‘zolarini tarqatma materialda berilgan jadvalda yozilgan asosiy fikr “Hozirgi zamon global muammolari” mavzusiga kiritilgan global muammolar bilan tanishib chiqish va ulardan bittasini tanlashni talab etadi. Tanlagan muammolari bo‘yicha ajratilgan bo‘limga o‘z fikr-mulohazalarini birgalikda yozma bayon etishlarini so‘raydi, uni bajarishga ularning o‘zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko‘rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi holatlari ishlab chiqiladi.

Texnologiyaning qadriyatli bosqichi baholovchi tav-

sifga ega bo'lib, tolerantlik fazilatini ichki qabul qilish va dunyoqarash tizimiga aylanishini ta'mirlaydi. Qadriyatli bosqichning muvaffaqiyati quyidagi pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni talab etadi:

1) tarbiyalanuvchilarda tolerant xulq-atvorga barqaror munosabatlarni qaror toptirish;

2) tolerant xulq-atvor ko'nikmalarini tarbiyalanuvchilarning o'zlari tomonidan doimiy baholab borilishi;

3) tashxis natijalarini tahlil etish va korreksion tadbirlarni tashkil etish.

Mazkur bosqichda "Kerakli so'zlarni topib qo'ying" va "Fikr bildirish", "Bahslashuv", "Kelishuv va ziddiyat", "Ishontirish maktabi", "Mulohaza, sabab, misol va umumlashtirish" kabi metod va usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

"Kerakli so'zlarni topib qo'ying" metodi tarbiyalanuvchilarning o'z qadriyatlari tizimini mustaqil baholay olishlariga imkon beradi. Mazkur metodni qo'llash uchun qadriyatlar tushirib qoldirilgan gaplar tuziladi. Tarbiyalanuvchilardan ana shu nuqtalar o'rniga o'zlari ma'qul deb hisoblaydigan qadriyat bilan bog'liq so'zni topib qo'yish so'raladi.

Quyida berilgan gaplarni o'qing va orasiga siz uchun muhim bo'lgan kerakli so'zlarni yozib chiqing.

1. Men ko'proq insonlardagi qadrlayman.

2. Men o'z tengdoshlarimni uchun hurmat qilaman.

3. Men o'z tengdoshlarimni uchun hurmat qilmayman.

4. Men o'zimda ko'proq fazilatlarini aks ettirishni xohlayman.

5. Mening hayotdagi eng asosiy maqsadim – bu

6. Men istalgan qarorni chiqarishda asoslanaman.

"Fikr bildirish" metodi. Mazkur metod tarbiyalanuvchilarning o'z qadriyatli tasavvurlari bilan bog'liqlikda fikrlarni to'g'ri baholay olish qobiliyatlarini shakllantirish

maqsadida qo'llaniladi. Metodni qo'llash uchun eng avvalo, baholovchi tavsifga ega fikrlar shkalasi hosil qilinadi. Mazkur fikrlarni baholash uchun "baholovchi so'zlar" taklif etiladi.

Quyida bir nechta hayotingizda uchrab turadigan vaziyatlar taqdim etilgan. Mazkur vaziyatlar bilan tanishing va ularga o'z munosabatingizni bildiring. Fikr bildirishga "ba'zan", "qisman", "hech qachon" javoblaridan foydalaning.

1. Men boshqa madaniyat(lar)ni, hayot tarzini, an'analarni, madaniy va ma'naviy qadriyatlarni bilishga intilaman.

2. Men boshqa boshqa madaniyatlarni bilishga qiziqaman.

3. Men o'z madaniy tasavvurlarimdan o'zgacha madaniy hodisalarga tolerant munosabatda bo'la olaman.

4. Men boshqa millat vakillarining milliy qadr-qimmatini hurmat qilaman.

5. Men boshqa millat xususiyatlarini bilishga qiziqaman.

6. Men milliy tafovutlarga tolerant munosabatda bo'laman.

7. Men o'zgacha nuqtayi nazarni hurmat qilaman.

8. Men o'z nuqtayi nazarimni to'g'ri va asosli bayon qila olaman.

9. Men suhbatdoshimni empatik qabul qila olaman.

O'quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishga doir qator maxsus kurs dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. "Tolerantlik madaniyati".

2. "Biz va olam".

3. "Diniy bag'rikenglik madaniyati".

4. "Siyosiy-huquqiy bilim asoslari".

"Tolerantlik madaniyati" maxsus kurs dasturidan quyidagi mavzular o'rin olgan:

1. "Tolerantlik" tushunchasi va uning mohiyati;

2. Inson-tabiati-jamiyat koevoluytsiyasi;

3. Insonparvarlik g'oyasi va uning o'ziga xosliklari;

4. Tolerantlik tarbiyasi tarixidan;

5. O'zbekiston – bag'rikeng diyori.

Quyida mazkur dastur asosida tashkil etilgan ayrim mashg'ulotlar ishlanmalarini keltirib o'tamiz.

1-mashg'ulot. "Tolerantlik" (amaliy mashg'ulot).

Mashg'ulotning maqsadi: tarbiyalanuvchilarda tolerantlik haqidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirish.

Mashg'ulotdan kutiladigan natijalar:

- 1) tarbiyalanuvchilar "tolerantlik", "konflikt", "kompromiss" tushunchalarining ta'rifini bilib oladilar;
- 2) demokratik va tolerantlik, tolerantlik va konflikt orasidagi o'zaroaloqadorlikni tushunib oladilar;
- 3) guruhlarda ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Mashg'ulotning asosiy tushunchalari:

- demokratiya;
- tolerantlik;
- konflikt;
- intolerantlik;
- kompromiss.

I. Motivatsion daqiqa. Tarbiyalanuvchilarga demokratiya mavzusini eslash taklif etiladi. Dostkada mazkur atama yozib qo'yiladi. Keyin quyidagi savol beriladi: "Sizda mazkur so'z qanday fikr, his-tuyg'uni hosil qilyapti?". Dostkada taxminan quyidagi yozuv paydo bo'ladi:

Demokratiya:

- 1) erkinlik;
- 2) shaxsiy erkinlik;
- 3) erkin fikr;
- 4) erkin tanlov;
- 5) shaxsiy huquq va erkinlik va boshqalar.

Tarbiyalanuvchilar e'tiboriga mazkur masala nihoyatda munozarali, murakkab ko'rinishda namoyon bo'lishi haqidagi fikr havola etilib, nega shunday ekanligi haqidagi savol bilan murojaat etiladi. Tarbiyalanuvchilarning individual javoblari eshitiladi, keyin xulosa chiqariladi: "Biz demokratiya qanday idrok etishimiz haqidagi fikrlarni eshitdik. Haqiqiy demokratiya esa qandaydir tayanch, negizga asoslanishi lozim. Aynan shunday tayanch sifatida tolerantlik aks etadi".

II. "Tolerantlik" tushunchasi ustida ishlash. Tarbiyachi biz hammamiy u yoki bu darajada "tolerantlik" tushunchasi bilan tanishmiz, deb ta'kidlab o'tadi. So'ng tar-

biyalanuvchilarga tolerantlik tushunchasi mohiyati ochib berilgan matnni tarqatadi. Tarbiyalanuvchilar matn bilan tanishib bo'lishgach, matn yuzasidan muhokama o'tkaziladi. Muhokamadan so'ng "Tolerantlik nima?" degan savolga javob taqdim etiladi: "Tolerantlik bu – chidamlilik, toqatlilik va sabr-bardoshlilikdir". O'z-o'zidan savol tug'iladi: "Nimaga nisbatan toqatlilik, chidamlilik?". Tarbiyalanuvchilarning fikrlari yana doskaga yoziladi. Javoblar taxminan quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin:

- 1) boshqa dinlarga bag'rikenglik;
- 2) boshqa turmush tarziga toqatlilik;
- 3) xulq-atvor me'yorlariga chidamlilik va boshqalar.

Tarbiyachining savoli: "Kundalik turmush tarzimizda biz har doim ham tolerant bo'lavermaymiz. Nima uchun?"

I. Savol muhokama qilinganidan so'ng, tarbiyalanuvchilarga o'z fikrlarini "Tarbiya" ensiklopediyasi (Tolerantlik. // Tarbiya: (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya). / Tuzuvchi M.N.Aminov. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – B.416-417.)da keltirib o'tilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash taklif etiladi. Dastlab matn ustida ishlash "Insert" metodi asosida individual ravishda amalga oshiriladi, ya'ni tarbiyalanuvchilar matn bilan ishlash jarayonida o'z qog'ozlarida quyidagi belgilarni qo'yib borishlari so'raladi:

- "+" – men uchun yangi;
- "!" – boshqacha o'ylayman;
- "v" – qo'shilmayman;
- "?" – alohida izohni talab etadi.

Keyin guruhlarda matnni muhokama etiladi, natijada esa birinchidan, barcha "?"lar o'z yechimini topishi kerak, ikkinchidan, "v" belgisi bilan bog'liqlikda barcha uchun qiziqarli umumiy masalalar belgilab olinishi kerak.

Mashg'ulotning mazkur bosqichi yakunida "tolerantlik" tushunchasining murakkabligi va mazkur fazilatni shakllantirishda yuzaga keluvchi qiyinchiliklar aniqlashtirilishi zarur.

III. "Tolerantliksiz hayotimiz qanday bo'ladi?!". Biz yuqorida tolerantlik nima ekanligi va intolerantlikning

asosiy sabablarini aniqladik. Tarbiyalanuvchilarga tolerantliksiz atrof-borliqni tasavvur qilib ko'rish so'raladi. Buning uchun guruhlariga kundalik hayotimizda tolerantlik tamoyiliga amal qilinmagan vaziyatlarni eslash topshirig'i beriladi. Jumladan, birinchi guruhga Mehribonlik uyi bilan bog'liq vaziyat beriladi; ikkinchi guruhga maktab hayotidan; uchinchi guruhga diniy masalalarga doir; to'rtinchi guruhga millat masalasi bilan bog'liq vaziyatlar taqdim etiladi. Guruhlarning fikrlari eshitib bo'linganidan so'ng, istalgan intolerantlik konfliktini keltirib chiqarishi haqidagi to'xtamga kelinadi ("koflikt" tushunchasi doskaga yozib qo'yiladi).

IV. Konfliktni hal etish usullari. Tarbiyachi "Konfliktlar" mavzusi o'z-o'zidan murakkab masala ekanligi, shu sababli mashg'ulotda konfliktli vaziyatlarni hal etish masalasiga to'xtalib o'tish lozimligini ta'kidlab o'tadi. Buning uchun har bir guruhga konfliktni hal etish alohida usuli taqdim etiladi. Tarbiyalanuvchilardan guruh bo'lib, mazkur usulni muhokama etishlari va uni loyiha ko'rinishida taqdim etishlari so'raladi ("birgalikda o'rganamiz" va "kichik loyiha" metodlarining uyg'unlashuvi).

Birinchi guruhga konfliktli vaziyatni hal etish usuli sifatida "kompromiss", ikkinchi guruhga "muammoni kuch bilan hal etish", uchinchi guruhga "masalani qonun yo'li bilan hal etish", to'rtinchi guruhga "muzokara" yo'li bilan hal etish taqdim etiladi.

Guruhlarda ishlash yakunlangach, doskaga konfliktli vaziyatlarni hal etishga doir chizma, rasmlar ifodalangan loyiha taqdimoti o'tkaziladi.

V. Refleksiya. Refleksiv daqiqa sifatida tolerantlik tushunchasi bilan bog'liq "O'n minutlik esse" yozish, mazkur tushuncha bilan bog'liqlikda sinkveyn tuzish, tolerantlik emblemasini chizish, mashg'ulotga epigraf tanlash kabilar taklif etiladi.

"Biz va olam" maxsus kurs dasturi kichik maktab yoshidagi tarbiyalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, jami o'n soat amaliy mashg'ulotni o'z ichiga oladi. Kurs mavzulari tarbiyalanuvchilarning yoshiga mos holda, savol va

undov ko'rinishlarida shakllantirilgan:

1. Biz kimmiz?
2. Biz boshqalarni qanday qabul qilamiz?
3. Biz va dunyo
4. Biz o'zaro hamkorlikda yashaymiz!
5. Biz Yer sayyorasi bolalarimiz!

Mazkur kursda tarbiyalanuvchilarga bilim, ko'nikma va odatlar "qadamba-qadam" tarkib toptirib boriladi:

1) tarbiyalanuvchilarning o'zliklarini anglashlari: o'z-o'zini baholash; o'z-o'zini tahlil etish; o'z xulq-atvorini nazorat qilish; "Men"ini shakllantirish;

2) tarbiyalanuvchilarda boshqalarga nisbatan munosabatni qaror toptirish: muloqot qila olish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zaro bir-biriga yordam berish va g'amxo'rlik ko'rsatish;

3) tarbiyalanuvchilarda dunyoga nisbatan qarashlarni qaror toptirish: olam haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

4) tarbiyalanuvchilarda o'zaro bir-birini tushuna olish hissini shakllantirish: tolerantlik tushunchasi bilan tanishish, uning muhim qadriyat ekanligini anglash.

"Diniy bag'rikenglik madaniyati" maxsus kursi o'rtta maktab yoshidagi tarbiyalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, jami yigirma soat (o'n soat nazariy, o'n soat amaliy) ga mo'ljallangan. Dasturdan quyidagi mavzular o'rin olgan:

1. Dunyo dinlari – ezgulik timsoli.
2. Muqaddas kitoblar va milliy qadriyatlarimiz.
3. Vijdon erkinligi va ruhiy poklik.
4. Dinlararo bag'rikenglik va uning ahamiyati.
5. O'zbekiston – ko'p millatli diyor.

Quyida mazkur dastur asosida tashkil etiluvchi "O'zbekiston – ko'p millatli diyor" mavzusidagi amaliy mashg'ulot ishlanmasini keltirib o'tamiz.

5-mashg'ulot. O'zbekiston – ko'p millatli diyor (amaliy mashg'ulot).

Maqsad: tarbiyalanuvchilarni O'zbekistonning ko'p millatli tarkibi bilan tanishtirish.

Vazifalar: tarbiyalanuvchilarda turli millatlarning

e'tiqodiga hurmat hissini qaror toptirish; ularning boshqa millatlarning urf-odatlari, rasm-rusmlariga tolerant munosabatda bo'lishlariga o'rgatish: ijodkorlik sifatlarini shakllantirish.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar, qani aytingchi, O'zbekistonda qanday millat vakillari istiqomat qilishadi? (Tarbiyalanuvchilarning bir nechta javobi tinglanadi).

To'g'ri, respublikamizda turli xil millat vakillari istiqomat qilishadi. Hozirda O'zbekistonda 136 millat va elat vakillari yashashadi.

Siz qanday o'ylaysiz, O'zbekistonda eng ko'p sonli millat vakillarini kimlar tashkil etadi? (Tarbiyalanuvchilarning javoblari).

O'zbekiston aholisining 80%dan ortig'ini o'zbek millatiga mansub kishilar tashkil etadi.

Bolalar, o'zbeklardan tashqari respublikamizda yana qanday millat vakillari istiqomat qilishadi? (Tarbiyalanuvchilarning javoblari).

Tarbiyachi: O'zbekiston o'z tarkibiga ko'ra ko'pmillatli davlat hisoblanadi. Aholining ko'pchilik qismini (80%dan ortig'i)ni o'zbeklar, qolgan qismini esa, ruslar (5,5%), tojiklar (5 %), qozoqlar (3 %), qoraqalpoqlar (2,5 %), tatarlar (1,5 %) tashkil etadi. Aholisining 88% musulmon diniga e'tiqod qiladi, qolganlari xristianlik, buddaviylik kabi dinlarga e'tiqod qilishadi. O'zbekistonda ta'lim yetti til (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman)da olib boriladi.

Keling bolalar endi, sizning tengdoshlaringizning O'zbekistonda yashovchi uch millat vakillarining madaniyati haqidagi ma'lumotlarini tinglaymiz.

Birinchi tarbiyalanuvchi (rus millati haqida ma'lumot beradi). Ona tili – rus tili. Dini xristian. Uylari to'rburchak shaklda quriladi. Xonalari ixcham, o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Asosan, cho'chqa, baliq go'shtidan qilingan taomlarni sevib iste'mol qilishadi. Ruslar ayniqsa, borshni juda mazali tayyorlashadi. Qishda sho'ba va paltolarda, yozda esa, yengil kiyimlarda yurishadi.

Ikkinchi tarbiyalanuvchi. (tatar millati haqida ma'lumot

mot beradi). Ona tili – tatar. Dini – islom. Tatarlarning uyi labirint ko‘rinishida quriladi, ko‘k va yashil ranglar bilan bo‘yaladi. Ayol va erkaklarning ustki kiyimi beshmet deb nomlanadi. Erkaklari boshlariga do‘ppi, ayollari esa duxoba ro‘mol o‘rashadi. Tatarlarning milliy oyoq kiyimi ichigi deb ataladi.

Uchinchi tarbiyalanuvchi (qozoq millati haqida ma‘lumot beradi). Ona tili – qozoq tili. Dini – islom. Qozoqlar o‘ziga xos o‘tovlar qurishadi. Qimiz va qazini sevib iste‘mol qilishadi. Milliy taomi – beshbarmoq deb ataladi.

Tarbiyachi. Bolalar bugun biz siz bilan O‘zbekiston xalqining ko‘pmillatli ekanligi haqida gaplashdik. Hozir aytib o‘tilganlari asosida o‘z daftarlaringizga “O‘zbekiston – ko‘p millatli diyor” mavzusida bayon yozing.

“Siyosiy-huquqiy bilim asoslari” maxsus kursi dasturi katta maktab yoshidagi tarbiyalanuvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘z ichiga sakkiz soat nazariy va sakkiz soat amaliy mashg‘ulotni qamrab oladi. Mazkur kurs davomida quyidagi mavzular o‘rganiladi:

1. O‘zbekistonda siyosiy-huquqiy fikrlarning shakllanishi.
2. Siyosiy-huquqiy ong va xulq-atvor.
3. Siyosiy-huquqiy madaniyat va uning tarkibiy qismlari.
4. Inson huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari.

Quyida mazkur kursni o‘rganish jarayonida amalga oshiriladigan “Shaxs va mas‘uliyat” mavzusidagi trening haqida to‘xtalib o‘tamiz. Mazkur trening quyidagicha tarkibga ega:

I. Savol-javoblar asosida pedagogik vaziyatni birlamchi o‘rganish.

1. Shaxs mas‘uliyati deganda nimani tushunasiz? Fikringizni asoslang.

2. “Daxldorlik hissi” siyosiy madaniyatning asosiy mezon bo‘la oladimi?

3. Mehribonlik uyi hayotidagi mas‘uliyatli damlarning talabalarning siyosiy madaniyatini oshirishdagi o‘rni qanday?

II. Trening asosida amaliy faoliyatni tashkil etish.

1. Tarbiyaviy tadbirni loyihalash – “Shaxs mas‘uliyati”

mavzusida o'n minutlik esse yozish.

2. Shaxs mas'uliyati tushunchasini tashkil etuvchilarni aniqlash va ularni izohlash.

3. Shaxs mas'uliyatini oshiruvchi shakl, metod va vositalardan qaysilarini samarali ekanligini aniqlang. Fikringizni asoslab bering.

III. Davra suhbatini asosida pedagogik vaziyatni ikkilamchi o'rganish:

1. Shaxs mas'uliyati siyosiy madaniyatni tashkil etuvchisi bo'la oladimi?

2. "Qabul qilingan qaror uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish" siyosiy ma'naviyatni belgilab beruvchi omil ekanligini asoslang.

3. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari tomonidan egallangan bilimlar ularning o'z zimmalariga siyosiy mas'ullikni olishlariga imkon beradimi?



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning konseptual-metodologik masalari haqida nimalarni bilasiz?

2. O'quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari nimalardan iborat?

3. O'quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasining ta'lim jarayoniga tadbiq etish bosqichlari haqida so'zlang.

4. O'quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning axboriy-metodik ta'minoti deganda nimani tushunasiz?

21-§. O'QUVCHI-YOSHLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH



Tayanch tushunchalar: ta'lim, tarbiya, uzliksiz ta'lim, tizim, axborot xavfsizligi, kompetentlik, analitik kompetensiya, texnologiya, modernizatsiya, ijtimoiy omil, globallashuv, axborot bosimi.

O'quvchi-yoshlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirish mazmuni.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri sifatida, ular hayotning deyarli barcha jabhalariga va inson faoliyatiga kirib boriishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jahon rivojiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etiladi. E'tiborli jihati, mamlakat ichidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga odamlar ehtiyojining juda ortib borishidir. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potentsiali va imkoniyatlarining o'sishi, uning jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo'nalishlarda keng tarzda ishlatilishi yangi XXI asrdagi insoniyat taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ham jamiyatni axborotlashtirish qonun bilan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni 4-moddasida axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati aniq belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

Bugungi kunda kundalik xalqaro munosabatlarda "axborot urushi", "axborot qarama-qarshiligi", "axborot bosimi" kabi tushunchalarning keng iste'molga kirib kelayot-

ganligi o'quvchi-yoshlarni axborot xurujlaridan muhofaza qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish zaruratining yanada dolzarbligini oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Globalashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar".

Tadqiqot natijalari jamiyat har qancha axborotlashgan bo'lishiga qaramay ba'zi o'quvchi-yoshlarning to'g'ri, haqqoniy axborot o'rniga turli oldi-qochdi, salbiy axborotlarga alohida e'tibor qaratishlarini ko'rsatadi. Chunonchi, o'quvchilar bilan o'tkazilgan so'rovlarni natijasiga ko'ra, ularning bir qanchasi "men O'zbekiston televideniyesini ko'rmayman", "o'zimizning gazetalarni o'qigim kelmaydi" tarzida javob berishgan. Taassufki, o'quvchilardagi bunday ko'rinishdagi "ehtiyoj"ni yaxshi anglagan g'ayrikuchlar undan unumli fodalalanib qolishga harakat qiladilar. Ular o'zlarini go'yo "haqiqat"ni oshkor etayotgandek qilib ko'rsatib, aslida chiroyli niqoblangan axborot xurujini ustalik bilan amalga oshiradilar. Bu orqali ishonuvchan yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishga erishadilar. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ana shu jihatlarni hisobga olgan holda, "Har tomonlama chuqur o'ylangan, katta moliyaviy va moddiy manbalarga ega bo'lgan bunday harakatlarning ortida qanday maqsadlar turibdi, ular uchun bu qadar ko'p kuch va mablag' sarflayotganini qanday izohlash mumkin, bu haqda nega aynan bugun so'z yuritishga, jamiyatimiz, xalqimiz e'tiborini bu muammoga qaratishga majbur bo'lyapmiz, degan savollar ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy, albatta. Avvalo, bunday xatti-harakatlar zamirida o'z hayoti va kelajagini o'z qo'li bilan barpo etayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekistonga nisbatan muayyan siyosiy markazlar tomonidan turli xil falsafiy, mafkuraviy, informatsion vositalardan ustalik bilan foydalangan holda ta'sir o'tkazish, hali dunyoqarashi

to'liq shakllanmagan o'g'il-qizlarimizni tanlagan yo'lidan og'dirish, ularning qalbiga biz uchun mutlaqo begona va zararli bo'lgan qarashlarni singdirish, ma'naviy ildiz va tomirlarimizdan judo qilishdek g'arazli intilishlar yashiringani bugun tobora ayon bo'lmoqda", – degan fikrlarni bildirib o'tgan.

Axborot xuruji o'quvchi ongiga manfaatli axborot ta'siri bo'lib, uning xulq-atvorini o'zgartirishga yoki uni beqarorlashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Axborot xurujining manbalari xilma-xil bo'lib, hozirgi vaqtda axborot xurujlarining quyidagi turlari keng tarqalgan:

- davlatning milliy siyosatini atayin tanqid qilish;
 - soxta xabarlar tarqatish;
 - ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish;
 - kichik muammoni katta, yirik muammo sifatida tasvirlash;
 - yoshlarni chalg'itish;
 - milliy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish;
 - yetti yot begona ma'naviy qadriyatlarni singdirish;
- xalqning tarixiy xotirasini buzish va o'zgartirish;
- kiberterrorizm.

O'z vaqtida Hindistonning taniqli siyosiy arbobi Mahatma Gandi shunday yozgan edi: "Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o'tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib, xonadonimni ag'dar-to'ntar qilib, o'zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman". Bu so'zlarni bugungi axborot xurujlari va turli xil ma'lumotlarning xilma-xil yo'llar bilan mamlakatimizga, umuman, boshqa mamlakatlarga ham kirib kelib, u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e'tiqod shakllariga va tarbiya uslublariga salbiy yoki ijobiy ta'siri jarayonlari ma'nosida qo'llash ham mumkin.

Bugun O'zbekiston ana shu yagona axborot tizimining faol subyektiga aylandi. Uning dunyo bilan aloqasi, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ishtiroki, davlatlararo munosabatlar, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va madaniy

aloqalari umumjahon axborot tizimi tarkibida amalga oshirilmoqda. Bu bevosita elektron pochta, elektron axborot almashish tizimi orqali ham milliy, ham dunyoviy muammolarni hal etishda faoliyat samaradorligini oshirishda, vaqtni tejashda, moliyaviy harajatlarning keskin kamayishida, qolaversa, zamonaviy axborot almashtirish salohiyatini namoyon qilishda katta samara bermoqda.

Hozirgi zamon axborot tizimi, uning juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umummilliy manfaat hamda umummilliy taraqqiyotnuqtayinazaridanboshqaruvmexaniziminiyaratish, uning mohiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo'lib qolmoqda.

Axborot makonida O'zbekistonga ham "axborot xurujlari" qanchalik avj oldirilayotgani ko'rinib turibdi. Masalan, 2005-yil may oyida Andijonda yuz bergan mudhish hodisalar ayrim davlatlar matbuotida "bosh mavzu"ga aylangan edi. O'shanda O'zbekistonga qarshi ko'plab "axborot xurujlari" uyushtirilgan. "Ommaviy axborot vositalarida boshlangan mazkur keng qamrovli kompaniya bu – tergov ishlari tugagunga qadar voqealardan ilgarilab ketish, G'arbdagi keng jamoatchilik ongiga o'zlari istagan soxta manzarani chuqur singdirish, Yevropa va AQShda yashaydigan har bir odamda «tinch namoyishchilar» o'qqa tutildi, mana O'zbekistonda qanday mustabid tuzum hukmronlik qilmoqda, degan fikr uyg'otishga intilishdan boshqa narsa emas, – deb ta'kidlagan edi Prezident Islom Karimov Andijon shahrida ro'y bergan voqealar munosabati bilan bergan bayonotida. – Bu keng qamrovli kompaniya tashkilotchilari mana nimani xohlaydi. Ular buning uchun katta pul tikishgan". O'sha kezda ayniqsa G'arb matbuoti sahifalarida Andijon voqealariga oid tarqatilgan xabarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu mafkuraviy tahdid zamirida O'zbekiston hukumatini obro'sizlantirishga va mamlakatda siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan sa'y-harakatlar ayon ko'rinib turibdi. T.Eshbekovning fikricha, bu mamlakatimizga qarshi "psixologik urush"ning

o'ziga xos ko'rinishi edi.

“Psixologik urush”ning ma’nosini mutaxassislar quyidagicha izohlaydi: u “muayyan bir davlat maxsus organlarining o‘z siyosiy va hatto sof harbiy maqsadlariga erishish uchun boshqa davlatning fuqaro aholisi va harbiy xizmatchilariga psixologik ta’sir o‘tkazishdan iborat faoliyat mazmunini aks ettiradi”.

Sh.Raimovning e’tirof etishicha, qator davlatlar tomonidan qo’llanilayotgan “psixologik urush” olib borish metodlari aslida eramizdan oldingi VI asrda yashagan xitoy faylasufi va harbiy arbobi Sun Szi qo’llanmalarida quyidagi tarzda ifodalab berilgan:

dushmaningizning mamlakatidagi hamma yaxshi narsalarni parokanda qiling; dushmanning ko‘zga ko‘ringan arboblarni jinoyatkorona ishlarga jalb qiling;

dushman rahbarlarining obro‘cini to‘king va payti kelganda ularni jamoatchilik oldida izza qiling;

shu maqsadda eng qabih va razil odamlar bilan hamkorlikdan foydalaning; o‘zingizga dushman mamlakat fuqarolari orasida nizo va to‘qnashuvlar keltirib chiqaring; yoshlarni keksalarga qarshi gij-gijlang;

hukumatning ishiga barcha vositalar bilan xalal bering; dushman qo‘shinlarining normal ta‘minlanishiga va ularda tartib saqlanishiga barcha usullar bilan to‘sqinlik qiling;

dushman qo‘shinlari maylini ashula va musiqalar bilan band qilib qo‘ying; dushmanlaringizning an‘analarni qadrsizlantirish va o‘z xudolariga ishonchini yo‘qotish uchun mumkin bo‘lgan hamma narsani qiling;

ma’naviy buzilishni avj oldirish uchun yengiltabiat ayollarni yuborib turing;

axborot va sheriklar sotib olish uchun taklif hamda sovg‘alarga saxiy bo‘ling; umuman pulni ham, va‘dalarni ham ayamang, chunki ular ajoyib natijalar beradi.

M.Quronovning fikricha, axborot xurujlari bu – mafkuraviy obyekt xususiyatlarini hisobga olib ta’sir ko‘rsatish: dushman o‘zini o‘rta yoshli va ma’lumotli o‘zbek do‘sti bilan gaplashayotgandek, tutadi. Hozir barcha MDH mam-

lakatlarida bo'lgan o'tish davri iqtisodiy muammolarni "Hammaga kelgan to'y-da, deb emas, balki, aksincha, faqat O'zbekistonda bor", deb aldayapti. O'zbekiston taraqqiyotda MDHning ko'plab davlatlaridan ustun ekanini zinhor-bazinhor aytmaydi. Ana shunday soxta axborot vositasida mafkurasi zaif ayrim yurtdoshlarimizda noto'g'ri, o'tkinchi munosabatni paydo qilishga umid qoladi.

Ommaviy axborot vositalari odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Aynan, ommaviy axborot vositalari amalga oshiradigan va katta mablag' talab qilmaydigan g'oyaviy ta'sir va tazyiqning o'ziga xosligi shundaki, u o'quvchiga sezdirmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmanni yo'q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgan holda asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o'zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi.

Ochiq axborot kommunikatsiyasi jarayonida o'quvchilar ongiga ta'sir etayotgan yot g'oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval o'quvchilarning ijtimoiy xulqida ko'zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri tashvishlanish, nimadandir cho'chish va shu tufayli ijtimoiy munosabatlardan o'zini olib qochishga intilish hislarini namoyon bo'lishini hisobga olish lozim. Chunki agar, psixologik himoya holatining mohiyatidan kelib chiqilsa, bu shaxs ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo'tadillikni asrash uchun o'zidagi xavotirlanish, qo'rquv va xadiksirashlarini bosishga, ulardan halos bo'lishga intiladi. Psixologik himoya – shaxsni turli salbiy ta'sirlardan asrashga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shunday holatlarda o'quvchi odatda shaxslararo munosabatlarda o'zini boshqalardan o'zgacha tarzda tutadigan bo'lib qoladi. Psixologlar bunday himoya mexanizmlariga quyidagilarni kiritadilar:

ochiq hissiy-kechinmalarni bosish, ko'tarmaslikka urinish; rad etish – nomaqbul ma'lumotni ochiq rad etish, qo'shilmalik; proektsiya – o'zidagi hissiyot va kechinmalarni tashqi ob'ektlarga ko'chirish orqali paydo bo'lgan holatning sabablarini tashqaridan qidirishga moyillik; identifikatsiya – o'zini axborot egasiga o'xshatish, uning o'rniga o'zini qo'yish orqali qadriyatlarni rad etish yoki tanqidsiz o'zlashtirish; regressiya – ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo'lib o'tgan qaysidir voqealarga qaytish, ularning yaxshi va ma'qullarini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o'zida psixologik himoya yoki oqlovni tashkil etish; yolg'izlanish – jamiyatdan o'zini olib qochish, o'zidagi o'zgarishlarni boshqalarga bildirmaslikka intilish, ayrim o'quvchilar o'qishga bormay qo'yadilar; ratsionalizatsiya – mulohaza va fikr yuritish orqali o'zida himoya instinktlarini paydo etish; konversiya – muloqotdagi qandaydir to'siqlar yoki bar'rlarni olib tashlash uchun kutilmagan usullarni qo'llash, masalan, xavotirli informatsiyani yumor bilan almashtirish yo'li.

Ochiq axborot xurujlari vaziyatida o'quvchining o'z-o'zini himoya qilishini boshqarishda quyidagi jihatlar-ga alohida berish lozim:

har bir o'quvchi uchun mustaqil fikr zarurligini ta'kidladik. Mustaqil fikrga ega bo'lgan insongina o'ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma'lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko'rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin. M.Quronov ta'biri bilan aytganda, mustaqil fikrga mustaqil (erkin, ozod; tobe bo'lmagan, alohida) – ixtiyori o'zida bo'lgan; tobe, qaram bo'lmagan kabi ma'nolaridan kelib chiqib qarashimiz lozim. Bunda o'zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz, o'zicha fikr yuritish, yashash tushuniladi. O'quvchimiz shunga qodirmi? Uni shunga o'rgatyapmizmi?;

yoshlar turli yot va g'ayrishuuriy axborot xurujlari-ga berilmasligi uchun ularda milliy g'ururni tarbiyalash va umumta'lim fanlari hamda tarbiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur. "Yangi zamonning yangi tushunchalari" tahliliga e'tibor qaratar ekan, M.Quronov

milliy g'urur tushunchasining mohiyatini quyidagi tarzda sodda va tushunarli yoritib bergan: "Milliy g'urur – o'quvchining yoshiga mos ravishda o'z xalqining qadr-qimmatini bilishi, izzatlashi; uning madaniyati, ma'naviyati, iqtisodiyotida qo'lga kiritgan yutuqlari, xizmatlari, boy merosini bilishi va ana shu yuksak milliy madaniy yutuqlarga mos bo'lishga, ularni boyitishga intilishini o'z ichiga oladi. Biroq milliy g'urur stixiyali rivojlanib, o'z-o'ziga tanqidiy qarashdan ajratilsa, unda o'z millatini boshqalardan ustun qo'yish, milliy manmanchilik kabi salbiy natijalar berishi mumkin. Shuning uchun ham milliy g'ururni maxsus, ya'ni yaratuvchan maqsadlarga qaratib, tanqidiylikni kamtarlik bilan uyg'unlashtirgan holda shakllantirish kerak". Milliy g'ururning ahamiyati ham ana shunda, bunday fazilatga ega o'quvchi noto'g'ri g'oyalarga, jumladan, axborot xurulariga tobe bo'lmaydi;

milliy g'ururi yuksak o'quvchi shaxsida iymon, insof va diyonat kabi fazilatlarni rivojlantirish mumkin. Chunki inson qalbi bilan bog'liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan "kompas" rolini o'ynaydi. "Internet shunday o'rmonki, unda kompassiz yurib bo'lmaydi". Internetda uyum-uyum "keraksiz" axborotlar mavjudligini e'tirof etish zarur. Garchi Internet axloqiy jihatdan betaraf vosita sanalsa-da, undan shu vaqtga qadar to'plangan madaniy merosni saqlash maqsadida ham, unga putur yetkazish maqsadida ham foydalanish mumkin;

umumta'lim maktablari o'qituvchilarida har bir ma'lumotga nisbatan aniq mo'ljalni olish qobiliyatini rivojlantirish zarur. O'qituvchi tomonidan quyidagi fikr muntazam takrorlab turilishi kerak: "Axborot qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, u qabul qiluvchi insonning izmidan bo'lishi, uning manfaatiga xizmat qilishi kerak". Buning uchun yovuz niyatli, yot g'oyalarni targ'ib etuvchilarning asl niyatlarini, ular sa'y-harakatlarining oqibatlarini nima bilan tugashini har bir darsning tashkiliy qismida esga solib turish lozim.

Globalashuv sharoitida ommaviy axborot vositalarining o'rni haqida gap ketar ekan, O'zbekiston Respub-

likasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan masalaning yana bir muhim jihatiga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi: "Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizni ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma deb, bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddalarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz".

Shuningdek, M.Quronov "Biz angelayotgan haqiqat" nomli kitobida "Diqqat, Internet" sarlavhasi ostida quyidagi fikrlarni bayon etgan: "Hali internetning inson hayotidagi o'rni haqida yakdil xulosa qilishga ertaroqqa o'xshaydi. "Texnologiya biznesa. Connect" jurnali o'zining 2003-yil 10-sonidagi "Informatsiya + natsiya" maqolasida xavotirli gaplarni yozdi. «Internetdan mustaqil foydalanuvchilarda, – deb yozadi jurnal, – o'zini o'zi barqaror identifikatsiya qilish, o'ziga xoslik yo'qola boradi. Odamning o'zini anglashi xiralashadi yoki beqaror bo'lib qoladi.

Boshqacha qilib aytganda Internet – millatsiz, qalbsiz, tarixsiz bepoyon cheksizlik. Unga odam qancha chuqur kirib borsa, miya kataklari shuncha tashqi ma'lumotga to'la boradi. Begonalik sari qancha chuqur borsangiz, o'zingiznikilardan shuncha uzoqlasha borasiz. Miyangizda 100 ta katak bo'lsa-yu, shundan 70 tasi o'zbekona ma'noga to'la bo'lsa, yaxshi. O'zimiznikisiz. Mabodo 30 tasi o'zbekcha bo'lsa, yomon. Siz o'zingizga, o'zingiznikilarga begonalar tomonidan turib baho bera boshlaysiz. Bundan o'zingiznikilar yutqazadi. Begonalar yutadi..."

N.Umarovanning fikricha, ayni paytda axborotlashgan jamiyatni o'ziga xos bir jannat sifatida tasavvur qilish noto'g'ri bo'lar edi. Jumladan, axborotlashgan jamiyatda: om-maviy axborot vositalarining jamiyatga ta'siri yanada or-

tadi; axborot texnologiyalari insonlar va tashkilotlarning shaxsiy, xususiy hayotiga zarar yetkazishi mumkin bo'ladi, masalan, mamlakatning istagan fuqarosi haqida axborot to'plash va uning erkinligini bo'g'ish yo'lida bu ma'lumotlardan foydalanish mumkin bo'ladi; axborot texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanish imkoniyati ortadi; sifatli va haqqoniy axborotni tanlab olish muammosi yuzaga keladi;

ko'pchilik kishilar uchun axborotlashgan jamiyat muhitiga moslashish murakkablik tug'diradi; axborot texnologiyalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan ikshilar bilan iste'molchilar o'rtasida uzilish yuzaga kelish xavfi tug'iladi;

jamiyatning texnologik imkoniyatlari bilan sotsial sohani va madaniyatni rivojlantirish bilan bog'liq imkoniyatlari o'rtasida tafovut paydo bo'ladi.

Muallif o'z fikrini davom ettirib, axborotlashgan jamiyatdagi tafovutlarni bartaraf etish uchun har bir insonda zamonaviy vositalar va texnologiyalar yordamida kattta hajmdagi axborotni tez qabul va qayta ishlash malakasini tarkib toptirishning muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Axborot iste'moli madaniyati insonning ijtimoiy tabiatiga bog'liq bo'lib, uning ijodiy qobiliyatlari mahsuli sanaladi va texnik qurilmalar (telefon, kompyuter, axborot tarmoqlari)dan foydalana bilish;

o'z faoliyatida ko'p sonli dasturiy mahsulotlar jamlangan kompyuter texnikasini qo'llashga qodir bo'lish;

turli manbalar: davriy nashrlar, elektron kommunikatsiyalardan o'zi uchun kerakli axborotni olish, uni tushunarli tarzda taqdim etish va undan samarali tarzda foydalana olish;

axborotni tahliliy qayta ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

turli axborotlar bilan ishlash malakasiga ega bo'lish;

o'z faoliyat sohasiga aloqador axborot oqimlariga xos xususiyatlarni bilish;

informatsion bag'rikenglik va informatsion faollikni talab etadi.

Globalashuv va yangi xalqaro axborot tartibi shakllanayotgan bir sharoitda deyarli to'rt asr avval mashhur ingliz faylasufi Frensis Bekon tomonidan aytilgan "Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi", degan fikr bugungi kunda yangicha mazmun kasb etmoqda. Bugun biz tabiiy resurslarning an'anaviy bozorlariga qo'shimcha ravishda axborot va bilimlar bozorining shakllanishi hamda rivojlanish jarayoniga guvoh bo'layapmiz, bu jarayonlarning faol qatnashchilariga aylanyapmiz. Shunday ekan, o'quvchilarda axborotlar olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish, ularda axborot iste'moli madaniyatini tarbiyalash katta hayotiy ahamiyatga ega.

U.G'afurovning ta'kidlashicha, axborot iste'moli madaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilim, qobiliyat va malakalar tizimidir [83; 285-b.]. Agar mazkur ta'rifni umumta'lim maktablari amaliyotiga tatbiq etadigan bo'lsak, axborot iste'moli madaniyati – umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchining axborot oqimidan tarixiy voqelik bilan bog'liq ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va to'g'ri talqin etishga xizmat qiladigan bilim, qobiliyat va amaliy faoliyat tajribasi tizimini anglatadi.

Axborot iste'moli madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Kommunikativ, regulyativ (tartibga solish), axborot, aksiologik (baholash) kabi funksiyalar shular jumlasidandir. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste'moli madaniyatining aksiologik funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Masalan, Internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, milliy merosimizga, xususan, o'quvchilarning ongi va qalbiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiyki, ularning tarixiy tafakkuri rivojida ham muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish orqaligi bunday ta-

sirlarning oldini olish mumkin. Shuningdek, “Biz ba’zan G’arb madaniyati to’xtovsiz kirib kelayotgani haqida ta-assuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqish juda mushkul. Buning faqat bitta yo’li bor. U ham bo’lsa, Internetga o’zimizga mos bo’lgan ma’lumotlarni o’z vaqtida kiritishdan iborat”[7; 304-b.]. Boshqacha aytganda, tarmoqdan illat qidirish bilan ovora bo’lmastan, uning imkoniyatlaridan yurtimiz shon-shuhratini dunyo miqyosida keng yoyish yo’lida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki Internet virtual, ammo, ob’ektiv hodisadir. O’quvchilarni Internet tizimidan uzoqroq tutishga intilish emas, balki, undan oqilona foydalanishga o’rgatish, axborot iste’moli madaniyatini yuksaltirishga harakat qilish to’g’ri bo’ladi. Zero, o’quvchilarda axborot iste’moli madaniyati rivojlangan bo’lsa, milliy tariximiz, milliy qadriyatlarimizga zid bo’lgan xabar, ma’lumotlarni “baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o’z qarashlari, qadriyatlar tizimi muhim rol o’ynaydi. Lekin, aksariyat hollarda bunday paytda, ayniqsa, baholanilayotgan hodisa o’zga madaniyatga tegishli bo’lsa, o’zimiz mansub bo’lgan madaniyat ruhimizga sindirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo’ladi va butun bo’y-basti bilan o’zligini namoyon qiladi, madaniyatning baholash funktsiyasi tufayli tanlanish sodir bo’ladi, madaniyatdagi barqarorlik, har bir davrdagi ayniqlik, o’ziga xoslik, ayni paytda, davomiylilik, vorislik ta’minlanadi”.

Doimiy axborot oqimi vujudga keltirayotgan muhitda milliy qadriyatlar, azaliy an’analar zavol topishining oldini olish maqsadida axborot xavfsizligini ta’minlash kerak. O’quvchi xorijiy telekanallarda nima namoyish etilsa yoki Internetda nima targ’ib qilinsa, barchasini qabul qilaverishi emas, ular orasidan imon-e’tiqodimiz, an’ana-yu qadriyatlarimizga mos keladiganlarinigina saralab olmog’i zarur. Bu maqsadga erishish uchun esa o’quvchilarga ommaviy axborot vositalari va Internetdan oqilona foydalanish yo’llarini o’rgatish lozim.

Axborot iste’moli madaniyatini tarkib toptirish umumta’lim maktabi o’quvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlan-

tirishda muhim o‘rin tutadi. Chunki tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi manbalar xilma-xil bo‘lib, ular orasida turli axborot xuruji ko‘rinishidagi ma‘lumotlar o‘quvchining ongi va fikrlashiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Umumta‘lim maktabi o‘quvchilari “O‘qish”, “Odobnomma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari” va “Tarix” fanlarini o‘zlashtirish jarayonida boy tarixiy merosimizni, davlatchiligimiz tarixida muhim o‘rin tutgan tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishib boradilar.

Jamiyatda axborot-psixologik xavfsizlikni ta‘minlashda avvalo chetdan axborot xuruji qiladiganlarning “obyekti”ni aniqlab olish muhimdir. Ular birinchi galda buyuk ajdodlarimizga, shaxslarga tariximizga, jamiyatga, ma‘naviy qadriyatlarimizga, davlat siyosatiga qarshi turli uydirmalar va bo‘htonlar uyushtiradilar. Demakki, o‘quvchi ongida tariximizga va boshqa ma‘naviy qadriyatlarimizga qarshi g‘ayrihuuriy fikrlar uyg‘otishga harakat qiladilar. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mazkur masalaning og‘riqli nuqtasiga e‘tibor qaratib, quyidagi fikrlarni alohida ta‘kidlab o‘tadi: “Kezi kelganda ilgari aytgan bir fikrimni takrorlamoqchiman: bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo‘shliq bo‘lmaydi. Qayerdadir bo‘shliq paydo bo‘ldimi, hech shubhasiz, uni albatta, kimdir to‘ldirishga harakat qiladi.

Hozirgi kunda kim ko‘p – ana shunday ma‘naviy bo‘shliqni to‘ldirishga urinadigan, shuning hisobidan o‘zining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishni o‘ylab yurganlar ko‘p. Ming afsuski, bu kuchlarning asl qiyofasi, maqsad-muddaolari va imkoniyatlarini to‘la va aniq ravshan tasavvur qilish oson emas. Nega deganda, ular ko‘pincha turli niqoblar, jozibali shior va g‘oyalar pardasi ostida ish ko‘radi. Bunday kuchlarning ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ularning puxta o‘ylangan, uzoq va davomli yovuz maqsadlariga xizmat qilmoqda”.

Internet dunyoni yagona axborot makoniga aylantirgan hozirgi davrda to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat, jamiyat va shaxs-

ga qaratilgan tahdidlar ko'payib ketmoqda. Ularning ta'sir ko'rsatish yo'llari xilma-xil. Ayniqsa, tarixiy shaxslarga ma'naviy tahdid qilishda turli usullardan foydalanilmoqda.

Sobiq mustabid tuzum davrida buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temurga nisbatan juda ko'p adolatsizliklar qilingani so'nggi yillarda yaratilgan tarixga oid kitoblarda atroflicha yoritilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Sohibqiron Amir Temurning shaxsi va faoliyati yuzasidan amalga oshirilgan tahdidlarni quyidagi tarzda izohlagan: "Ming afsuski, ko'p yillar davomida mustabid bosqinchi mafkura davrida bizni Amir Temurdek buyuk bobokalonimizdan, boy o'tmishimizdan ayirib, xalqimizning ma'naviyatini, g'ururini, iftixorini yerga urmoqchi bo'ldilar. Yurtimizda, jumladan, Shahrisabzda bevosita Sohibqironning sa'y-harakatlari bilan bunyod etilgan tarixiy obidalar xarobaga aylantirildi. Hatto ul zot va avlodlarining qabarmaqbaralari ham "ilmiy tadqiqotlar" niqobi ostida talon-taroj etildi, toptaldi" [2; 38-b.]. Shunga qaramay azaldan ma'naviyati yuksak xalqimiz ulug' ajdodlarining tabarruk nomlarini, betakror ishlarini va avlodlariga qoldirgan boy meroslarini hamisha muqaddas bilib keldi. El qalbida e'zozlanib kelgan buyuk zotga nisbatan tarixiy adolat tiklandi! Bu ulug' siymoga nafaqat O'zbekistonda, balki jahondagi turli mamlakatlarda ham katta e'tibor bilan qaralmoqda! Yurtimiz mustaqilligi sharofati bilan Shahrisabzda, Samarqandda va Toshkentda Amir Temurning ulug'vor haykallari qad rostladi. Poytaxtda buyuk bobokalonimizning muhtasham muzeyi barpo etildi. 1996-yilda Sohibqironning 660 yilligi yurtimizda katta tantana qilindi. Shu bilan bir qatorda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Parijdagi qarorgohi – YUNESKOning muhtasham saroyida ham yuksak ehtirom bilan nishonlandi. Amir Temurga nisbatan tarixiy adolatni tiklashning bosh tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov bo'ldi.

Haqiqatan ham turli davrlarda Sohibqiron Amir Temur shaxsi va faoliyatiga nisbatan ko'plab ilmiy asoslanmagan

noto'g'ri qarashlar bayon etilgan. Jumladan, atoqli adibimiz Pirimqul Qodirovning "Amir Temur siymosi" ilmiy badiasida buyuk bobokalonimizga nisbatan turli yillarda ko'plab uydirma va bo'htonlar bo'lganligi haqidagi fikrlarga alohida to'xtalib o'tilgan. Ularni o'z nomi bilan tarixiy shaxsga nisbatan "axborot xuruji", deb atash mumkin.

P.Qodirov mazkur asarida taassuf bilan buyuk bobokalonimizga nisbatan uydirmalar, soxta gaplar hanuzgacha davom etayotganligini ta'kidlab quyidagi fikrni keltiradi: "So'nggi asrlarda paydo bo'lgan ba'zi kitoblarda Tarag'ay bahodirning nomini "To'rg'ay" deb yozish hollari ham uchraydi. Bu hech bir mantiqqa to'g'ri kelmaydi. To'rg'ay – kichkina sayroqi qush. Bahodirlar avlodidan bo'lgan amirga bunday nisbat berish to'g'ri emas. Turkiy tilda Tarag'ay so'zi «nurday taralsin, ko'paysin, katta hududlarni egal-lasin" degan ma'nolarni bildiradi". Adib yana shu o'rinda Amir Temur o'zining suyukli nevarasi Ulug'bekka dastlab Tarag'ay deb ism qo'rganini ham eslatib o'tadi.

T.Eshbekov ta'kidlab o'tganidek, tarixiy shaxslarning nomlarini "axborot xuruji"dan himoya qilishda zarur fakt va dalillar bilan ko'rsatib berish maqsadga muvofiqdir. Xuddi ana shu yo'lni tanlab, adib Pirimqul Qodirov Sohibqironning tarixiy g'alabasi bilan bugungi tengsiz istiqlolimizni shunday muqoyasa qiladi: "Eng baland tog' cho'qqisi ana shunday baland cho'qqidan ko'zga aniqroq ko'rinadi. Biz ham Amir Temur yetakchiligida xalqimiz erishgan mustaqillikning naqadar yuksak qadriyat bo'lganini O'zbekiston istiqloli yillarida yaqqol ko'rdik".

Bugungi kunda ham Internet sahifalarida tarixiy shaxslar haqidagi ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan fikrlarni soxtalash-tirishga ko'plab urinishlar uchraydi. Masalan, turkiyalik olim Temur Xo'ja o'g'li "Alisher Navoiy kimdir?" savoli ostida Internet forumi tashkil etib, "O'zbekistonda Alisher Navoiyni "o'zbek shoiri" deb taniydilar. O'zbeklarning Navoiyni o'zlariniki deb bilishlarida yanglishlik yo'q, to'g'ridir. Ammo Alisher Navoiyni "o'zbek shoiri" deb bilishlari yanglishdir. Chunki tarixiy Turkiston 1924-yilda O'zbekiston bo'ldi. Navoiy turk shoiri, va-

qti soati kelib bu xatolik tuzatiladi”, degan fikrlarni ilgari surgan. Masalaga bunday tarzda noilmiy yondashuv Internet sahifalarida turli soha vakillarining asossiz ravishda bir-birlarini tanqid qilishlariga olib kelgan. Aslida, o‘zbek xalqining kelib chiqish tarixiy ildizlari ikkita, ya’ni birinchisi mahalliy eronzabon so‘g‘diylar, xorazmiylar, baqtriyalar, sak va massaget qabilalari bo‘lsa, ikkinchi ildiz shu hududda qadimdan yashab kelayotgan turkiy qabilalar ekanligi, ularning uzoq qorishuvidan yangi etnos – o‘zbek xalqi shakllanganligi haqidagi chuqur ilmiy asoslangan tadqiqotlarni sinchiklab o‘rganilsa hamda Alisher Navoiyning zullisonayn shoir sifatida fors va turk tillarida birday ijod qilgani, o‘zining “Muhokamat ul-lug‘otayn” asarida turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini asosli tarzda ochib berganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida “shoirlarning sultoni” haqida aytilgan isbot talab qilmaydigan fikrlarga metodologik asos sifatida yondashilsa, nafaqat jurnalist, shoir va turli soha olimlari, balki o‘quvchilar ham axborot xurujlariga oson aldanib qolishmaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zot – Alisher Navoiy haqida quyidagi fikrlarni alohida ta’kidlab o‘tgan: “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz”.

O'quvchilarda buyuk ajdodlarimiz shaxsi va faoliyatiga nisbatan axborot xurujlariga qarshi immunitetni tarbiyalash uchun ularni manbalar bilan ishlashga o'rgatish, o'qib-o'rganilgan kitoblar asosida har bir darsda munozara bosqichini tashkil etish va o'tkazish, muammo yuzasidan to'g'ri yechimlarga kelishga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki nafaqat tarixiy shaxslar balki "o'zlikni anglash"ni, tarixiy tafakkurning o'q ildizi hisoblangan o'zbek xalqining kelib chiqishi bilan bog'liq Internetda e'lon qilinayotgan maqolalar, matbuot do'konlarida turli nomda chop etilayotgan ayrim asarlar ham mazkur muammoning nechog'lik dolzarb ekanligini asoslaydi.

Akademik A.Asqarov ta'kidlab o'tganidek, keyingi yillarda o'tmish tarixga ommaviy qiziqish, o'z millatining mintaqa tarixi va madaniy merosini o'rganishda noilmiy yondashuv kuchaydi. Natijada, etnosning shakllanishi bilan bog'liq masalalarda ilmiy professionalizmdan yiroq asarlar chop etila boshlandi. Ilmiy xolislik, obyektiv yondashuv yo'qligi tufayli milliy ehtirolarga to'la, tarixiy haqiqatga zid asarlarning xususiy nashriyotlarda chop etilishi tabiiy holga aylandi.

Ana shunday "olijanob" sa'y-harakatlar samarasi o'laroq nafaqat Internet maqolalari, nashriyotning egalik huquqini kafolatlagan holda risolalar ham nashr ettirilayotganligi, millat tarixini birlamchi manbalar asosida emas, "xayoliy uydirmalar" asosida yozish va omma e'tiboriga havola etishni hali barqaror e'tiqodi to'liq shakllanmagan o'quvchilarni "ma'naviy majruh"ga aylantirib qo'yishga urinish deb aytish o'rinli bo'ladi. Masalan, 2011-yilda "O'zbeklar shajarasi (etnik tarixga xolis nazar)" nomi ostida nashr ettirilgan kitobda o'zbek xalqining kelib chiqishi, milliy-madaniy merosini noto'g'ri talqin etish bilan bog'liq qator "axborot xurujlari" mavjud. Jumladan, kitobda miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi – miloddan avvalgi VII asr oralig'ida Skifiya davlati mavjud bo'lganligi, o'zbek xalqining qadimgi ajdodlari faqat skiflardan iboratligi haqidagi ilmga zid yondashuvlar ilgari surilgan: "Bizning izlanishlarimizga ko'ra, ho-

zirgi O'zbekiston hududida miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi – miloddan avvalgi VII asr oralig'ida qudratli Skifiya davlati mavjud bo'lganligi aniqlandi”.

Umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchilari uchun yozilgan “Tarix” darsligidan “O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar” mavzusini o'qish asosida miloddan avvalgi VII-VI asrlarda O'zbekiston hududida so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massaget elatlari yashaganliklarini o'qib-o'rgangan o'quvchilar “O'zbeklar shajarasini” kitobidagi ma'lumotlar bilan tanishib, “darslikda xato yozilgan” ekan, degan xavotirlar qurshovida qolishi, tabiiy.

Ana shu sababli o'qituvchilar har bir darsda yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlar tahliliga o'quvchilar e'tiborini jalb etib, aniq dalillar asosida yanglish nuqtai nazarlarni izohlab o'tishi lozim. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf “O'zbekiston tarixi” darsida “Xalifalikning zaiflashuvi, mustaqil davlatlarning shakllana boshlashi” mavzusini tushuntirish jarayonida dastlab “O'zbek atamasining kelib chiqishi haqida” nomli risolada “o'zbek” so'zining kelib chiqishini mo'g'ul xoni O'g'uzxon nomi bilan bog'lab, “O'zbek” so'zi O'g'uzbek so'zining qisqartirilgan ko'rinishi bo'lib, qadimgi o'g'uz+berk, o'g'uz+bo'ka, bek so'zlaridan “O'ZBEK” so'zi kelib chiqqan, degan fikr bayon qilinganligini aytib, so'ngra o'quvchilar diqqatini darslik matnida keltirilgan quyidagi ma'lumotlarga jalb etish lozim: “Bu ikki turkiy davlat (Qarluqlar va O'g'uzlar davlati nazarda tutilyapti – ta'kid bizniki) faqat Movarounnahrninggina emas, balki butun O'rta Sharq hamda Old Osiyo aholisining siyosiy hayotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu davlatlarning aholisi shu hududda yashovchi xalqlarning etnik tarixiga ta'sir qildi. Masalan, qarluqlar o'zbek va tojiklarning, o'g'uzlar turkman, ozarbayjon, qoraqalpoqlarning etnogenezida muhim rol o'ynadi”. Shu tarzda o'quvchilarni tarixiy voqelikni sharhlab o'rganishga o'rgatish juda muhim. Mazkur usul orqali o'quvchilarni axborotlarni tahlil etish, taqqoslash va to'g'ri xulosa chiqarishga yo'naltirib borish maqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan misollardan ayon bo'ladiki, zamonaviy sharoitda umumta'lim maktabi o'quvchilarida axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish bosqichlarini loyihalash, ularning mazmunini aniqlashtirish hamda har bir bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarni ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

“Axborot iste'moli madaniyati” atamasi asosida o'quvchining axborot maydonini loyihalashning kognitiv-operatsion, tashkiliy, kommunikativ va dunyoqarashga doir komponentlarning o'zaro bog'liqligini hisobga olishni taqozo etadi. Jumladan, kognitiv-operatsion va tashkiliy komponentlar axboriy faoliyatning fanlararo aloqadorligi, kompyuter savodxonligi, kommunikativ va dunyoqarashga oid komponentlar integrativ, sintetik, informatsion faoliyatning ko'p funktsionalligini o'zida aks ettiradi.

O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishning motivatsion bosqichining maqsadi tarixiy voqelik bilan aloqador axborotni tahlil etishga qiziqish va ehtiyojni rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal etishni talab etadi: o'quvchilarni asosiy tushunchalar (“axborot”, “axborot xuruji”, “axborot iste'moli”, “axborot iste'moli madaniyati”) ning mazmun-mohiyatini anglashlariga erishish;

o'quvchilarda tarixiy voqelikka aloqador axborotni tahlil etish tajribasini aniqlash; axborotni tahlil etish kompetensiyasining o'z-o'zini anglash bilan aloqadorligini amaliyotda ko'rsatib berish.

Texnologiyaning kognitiv bosqichi o'quvchilar tomonidan axborotlashgan jamiyatda faoliyat ko'rsatish va o'z faoliyatini zamonaviylik bilan bog'liqlikda o'z-o'zini boshqarishning to'liq anglab olinishini taqozo etadi. Bunday yondashuv o'quv axborotini tanlash, o'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini faollashtirish va uning axborotlashgan jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. Natijada o'quvchilarda analitik, prognostik, texnologik malakalar majmui tarkib toptiriladi.

Faoliyatga doir bosqichning mazmunli komponenti o'quvchilarning axborotlashgan jamiyatda shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilimlar bilan birga o'z-o'zini baholash kompetentligiga yo'naltirilganligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'limning ixtiyoriy bosqichidagi faollashtirish jarayoni ta'lim mazmunini tanlash, axborotlarni o'zlashtirish shakl, metod va vositalarini aniqlashtirish kabi tarkibiy qismlarga bog'liq tarzda amalga oshiriladi. Shu bilan birga ushbu yondashuv biroz eskirgan bo'lib, faollashtirish jarayonini rejalarni tuzishdan emas, balki o'quvchi shaxsi rivojining axborot maydonini loyihalashtirishdan boshlash lozim. Mazkur jarayonda loyihalashtirish muvofiqlik, to'liqlik, maqsadga yo'nalganlik, kasbiy yo'nalganlik; tizimlilik, kutiladigan natijalarning yetakchi o'rinni egallashi; qulaylik, o'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda nazariya va amaliyotning birligi kabi tamoyillarga asoslanish lozimligi bilan belgilanadi.

Auditoriyaga shakli va mazmuniga taklif etilayotgan ko'ra turli xil zamonaviy ommaviy axborot vositalari zamonaviy tomoshabin, tinglovchi, kitobxondan media-matnlar (axborotlar mazmunini o'zida aks ettiruvchi va kommunikatsiya vositalari yordamida tarqatiluvchi xabarlar) mohiyatini anglash va tanqidiy tahlil etish, estetik va badiiy ahamiyatini asoslash, ularning shaxs rivojlanishi uchun imkoniyatlarini aniqlashtirishni talab etadi.

Ilmiy texnik taraqqiyot va ta'lim

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon hamjamiyatida ishlab chiqarish va inson hayoti faoliyatining boshqa jarayonlarini avtomatlashtirish va axborotlashtirish texnologiyalari ommaviy ravishda paydo bo'ladi va tarqaladi, shuningdek, ilmga boy, kognitiv, yangi tashkiliy, boshqaruv va boshqa texnologiyalari ham ketma-ket vujudga keladi.

Inson tomonidan jahon hamjamiyati hayotida yaratilgan, "ishlab chiqarish va boshqa jarayonlarni avtomatlashtirish <--> axborotlashtirish <--> intellektuallashtirish" uchligiga e'tiborni qaratamiz. Dunyoning rivojlangan

mamlakatlarida paydo bo'lgan ushbu uchlik butun sayyoramiz bo'ylab tarqaldi. Yangi texnologiyalarning Homo va ushbu davlatlardagi jamiyatga bo'lgan ijobiy ta'siriga quyidagi haqiqatlar guvohlik beradi:

1. Iqtisodiyotning real sektorida kam samarali mexanik mehnatning ijodiy intellektual faoliyatga o'tishi amalga oshirilgan. Bu quyidagilarga olib keldi:

– inson faoliyati tabiatining o'zgarishiga (insonlarning ijodiy faolligini oldindan belgilovchi insonning ma'naviy va aqliy sohalari katta ahamiyat kasb etib bormoqda);

– jamiyatdagi aksariyat a'zolarining asosiy moddiy ehtiyojlarini qondirishga, bu esa nadutilitar motivasiyaning yuzaga chiqishi va tarqalishiga sabab bo'ldi;

– inson ma'naviy va aqliy salohiyatining namoyon bo'lishi, uning o'qimishlilik sezilarli ravishda nafaqat uning daromadlarini aniqlab beradi, balki ijtimoiy maqomini ham belgilaydi, degan tushunchaga;

– atrof-muhitni ilohiylashtirish va faoliyat turlarida shaxsiyat, axloqiy ideal va donolikni namoyon qilish zaruriyatini anglashga;

– yaxshi tarbiya topgan, kollektivizm va hamkorlikka moyil, ijodiy ma'noda o'z ishining ustalariga bo'lgan ehtiyojning uzluksiz o'sishiga.

2. Tovarlar iqtisodiyotining tovar va xizmatlar iqtisodiyotiga transformatsiyasi ro'y berdi.

Bu quyidagilarga sabab bo'ldi:

a) ko'p sondagi kichik innovasion korxonalarining paydo bo'lishi;

b) katta, o'rta va kichik biznesning rivojlanishiga ko'maklashuvchi usullar, uslublar, yo'llar va ko'rsatmalar ahamiyatining oshishi;

v) xususiy mulkni ishlab chiqarish vositalarini umumiy-lashtirish evaziga emas, balki uni global va har tomonlama individuallashtirish (ishlab chiqarish vositalari va intellektual mulkka bo'lgan shaxsiy egalik) hisobiga ahamiyatini oshirish;

g) turli mulk shakllarini (aksionerlik, davlat, intellektual, shaxsiy, ijtimoiy, xususiy va

b.) sintez qilish;

d) kichik biznesni nafaqat iqtisodiyotning real sektori, balki fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy kuchi sifatida anglash;

e) iqtisodiyotning real sektoriga o'tish insonga yo'naltirilyapti, unda ma'naviy qadriyatlar ustuvorligini hisobga olgan holda jamoaviy ijodiy o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan ishbilarmon tashkilotlarning yangi sinfi etakchi o'rinni egallamoqda;

j) iqtisodiyotning real sektorida yangi ijtimoiy-iqtisodiy formasiya indikatorlarining vujudga kelishi.

3. Sanoat sivilizasiyasining shaxsga yo'naltirilgan postsanoat ta'limga o'tishi amalga oshirildi.

Uchlikning rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining real sektorida Homo va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ijtimoiy ta'sirini ko'rib chiqishni tamomlar ekanmiz, maqola oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun, muhim xulosani shakllantiramiz: yaratilgan Homo yangi texnologiyalar insonga yo'nalgandir.

Yangi texnologiyalarning insonga bilvosita salbiy ta'siri va yangi yuz yillikda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ochib berishga o'tamiz. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining moliyaviy sektorini olamiz. Yangi axborot texnologiyalari tufayli, u yangi axborot texnologiyalari yordamida kapitallarni bir zumda ko'chirib o'tkazish va qisqa muddatli moliyaviy "pufak"larni yaratish asosida misli ko'rilmagan foyda olishga yo'naltirilgan virtual ta'limga aylandi. Kelajakka va insonlar hayotini yaxshilash uchun muhim bo'lgan haqiqiy natijaga erishishga yo'naltirilgan rivojlangan davlatlarning real sektori bilan yopiq va yuqori daromad olishni maqsad qilgan iqtisodiyotning virtual sektori o'rtasida antinomiya paydo bo'ldi.

Ushbu antinomiyaning paydo bo'lishi natijasida 2008-yilda moliyaviy va iqtisodiy inqiroz yuz berdi, bu esa sayyoramizda ma'naviy-axloqiy kasallik va axloq inqirozining o'sishiga sabab bo'ldi. Ta'kidlash kerakki, kapitalistik ijtimoiy-iqtisodiy formasiya o'z evolyusiyasining oxirgi bosqichiga qadam qo'ydi.

Yangi texnologiyalarning tarqalishi sayyoramizda

ilmiy-texnik taraqqiyotning o'sishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida, yangi yuz yillikda nafaqat ishlab chiqarish kuchlarining kuchli vaqtinchalik yangilanish dinamikasini paydo qildi, balki ommaviy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning jadalligini ham oshirdi, bu esa tegishli hodisalarning yangi mohiyat va shaklga ega boshqa fenomenlarga tez o'tishiga olib keldi. Bu haqda so'nggi besh yil davomida tegishli nazariy bilim va amaliy mexanizmlarning eskirishi aytib turibdi. Ilm-fanda jahon inqirozi ro'y bermogda, uning tadqiqot ob'ektlari hodisa sifatida oldinga chiqyapti.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, aynan Rosiyada XX asr oxiri va yangi yuz yillikning boshida fan uslubshunosligi evolyusiyasining metafizik bosqichi indikatorlari paydo bo'ldi. Quyidagi yangi yo'nalishlar vujudga kelyapti: ma'nolar metafizikasi va jahonning ehtimollik metafizikasi⁵, fizika metafizikasi va matematika metafizikasi. 2010-yildan boshlab Moskvada tadqiqotlar organi sifatida "Metafizika" ilmiy jurnali chop etila boshlandi. U anglanadigan va his etiladigan dunyolar, shuningdek, ularning obyektlari orasidagi aloqani o'rganadi.

Yangiyuz yillikning boshlarida Oryol shahrida OHADV (ORAGS) qoshida yashirin ilmiy jamoa tuzildi. Uning faoliyati metafizik antropologik semiotika, metafizik kibernetika, metafizik jamiyatshunoslik va shaxsning metafizik sotsiologiyasi, evolyusion konservatizm da semiotik yo'nalishlar va tashkiliy xulq-atvor hamda transrasionalizmni ishlab chiqishga qaratilgan edi. Ushbu fanlararo ixtisosliklarning paydo bo'lishi, ilmiy tadqiqotlarning metafizik uslubshunosligini ishlab chiqish va uning konseptual apparati, xususiyatlari, aksiomatikasi, usuli va qoidalarini yuzaga chiqarishga yordam berdi (uzilevsky.orags.org saytiga qarang).

Yuqorida ko'rib chiqilgan material shundan guvohlik beradiki, fan evolyusiyasining metafizik bosqichi ko'rinmas empirik voqelikka aylanmogda.

Dunyo fani inqirozi determinanti va ilmiy tadqiqotlarning sintetik uslubshunosligini ishlab chiqish

zaruriyati.

Mazkur vazifa ikkita kichik vazifalarni o'z ichiga oladi:

1) fandagi jahon inqirozining ichki va tashqi determinantini ochib berish;

2) ilmiy tadqiqotlarning sintetik uslubshunosligini ishlab chiqish zaruriyatini asoslash.

Avvaliga metafizik uslubshunoslikning fan evolyutsiyasining klassik, noklassik va postnoklassik bosqichlariga xos hamda tabiat, koinot, inson, u tomonidan yaratilgan jamiyatlar, ularning institutlari, texnika olami, shuningdek, mamlakatlar, hududlar, shaharlar va qishloq joylarini hodisa sifatida o'rganadigan uslublar va qoidalardan farqini ko'rib chiqamiz.

Birinchi farqi hodisalar giperbolizatsiyasidan tadqiqotlar obyektini tizimli o'rganishga "o'tgan <--> hozirgi <--> kelajak" uchligi vositasida o'tishdan iborat. O'tmish u tomonidan ma'lumotlar majmui emas, balki hozirgi va kelasi zamonda aniq obyektlarning rivojlanishiga sabab bo'layotgan evolyutsion tanlangan dasturlar, tillar va kodlar tizimi sifatida o'rganiladi. Bundan kelib chiqadiki, o'tmish har bir yangi avlod uchun salohiyat hamda hozirgi zamoni o'rganish va kelgusi zamoni prognozlashda bitmas-tuganmas manba bo'lib namoyon bo'ladi. Mana shunda yangi uslubshunoslikning amaldagi qoidalar, uslublar va nazariyalardan ikkinchi farqi aks etadi.

Ko'rib chiqilayotgan uslubshunoslik unga xos konseptual apparat, o'ziga xos xususiyatlar, aksiomatika, qoidalar va usullarga ega. Yuqorida ko'rsatilgan tadqiqot ob'ektlarida to'xtaymiz. Ular empirik voqelik, moddiy-aqliy, fazoviy vaqt, ma'naviy ta'lim va tizim IO kabi uchta umumiy tushunchalar orqali aniqlanadi.

Homo va u tomonidan yaratilgan ta'lim umumiy, o'ziga xos va yagona degan ma'noda o'rganiladi. Umumiy ma'noda insonni "urug'dosh inson" va "insoniyat" tushunchalari, o'ziga xos ma'nosida – ularning turlari, yagona ma'nosida – ushbu turlarning vakillari namoyon etadi. Umumiy yo'nalishi jamiyatlar, texnika olami va uning institutlarini tadqiq qilishda, ularning arxeturlari va turlari, o'ziga xos yo'nalishida – ularning turlari, yagona yo'nalishda ularning aniq

ta'limotini namoyish etadi.

Ko'rsatilgan obyektlar umumiy nuqtai nazardan anglangan dunyoning noumenal empirik voqeligi sifatida o'rganiladi; o'ziga xos ma'nosida – anglangan va hissiy dunyolarning noumenal-fenomenal empirik voqeligi sifatida; yagona ma'nosida – hissiy va anglangan dunyolarning aniq fenomenal-noumenal empirik voqeligi sifatida. Tabiat va koinot umumiy va yagona II nuqtai nazaridan shu tarzda ko'rib chiqiladi.

Bayon etilganlar uning uchinchi farqini shakllantirishga imkon beradi, u quyidagilarni asoslaydi:

- anglangan va hissiy dunyolarning birligi;
- past darajadagi obyektlarning shakllanishi, rivojlanishi va ishlashi yuqori darajadagi ob'ektlar tomonidan dasturiy ravishda o'rnatiladi, degan mulohazalar.

Yangi uslubshunoslik farqining tahlili bizni ularni fanda jahon inqirozining ichki determinanti sifatida talqin qilishga undaydi. Mazkur inqirozning tashqi determinantlari, yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish kuchlari, shuningdek, yangi yuz yillikdagi ommaviy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning kuchli yangilanish dinamikasi.

Shuning bilan birga, metafizik uslubshunoslik va fan evolyutsiyasining birinchi uch bosqichlaridagi qoidalar, uslublar va nazariyalar o'rtasidagi farqning aniqlanishi, hissiy dunyoning obyektlarini hodisa sifatida tadqiq etish natijasida to'plangan katta ijobiy salohiyat bilan uning salohiyatini sintez qilish zaruriyatiga ishora qiladi. Aytish mumkinki, zamonaviy ilm-fan biz integral deya nomlangan bunday uslubshunoslikni yaratishda kamida yarim asr orqada qoldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashagan rus mutafakkirlari va sotsiologlar guruhining yetuk vakillarining ijodi metafizik uslubshunoslik, so'ng ilmiy tadqiqotlarning integral uslubshunosligini ishlab chiqishda mustahkam asos yaratdi. Oktyabr revolyutsiyasi bu jarayonni ko'p o'n yilliklarga to'xtatib qo'ydi.

P.A. Sorokin borliqni anglashning turli usullaridan quyidagi uch sohani ajratib ko'rsatdi:

- 1) empirik-sezgir;
- 2) ratsional-aqliy;
- 3) o'ta sezgir, o'ta ratsional.

Zamonaviy ilm-fan anglashning birinchi ikki sohasini o'rgangan va o'rganishda davom etyapti.

Ishonch bilan aytish mumkinki, yangi uslubshunoslik tufayli, olimlar yagona nuqtai nazardan anglangan va hissiy dunyolarning birligini ifoda etuvchi ushbu Insonga xos anglash usullarini tadqiq qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarning integral uslubshunosligi ishlanmasi, Homoning qarama-qarshi tabiatini inobatga olgan holda jamiyatlar, ularning institutlari, shuningdek, mamlakatlar, shaharlar va qishloq joylarining texnologik rivojlanishini tizimli amalga oshirish va ularni chuqur anglashga yordam beradi.

Milliy pedagogikamizda mediakompetentlik pedagogikada umumiy tarzda shaxsning turli ko'rinish, janr va shakllardagi mediamatni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda mediafaoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan integrativ sifati tarzida qaraladi.

S.Babadjonov ta'kidlab o'tganidek, pedagogika oliy ta'lim muassasalari o'quvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish masalasi fan va amaliyot oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi (Babadjonov S.S. Pedagogika oliy ta'lim muassasasi o'quvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish ("Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish misolida): pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ...diss. – Toshkent, 2018. – 45 b. – B.5.). Biroq tadqiqotchi mediakompetentlik komponentlari tahlilida tanqidiy savodxonlikni alohida qayd etib o'tmagan.

Xorijiy tadqiqotlarda mediakompetentlik komponenti sifatida media axborotni mustaqil baholash va tanqidiy talqin etish ko'nikmasini shakllantirishni talab etadigan

tanqidiy savodxonlik masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Kompetentlik – “biror bir muammo uchun ma'lum darajada ahamiyatlilik doirasini kengaytirishga yo'naltirilgan shaxs harakatlari natijaviyligini baholash natijasida unga beriladigan sifat tavsifi” [Ivanov, Mitrofanov, Sokolov, 2005, s.10]. Ta'limga tatbiqan mazkur tushuncha individ egallagan qobiliyatlar natijasi sifatida talqin qilinadi. Aynan ular “insonlarga ularning maqsadlarining shaxsiy anglanishi uchun imkon yaratadi” [Raven, 2002].

Mediata'lim sohasidagi ko'plab yetakchi ekspertlar ([Fedorov, 2003]) mediakompetentlik (mediasavodxonlik) tushunchasini (so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, 84,27 % ekspertlar mediata'limning eng birinchi muhim maqsadi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdan iborat ekanligini e'tirof etishgan) quyidagicha talqin etishgan:

Mediasavodxonlik (media literacy) – o'quvchilarga mediani ularning hayotidagi ahamiyatini tushunish orqali unga tanqidiy nuqtai nazardan murojaat qilishga yordam beradi. Mediasavodxon (media-literate) o'quvchi mediamatnlarni tanqidiy va ongli baholaydi, ommaviy madaniyatga tanqidiy munosabatda bo'lishni qo'llab-quvvatlaydi va media manipulyatsiyaga qarshi tura oladi.

Mediasavodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etishi lozim:

- media reallikni faol anglashga yordam beradigan tahlil usullarini egallash uchun zarur qobiliyat, bilim va munosabatni rivojlantirish;

- mediamatnlarni baholash (appreciation) va estetik idrok etish darajasini rivojlantirish;

- mediamatnlardagi madaniy qadriyatlar, amaliy ahamiyatlilik, g'oya, mazmuni tushunish va baholash uchun qayta kodlay olish;

- turli xil mediamatnlarni tushunish, tahlil etish va texnik jihatdan qo'llay olish;

- mediamatn muallifi uni ko'plab – iqtisodiy, siyosiy,

tashkiliy, texnik, ijtimoiy va madaniy motivlardan kelib chiqib yaratishini anglay olish;

- har bir inson mediamatnlarni tanlash va tahlil etish jarayoniga o'zining qiziqishidan kelib chiqib yondashishini tushunish. Mazkur jarayon va u bilan bog'liq mohiyat psixologik, ijtimoiy va tabiiy omillar bilan bog'liq [Duncan, 1989, p.7].

Mediasavodxonlik (media literacy) – “mediamatnlarni o'zlashtirish, tahlil etish va yaratish qobiliyati” [Worsnop, 1999, p.x].

Mediasavodxonlik (media literacy) – turli shakllardagi xabarlardan (messages) foydalanish, tahlil etish, baholash va uzatish qobiliyati [Kubey, 1997, p.2].

Mediasavodxonlik (media literacy) – media foydalaniladigan kodli va reprezentatsion tizimlar, zamonaviy dunyoda mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy nuqtai nazardan tushunish, mediamatnlarni idrok etish, yaratish, tahlil etish, baholash qobiliyati rivojlangan mediasavodxon shaxsni tayyorlash jarayoni; bunday insonning hayoti fuqarolik mas'uliyatining to'liq anglanishi bilan bog'liq.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. O'quvchi-yoshlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirish mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
2. O'quvchi-yoshlarda axborot-analitik kompetensiyani shakllantirish nima va uning yutuq va kamchiliklarini sanang?
3. O'quvchi-yoshlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?

22-§. O'QUVCHI-YOSHLARDA GLOBAL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH



Tayanch tushunchalar: globallashuv, ta'lim, bilim, ko'nikma, tarbiya, uzluksiz ta'lim, konsepsiya, modernizatsiya, tizim, tendensiya, metodika, pedagogik shart-sharoit, tamoyil, ta'lim konsepsiyasi.

Global ta'lim konsepsiyasi.

Taraqqiyotning pirovard maqsadi va uning samarasi mezoni – jamiyat a'zolari imkoniyatlarini kengaytirish, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, yuqori turmush darajasiga erishish kabi omillarga bog'liq bo'lsa, uning ibtidosi mamlakatda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari istiqbollari bilan uyg'unlashib boradi.

Boshqacha aytganda, XXI asr bo'sag'asida iqtisodiy o'sishning o'zi asosiy maqsad emasligi ayon bo'lib qoldi. Jamiyatning daromadlari faqat vosita xolos. Buyuk yunon mutafakkiri Arastu ta'kidlaganidek, "boylik biz intilayotgan asl maqsadimiz emasligi aniqdir, u shunchaki foydali va o'zga narsaga erishish uchun xizmat qiladi". Boshqacha aytganda, inson – har qanday millatning eng katta boyligidir, lekin bu boylik sifatli ta'limga asoslanmog'i lozim.

Dunyo tajribasi va statistik ma'lumotlar shuni tasdiqlamoqdaki, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yoki kambag'allik holati muayyan darajada ta'lim rivojiga, o'z navbatida, ta'lim tizimi va ilm-fan taraqqiyotining shakllanishi hamda keng miqyosda rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi bilan uzviy bog'liqdir.

Mamlakat taraqqiyotining barqarorligi, jamiyatning barcha sohalaridagi islohotlarning samaradorligi va pirovard natijasida iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasini ta'minlash bevosita ta'lim tizimi va uning darajasiga bog'liqdir. Zero, ta'lim inson kamolotining tarkibiy qis-

mi, jamiyat muammolarini hal qilishning asosiy omili hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ta'lim inson rivojlanishining tarkibiy qismi sifatida qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni bartaraf etishga mislsiz ta'sir ko'rsatadi. Eng muhim jihati, ta'lim tizimi samaradorligi ongni yuksaltirishga, inson tafakkurining muttasil boyib borishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda jamiyatning barcha sohalarida tayyorlanayotgan kadrlarning salohiyati, ta'lim sifatining ahamiyati va dolzarbligi haqida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni aytgan: "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz".

Shuning uchun bo'lsa kerak, AQShlik siyosatshunos Zbignev Bjezinskiy o'zining mashhur "Buyuk shaxmat taxtasi" kitobida O'zbekistonning kelajagi buyukligini uning Amir Temur asos solgan, poytaxti Samarqand bo'lgan buyuk saltanatning to'g'ridan to'g'ri vorisi ekanligi hamda rahbariyati va ko'p sonli mehnatsevar xalqi bilan bog'laydi. U mamlakatning mustaqillik yillarida erishayotgan yutuqlarini e'tirof etar ekan, O'zbekiston xalqining g'oyaviy hamjihatligi duch kelayotgan muammolarning samarali hal qilinishiga omil bo'layotganini qayd etadi. O'zbekiston endi hech qachon, birorta davlatga qaram bo'lmasligini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, har bir davlat o'z fuqarolari bilimli, haq-huquqini taniydigan, ma'naviy barkamol, bir so'z bilan aytganda, komil inson bo'lib voyaga yetishi haqida qayg'uradi. Bu ezgu maqsad davlatimiz siyosatining ustuvor sohasiga aylandi. Komil inson deganda, biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz.

O'zbekistonda har jihatdan faol insonni tarbiyalashga e'tibor qaratishga, g'oyaviy tarbiya vositasida shaxsning salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqarishga erishish, har bir bolaning iqtidorini rivojlantirishga urg'u berilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ta'lim islohotlari va istiqbollari bilan bog'liq o'zgarishlarni ta'lim tizimi rivojlanishining global tendentsiyalari bilan qiyosiy taqqoslasak.

XX asr intihosi va XXI asr ibtidosida jahon hamjamiyatida ta'limni rivojlantirish borasida ulkan yutuqlarga erishildi. 1960-yilda dunyo aholisining 36 foizi hatto bazaviy ma'lumotga ega bo'lmagan bo'lsa, 2000-yilda aholi sonining ikki baravar o'sishiga qaramay, bu ko'rsatkich 25 foizga kamaydi. 1975-yilgacha dunyoda katta yoshli har ikkinchi kishi yozish va o'qishni bilmagan bo'lsa, ayni paytda savodsiz odamlar soni deyarli yarim baravarga qisqardi.

Ma'lumki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar ta'lim ko'rsatkichi bo'yicha ham yetakchilik qiladi. Shuning uchun iqtisodiy taraqqiyoti past bo'lgan mamlakatlar, jumladan, Afrika davlatlari bu ko'rsatkichdan orqada qolmoqda. Rivojlangan mamlakatlar fuqarolarining 1-2 foizini savodsizlik tashkil qilsa-da, mehnatga layoqatli aholining o'rtacha 32 foizi (25-65 yosh) oliy ma'lumotga ega mutaxassislar hisoblanadi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, oliy ma'lumotli mutaxassislar Kanadada – 43, AQShda – 38, Yaponiyada – 36 foizni tashkil qilar ekan.

Rivojlanayotgan davlatlar guruhida esa o'rtacha savodxonlik darajasi bugungi kunda qariyb 80 foizni tashkil qilib, 1990-yildagiga nisbatan kichik yoshdagi maktabga bormayotgan bolalar soni 30 million nafarga kamaydi, maktabda o'rtacha o'qish muddatining davomiyligi yarim yilga ko'paydi.

Shunga qaramay, dunyoda ta'lim sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan, hali o'z yechimini kutayotgan muammolar juda ko'p. Eng katta muamolardan yana biri – sayyoramizda 100 millionga yaqin maktab yoshidagi bola ta'lim tizimi bilan qamrab olinmagan, ularning beshdan uch qismini qizlar tashkil etadi.

Markaziy Afrika davlatlarida bolalarning faqat uchdan bir qismi boshlang'ich sinflarni tamomlamoqda. Iqtisodiy daromadi kam mamlakatlarda savodxonlikni tutatish borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarga qaramay, har to'rtinchi yosh yigit va har uchinchi katta yoshli kishi o'qish hamda yozishni bilmaydi. Bu guruhdagi mamlakatlarda tegishli yoshdagi aholining atigi to'rt dan uch qismigina umumiy boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olingan.

XXI asr arafasida rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich maktab yoshidagi 680 million yoki qariyb 17 foiz bola maktabga bormagan. Birgina Qirg'iziston Respublikasida 10 mingga yaqin bola maktabga bormaydi. Bu esa mamlakatda ta'lim sifati pasayib borayotganligini ko'rsatadi. Boshlang'ich maktabga bormaydigan bolalarning 40 million nafari hindistonliklar bo'lib, bu dunyoda boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olinmagan jami bolalarning uchdan bir qismini tashkil etar ekan. Shu bois ham bugungi kunda butun dunyoda ta'lim tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish va uning samaradorligini oshirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim sifatini oshirish faqatgina moliyalashtirishni oshirishga bog'liq hodisa emasligini bugungi dunyo tajribasi ham ko'rsatib turibdi.

BMT taraqqiyot dasturining 2008-yilgi ma'lulotlariga ko'ra, O'zbekiston ta'lim darajasi ko'rsatkichi juda yuqori mamlakatlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim ko'rsatkichi 0,99 ni tashkil etsa, ayni paytda dunyoda bu ko'rsatkich 0,77 ni tashkil qiladi.

BMT bosh kotibining o'rinbosari Noylin Xeyzer 2012-yil ma'lumotlari asosida Markaziy Osiyoda kattalar o'rtasida savodxonlik darajasi 99,4 foizni, dunyo bo'yicha esa 83,7 foizni tashkil qilishini, shuningdek, 2009-yilda 330 ming nafar katta yoshdagi odam savodsizligicha qolayotganligini, ularning 67 foizi ayollar ekanligini ta'kidlagan.

O'zbekiston ta'lim ko'rsatkichi bo'yicha Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiradigan Malta (0,86%), Ruminiya (0,90%), Xorvatiya (0,90%), Markaziy Amerikaning sanoati eng rivojlangan mamlakati Kosta-Rika (0,87%) va Xi-

toy Gonkongidan (0,88%) oldinda turibdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston neft hisobidan boyib ketgan Bahrayn va Bruney (0,88%), Quvayt (0,87%), Qatar (0,86%), BAA (0,71%), shuningdek, iqtisodiy va texnik rivojlanish sohasida katta muvaffaqiyatga erishgan Meksika (0,86%) va Malayziyadan (0,84%) oldinda ekanligi BMT tomonidan tayyorlangan inson taraqqiyoti to'g'risidagi milliy ma'ruzada keltirilgan. Shuningdek, ushbu ma'ruzaga ko'ra, O'zbekiston katta yoshdagi aholi savodxonligi darajasi bo'yicha (99,3%) Italiya (98,4%), Ispaniya, Janubiy Koreya (98%) va Isroil (97,1%) kabi iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlangan mamlakatlarni ortda qoldirmoqda.

CNN kompaniyasining AQSh, O'zbekiston va jahonning boshqa davlatlarida ta'limning holati to'g'risida e'lon qilgan qiyosiy axboroti asosida Fransiyaning nufuzli "In-sead" xalqaro biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) tomonidan tayyorlanib, e'lon qilingan "2012-yildagi innovatsiyalarning global indeksi" deb nomlangan tahliliy ma'ruzasiga ko'ra, ta'lim sohasidagi innovatsiyalar ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston ushbu reytinglar ro'yxatida 75,38 ball bilan dunyoda ikkinchi o'rinni egallagan. Birinchi o'rinni esa 75,70 ball bilan Irlandiya band etgan. Daniya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Belgiya singari bir guruh rivojlangan Yevropa va boshqa qit'a mamlakatlari ushbu ro'yxatning keyingi o'rinlaridan joy olgan.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimini takomilashtirishning istiqboldagi vazifalari g'oyaviy, mafkuraviy, siyosiy va huquqiy jihatdan quyidagi omillar bilan uzviy bog'langan:

birinchidan, erkin fikrlovchi shaxsni, mamlakat istiqbolini o'z kelajagi bilan uyg'un ko'radigan, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy jarayonlarda faol qatnashadigan avlodni shakllantirish uchun imkoniyat yaratish;

ikkinchidan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish jarayoni bilan bog'liq holda siyosiy va huquqiy madaniyatni shakllantirish, shaxsning ichki dunyosini rivojlantirish asosida ijtimoiy qadriyatlarni va munosabatlarni shakllantirish;

uchinchidan, yosh avlod mamlakatimizdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini anglab olishi, milliy g'oya tamoyillari asosida yashash tuyg'ularini shakllantirishi yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

to'rtinchidan, ta'lim, tarbiya va ilm-fan taraqqiyotini ta'minlash orqali ijtimoiy, g'oyaviy, mafkuraviy barqarorlikni, tinchlikni ta'minlashga erishish.

Mazkur vazifalar davlat va jamiyat taraqqiyotining istiqboli bilan bog'liq murakkab jarayondir. Bugungi globalashuv jarayonlari davrida barcha davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlari, shu jumladan uzluksiz ta'lim tizimining doimiy e'tiborida bo'lishini taqozo etadi.

Ko'rsatib o'tilgan vazifalarning amaliyoti quyidagilardan iborat:

birinchidan, kadrlarni tarbiyalash jarayonida umuminsoniy tamoyillar ustuvorligini e'tirof etgan holda xalqimiz milliy mentaliteti, sharqona jamoaviylik tamoyillari asosida milliy tarbiyaning ustuvorligi va shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlash;

ikkinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi, uni amalga oshirish mexanizmlarini tubdan o'zgartirish, muayyan maqsadga qaratilgan ma'naviy tarbiyaning uzluksizligi, tizimlilikini ta'minlash;

uchinchidan, ta'lim jarayonini yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirish jarayonini amalga oshirishda xalqaro hamda milliy tajribalarning uyg'unligini ta'minlashga erishish;

to'rtinchidan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, fan, texnika va texnologiyaning hozirgi zamon yutuqlari talablariga mos, xalqimizning boy ma'naviy-tarixiy merosini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish;

beshinchidan, global tahdidlarga faqat ilm-fan va ta'lim tizimi yordamida javob qaytarish mumkin. Boshqacha aytganda, jaholatni ma'rifat bilan yengish va unga qarshi kurashish mumkinligi tobora oydinlashib bormoq-

da. Buning uchun esa milliy g'oya asosida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, millatparvarlik, xalqparvarlik kabi bir qator tamoyil va omilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Ta'limning sifati jamiyatni rivojlantiruvchi omil va uni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ta'lim qashshoqlik, muhtojlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashishda amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Ta'lim dunyoqarashni shakllantirish, insonning turmush tarzini tanlashi va yaxshilanishini kengaytirishga yordam beradi, inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatining turli jihatlariga ta'sir ko'rsatish mexanizmiga aylanadi.

Umuman, muayyan bir mamlakat doirasidagi ta'lim jarayonini isloh etishning har qaysi modeli universal darajaga ko'tarilishga da'vo qilishi mumkin emas. O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh etish dasturini joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan barcha ishlar, birinchi navbatda, mamlakatimizning uzoq muddatli manfaatlari, hozirgi rivojlanish bosqichining mavjud holati va xususiyatlariga javob beradi.

Hozirgi kunga kelib, ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb msalalardan biri faqatgina o'qimishli insonni emas, balki voqealar rivojini oldindan ko'ra biladigan, ularni to'g'ri qabul qila olish mahoratiga ega, o'z-o'zini rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetgan shaxsni tarbiyalashdir.

Ushbu masalani yechish maqsadida zamonaviy jamiyatlarning ta'lim muassasalari oldiga qo'ygan asosiy vazifasi – o'quvchilarni jahondagi voqea va hodisalarni faol idrok eta olishi, Ona-tabiat oldidagi javobgarlik hissini tarbiyalash orqali "sayyoramiz fuqarosi"ni tayyorlash hisoblanadi. "Sayyoramiz fuqarosi"ni tarbiyalash yaxlit va murakkab jarayon. U faqat axloqiy ma'lumot berishdangina iborat emas. Chunki faqat insonning ongiga ta'sir etish orqaligina mukammal tarbiyalab bo'lmaydi. To'laqonli tarbiyani faqat fikr va harakat, e'tiqod va faoliyat, ong va xulq birligi asosidagina amalga oshirish mumkin. Ikkinchidan, hozirgi vaqtda Yer yuzidagi barcha mamlakatlar doimiy

ravishda bir-birlari bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, turli sohalarda faol hamkorlik qilishga tabiiy ravishda ehtiyoj sezmoqdalar. Hind mutafakkir pedagogi Rodji Ray Sinxning ta'biricha, "insoniyatning o'zaro hamkorlik markazi, insoniyatning yashab qolishga va o'zaro yuksalishga tomon yo'nalgan bo'lib, milliy darajadan jahon darajasiga ko'tarilib boradi". Uchinchidan va eng asosiysi, barcha sohalarda integratsiyalashuv jarayonlari bilan birga, yadro urushi, xalqaro terrorizm, ozon qatlaminig yemirilishi, "sayyorada insonning nazoratsiz joylashishi", "ijtimoiy adolatsizlik", ochlik, to'yib ovqatlanmaslik, qashshoqlik, ishsizlik, jinoyat va giyohvandlik, poraxo'rlik kabi o'z ko'lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shari-ga, insoniyatga daxldor muammolar, ya'ni global (umumbashariy) muammolar yechimini topish, umuminsoniy madaniyat, xususan, umuminsoniy axloq tamoyillariga amal qilishni, oshkoralikni, hamjihatlikni, inson aql-idrokini ezgu ishlarga yo'naltirishni, shu asosda inson bilan tabiat o'rtasidagi uyg'unlikka erishishni taqozo etadi. Ushbu vazifalarni hal etishda global ta'lim tarbiyaviy tizimi alohida o'rin tutadi.

Global ta'lim bu – bir vaqtning o'zida o'quvchilarning intellektual, hissiy, jismoniy, ahloqiy va ruhiy xususiyatlarini rivojlantirish yordamida ularni tez o'zgaruvchan, juda murakkab, ko'p millatli va o'zaro aloqador hayotga birmuncha sifatliroq tayyorlashga yo'naltirilgan yaxlit yondashuvdir.

Global ta'lim atamasi ilk bor XX asrning 60-yillarida AQShda paydo bo'lib, asoschilari R.Xenvi va M.Botkina hisoblanadi. Mazkur tarbiyaviy tizim asosida dunyoga ochko'zlik bilan qaramaslikni shakllantirish va kross-madaniy savodxonlik yotadi.

R.Xenvi fikricha: "global ta'lim mazmuni olamga o'zgacha qarashni vujudga kelishi, sayyoraning holatini bilish va anglash, kross-madaniy savodxonlik (o'zga xalqlar madaniyatini tushunish), dunyoviy jarayonlarning o'zgarishi va tanlash imkoniyatini anglash kabi omillar yig'indisidir".

Bundan tashqari R. Xenvi tomonidan ishlab chiqilgan global fikrlash mezonlari umumbashariy muammolar yechimini topish bilan uyg'unlashib ketgan:

1. Insonlarning dunyoni tushunish darajalari bir xil emas, ular bir xil voqea-hodisalarni turli (intellekt darajasiga, boshqa-boshqa madaniyatlar ta'sirida) natijali baholashadi.

2. Yer sayyorasi holatini – dunyoning rivojlanish tendensiyalarini demografik, iqtisodiy, atrof-muhit ahvoli, millatlararo va millat ichidagi muammolarni hisobga olgan holda anglab yetishga o'rganish.

3. Kross-madaniy savodxonlik (o'zga xalqlar madaniyatini tushunish) – g'oyalardagi, madaniy an'analardagi farqlarni, madaniyatlar o'rtasidagi umumiylikni hamda farqlarni anglab yetishga o'rganish.

4. Global dinamika – bilish, ya'ni jahon miqyosida ro'y berayotgan jarayonlardagi o'ziga xoslik va mexanizmlarni baholay olish, o'zgarishlarni chuqurroq anglab yetishga yordam beradigan nazariyalarni ajrata bilish.

5. Insonning muayyan muammo yechimini u yoki bu vaziyatda ongli ravishda, umumiy o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda topish.

Ko'rinib turibdiki, global firklash mezonlariga bunday yondashuv insoniyat olida turgan umumbashariy muammolarni samarali hal etish bilan bog'liq global ta'limning tub mohiyatini o'zada aks ettiradi.

Eng muhimi, global ta'lim ko'pchilik pedagog olimlar (masalan, R.Sinx, V.Slastenin, A. Kaldibekova, Sh. Sharipov) ning e'tiroficha, yangi jahon urushi xavfi, ozon muammosi, ekologiya kabi muammolar turli fanlarni o'qitish jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan muhokama qilinishi, ularning tanqidiy fikrlashlarini rivojlanishi, tahlil qila olish hamda to'g'ri xulosalar chiqara olishga o'rgatadi. Biznigcha ham, global ta'lim tarbiyaviy tizimini xuddi ana shu asosdan tushunish uning umumbashariy muammolarni hal qilishdagi o'rnini belgilab beradi.

Innovatsion ta'limga yo'naltirilgan maktablar XX asrda keng tarqala boshlagan. Jumladan — Erkin maktab ja-

moalari Germaniyada tashkil qilingan bo'lib, ular maktab internatlardan iborat bo'lgan va maktab hayoti bolaning erkin rivojlanishi asosida tashkil qilingan. O'qitish majburiy mehnat ta'limi va fanlarni erkin tanlash asosida qurilgan. Tarbiya sohasida baynalminalchilik tamoyiliga asoslangan fuqarolik javobgarligiga urg'u berilgan. Barcha o'quvchilarning beshdan bir qismi boshqa mamlakatlardan kelgan bolalardan iborat edi.

Mehnat maktablari birinchi marta Germaniya, Shveysariya, Avstriyada paydo bo'lgan. Bu maktablar asosan maktab o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini ta'minlagan, madaniyatning bir elementi sifatida mehnatga yo'naltirgan, maktab o'quvchisining o'z-o'zini boshqarishiga tayangan.

O. Dekroli tomonidan Belgiyada tashkil qilingan "Hayot orqali hayot uchun maktab" o'quvchilarni tabiat bilan yaqin aloqada tarbiyalashga, o'quvchining faoliyati va erkinligiga tayangan. O'quvchilarning "qiziqishlari markazi" maktabning asosiy g'oyasini tashkil etgan. Bu maktabda o'quvchini faol jarayonlarga kirishi rag'batlantirilgan. O'qitishning muhim komponenti o'quvchini tabiat, maktab, oila, jamiyat bilan o'rab olishdan iborat bo'lgan.

AQShdagi D.Dyuining "Bajarish maktabi" o'qitishni hayotga yaqinlashtirish, bolalarning tabiiy rivojlanishini rag'batlantirib, tajribalarini oshirishga harakat qilgan. O'qitish jarayonida bolaning tabiiy rivojlanib borishining asosiy undovchilari hisobga olingan: ijtimoiy (muloqotga intilish), konstruktiv (o'yin chog'ida harakatga intilish), tadqiqotchilik (bilish va tushunishga intilish), ekspressiv (o'zini namoyon etishga intilish). Ushbu yo'nalishdan keyinchalik boshqa maktablar ajralib chiqa boshladi:

Laborator maktab (D. Dyui);

O'yin maktabi (K. Pratt);

Bolalar maktabi (M.Naumberg);

Organik maktab (M.Djonson).

Yuqorida keltirilgan Amerika maktablari uchun o'qitishning yangi usullarini topishga intilish, bolalarning qiziqishlariga diqqat qilish, o'quvchining shaxsiy xusu-

siyatlarini o'rganish, ularning faolligini oshirish hamda ta'lim va tarbiyada amaliyot yo'nalishini rivojlantirish xos bo'lgan.

Germaniyadagi R. Shtaynning "Valdorf maktabi" bolaning har tomonlama intensiv rivojlanishiga yo'naltirilgan. O'qitishni tashkil qilish o'z-o'zini boshqarishga asoslagan: Kengash faoliyat yuritgan, o'qish va tarbiya jarayoniga ota-onalar jalb etilgan. O'zlashtirish jarayonini baholashda o'qituvchi o'quvchining individual natijalarini baholagan. Maktab faoliyatining bosh yo'nalishi ta'limning yangi emotsional, estetik shakllarini izlab topishdan iborat bo'lgan.

1970-yillarda Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan "Ochiq maktablar" o'qitishning individualligini tasdiqlagan bo'lib, u majburiy o'quv dasturlaridan voz kechgan. Bunday maktabda an'anaviy dars jadvali, qat'iy belgilangan vaqt, o'quv dasturlari bo'lmagan.

"Ochiq o'qitish" g'oyalari bir qancha tajribalarda amalga oshirilgan: "Maktab shahar kabi" (Berlin), "Maktab shahar kabi" (Sankt-Peterburg, 1990-yillar), Fransiyadagi "qorli" va "dengizli" sinflar, Buyuk Britaniya va AQShdagi "devorlarsiz maktab".

Shunday qilib, innovatsion ta'limni tashkil qilishga harakatlar uzoq yillar davomida rivojlanib keldi va bunday ta'limga ehtiyoj davrlar osha ortib boraverdi.

AQShda "yangiliklarni joriy etish tushunchasi"ni fan-texnika taraqqiyoti" tushunchasi bilan almashtirishadi va bunda ilmiy-texnik sohadagi og'irlik markazi jarayondan natijaga, ya'ni mazkur joriy etiladigan yangiliklar ta'siri ostida iqtisodiyot, ijtimoiy sohadagi natijalarga o'tadi.

Og'irlik markazi olimlar qiziqishini qondirishdan odamlarning ma'lum turdagi mahsulotga ehtiyojlarini qondirishga ko'chadi.

Jahon tajribasiga ko'ra, hozirgi kunga kelib, texnik yangiliklarning harakatlantiruvchilari o'z faoliyatida davlat yordamiga tayanuvchi kichik fantexnika va innovatsiya firmalari hisoblanadi. Masalan, AQShda texnologik yangiliklarni joriy etish 80-yillardan boshlab iqtisodiy jara-

yonlarni davlat tomonidan boshqarishning o'ziga xos xususiyatlaridan va nufuzli jihatlaridan biriga aylandi.

Innovatsiya muhitida kichik korxonalar faoliyatini boshqarishning sof bozor mexanizmlari samarasizligi sanoati rivojlangan davlatlar hukumatini kichik innovatsiya biznesini qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishga majbur qiladi. AQShda bunday dasturlar 1982-yilda "Kichik biznesda novatorlik tadqiqotlarini rivojlantirish to'g'risida"gi qonun qabul qilingandan so'ng keng qo'llanila boshladi.

Hukumat maqsadli subsidiyalar, dotatsiyalar tadqiqot stipendiyalarini fundamental fanlar va sanoat o'rtasida uzoq muddatli aloqalar o'rnatilganligi uchun ajratadi, universitet olimlari sanoat kompaniyalari uchun qiziqarli bo'lgan muammolar bilan shug'ullanadigan injenerlik markazlarini tuzadi. Milliy ilmiy jamg'arma bunday markazlar uchun infratuzilish bazasini o'taydi, ITTKIlar esa bunday tadqiqotlar buyurtmachilari tomonidan moliyalashtiriladi.

Ilmiy siyosatni amalga oshirishda AQSh hukumati ning roli quyidagilardan iborat bo'lmoqda:

- fundamental ilmiy g'oyalar zahirasini yaratadi va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun zarur mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi;

- ilmiy - texnik loyihalar moliyaviy hatarini kamaytiradi;

- akademik va amaliy fanlar o'zaro munosabatlarini tashkil etishda vositachilik funksiyasini amalga oshiradi;

- ilmiy sohada muvozanatsizlikni to'g'rilaydi, ilm-fan moddiy-texnik bazasi qoloqligini bartaraf etadi, ilmiy tadqiqotlarning axborot bazasini rivojlantiradi.

Ilm-fan sohasidagi siyosatdan tashqari, turli davlat mahkamalari doirasida ijtimoiy xarakterdagi tadbirlar ham amalga oshiriladi. Ular bevosita moliyaviy ko'makni ko'zda tutuvchi biznesning innovatsiya faolligiga qaratilgan bo'ladi. Amaliy tadqiqotlarni yuritish uchun Milliy ilmiy jamg'arma mablag'laridan foydalanilib, ular yangiliklarni joriy etish markazlarini shakllantirishga yordam beradi va davlat mablag'lari hisobidan innovatsiya firma-

lariga tavakkal kapitalini ajratadilar, ilmiy va innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari xorijiy mamlakatlarda turlicha bo'lib, jumladan, AQShda bu sohaga ajratilayotgan mablag'larning faqatgina 30 foizi byudjet ajratmalarini tashkil qiladi, Yevropa Ittifoqida esa bu sohaga byudjet ajratmalari 40 foizni tashkil qilib, xarajatlarning qolgan qismi kompaniya va xususiy biznes ajratmalari hisobiga to'g'ri keladi. O'zbekistonda esa vaziyat boshqacha bo'lib, ilmiy hamda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish manbaini 90 foizi budjet xarajatlari hisobiga to'g'ri keladi, qolgan 10 foizi esa kompaniyalar va xususiy biznes ajratmalari hisobidan bo'ladi.

Shunday qilib, rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarda davlatning innovatsiya faolligiga ta'siri quyidagi yo'nalishlarda o'z aksini topadi:

- birinchidan, davlat ilmiy-texnik g'oyalar taklifini va ishlanmalarni amalga oshirish uchun zarur infratuzilmasini shakllantirishning omili sifatida;

- ikkinchidan, davlat innovatsiya korxonalari o'z faoliyatini amalga oshiradigan iqtisodiy muhitni shakllantirishning muhim omili;

- uchinchidan, davlat mahkamalari xaridlari keyinchalik xo'jalik amaliyotida keng tarqaladigan va qo'llaniladigan ko'pgina yangiliklarni joriy etish borasida boshlang'ich talabni shakllantiruvchi omil sifatida qatnashadilar.



Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Global ta'lim konsepsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
2. O'quvchi-yoshlarda global fikrlashni shakllantirish tamoyillari va mezonlari nima va uning yutuq va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. O'quvchi-yoshlarda global fikrlashni shakllantirish modeli deganda nimani tushunasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
2. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: Sano-Standart, 2017.
3. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
4. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
5. Pedagogika. // M.To'xtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
6. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
7. Yuzlikayeva E., Ahmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh., Xushnazarova M. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: TDPU, 2012.
8. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И.В., Маркендуди М.А. Теория и практика общей педагогики. – Т.: ТГПУ, 2013.
9. Слостенин В.А., Исаев И.Ф. Педагогика. – М.: Академия, 2005.
10. Столяренко Л.Д. Общая педагогика. – Ростов-на-Дону, Феникс, 2003.
11. Селиванов В.С. Основы общей педагогики: теории и методики. – М.: Академия, 2000.
12. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.
13. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.
14. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.

Qo'shimcha adabiyotlar:

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF – 5313-son farmoni Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 5-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ – 4312-son qarori Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevralda "Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5188-son qarori Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

21. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni //, 2020-y.

22. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., II-12-son, 150-modda; 2013-y., 4I-son, 543-modda.

23. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariiga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi// Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11

24. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.

25. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. "O'zbekiston" 2017

26. Xasanboyev J, To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

27. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

28. Kagan, S. Cooperative learning. 2nd ed. San Clemente, CA: Kagan Publishing, 1994.

29. Hartley I. Strategies from Programmed Instructional Technology.-London, 2006, 179 p.

30. Heckhausen H. Motivation und Handeln. Berlin: Springer, 2011 – 244 p.

31. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. – Казан: КГУ, 1996.

32. Андреев В.И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. 2-е изд. Казан: Центр информационных технологий, 2003. – 608 с.

33. Деркач А.А. Акмеология. – М.: РАГС, 2004.

34. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. – М.: Академия, 2003.

35. Илин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.: Питер, 2009.

36. Педагогический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002.

37. Педагогика: Большая современная энциклопедия / Сост. Е.С.Рапацевич.– Минск: «Современное слово», 2005.

38. Чернявская А.П. Педагогическое мастерство: Учеб. пособие.- Ярославл, ЯГПУ, 1997.

39. Рогов Е.И. Личност учителя: теория и практика. –Ростов-на-Дону. –Феникс. –1996.

40. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал. – М.: Дело, 1994.

Internet saytlari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. [tdpu-INTRANET. Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)
6. Lexuz.online

MUNDARIJA

1-§. Uzlüksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya lashning asosiy yo'nalishlari	8
2-§. Ta'limiy konsepsiyalarning umumiy tavsifi, mazmuni va mohiyati.....	21
3-§. Uzlüksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish prinsiplari va ularni amaliyotga joriy etish yo'llari	34
4-§. Pedagogik tizimlarni loyihalashtirish	51
5-§. Hamkorlik pedagogikasining konseptual g'oyalari...	65
6-§. Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolar va ularni hal etish strategiyalari.....	73
7-§. Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning konseptual asoslari.....	81
8-§. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik-psixologik tayyorgarligini tarkib toptirish modellari	100
9-§. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash	113
10-§. Ta'lim paradigmalari	117
11-§. Ta'lim mazmunini belgilashga doir konsepsiyalar	126
12-§. Ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlari	131
13-§. O'quv materiallarni tizimlashtirishning didaktik parametrlari	133

14-§. Pedagogik fasilatsiya vositasida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazish	148
15-§. Tarbiya jarayonini tashkil etishga doir yondashuvlar	170
16-§. Tarbiya paradigmalari	183
17-§. Zamonaviy tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari ...	195
18-§. O'quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish	212
19-§. O'quvchi-yoshlarda qadriyatlar tizimini shakllantirish	242
20-§. O'quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirish	286
21-§. O'quvchi-yoshlarda axborot xavfsizligi kompetentligini shakllantirish	331
22-§. O'quvchi-yoshlarda global fikrlashni shakllantirish	356
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	369

СОДЕРЖАНИЕ

1-§. Основные направления модернизации образовательного процесса в системе непрерывного образования	8
2-§. Общая характеристика, содержание и сущность образовательных концепции	21
3-§. Принципы системы непрерывного образования и пути их реализации	34
4-§. Проектирование педагогических систем	51
5-§. Концептуальные идеи кооперативной педагогики	65
6-§. Профессиональные проблемы, возникающие в педагогической деятельности, и стратегии их решения	73
7-§. Концептуальные основы организации образовательного процесса в системе высшего образования	81
8-§. Модели формирования педагогико-психологической подготовки будущих учителей	100
9-§. Подготовка будущих педагогов к профессиональной деятельности на основе компетентностного подхода	113
10-§. Образовательные парадигмы	117
11-§. Концепции определения содержания образования	126

12-§. Принципы и критерии определения содержания образования	131
13-§. Дидактические параметры систематизации учебных материалов	133
14-§. Организация и проведение самостоятельной работы студентов посредством педагогической фасилитации	148
15-§. Подходы к организации учебного процесса	170
16-§. Воспитательный парадигмы	183
17-§. Законы и принципы современного образования ..	195
18-§. Формирование идеологического иммунитета у студентов	212
19-§. Формирование системы ценностей у студентов ..	242
20-§. Формирование культуры толерантности у учащихся	286
21-§. Формирование компетенции по информационной безопасности у студентов	331
22-§. Формирование глобального мышления у студентов	356
Список использованной литературы	369

CONTENTS

1-§. The main directions of modernization of the educational process in the system of continuous education	8
2-§. General characteristics, content and essence of educational concepts	21
3-§. Principles of the system of continuous education and ways of their implementation	34
4-§. Designing pedagogical systems	51
5-§. Conceptual ideas of cooperative pedagogy	65
6-§. Professional problems arising in pedagogical activity and strategies for their solution	73
7-§. Conceptual foundations of the organization of the educational process in the stem of higher education	81
8-§. Models of the formation of pedagogical and psychological training of future teachers	100
9-§. Preparation of future teachers for professional activities based on a competency-based approach	113
10-§. Educational paradigms	117
11-§. Concepts for defining the content of education	126
12-§. Principles and criteria for determining the content of education	131
13-§. Didactic parameters of systematization of educational materials	133

14-§. Organization and conduct of independent work of students through pedagogical facilitation	148
15-§. Approaches to the organization of the educational process	170
16-§. Upbringinal paradigms	183
17-§. Laws and principles of modern education	195
18-§. Formation of ideological immunity among students ...	212
19-§. Formation of a value system among students	242
20-§. Formation of a culture of tolerance among students ..	286
21-§. Formation of information security competence among students	331
22-§. Formation of global thinking among students	356
List of used literature	369

ASOSIY TUSHUNCHALAR LUG'ATI

O'zbek

- A**
- Akmeologiya
 - Akmeologik yondashuv
 - Aqliy faoliyat
 - Axborot
 - Adabiyot
- B**
- Baho
 - Bilish
 - Bitiruvchi
- D**
- Didaktik ta'minot
 - Do'stlik
- E**
- Elektron jurnal
 - Ehtiyoj
- F**
- Faoliyat
 - Farq qilmoq
 - Fan
 - Faraz
 - Fikrlash
- H**
- Harakat
 - Hamkorlik
- I**
- Ijod
 - Ijtimoiy
 - Ijodkorlik
 - Ilmiy-metodik
 - Intellektuellik
 - Ijod maktabi

Русский

English

Акмеология	Acmeology
Акмеологический подход	Acmeological approach
Умственная деятельность	Mental activity
Информация	Information
Литература	Literature
Оценка	Appraise
Познавательный	Cognitive
Выпускной	High school graduation
Дидактическая поддержка	Didactic support
Дружеский	Amicable
Электронный журнал	Electronic journal
Потребность	Demand
Деятельность	Activity
Отличаться	Differ
Научное образование	Science education
Гипотеза	Suppose
Мышление	Thinking
Действие	Action
Сотрудничать	Collaborate
творчество	initiative
Социал	Social
Творческий подход	Creativity
Научно-методический	Scientific and methodical
Интеллектуальность	Intelligence
Школа творчества	School of creativity








		Ixtisoslashtirilgan maktab
		Imtihon
		Intizom
		Interfaol
		Ijodiy qobiliyat
J		Jamiyat
		Jarayon
K		Kutubxona
		Kognitiv ehtiyojlar
		Kasbiy mahorat
		Kasb
L		Loyiha
M		Masofaviy ta'lim
		Maqsad
		Mezon
		Model
		Maktab-internat
		Muhokama
		Muhandislik
		Matematika
		Mukofot
		Musiqa
		Matematik tahlil
		Maktab
N		Nofaol
		Natija
		Nomzod

Русский

English

Специализированная школа	Specialized school
Экзамен	Exam
Дисциплина	Discipline
Интерактивный	Interactive
Творческие способности	Creative skills
Общество	Association
Процесс	Process
Библиотека	Library
Познавательные потребности	Cognitive needs
Профессиональные навыки	Professional skills
Профессия	Profession
Проект	Project
Дистанционное обучение	Distance learning
Цель	Purpose
Критерии	Criteria
Модель	Model
Школа-интернат	Boarding school
Дискуссия	Discussion
Инженерное дело	Engineering
Математика	Mathematics
Награда	Reward
Музыка	Music
Математический анализ	Mathematical analysis
Школа	School
Пассив	Passive
Результат	Effect
Кандидат	Candidate

O'zbek

P		Psixologiya
		Platforma
		Pedagogik jamoa
		Pedagogika
Q		Qobiliyat
R		Resurs
S		Salohiyat
		Samaradorlik
		STEAM-ta'lim
T		Ta'lim
		Ta'lim-tarbiya
		Tajriba
		Tasviriy san'at
		Tasviriy mahorat
		Tanaffuslar
		Tasvirlamoq
		Tizim
		Texnologiya
V		Videomaterial
		Vosita
		Vazifalar
O'		O'qituvchi
		O'zaro hamkorlik

Русский

English

Психология	Psychology
Платформа	Platform
Общественные педагоги	Community educators
Педагогика	Pedagogical
Способность	Ability
Ресурс	Resource
Потенциал	Potential
Эффективность	Efficiency
STEAM образование	STEAM education
Образование	Education
Воспитание	Educational
Эксперимент	Experiment
Изобразительное искусство	Art
Визуальное мастерство	Visual mastery
Перерывы	Boarding school
Описание	Characterize
Система	System
Технология	Technology
Видео материал	Video material
Инструменты	Purpose
Задачи	Tasks
Учитель	Teacher
Совместная работа	Collaboration

B.X.XODJAYEV
Z.T.SALIYEVA
N.B.MATKARIMOVA

PEDAGOGIKANING PRAGMATIK ASPEKTLARI

Muharrir **Ulug'bek Xalilov**
Texnik muharrir **Ahmad To'ra**
Dizayner **Muhammadxon Yusupov**
Musahhih **Gulnoza Ergasheva**

«IJOD NASHR»
Nashriyot litsenziyasi AA № 0050.
Toshkent sh. Yunusobod tumani,
Sohibkor ko'chasi, 1-uy
Berilgan vaqti 15.06.2020

Bosishga 2023-yil 2-mayda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 ¹/₃₂. Ofset bosma.
"Segoe" garniturası.
Nashriyot bosma tabog'i 11,4
Adadi 100 nusxa.



Bog'lanish uchun:
+99897 765-56-86